

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

9/s (3) 2023

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/9 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

| | |
|--|-------|
| <i>Шарипов Шоҳруз Фахриддин ўғли</i> ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ХУСУСИЙЛАШТИРИШ СИЁСАТИ ТАРИХИ..... | 9-14 |
| <i>Хо'jamuratov Umarjon Rustamovich</i> O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANISH BOSQICHLARI..... | 15-22 |
| <i>Raxmanov Zafar Odilovich, Aloxunov Alisher Axmadjonovich</i> FARG'ONA VODIYSI YODGORLIKLARIDA ANIQLANGAN TAMG'ALI SOPOL IDISHLAR | 23-26 |
| <i>Mirhakimova Feruza Xoldorjon qizi</i> МАНМУДХО'JA ВЕНБУДИЙ УЙ МУЗЕYI ТАРИХИ | 27-31 |
| <i>Жабборова Ойдина Ихтиёржон қизи</i> XX АСРНИНГ 20-30 ЙИЛЛАРИДА МАҲАЛЛИЙ ТАРАҚҚИЙПАРВАРЛАР ТОМОНИДАН ИҚТИДОРЛИ ЁШЛАРНИ ГЕРМАНИЯГА ЎҚИШГА ЮБОРИЛИШНИНГ ТАШКИЛ ҚИЛИНИШИ | 32-35 |

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

| | |
|--|---------|
| <i>Эшов Мансур Пулатович, Насырходжаева Дилафруз Сабитхановна</i> ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ КОНЦЕПЦИЯСИ ВА УНИНГ ШАКЛЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ..... | 36-43 |
| <i>Шадманов Эркин Шеркулович</i> МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ ВЛИЯНИЯ ДЕТЕРМИНАНТ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ | 44-52 |
| <i>Асатуллаев Хуршид Сунатуллаевич</i> ДАВЛАТ ФИСКАЛ (БЮДЖЕТ-СОЛИҚ) СИЁСАТИНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ВА БАНДЛИККА ТАЪСИРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ | 53-60 |
| <i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИНИ БЮДЖЕТДАН МОЛИЯЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИ ТАҲЛИЛИНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ ЖИҲАТЛАРИ..... | 61-68 |
| <i>Razzaqova Durdon Adashboy qizi</i> IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BUXGALTERIYA DASTURINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI | 69-76 |
| <i>Muminova Elnorahon Abdulkarimovna, Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li</i> YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING O'RNI | 77-86 |
| <i>Эргашев Отамурод Тоштемурович</i> КИЧИК БИЗНЕСНИ МОЛИЯ-КРЕДИТ МЕХАНИЗМЛАРИ ОРҚАЛИ ҚўЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ Йўналишлари..... | 87-93 |
| <i>Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna, Qobulov Ozodbek O'ktamboy og'li</i> MINTAQALARDA GLOBAL OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA TADQIQOTNING O'RNI..... | 94-97 |
| <i>Isaqova Zebo Murodovna</i> DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHA BOSHQARUVI STANDARTLARI INTEGRATSIYASI..... | 98-104 |
| <i>Улашов Алибой Рашид ўғли</i> ҚОЗОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА МИНТАҚАВИЙ ТАФОВУТЛАРНИНГ ЎРНИ..... | 105-113 |

| | |
|---|----------|
| <i>Матюсупов Бунёд</i> АҚЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ТУРИЗМ ДЕСТИНАЦИЯЛАРИ ВА ШАҲАРЛАРДА САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ..... | 1114-123 |
| <i>Мухитдинова Камола Алишеровна</i> ИҚТИСОДИЁТДА ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛИЯТИ ВА УНИ БЕЛГИЛОВЧИ ОМИЛЛАР | 124-131 |
| <i>Ҳакимов Ҳакимжон</i> ДАВЛАТ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАРИ БЎЙИЧА ДАРОМАДЛИЛИК ЭГРИ ЧИЗИҒИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ..... | 132-141 |
| <i>Achilova Ramziya A'zamovna</i> ISHCHI KUCHI VA UNING BANDLIGI | 142-149 |
| <i>Nasriddinova Dildora Shukrullayevna</i> OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA MODELLARINI YARATISH | 150-157 |
| 09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ | |
| <i>Хайридинов Аббосхон Анварович</i> YOSHLAR ORASIDA MAFKURAVIY TAHDIDLARNI OLDINI OLISHDA HUQUQ TARTIBOT ORGANLARINING VAZIFALARI | 158-162 |
| <i>Jurayev Alisher Tulqinboyevich</i> TA'LIMGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING IJTIMOIIY AHAMIYATI..... | 163-170 |
| <i>Бекбаев Рауф Рустамович</i> ТРАДИЦИОНАЛИЗМ В ФИЛОСОФИИ КОНФУЦИАНСТВА..... | 171-176 |
| <i>Qayumova Aziza Toshmuradovna</i> IBN XALDUNNING SOSIOLOGIK QARASHLARINI O'RGANISHNING METODOLOGIK JIHATLARI | 177-183 |
| <i>Shokirov Mubin Rustamovich</i> MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHDA TARIXIY TAFAKKUR MADANIYATINING O'RNI VA AHAMIYATI | 184-188 |
| <i>Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна</i> МАҚОМ САНЪАТИ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ..... | 189-193 |
| <i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> “ҲУШ ДАР ДАМ” МОҲИЯТИ: МЕТАФИЗИК ТАҲЛИЛ | 194-199 |
| <i>O'razov Bobir Baxtiyorovich</i> IJTIMOIIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI | 200-204 |
| 10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ | |
| <i>Xolmatova Malika Ibadullayevna</i> AD'JEKTIVLI IDIOMALAR: QO'LLANILISHI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY AHAMIYATI TAHLILI..... | 205-209 |

| | |
|--|---------|
| <i>Olga Filippova</i> CLUSTER IMPLEMENTATION OF FUNCTIONS OF REDUNDANCY MEANS | 210-222 |
| <i>Эргашева Асаль Эркиновна</i> СПЕЦИФИКА РИТМИЧЕСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЗЫ МАРИНЫ ЦВЕТАЕВОЙ..... | 223-226 |
| <i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> TILSHUNOSLIKDA “YAQIN – UZOQ” OPPOZITSIYASINING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI MASALASI (ingliz va o‘zbek tillari misolida)..... | 227-231 |
| <i>Rustamova Dilrabo</i> ATAMALAR LUG‘ATIDA LUG‘AT MAQOLASINING TUZILISHI | 232-241 |
| <i>Кдырбаева Бахытгуль Кеунимжаевна</i> ПАРНЫЕ СЛОВА В КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКЕ: ОБЗОР ОСНОВНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ..... | 242-248 |
| <i>Fayziyeva Aziza Anvarovna, Sadirova Sitora Sobirovna</i> TARJIMA MUAMMOLARINI YECHISH STRATEGIYALARI..... | 249-253 |
| <i>Alaudinova Dilnoza Rustam qizi</i> FRAZEOLOGIK (TURG‘UN) BIRIKMALAR VA ULARNI TARJIMA QILISH USULLARI | 254-260 |
| <i>Erdonova Muxlisa Hoshim qizi</i> ORNITONIM KOMPONENTLI MAQOLLARNING LINGVISTIK TADQIQI..... | 261-265 |
| 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР | |
| <i>Zaripov Mirzali Miraliyevich</i> KORRUPTSIYA MUAMMOLARINING SABABLARI VA YECHIMLARI | 266-270 |
| 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ | |
| <i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i> BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH | 271-276 |
| <i>Yarkinay Nurumbekova Anarmatovna</i> INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA MURABBIYLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK ZARURAT | 277-284 |
| <i>Sadullayev Dilmurod Baxtiyor o‘g‘li</i> INNOVATSIYA BOSHQARUV ASOSIDA BOSHQARUV XODRLARINI TAYYORLASH SIFATINI OSHIRISH OMILLARI | 285-290 |
| <i>Xudayqulova Zarifa Ummatqulovna</i> BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA MA‘NAVIY-MA‘RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASH IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 291-301 |
| <i>Бекчанова Солиха Давлатназаровна</i> ТИББИЁТ ОЛИЙ ТАЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ДИВЕРГЕНТ ТАФАККУРНИ РИВИЖОЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ИМКОНИЯТЛАРИ | 302-307 |
| <i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i> MAGISTRATURA TALABALARING TASHKILIY-BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELINI | 308-314 |
| <i>Allanazarov Qo‘ldosh Olimovich</i> TALABALARING TANLAGAN KASBIY FAOLIYATI VA IJODIY QOBILIYATLARINI INTERFAOL METODLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH | 315-319 |

| | |
|---|---------|
| <i>Umarov Nurbek Irkinovich</i> KVEST TEXNOLOGIYASINI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH ASOSLARI | 320-324 |
| <i>Буранова Мадина Уктамовна</i> ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРАДИЦИОННОГО И НЕТРАДИЦИОННОГО ВИДОВ ЧТЕНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ | 325-330 |
| <i>Зияева Хушнудабону Илхомжон кизи</i> ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ РУССКОГО ЯЗЫКА | 331-339 |
| <i>Toshpulatova Dilraboixon Sobirjonovna</i> BIOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH | 340-346 |
| <i>Madaminova Nargiza Zuxridinovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOIY FANLARNING AHAMIYATI..... | 347-351 |
| <i>Shomurzayeva Nasiba Xoshimovna</i> PIYODA YURISH SAYOHATLARNI TALABALAR O'RTASIDA OMMALASHTIRISH | 352-356 |
| <i>Xoliyorov Murod Shavkatovich</i> O'QUVCHI YOSHLARDA IJTIMOIY MOTIVLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI | 357-362 |
| <i>Хамроқулова Дилнавоз</i> БОЛАЛАРДА ТАБИАТГА ДОИР ТАСАВВУР ВА ТУШУНЧАЛАРНИ ШАКЛЛАНИШИ | 363-366 |
| <i>Tursunova Shaxzoda Baxromovna</i> TEXNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING IJODKORLIK QOBILIYATI VA BOSHQARUV MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR..... | 367-373 |
| <i>Usmonov Abdurashid Norbo'tayevich</i> O'QUVCHILARDA DEVIANT XULQ SHAKLLARINING NAMOYON BO'LISHI VA TAHLILI | 374-380 |
| <i>Ўтанов Ўткир</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЎҚИТУВЧИ МАЪНАВИЙ ҚИЁФАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ | 381-387 |
| <i>Kuchkarov Bahodir Tashmurodovich</i> BO'LAJAK HARBIY OFITSERLARDA UMUMMADANIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI | 388-392 |

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ

Шарипов Шохруз Фахриддин ўғли
Фанлар академияси Тарих институти
кичик илмий ходими, Тошкент, Ўзбекистон
Shohruz.sharipov.94@mail.ru

ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ХУСУСИЙЛАШТИРИШ СИЁСАТИ ТАРИХИ

Аннотация. Ушбу мақолада жаҳон мамлакатларида бозор иқтисодиётига ўтиш йўлида хусусийлаштириш сиёсати назарияси ва унинг тарихи ёритилган, шунингдек хусусийлаштириш сиёсатининг вужудга келиш сабаблари, унинг бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида тутган ўрни тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: хусусийлаштириш, миллийлаштириш, бозор иқтисодиёти, шахсий мулк, Европа Иттифоқи, АҚШ, Германия Федератив Республикаси.

Sharipov Shahruf Fakhriddin ugli
junior researcher at the Institute of History of
the Academy of Sciences, Tashkent, Uzbekistan

HISTORY OF PRIVATIZATION POLICY IN FOREIGN COUNTRIES.

Abstract. This article highlights the theory of privatization policy and its history on the path to the transition to a market economy in countries around the world, and also examines the reasons for the emergence of privatization policy and its role in the transition to a market economy.

Key words: privatization, nationalization, market economy, private property, European Union, USA, Federal Republic of Germany.

Шарипов Шахруз Фахриддин угли
младшим научным сотрудником Института
истории Академии наук, Ташкент, Узбекистан

ИСТОРИЯ ПРИВАТИЗАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Аннотация. В данной статье освещается теория политики приватизации и ее история на пути перехода к рыночной экономике в странах мира, также исследованы причины возникновения политики приватизации и ее роль в переходе к рыночной экономике.

Ключевые слова: Приватизация, национализация, рыночная экономика, частная собственность, Евросоюз, США, ФРГ.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N01>

Кириш. Хусусийлаштириш иқтисодий тушунча бўлиб, мулкка эгаллик ҳуқуқини давлатдан фирмалар ва алоҳида шахсларга берилишини, хусусий секторга давлат хизматлари кўрсатилишини чеклашни ёки хусусий ташаббускорлик учун ғоят кенг имкониятлар бериш мақсадларида давлатнинг фаолияти соҳасини торайтиришни

билдирувчи тушунчадир[1;72]. Бу тушунча кўпинча давлат тасарруфидан чиқариш тушунчаси билан биргаликда ишлатилади. Мулкни давлат тасарруфидан чиқариш деганда эса - давлат мулки объектларини бўлакларга бўлиш ва улар асосида шахсий, хусусий, гуруҳ, худудий, хорижий ва бошқа мулк шакллари шакллантириш. Бошқача қилиб айтганда, давлат тасарруфидан чиқариш бу давлат мулкни жамоат ва хусусий мулкка айланиши, хусусийлаштириш деганда эса давлат мулкни хусусий мулкка ўтишидир.

Собиқ совет давлатида жамият (аслида давлат) мулки мавжуд бўлиб, хусусий мулк шакли батамом тугатилган эди[2;65]. Бу эса давлат мулки- ҳеч кимнинг мулки деган дунёқарашни шакллантиришга олиб келди. Аммо, СССР қулагач вазият тубдан ўзгарди[2;64]. Ҳар бир давлат хусусийлаштириш жараёни қандай бўлишини ўзи танлади[3;750].

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Ўзбекистон Миллий архиви фондларида ҳам мавзу доирасида кўплаб ҳужжатлар сақланади. Айниқса, М-30 (Давлат мулк қўмитаси) жамғармасида хусусийлаштиришга оид бўлган ҳужжатлар жамланган. Ушбу жамғармада 1991 йилдан то 1994 йилгача бўлган давр оралиғидаги ишлар мавжуд бўлиб, уларнинг умумий сони 1705 тани ташкил этади. Ушбу жамғармада Ўзбекистон Республикасида хусусийлаштирилган давлат объектлари ва уларнинг рўйхати, корхона ва ташкилотлар ёки жамоа томонидан ўзлари фаолият олиб бораётган корхонани хусусийлаштиришга кўмаклашиш каби хатлар ва бошқа мазмундаги ҳужжатлар мавжуд.

Ўзбекистонда хусусийлаштириш жараёнига бағишланган энг йирик асарлардан бири иқтисодий фанлари доктори В.А.Чжен ўзининг "Хусусийлаштириш асослари" номли китобида Ўзбекистон Республикасида хусусийлаштириш жараёнини қандай ташкил этилишини ва унинг иқтисодий асосларини таҳлил этади.

Тадқиқот методологияси. Мақола умум қабул қилинган тарихий методлар – тарихийлик, илмийлик, қиёсий-мантиқий таҳлил, кетмакетлик, холислик тамойиллари асосида ёритилган.

Таҳлил ва натижалар. XX асрнинг 90- йилларида Россия Федерациясида давлат мулкни хусусийлаштиришда ваучер орқали (Хусусийлаштириш чеки (Ваучер) - бу давлат ва коммунал мулкнинг хусусийлаштирилган объектларини тўлаш учун мўлжалланган махсус мақсадли давлат қимматли қоғози ҳисобланади) аҳолига бепул тарқатиш орқали хусусийлаштириш сиёсати қўлланилди[3;150]. Ваучер орқали хусусийлаштириш Россияда 1992-1994 йилларда амалга оширилади. Ундан олдин РСФСР Олий Кенгашининг 1991 йил ёзида қабул қилинган, давлат корхоналарини сотиб олиш ва уларни акциядорлик жамиятларига айлантиришни назарда тутган қонун ҳужжатлари қабул қилинган эди.. Россияда 1992 йил январ ойидан бошлаб давлат ва коммунал мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусий мулкка ўтказиш воситаси сифатида қўлланилган[4;140]. Кенг маънода "воучер" (инглиз тилидан таржимада - "квитанция, кафолат") - бу товар ва хизматларнинг қабул қилинишини тасдиқловчи ҳужжатдир (масалан, кредит бериш, қабул қилиш. пул (квитанция) ва бошқалар). Шу маънода, 1992 йилгача "ваучер" сўзи асосан профессионал муҳитда ишлатилган ва Россия аҳолисининг аксарияти учун бу тушунча деярли номаълум эди. 1992-1993 йилларда хусусийлаштириш даврида Россияда бу атама анча оммалашди. Бундан кўзланган асосий мақсад шу эдики, ваучер тарқатиш билан мулк эгаларининг кенг

қатламини шакллантириш эди. Аммо, ваучер тарқатиш тизими ўзини оқламади ва ҳаттоки ўта -йирик бойлар ва камбағаллар тизимини вужудга келтирди. Шунинг учун ҳам 2000 йиллардан бошлаб Россияда хусусийлаштиришга эмас, балки давлат улушининг иқтисодиётга кўпайтиришга ҳаракат қилинди. Бугунги кун Россия иқтисодиётида давлат сектори ҳам муҳим рол ўйнайди. Йирик корхоналарнинг умумий даромадларидаги давлат корхоналари даромадларининг улуши сўнгги йилларда барқарор ўсиб бормоқда. Россия Федерал Монополияга қарши Хизматининг (ФАС) яқинда эълон қилган ҳисоботида кўра, давлатнинг Россия иқтисодиётидаги иштироки тобора кўпайиб бормоқда. Шундай қилиб, Россия Федерал Антимонопол хизматининг маълумотларига кўра давлатнинг иқтисодиётдаги улуши 1998 йилда ЯИМнинг тахминан 25 фоизини, 2008 йилда 40-45 фоизини, 2013 йилга келиб у 50 фоиздан ортиғини, 2017-2018 йилларда 60-70 фоизини ташкил қилган ва бугунги кунда 66 фоиз атрофини ташкил этмоқда. Шу билан бирга, ФАС ҳисоботида қайд этилишича, 2012 йилда хусусийлаштириладиган йирик компаниялар рўйхати кенгайтирилган ва давлат улардаги улушини сезиларли даражада камайтирмоқчи ёки ҳатто бутунлай сотиб юбормоқчи эди. Бироқ, режалар ўзгарди ва энди давлат корпоратив назоратдан воз кечмоқчи эмас.

Аммо, биз Қозоғистонда бошқача ҳолатни кўришимиз мумкин. Қозоғистон иқтисодиёти, шунингдек, йирик давлат корхоналари, саноат ва молиявий конгломератларнинг, айниқса, газ, транспорт, электр энергияси, почта ва уяли алоқа хизматларининг устунлиги билан тавсифланади. 7000 га яқин давлат корхонаси рўйхатга олинган бўлиб, улардан мингдан ортиғи муҳим ҳисобланади, чунки уларда 250 дан ортиқ киши ишлайди. 2017 йил октябр ҳолатига кўра, Қозоғистонда фаолият юритаётган барча компанияларнинг қарийб 10,3 фоизи давлатга тегишли ёки давлат иштирокида. Сўнгги йилларда йирик компанияларда давлатнинг улуши камайтганидан кўра сезиларли даражада ошди. 2017 йил октябр ойида Қозоғистонда фаолият юритаётган йирик корхоналарнинг қарийб 46,9 фоизи тўлиқ давлатга тегишли ёки давлатнинг қисман иштирокида. Бу сўнгги ўн йил ичида давлат секторининг йирик бизнесдаги улушининг энг юқори кўрсаткичидир. Ўрта корхоналарда давлат корхоналарининг улуши йирик компанияларга нисбатан сезиларли даражада юқори (56,5%). Шунга қарамай, давлатнинг ўрта корхоналарга нисбатан улуши камайиб бормоқда. Қозоғистон 2020 йилга бориб иқтисодиётдаги давлат улушини 15 фоизга қисқартиришни мақсад қилиб қўйган эди, бу эса мустақилликка эришгандан кейинги энг катта мақсадли хусусийлаштириш дастуридир. Сўнгги йиллардаги хусусийлаштириш дастури ниҳоятда улуғвор кўринади, чунки у 800 га яқин компанияни, жумладан, "энг кучли 65" ва баъзи йирик корхоналарни хусусийлаштиришни таклиф қилди. Лекин бу режа хусусийлаштириш рентабеллик, компания фаолияти ва самарадорлигини сезиларли даражада оширишга олиб келиши мумкинлиги ҳақидаги ғояни сезиларли даражада қўллаб-қувватлаган бўлса-да, унга амалда эришиб бўлмади. 2020 йил якунлари бўйича давлатнинг иқтисодиётдаги иштироки кўрсаткичи 50 фоиздан ортади.

Жаҳон тажрибасидан аниқки, хусусийлаштиришнинг бир қанча услублари мавжуддир. Аммо, тажрибада доим ҳам бир услуб қўлланилавермайди, амалётда уларнинг кўпчилиги бир вақтнинг ўзида қўлланиш ҳоллатлари ҳам кузатилади. Бу эса

вазиятга ва аҳолининг молиявий аҳволига бўғлиқ бўлади. Хусусийлаштириш жараёнида аҳолининг тўлиқ ҳамма қатламини ҳам қамраб олиб бўлмайди. Буни албатта иложи йўқ, чунки, ҳамма ҳам ишлаб чиқаришда бошқарувчилик қобилитини кўрсатиб, компанияларни сотиб ола олмайди[7;134].

Хусусийлаштириш жараёни жуда мураккаб жараёнлардан бири бўлиб, бу жараёнда кичкина ҳатто ҳам катта иқтисодий талафотларни олиб келиши мумкин. Шунинг учун ҳам халқаро тажрибани ўрганиш мақсад мувофиқдир. Халқаро тажрибани ўрганиш орқали олинган ижобий хулоасалар ва йўл қўйилган хатолардан олинган хулоасалар бу жараёни янада тўлиқроқ тасаввур қилишга ёрдам беради.

Кўпчилик тадқиқотчилар фикрича, давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш жараёни ҳақиқий иқтисодий тушунча сифатида Буюк Британияда бошланган. Бу асосан ушбу давлатда иқтисодиётда давлатнинг улушининг камайиши, бозор иқтисодиёти томон ҳаракатланиш шароитида хусусий мулк шакллларини янада қўллаб-қувватлаш нисбатан бошқа давлатларга олдинроқ бошланганида эди. Негаки, бозор иқтисодиётига хусусий мулкчилик шакллари сиз ўтишининг иложи йўқ эди. Кўплаб мамлакатлар кейинчалик ўзларининг хусусийлаштириш жараёнига айнан Буюк Британия тажрибасини асос қилиб олишган. Буюк Британия тажрибаси жаҳонда "Мурасасиз хусусийлаштириш" деб ном чиқарган бўлиб, унда хусусий мулк устунлигини таъминлаш асосий мақсад ҳисобланади. Ушбу иқтисодий ғояга кўра, хусусийлаштирилган мулк эгаси ўз мулкидан тўлақонли фойдалана олиши ва ундан максимал даражада фойда олиши зарур. Давлат хусусий мулкни қўллаб-қувватлаш орқали эркин рақобат муҳитини яратади. Бу эса ўз навбатида аҳоли даромадларини ўсишига олиб келиб, ижтимоий ва иқтисодий муаммоларини камаяшига олиб келади. Ғоянинг асосий тамойили шундан иборатдир[14;82].

Ушбу тамойилларга ҳатто бугунги кунда ҳам амал қилиниб келинмоқда. Масалан, Халқаро валюта жамғармаси ва Жаҳон банки давлатларнинг ривожланишида хусусий мулкнинг устунлиги ва давлатнинг иқтисодиётдаги ролини пасайиши зарурлигини тавсия беришади. Аммо, Британия моделини ҳамма давлатларда бир хил қўлланишни иложи йўқ. Негаки, ҳар бир давлатнинг иқтисодиёти турлича ва унинг ривожланиш йўли ҳам ўзига ярашади. Шунинг учун ҳам хусусийлаштиришда ҳар бир давлатнинг ўз йўли мавжуддир.

"Британия парадигмаси" доирасида хусусийлаштириш асосан Ғарбий Европа мамлакатларида олиб борилди ва хусусийлаштириш натижаларига кўра натижасиз бўлиб чиқди. Чунки, ҳар бир давлатда хусусийлаштириш сиёсати, шароити ва иқтисоди ҳар хил эди. Натижада, хусусий мулкнинг устунлиги ва унинг самарадорлигига қатъий ишонган неолибералларнинг мафкураси ("Британия парадигмаси"нинг тарафдорлари) Европа мамлакатларида хусусийлаштириш натижаларига кўра рад этилди. Бу ғояга нисбатан қарама қарши бўлган "бозор фундаментализми" номини олган мафкура пайдо бўлдики, у асосан бозор иқтисодиёти имкониятларини қайта баҳолаш ва давлатнинг тартибга солиш ролини инкор этишни асосий ғоя қилиб олди.

Кейинчалик Ғарбий Европа ва АҚШда ҳам XX асрнинг иккинчи ярмида ҳам хусусийлаштириш жараёни бошланди. Бу ерда табиий савол туғилади, нега айнан Европа давлатларида ва АҚШда хусусийлаштириш жараёни XX асрнинг иккинчи ярмидан бошланди? Бунинг асосий сабабларидан бири шу эдики, XIX асрда саноат

ривожланишининг дастлабки босқичида кўп капитал талаб қилувчи тармоқларда капитал оқимини ва инфратузилма ривожланишини таъминлашга фақат давлат қодир эди. Аммо, иқтисодий ривожланишнинг тегишли даражасига эришилганда, давлат "ўз аҳамиятини йўқотади" ва хусусийлаштириш орқали хусусий капиталга ўз ўрнини бўшатиб бера бошлади. Бу эса ўз навбатида иқтисодиётни янада ўсишига олиб келди. Масалан, аҳолининг жон бошига ўртача даромади хусусийлаштириш амалга оширилган ва иқтисодиёти янада ўсган давлатларда юқори даражага чиқди. Аммо, кам ривожланган давлатларда бу кўрсаткич пастлигича қолди. Ривожланган мамлакатларда (Германия, Япония, Австралия, Франция, Буюк Британия) аҳолининг жон бошига ўртача даромади кам ривожланган мамлакатларга (Покистон, Колумбия, Ҳиндистон, Уругвай, Иордания) нисбатан бир неча барабар юқорилигининг асосий сабаблардан бири ҳам айнан бу давлатларда хусусий мулкнинг давлат иқтисодиётидаги улуши кўплиги ва давлатнинг иқтисодиётга ўрни пастлигидир.

Хулоса ва таклифлар. Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, мамлакатнинг мулкни тақсимлаш соҳасидаги имкониятлари кўпинча иқтисодий институтларнинг нисбати билангина эмас, балки жамиятдаги сиёсий кучларнинг уйғунлиги билан ҳам белгиланади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Сулайменов М.К. Становление и развитие гражданского законодательства Республики Казахстан. -Алматы. 2006.-С.72.
2. Black, Bernard, Reinier Kraakman, and Anna Tarassova. "Russian privatization and corporate governance: What went wrong." *Stan. L. Rev.* 52 (1999)
3. Приватизационный чек // Большой юридический словарь / Под ред. А. Я. Сухарева, В. Е. Крутских. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2003. — 703 с.
4. Олег Мороз. Хроника либеральной революции: как удалось отстоять реформы. — М.: Радуга, 2005.
5. Госкапитализм в России вышел на новый уровень\\ <https://www.vedomosti.ru/economics/articles/2019/04/30/800603-goskapitalizm-v-rossii-vishel-na-novii-uroven>
6. Андрей Полунин, Россия заигралась в монополию: Доля госкомпаний в ВВП страны выросла до 70 процентов, 29 сентября 2016 (Andrei Polunin, "Russia Played a Monopoly: The Share of State-Owned Companies in the Country's GDP Grew to 70 percent", *Free Press*, September 29, 2016), <http://svpressa.ru/economy/article/157621/>.
7. Narziev O. Genesis and Development Of Capital Market In CIS Countries: Cases From Russia, Kazakhstan, And Uzbekistan. // *Psychology and Education* (2021) 58(1) (Scopus)
8. "In Kazakhstan, the state's share in Big Business Reached a Peak in 10 ears", *Informburo*, October 12, 2017, <https://informburo.kz/novosti/v-kazahstane-dolya-gosudarstva-v-krupnom-biznese-dostigla-maksimuma-aposlednie-10-let.html>

9. OECD, Comprehensive Country overview of Kazakhstan, Part II, Depth analysis and recommendations, 2017.
https://www.oecd.org/dev/MDCR_Kazakhstan_Vol_2_web.pdf
10. Реформы в Казахстане: успехи, задачи и перспективы, ОЭСР, 2020, С.81\\
<https://www.oecd.org/eurasia/countries/Eurasia-Reforming-Kazakhstan-Progress-Challenges-Opport.pdf>
11. Parker D. The UK's privatization experiment: the passage of time permits a sober assessment. CESifo Working Paper. 1126. Munich: CESifo.
12. Kikeri S., Phipps V. Privatization Trends. A Record Year in 2006. World Bank, Washington, DC. URL: <https://openknowledge.worldbank.org>
13. Bortolotti B., Pinotti P. The Political Economy of Privatization // Fondazione Eni Enrico Mattei Working Paper. № 45.
14. Константинова Е.П. Международный опыт приватизации: причины, цели, факторы|| Вестник Поволжского института управления 2015 № 6 (51).

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich
Urganch davlat pedagogika instituti
Tarix va geografiya kafedراسi mudiri

O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda mustaqillik davrida qishloq xo'jaligidagi islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilib borishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda dehqon xo'jaliklari, shirkat xo'jaliklari va fermer xo'jaliklarining tutgan o'zni tarixiy nuqtaiy nazardan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, agrar soha, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaliklari, shirkat xo'jaliklari paxtachilik, g'allachilik, meva-sabzavotchilik, chorvachilik.

Khojamuratov Umarjon Rustamovich
Urganch State Pedagogical Institute
Head of History and Geography Department
Tel: +998 94 230 73 38

STAGES OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Abstract. The article talks about the development of farms and their activities in the agricultural sector during the period of independence of Uzbekistan. Also, from a historical point of view, the role of farms in the production of agricultural products is revealed.

Key words: Agriculture, husbandry, cotton growing, grain growing, fruit and vegetable growing, livestock farming.

Ходжамуратов Умарджон Рустамович
Ургенчский государственный педагогический
институт, заведующий кафедры истории и географии
Тел: +998 94 230 73 38

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье говорится о поэтапной реализации аграрных реформ в период независимости Узбекистана. Также с исторической точки зрения, раскрывается роль крестьянских хозяйств, кооперативных хозяйств и ферм в производстве сельскохозяйственной продукции.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, аграрная отрасль, фермерское хозяйство, крестьянские хозяйства, кооперативные хозяйства по выращиванию хлопка, зерна, фруктов и овощей, животноводству.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N02>

Kirish. O'zbek xalqi azaldan o'troq holda yashaganligi uchun mintaqada qadimgi davrlardan boshlab dehqonchilik rivojlangan. Asrlar davomida o'zbek dehqonlari va mirishkor bog'bonlar mo'l hosil yetishtirib, nafaqat o'zlarini, balki qo'shni hududlarda yashagan chorvador qavmlarini ham turli xil oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab turganlar.

O'zbekistonda XX asr mobaynida qishloq xo'jaligi sohasida bir necha marta tubdan qayta o'zgarishlar qilindi. Xususan, sovet hokimiyati yillarida asosan agrar respublika bo'lgan

O'zbekiston SSRda bu sohada ziddiyatli jarayonlar davom etdi. XX asr 20-yillari oxiri hamda 30-yillar boshlarida ommaviy ravishda kolxozlar (kollektiv xo'jaliklar) va sovxozlar (davlat xo'jaliklari) tashkil qilindi.

XX asr 80-yillari va 90-yillari boshiga kelib, O'zbekiston qishloq xo'jaligida chuqur inqiroz hukm surdi. Qishloq xo'jaligida asosiy rol o'ynagan kolxoz va sovxozlar tizimi inqiroz yoqasiga kelib qoldi. Sohada katta o'zgarishlar va tub islohotlarni amalga oshirish zarur bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishilgandan keyin agrar sohaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishga e'tibor qaratildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlanish bosqichlari tarixchilar, iqtisodchilar va huquqshunoslar tomonidan agrar sohaga oid ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Tarixchi olimlardan R.X. Aminova, I.A. Alimov, A.A. Golovanov, I.M. Saidov, M. Mahmudovlar bilan bir qatorda B.B. Utemuratov, M.K. Saribaev, G. Karamanova va S. Mamajonovlar ham agrar sohaga oid ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilishgan. S. Mamajonov agrar sohada fermer xo'jaligining tashkil topish jarayoni hamda uning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rnini o'rgangan.

Shuningdek, D. Bobojonova, N. Jo'raev, T. Fayzullaev va boshqalarning tadqiqotlarida qayta qurish yillarida kolxozlarning faoliyati atroflicha tahlil etilgan. O'zbekiston tarixiga oid fundamental tadqiqotlarda ham bu masalaning ayrim jihatlari ko'rsatilgan. Tarixchi olim Qaxramon Rajabov boshchiligida yaratilgan O'zbekiston tarixiga oid bir qator nashrlar (solnoma, ma'lumotnoma, o'quv qo'llanma, darslik va tarixiy esselar)da ham ko'rsatilgan xronologik davrda O'zbekiston qishloq xo'jaligining transformatsiyasi masalalari tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlashda ob'ektivlik, tarixiylik va qiyosiy tahlil metodlaridan foylanilib, arxiv hujjatlari hamda elektron manbalar asos qilib olindi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda agrar sohada transformatsiya jarayonlari *uch bosqichni* bosib o'tdi. *Birinchi bosqich* 1991-1997 yillarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda qishloq xo'jaligida barqarorlikni ta'minlash uchun mulkchilikning turli shakllarini joriy etish, kolxoz va sovxozlar ichida agrar munosabatlarning yangi turlari (ijara, jamoa, brigada, oila pudrati)ni vujudga keltirish ishlari olib borildi.

Shu bilan birga, agrar soha mamlakat iqtisodiyotni ko'tarish va aholini ish bilan ta'minlash uchun katta imkoniyatlarga ega edi. Natijada, avvalo, agrar sohaning huquqiy asosi sifatida "Yer to'g'risida", "Mulk to'g'risida", "Kooperatsiya to'g'risida", "Ijara to'g'risida", "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida", "Dehqon (fermer) xo'jaligi to'g'risida", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi agrar siyosatining o'ziga xos tomoni davlat yer egaligini o'z qo'lida saqlagan holda turli mulkchilik shakllarini qo'llab-quvvatladi. Dastlab kolxoz va sovxozlar faoliyati tanqidiy o'rganilib chiqildi. Zarar ko'rib ishlayotgan kolxoz va sovxozlar jamoa va davlat tasarrufidan chiqarilib, mulkchilikning turli shakllariga aylantirildi. Chorvachilik fermalari xususiylashtirila boshlandi.

Ayniqsa, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning kengaytirilishi va odamlarga yer berilishi agrar sohada chinakam yangilik bo'ldi. O'zbekistonda umumiy haydaladigan yerlar 4,3 mln. gektarni tashkil qiladigan bo'lsa, aholining tomorqa yerlari 205 ming gektardan to 650 ming

gektargacha kengaydi. Haydaladigan yerlarning 15 foizi aholiga tomorqa sifatida berildi. Iqtisodiy ahvol tang bo'lgan yillarda mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo'lgan talabining 60 foizidan ortig'ini shaxsiy yordamchi xo'jaliklari ta'minlagan.

Shaxsiy yordamchi xo'jaliklari 1990 yil boshida 205 ming gektar bo'lgan bo'lsa, 1992 yilda 550 ming gektarni tashkil etgan[1]. Kolxozlar va sovxozlarning aksariyati paxta yetishtirishga ixtisoslashtirilgan edi. Chigit ekiladigan dala maydonlari barcha ekinzorlarning 70 foizdan ortig'ini tashkil qilar edi. Ana shunday sharoitda aholini don va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun asosiy e'tibor shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga qaratildi. Shaxsiy tomorqa yerlarining kengayib borishi qishloq xo'jalik mahsulotlari, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlarini oshirishga imkon berdi.

1995 yilga kelib shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida jami ishlab chiqarilayotgan go'shtning 80%, sutning 90% ga yaqini, kartoshka va sabzovotning 69% yetishtirilgan[2].

1997 yilga kelib shaxsiy yordamchi xo'jaliklari maydoni respublikada sug'oriladigan yerlarda 650 ming gektardan oshgan. Shaxsiy tomorqa xo'jaliklari yerlari nisbatan ko'p va katta bo'lgan hududlar Samarqand, Toshkent, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlari bo'lgan. Shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida respublika miqyosidagi kartoshka va sabzavot hajmining 69 foizi, go'shtning 80 foizdan ko'prog'i, sutning 90 foizi yetishtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin fermerlik harakatiga e'tibor kuchaydi. Mustaqillikning dastlabki 4 oyi ichida dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 29 noyabrda PF-295-sonli "Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash choralari haqida"gi qarori chiqdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida fermer xo'jaliklari faoliyati bilan bog'liq ko'plab muammolar bo'lgan. Bunga sabab ko'p hollarda tuman hokimiyati, kolxozlar va sovxozlar, rayondagi turli tashkilotlarning rahbarlari tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslarni o'z nazorati ostida saqlab qolish uchun dehqon (fermer) xo'jaliklarini tashkil qilish jarayonlariga to'sqinlik qilishgan. 1990 yillarda qishloq xo'jaligida barcha ishlovchilarning 5-6 foizi atrofidagi kishilar boshqaruv mehnati bilan band bo'lganlar. Dehqon (fermer) xo'jaliklarning shakllanishi rahbarlar va mutaxassislar sonini kamayishiga olib kelardi[3]. Davlat va jamoa xo'jaligi rahbarlari o'zlaridagi boshqaruv hokimiyatini optimal holatda bo'lishini xohlashgan. Dehqon (fermer) xo'jaliklarini tashkil qilishdan maqsad Respublika aholisini chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish ekanligiga qaramay, xo'jalik rahbarlari paxta yetishtirish uchun shartnomalar tuzishgan.

Fermerlarga ko'pgina sug'orish drenaj shaxobchalari yo'q, unumsiz yerlar ajratib berilgan. Aksariyat dehqon xo'jaliklari chorvani hech qanday sanitariya va yong'indan saqlanish talablariga javob bermaydigan, maxsus moslanmagan molxonalarda boqishgan[4]. Dehqon (fermer) xo'jaliklari bilan kolxoz va sovxozlar bir xil sharoitda bo'lmagan. Ko'p hollarda yomon ball baniteti past yerlar berilgan. Ekin maydonlarining fermer uyidan 40-50 km masofa uzoqlikda bo'lganlari ham bo'lgan. Fermerlarga eski texnikalar ajratilgan, turli xizmatlar uchun juda baland narxlar qo'yilgan. Fermerlarning texnika qo'yadigan joylari bo'lmagan. Texnikalar qishda muzlab qolgan.

1998 yildan boshlab O'zbekistonda agrar sohada islohotlarning *ikkinchi bosqichi* boshlangan (2008 yilgacha davom etgan). Chunki agrar soha bilan bog'liq bo'lgan bir qancha me'yoriy hujjatlar qaytadan ishlab chiqildi. Jumladan, 1998 yil 30 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi" hamda "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida" gi Qonunlari qabul qilindi.

Mazkur qonunlarda yer egaligida mavjud bo'lgan mulkchilik munosabatlari uch xil shaklga keltirilib, bir-biridan ajratilib asoslandi. Shulardan eng yirik xo'jalik shakli qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) edi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida 1998 yildan boshlab jamoa xo'jaliklari shirkat xo'jaliklariga aylantirila boshlandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ijara shartlari asosida kishilarda mulkdorlik tuyg'usini uyg'otish va shu orqali mazkur sohani rivojlantirish bo'lgan.

Shuningdek, 2001 yilgacha bo'lgan davrda faoliyat ko'rsatib turgan jamoa xo'jaliklarini paychilikka asoslangan shirkat xo'jaliklariga aylantirish belgilandi. Jamoa xo'jaliklari (kolxozlar)ni shirkat xo'jaliklarga aylantirishda xodimlarning cheklangan soni, ekin maydoni, mahsulot birligiga ketadigan mehnat sarfining belgilangan me'yorlari asosida aniqlash belgilab qo'yildi[5].

O'zbekiston Respublikasida 1999 yilning birinchi choragida 439 ta jamoa xo'jaliklari shirkat xo'jaliklariga aylantirilgan bo'lsa[6], shu yilning oxiriga kelib, yana 445 ta shirkat xo'jaliklari tashkil etildi.

2001 yilga kelib butun Respublika bo'yicha 1365167 nafar kishi shirkat xo'jaliklariga a'zo bo'lgan. Shirkat xo'jaligida mulk egaligining pay shakli asosiy o'rinda bo'lgan. Jami paychilar soni 1520990 nafar bo'lib, pay guvoohnomasini olganlar soni 1429283 nafar bo'lgan[7].

Jamoa xo'jaliklarining shirkat xo'jaliklariga aylantirilishi natijasida ishchi kuchi sarfi kamaygan. Jumladan, 1999 yilda 158 ming nafar, 2001 yilga kelib 394908 nafar kishi qishloq xo'jaligi ishlaridan ozod bo'lgan. Agrar sohada jamoa xo'jaliklarining shirkat xo'jaliklariga aylantirilishi ish o'rinlarini qisqartirgan. 2002 yilning 1 yanvarigacha jami 1900 ta xo'jalik shirkat xo'jaliklariga aylantirilgan. 2002 yilga kelib 1 million 400 mingdan ortiq kishi shirkat a'zosi bo'lgan[8].

Lekin bu tizim ham amalda o'zini oqlamadi. Shirkat xo'jaliklari rahbarlari va shu xo'jalik a'zolari ham bu mulk shaklining mohiyatini anglashmagan. Ko'plab imkoniyatlar va davlatning qo'llab-quvvatlashiga qaramasdan, shirkat xo'jaliklarining rivojlanishi bu sohada moddiy manfaatdorlik tamoyillarini ta'minlamadi.

1998-2002 yillarda moliyaviy zarar bilan faoliyat ko'rsatayotgan shirkat xo'jaliklarini sanatsiyalash jarayonlari bo'lib o'tdi. Shuni ta'kidlash kerakki, sanatsiyalash davridan so'ng ham aksariyat shirkat xo'jaliklarining moliyaviy holati tiklanmagan. Sanatsiyalash jarayoni amalga oshirilgandan keyin ham moliyaviy ahvoli o'nglanmagan shirkat xo'jaliklari tugatila boshlandi. Ular o'rnida fermer xo'jaliklarini tashkil etishga kirishildi.

1998 yil 30 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida" gi Qonunlari qabul qilindi. Mana shu uchta Qonun O'zbekistonda agrar soha siyosatining asosiy strategiyasini belgiladi. Agrar sohadagi transformatsiya jarayonlarning yuqori nuqtasi bo'ldi. Aynan mana shu qonunlar yer egaligining sovetcha andozalarining tugatilishiga nuqta qo'ydi.

Qishloq xo'jaligida mulkchilik masalalari o'z yechimini topdi. Qishloq xo'jaligida mulkchilik munosabatlari 3 xil shaklga aylantirildi. Shu paytgacha dehqon xo'jaligi, dehqon (fermer) xo'jaligi deb nomlanib kelinayotgan harakat fermerlik harakati deb ataladi.

1999 yildan boshlab agrar sohada mulkiy munosabatlar o'zgarib boshladi. Chunki istiqbolsiz, iqtisodiy jihatdan nochor, zarar ko'rib ishlayotgan xo'jaliklar tugatilib, ularning negizida fermer xo'jaliklarini tashkil etishga kirishildi.

2001 yil davomida mulk shakli o'zgartirilgan xo'jaliklarning iqtisodiy ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. Ko'pchilik xo'jaliklarda g'alla hosildorligi ortgan. Fermer xo'jaliklariga aylantirilgan xo'jaliklar 2000 yilda 1051 mln. so'm zarar ko'rgan bo'lsa, ularning hududida tashkil etilgan fermer xo'jaliklari 2001 yilni 267,3 mln. so'm foyda bilan yakunlagan. Aynan shu yillardagi suv taqchilligiga qaramay fermer xo'jaliklari har gektardan olayotgan paxta hosildorligini 18,9 sentnerdan 20,4 sentnerga, g'alla hosildorligini esa 21,3 sentnerdan 22,7 sentnerga oshirganlar[9].

Mulkchilikka bo'lgan yangicha munosabat, moddiy manfaatdorlikning yuqoriligi tufayli qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish ko'rsatkichlari keskin ko'tarildi. 2004 yilning boshida 326 ta shirkat xo'jaligi tugatilib, ularning o'rnida 15161 ta fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Yangidan tashkil etilgan fermer xo'jaliklarida birinchi yilning o'zidayoq paxtaning hosildorligi 6,4 sentnerga, don hosildorligi 5,3 sentnerga oshdi. Rentabellik darajasi paxtada 12,8 foizdan 18,9 foizga, donchilikda 1,9 foizdan 19,8 foizga yetgan. Moddiy xarajatlar har gektariga mineral o'g'it bo'yicha 46 kilogramm, yonilg'i moylash materiallari bo'yicha 67 kilogrammga kam bo'lgan[10].

Mamlakat qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 11 yanvardagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-255-sonli Qaroriga asosan 210 ta shirkat xo'jaligi belgilandi. Amalda 219 ta shirkat xo'jaliklari tugatildi va ular negizida 40389 ta fermer xo'jaliklari tashkil etilib, ularga 320424 gektar yer maydoni birlashtirib berildi. Tashkil etilgan fermer xo'jaliklarining 30763 tasi (76%) bog'dorchilik va uzumchilik, 4713 tasi (11,6%) sabzavotchilikka ixtisoslashgan[11]. 2006 yilda shirkat xo'jaliklarining tugatilishi fermer xo'jaligini tashkil etishning cho'qqisi bo'lib, shu yilning o'zida 666 ta xo'jalikni tugatish hisobiga tanlov asosida 74030 ta fermer xo'jaligi tuzildi. Jami fermer xo'jaliklar soni 189235 taga yetdi[12]. Respublika bo'yicha o'rtacha bir fermer xo'jaligiga 26,2 gektar yer maydoni to'g'ri kelib, fermer xo'jaliklarida 1083000 nafardan ortiq kishi mehnat qilgan[13].

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar natijasida 1998 yilda fermer xo'jaliklarining soni 23048 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2007 yil oxiriga kelib ularning soni 217095 tani tashkil etgan[14].

Fermer xo'jaliklarining soni ko'payib borishi bilan birga mehnat bilan band bo'lgan ishchilar soni ham o'sib bordi. Jumladan, 2000 yilda fermer xo'jaliklarida 279 ming kishi mehnat bilan band bo'lgan bo'lsa, 2007 yilda 1343000 nafardan ortiq kishi mehnat bilan band bo'lgan[15].

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlariga asosan 1999 yildan 2007 yilning oxirigacha bo'lgan davrda 2102 ta jamoa va qishloq xo'jaligi kooperativlari tugatilib, ularning o'rnida fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Shuni ta'kidlash kerakki, shirkat xo'jaliklari negizida tashkil etilgan fermer xo'jaliklarining iqtisodiy hamda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, shirkat xo'jaligi davridagiga nisbatan fermer

xo'jaliklarida moddiy resurslar sarfi 15-20 foizga kamayganligi va hosildorlik paxtada 5-7 sentner, g'allada 10-12 sentner ko'payganligi kuzatildi[16]. O'tgan yillar tajribasi fermer xo'jaliklarining shirkat xo'jaliklariga nisbatan ancha yuqori rentabelli faoliyat yuritishini yaqqol isbotladi.

2008 yil 6 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiquvchi maxsus komissiyani tashkil etish to'g'risida"gi Farmoyishi qabul qilinishi bilan agrar sohadagi islohotlarning *uchinchi bosqichi* boshlandi. Bunda fermer xo'jaliklari yer maydonlarining hosildorligi, agrotexnologiyasi, iqtisodiy ko'rsatkichlari va boshqa jihatlari hisobga olingan holda optimallashtirildi. Yer uchastkalari kichik bo'lgan va o'z moddiy texnika bazasiga ega bo'lmagan fermer xo'jaliklari tugatilib o'rnida moliyaviy jihatdan barqaror, kuchli moddiy-texnika bazasiga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari shakllantirishga kirishildi.

Bunda fermer xo'jaliklari yer maydonlaridan samarali foydalanish, yer maydonlarining bitta sug'orish tarmog'ida ekanligi, fermerlarning moliyaviy iqtisodiy holatining barqarorligi, mavjud qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlanganligi, belgilangan tartibda shartnoma majburiyatlarini muntazam bajarilishi hamda iqtisodiy ko'rsatkichlari va hududlarning mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajalarini inobatga olgan holda maqbullashtirildi. Dastlab fermer xo'jaliklarining yer maydonlari hosildorligi, agrotexnologiyasi, iqtisodiy ko'rsatkichlari va boshqa jihatlari bo'yicha optimallashtirildi. Natijada kichik fermer xo'jaliklari o'rnida iqtisodiy barqaror va kuchli texnika bazasiga ega bo'lgan yirik fermer xo'jaliklari vujudga keldi.

2010 yilda o'tkazilgan maqbullashtirish natijalariga ko'ra, 26753 ta (24,9 foiz) fermer xo'jaligi faoliyati tugatilgan. Fermer xo'jaliklarining jami soni 80628 tani, shundan 41827 tasi (51,8 foiz) paxta va g'allachilik, 4036 tasi (5 foiz) sabzavot va polizchilik, 22159 tasi (27,4 foiz) bog' va uzumchilik, 6009 tasi (7,5 foiz) chorvachilik hamda 6 ming 597 (8,2 foiz) boshqa yo'nalishlardagi fermer xo'jaliklaridir[17]. O'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri kelgan yer maydoni 62,4 gektarga yetgan. Fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydonlari, tarmoqlar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, paxtachilik va g'allachilikda 70,3 gektardan 84,5 gektargacha, sabzavotchilikda 14,8 gektardan 19,1 gektargacha, chorvachilikda 142,8 gektardan 162 gektargacha ko'paygan[18].

2014 yilning oxiriga kelib, Respublika bo'yicha jami 73588 ta fermer xo'jaliklari faoliyat olib borgan holda, ularga 5939118 gektar yer uchastkalari ijaraga berilgan. Fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydoni 80,7 gektarni tashkil qilgan bo'lsa, 2015 yilning oxiriga kelib, Respublika bo'yicha jami 76804 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatib, ularga 5847170 gektar yer maydonlari ijaraga berilgan. Fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydoni 76,1 gektarni tashkil etgan[19].

2015 yildan keyin O'zbekiston agrar siyosatida fermer xo'jaliklari yer uchastkalarida texnik ekinlar, jumladan, paxta maydonlari o'rnida boshqa ekin turlarini joylashtirish, yetishtirishni ko'paytirishga kirishildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 15 dekabrda "Fermer xo'jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 362-sonli Qarori asosan fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini qaytadan maqbullashtirish jarayonlari boshlandi. Maqbullashtirish natijalariga ko'ra, 2016 yilning oxiriga kelib, fermer xo'jaliklarining soni jami 160372 tani, ularning o'rtacha yer maydoni 22,3 gektarni, shu jumladan, paxtachilik va g'allachilik yo'nalishidagi fermer

xo'jaliklariniki 55,2 gektarni tashkil etgan[20]. Qishloq xo'jaligida 250 mingdan ortiq ish o'rni tashkil etildi[21].

O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yetishtirilishini mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimlab o'rganilganda, uning 2000 yildan 2016 yilgacha bo'lgan davrida 99,5 foizdan ortig'i nodavlat tashkilotlar hissasiga, 05 foizdan oz qismi davlat sektoriga to'g'ri kelgan. Agrar sohada bu vazifalar fermer, dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan olib boriladi.

2015 yilda 21564 ta fermer xo'jaligida qo'shimcha ishlab chiqarish ishlari amalga oshirilgan. Buning natijasida qishloq joylarida 96200 yangi ish o'rinlari yaratildi. 2016 yilga kelib 160 mingdan ziyod fermer xo'jaliklari faoliyat yuritayotgan bo'lsa, shulardan ko'ptarmoqli fermer xo'jaliklari soni 80257 tani tashkil qilgan[22]. Bundan shunday xulosaga kelinadiki, 50 foizdan ortiq fermerlar faqat dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib qolmasdan, qayta ishlash sohasini tashkil etib, qo'shimcha ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yganlar.

Fermerlik harakati O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish bilan birga agrar soha taraqqiyotini belgilab beradigan soha ekanligini ko'rsatdi. Fermerlikka ustuvor jihat berilishi yerdan samarali foydalanishni yaxshiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xosildorligi oshishi bilan birga, sifati ham yaxshilandi. G'alla va chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari tomonidan chorva mollari naslini yaxshilash va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish rivojlandi. Qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash va eksport qilish, qishloq joylarda servis xizmatlari ko'rsatish tizimi takomillashib bordi.

O'zbekistonda agrar sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish ko'rsatkichlari barqaror o'sib keldi. Mazkur davrda agrar sohada fermer xo'jaliklari hissasi oshib borib, sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi.

Xulosa. Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar, tizimli tadbirlar natijasida qishloq xo'jaligida barqaror o'sish sur'ati 2010-2016 yillar mobaynida o'rtacha 106 foizdan kam bo'lmagan. Qolaversa, ko'ptarmoqli fermer xo'jaliklarining rivojlanishi natijasida fermer xo'jaliklarida paxta va g'alladan tashqari sabzavot, poliz, meva, uzum, kartoshka, chorvachilik, baliqchilik va asalarichilik sohalari ham rivojlana bordi. Ko'ptarmoqli fermer xo'jaliklarining faoliyatining ko'payib borishi qishloq joylarida tadbirkorlik harakatining rivojlanishiga turtki bo'lgan. Bu o'z navbatida, yangi ish o'rinlarini yaratilishiga zamin hozirladi.

Адабиётлар / Литература / References:

1. Набиев Д. Хизмат кўрсатиш соҳаси // "Иқтисод ва ҳисобот", 1995. – № 33. – Б. 35.
2. Саматов Ф., Ёдгоров Ж., Рустамова И. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини ташкил этиш. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 63.
3. Бобоқулов Б. Фермер хўжалиги: муаммо ва ечимлар // "Иқтисод ва ҳисобот", 1993. – № 1. – Б. 51.
4. Ҳайдаров Ҳ. Фермерчилик истиқболлари ёки деҳқон (фермер) хўжаликларини ривожлантириш ва мустақалаш йўллари хусусида // "Иқтисод ва ҳисобот", 1993. – № 4. – Б. 28-29.

5. ЎзР ҚСХВ идоравий архиви // ЎзР ҚСХВ ҳайъатининг йиғилиш Қарорлари (1998 йил материаллари), 21-варақ.
6. Ўзбекистон Миллий архиви, М-37- фонд, 1-рўйхат, 3102-иш, 149-160-варақ.
7. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги тизимидаги корхона ва ташкилотларнинг 1996-2000 йиллардаги ишлаб чиқариш кўрсаткичлари тўғрисида маълумот. – Б. 85-86
8. “Халқ сўзи”, 2002 й, 15 февраль.
9. Ўзбекистон Миллий архиви, М-98-фонд, 1-рўйхат, 15-иш, 16-варақ.
10. Фермерлик фаолиятининг ҳуқуқий ва молиявий асослари. – Тошкент: Университет, 2005. – Б. 8.
11. ЎзР ФХУ идоравий архиви, Ўзбекистон фермер хўжаликлари уюшмасининг 2006 йил 1 июль ҳолатига амалга оширилган ишлари бўйича ҳисоботи. – Б. 3.
12. ЎзР ҚСХВ идоравий архиви // Ўз ҚСХВ ҳайъатининг йиғилиш Қарорлари (2007 йил материаллари), 13-варақ.
13. Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами. – Тошкент, 2013. – Б. 248.
14. ЎзР ФХУ идоравий архиви // Ўзбекистон фермер хўжаликлари уюшмасининг 2007 йил 1 июль ҳолатида амалга оширилган ишлари бўйича ҳисоботи, 5-варақ.
15. Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами. – Тошкент, 2012 й. – Б. 60.
16. ЎзР ФХУ идоравий архиви Ўзбекистон Фермер хўжаликлари уюшмасининг 2007 йил 1 декабрь ҳолатига амалга оширилган ишлар бўйича ҳисоботи. – Б. 4.
17. ЎзР ҚСХВ идоравий архиви // ЎзР ҚСХВ ҳайъатининг йиғилиш Қарорлари (2010 йил материаллари), 10-варақ.
18. Фермерлар-истиклол қалдирғочлари // [www. agro.uz](http://www.agro.uz).
19. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги томонидан 2015 йилда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш борасидаги амалга оширилган ишлар ҳақида // www. agro.uz.
20. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги томонидан 2016 йилнинг 9 ойида иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш борасида амалга оширилган ишлар ҳақида // www. agro.uz.
21. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi”, 2016 у. – №2. – Б. 2.
22. ЎзР ФХК идоравий архиви // Ўзбекистон Республикаси фермер хўжаликлари Кенгашининг 2016 йилда Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда кўптармоқли фермер хўжаликлари йўналишлари бўйича маълумотномаси 5-варақ.

Rahmanov Zafar Odilovich,
O'zR FA Milliy arxeologiya markazi katta ilmiy xodimi, t.f.f.d (PhD)
rahmanov.84@mail.ru

Aloxunov Alisher Axmadjonovich,
Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.f.d (PhD)
aloxunov@inbox.ru

FARG'ONA VODIYSI YODGORLIKLARIDA ANIQLANGAN TAMG'ALI SOPOL IDISHLAR

Annotatsiya. Farg'ona vodiysi ko'plab qiziqarli topilmalar aniqlangan hududlar qatoriga kiradi. Xususan, vodiyning turli nuqtalarida joylashgan arxeologik yodgorliklarda topilib, fan olamiga ma'lum bo'lgan o'ziga xos sopol idshlar mavjud. Maqolada faqatgina ularning ayrimlarini, asosan idishlar sirtiga usta yoki buyurtmachi tomonidan qo'yilgan maxsus belgilar va ularning davriy sanalari borasida ba'zi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, Qo'shtepa II, tamg'ali sopol idishlar, Vorux, Simob, Kuyuktepa, Shirinsoy, Turk xoqonligi.

Rakhmanov Zafar Adilovich
Senior Researcher, National Center of Archeology, Academy of Sciences of
the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Historical Sciences, (PhD)

Alokhunov Alisher Ahmadzhonovich
Associate Professor of the Department of World History,
FarSU, Doctor of Philosophy in Historical Sciences, (PhD)

ORNAMENTED CERAMIC ITEMS FOUND AT THE SITES OF THE FERGANA VALLEY

Abstract. The Fergana Valley is one of the areas where many interesting finds have been discovered. In particular, unique ceramic vessels were found at archaeological sites located in different parts of the valley and known to science. The article presents only a few of them, mainly special marks applied to the surface of vessels by the master or customer, and some information about their periodization.

Key words: Fergana Valley, Koshtepa II, ornamented ceramics, Vorukh, Symap, Kuyuktepa, Shirinsay, Turkic Khaganate.

Рахманов Зафар Адилевич
Старший научный сотрудник Национального
центра археологии Академии наук Республики
Узбекистан, доктор философии по
историческим наукам (PhD)

Алохунов Алишер Ахмаджонович
Доцент кафедры мировой истории ФарГУ,
доктор философии по историческим наукам (PhD)

ОРНАМЕНТИРОВАННЫЕ КЕРАМИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ОБНАРУЖЕННЫЕ НА ПАМЯТНИКАХ ФАРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация. Ферганская долина – одна из территорий, где было обнаружено множество интересных находок. В частности, на археологических памятниках, расположенных в разных частях долины и известных в науке, найдены уникальные керамические сосуды. В статье представлены лишь некоторые из них, главным образом специальные знаки, наносимые на поверхность сосудов мастером или заказчиком, и некоторые сведения об их периодизации.

Ключевые слова: Ферганская долина, Коштета II, орнаментированная керамика, Ворух, Сымап, Куюктепа, Ширинсай, Тюркский каганат.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N03>

Kirish. Fargʻona vodiysining urbanizatsiya jarayonlariga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, bu hodisa vodiyning turli nuqtalarida turli davrlarda yuzaga kelganligini kuzatish mumkin. Bugungi kundagi arxeologik tadqiqotlar tahlili ushbu hududni dehqon jamoalari tomonidan oʻzlashtirilishi uning shimoliy, shimoliy-sharqiy va sharqiy hududlarida jadalroq amalga oshirilganligini koʻrsatmoqda. Qadimgi davrda Fargʻonaning bu hududlarida koʻplab katta-kichik manzilgohlar, koʻshk va qasrlar bunyod etilgan va rivojlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fargʻona vodiysi shimoli-sharqiy va sharqiy hududida arxeologiya sohasida “Eylaton” va “Shoʻrabashot” deb nom olgan madaniyatlar parallel faoliyat yuritgan [Иванов, 1991. С. 17-20] yoki qarishuvi davridan [Абдуллаев, 2016. Б. 27] boshlab Andijonsoy va Shahrixonsoyning oraliq vohasida mahalliy aholi orasida Qoʻshetea II deb nom olgan manzilgoh vujudga kelgan [Абдуллаев, 2016. Б. 27-30].

Qoʻshetea II arxeologik yodgorligi Andijon viloyati Qoʻrgʻontepa tumani Qorasuv qishlogʻida joylashgan boʻlib, u dastlabki oʻrganilgan davrda yuzaki tasnifi va koʻtarma materiallariga asoslanib ilk oʻrta asrlar bilan davrlashtirilgan [Абдулгазиева, 1988. С. 47].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ishida tahlil va sintez, shuningdek qiyosiy va statistik hamda induksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. 2015-yil dala tadqiqoti mavsumida Qoʻshetea II yodgorligining uchta qismida qazishma olib borilgan. 3-qazishma yodgorlikning shimoliy-sharqiy burchagida 8x5 m maydonda amalga oshirilgan boʻlib, unda B.M. Abdullayev, Z.O. Raxmanov, A.A. Aloxunovlar ishtirok etishgan [Абдуллаев и др., 2018. С. 11-12]. Natijada VII–VIII asrlarga oid kulolchilar dahasining bir qismi ochib oʻrganilgan edi [Абдуллаев и др., 2018. С. 12]. Afsuski bu qazishma turli sabablarga koʻra keyingi vaqtda davom ettirilmay qolib ketdi. Biz kichik tadqiqot mavzusi sifatida koʻtargan “tamgʻali sopol idishlar”dan biri aynan shu qazishma jarayonlarida aniqlangan.

3-qazishma maydonida yuqori qatlam tozalangach, ilk oʻrta asrlarda boʻlib oʻtgan hayot-mamot janglari oqibatida katta yongʻin boʻlganligi kuzatildi. Ustunlar asoslarigacha yonib, tom bosib barcha joyni vayron qilgan. Ochilgan maydonchada koʻplab ustunlar oʻrni saqlanganligi, vayronalar orasida esa yonib koʻmirga aylangan toʻsinlar pala-partish yotgani aniqlandi. Tozalash jarayonida 3-qazishma maydonining janubiy qismida xumdon ustki kameraning buzilgan qismi aniqlandi. Undan janubga tomon 1 m uzoqlikdagi masofada esa tayyorlanganiga koʻp vaqt boʻlmagan suv koʻzasining parchalari tom bosib qolishi natijasida bir joyda topildi. Qayta tiklash chogʻida uning boʻyin qismidan pastda qorin qismiga oʻtish joyida “ × ” koʻrinishidagi maxsus tamgʻa, belgi qoʻyilganligi (Rasm. 1. 1), shunga koʻra ushbu buyum maxsus “buyurtmaga koʻra yasalgan”ligi ehtimoldan holi emas, degan fikr ilgari surildi.

O'rta Osiyo hududida idishlarga, ya'ni kulolchilik buyumlariga bunday tamg'a qo'yish odati qadimgi davrlarga borib taqaladi. Misol uchun So'g'd hududida o'ziga xos tamg'a tushirilgan eng qadimgi idishlar Ko'ktepa va Afrosiyob yodgorliklarining mil. avv. X–VIII, VII–IV asrlarga oid sopollar majmui ichida uchraydi [Исамиддинов, 2002. С. 165. Рис. 156].

Bundan tashqari, “ x , + ” ko'rinishga ega bo'lgan tamg'ali idishlar Ko'ktepa va Afrosiyob yodgorliklarida mil. avv. III–II asrlar va milodiy II–III asrlar bilan davrlashtirilgan sopollar majmuida (Rasm. 1. 14-16) ҳам aniqlangan [Исамиддинов, 2002. С. 165. Рис. 156].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, tamg'a qo'yilgan bunday ko'zalar Farg'ona vodiysining boshqa hududlarida ham aniqlangan bo'lib (Rasm. 1. 2-13) [Литвинский, 1973. С. 80-93. рис. 83. 13, рис. 98. 17; Кудратов, 1992. С. 201. рис. 19. 13; Матбобоев, 2009. Б. 549. 150-расм. 11, 12], ularning davri masalasida aniq fikr-mulohazalar to'laligicha o'z yakunini topganicha yo'q. Shu nuqtai nazardan bu masalada ba'zi bir fikr-mulohazalarni aytib o'tish joiz. Jumladan, Farg'ona vodiysida sopol idishlar, ko'zalar, xumchalar yoki shu kabi mahsulotlarni ishlab chiqarishda o'ziga xoslikni bildirib turish yoki mahsulotning tegishligi belgisini qo'yish an'anasi milodiy asr boshlariga borib taqalishini aytish mumkin. Bunga Farg'ona vodiysining turli hududlari, aniqrog'i janubi-g'arbiy hududidagi Vorux jarligidan (Shimoliy Tojikiston hududida) aniqlangan dastasi yo'q ko'za (Rasm. 1. 2) [Литвинский, 1973. С. 199. Табл. 22. 8], Qorabuloq qabristonidan topilgan dastasi yo'q ko'zalar (Rasm. 1. 3, 6) [Литвинский, 1973. С. 200. Табл. 36. 5-6] va Farg'onaning Simob (rus tilida “Сымап” deb yozilgan – Z.R) deb nomlangan qabristoni 3-sonli qabr-qo'rg'onidan aniqlangan kichik ko'zachalarni (Rasm. 1. 4, 7) [Литвинский, 1973. С. 200. Табл. 37. 1-2] misol qilib ko'rsatish mumkin.

Y.D. Baruzdin va G.A. Brikinalarning Laylak va Botkenning arxeologik yodgorliklariga bag'ishlangan kitoblarida miloddan avvalgi va milodiy asr boshlariga oid To'ratosh qabristonining 23-mozor qo'rg'onida bo'yin qismida “x” ko'rinishidagi xochsimon tamg'a tushirilgan qo'lda yasalgan ko'za (Rasm. 1. 10) aniqlanganligini ham aytish mumkin [Баруздин, Брыкина, 1962. С. 30-31. Табл. VI. 2]. Ko'zaning balandligi – 25.5 sm, diametri – 24 sm, og'iz qismi diametri – 9,5 sm, taglik qismi diametri – 12 sm ni tashkil etadi.

Shuningdek, o'z vaqtida V.F. Gaydukevichning Shirinsoy yaqinidagi mozor-qo'rg'onlarda olib borilgan tadqiqotlarida milodiy III–IV asrlarga oid bo'lgan bo'yin qismida “x” ko'rinishidagi xochsimon tamg'a tushirilgan xurmacha (Rasm. 1. 9) (gorshok) [Гайдукевич, 1952. С. 338, Рис. 7. 4; С. 340], Shimoliy Farg'onadagi Kuyuktepa yodgorligidan milodiy IV–V asrlarga oid yelka qismida “+” ko'rinishida tamg'asi bor bitta kosa (Rasm. 1. 8) ham aniqlangan [Кудратов, 1992. С. 201. рис. 19. 13]. Albatta bunday tamg'a tushirilgan turli idishlar Andijon viloyati Marhamat tumani markazida joylashgan Mingtepa yodgorligida ham ko'plab aniqlangan (B.Matboboyev va M.Isomiddinov boshchiligida olib borilgan R-1 qazishma materiallari). O'ylaymizki keyingi tadqiqotlarda bu topilmalar fan olamiga ma'lum bo'ladi.

Tamg'a qo'yish Turk xoqonligi davrida keng tarqalganligini hisobga olsak [Матбабаев, 2009. С. 89-93; Абдуллаев, 2016. Б. 30], Qo'shtepa II yodgorligining hunarmandlar dahasidagi kulolchilik ustaxonasi joylashgan hududda bo'lib o'tgan yong'in izlari aynan arab bosqini davrida yuz bergan bo'lishi mumkin, degan fikrni ilgari surish imkonini beradi.

Xumdon oldida pishirish uchun charxdan olingan xom ko'zalar va tayyor mahsulot uchun qurilgan enli sufalar saqlanib qolgan. Deyarli barcha qazishma maydonida turli o'lchamdagi bug'doy yanchish uchun yorg'uchoqlar topildi. Ehtimol bu tosh qurollari nafaqat bug'doy yanchishga, balki kulollar undan sopol idishlarni bezash uchun turli rang beruvchi

minerallarni ham yanchishda foydalanishgan bo'lsa ajab emas. Shundagina kulollar dahasining kichik bir qismida bu qadar ko'p tosh qurollarning topilshini izohlash mumkin bo'lardi. Biroq bu tahminlar faqatgina tosh qurol mutaxassislari – trassologlarning ilmiy xulosalaridan so'ng o'z tasdig'ini topishi mumkin.

O'sha davr iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo'lgan hunarmandlar dahasining qo'rg'on markazi – qasr oldida ravnaq topishi tabiiy hol. Aminmizki keyingi tadqiqotlarda bu yerdan boshqa hunarmandchilik dahalari yoki ma'lum bir faoliyat bilan bog'liq joylar ham ochilib fan olamiga va keng jamoatchilikka taqdim etiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Qo'shtepa II yodgorligining biz tahmin qilayotgan hunarmandlar dahasida aniqlangan ilk o'rta asrlarga oid tamg'ali ko'za Farg'ona vodiysi boshqa yodgorliklarida ham uchraydi. Ularning ayniqsa davriy jihatdan Turk xoqonligi davriga oidligi tariximizda bu davrda hunarmandchilikda o'ziga xos alohida maktablarning, balki kulolchilik bilan shug'illanuvchi yirik ustalar oilalarining keng tarqalganligidan dalolat beradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Абдулгазиева Б. Восточная Фергана в древности и раннем средневековье (система расселения, районирования и типология) // дисс. на соис. учен. степ. канд. истор. наук. – Самарканд. 1988. – 201 с. + прил. альбом илл.
2. Абдуллаев Б.М. Қўштепа тадқиқотларининг асосий натижалари // Водийнома. – Андижон, №1. 2016. – Б. 27-30.
3. Абдуллаев Б.М., Рахманов З.О., Камбаров Н., Сайфуллаев Б.К., Рахимов И.Д., Гордеева Е.А. Археологические исследования Кошттепа-2 в 2015-2016 гг. // Археологические исследования в Узбекистане 2015-2017 года. Вып. 11. – Самарканд, 2018. – С. 11-17.
4. Баруздин Ю.Д., Брыкина Г.А. Археологическое памятники Баткена и Ляйляка (Юго-западная Киргизия). – Фрунзе: Изд-во АН Киргизской ССР, 1962. – 128 с.
5. Гайдукевич В.Ф. Могильник близ Ширин-Сая в Узбекистане // СА. №XVI. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1952. – С. 331-359.
6. Иванов Г.П. Археологические культуры Ферганы (периодизация и синхронизация) // Автореф. ... канд. истор. наук. Самарканд. 1999. – 25 с.
7. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в эпоху раннежелезного века и в период античности). – Ташкент: Из-во народные наследия имени А.Кадыри, 2002. – 256 с.
8. Кудратов С.С. Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.). Дисс. ... канд. истор. наук. – Санкт-Петербург, 1992. – 180 л.
9. Литвинский Б.А. Керамика из могильников Западной Ферганы (первое тысячелетие н. э.). – Москва.: Наука, 1973. – 258 с.
10. Матбабаев Б.Х. К истории культуры Ферганы в эпоху раннего средневековья. – Ташкент.: Tafakkur, 2009. – 176 с.
11. Матбабаев Б.Х. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V-VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳлили асосида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 2009. – 407 бет.

Mirhakimova Feruza Xoldorjon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: mirhakimovaferuza7@gmail.com

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY UY MUZEYI TARIXI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyining ekspozitsion zallari va undagi ekspozitsiyalarida namoyish etilayotgan ekspонатlar haqida va mintaqadagi ma‘rifatparvarlar haqida fikr yuritilgan. Xususan, muallif tomonidan Samarqandda jadidchilik harakati namoyandalarining ma‘rifiy, siyosiy va ijtimoiy faoliyati haqida batafsil ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Muzey, ekspонат, katalog, ekspozitsiya, taraqqiyparvarlik, yangi usul maktablari, milliy tafakkur, noshirlik, jadidchilik, ma‘rifatparvarlik, ziyolilar, Turkiston, Turkiston Muxtoriyati.

Mirkhakimova Feruza Kholdorjon kizi
Doctoral student of Namangan state university

HISTORY OF MAHMUDKHOJA BEHBUDI HOUSE MUSEUM

Abstract. This article discusses the exhibition halls of the Mahmudhoja Behbudi House-Museum and the exhibits displayed in it, as well as the enlighteners of the region. In particular, the author provides detailed information about the educational, political and social activities of the representatives of the Jadidist movement in Samarkand.

Keywords: Museum, exhibit, catalog, exposition, development, new method schools, national thinking, publishing, modernism, enlightenment, intellectuals, Turkestan, Turkestan Autonomy.

Мирхакимова Феруза Холдоржон кизи
Докторант Наманганского
государственного университета

ИСТОРИЯ ДОМА-МУЗЕЯ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ

Аннотация. В данной статье речь идет о выставочных залах Дома-музея Махмудходжи Бехбуди и представленных в нем экспонатах, а также о просветителях региона. В частности, автор дает подробную информацию о просветительской, политической и общественной деятельности представителей джадидистского движения в Самарканде.

Ключевые слова: Музей, экспонат, каталог, экспозиция, развитие, новометодные школы, национальное мышление, издательское дело, модернизм, просветительство, интеллигенция, Туркестан, Туркестанская автономия.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N04>

Vatanimiz ulamolari qadimgi davrdan ko‘p fan tarmog‘iga tamal toshini qo‘yishgan. XX asr Turkiston ma‘rifatining peshvosi, o‘zbek dramaturgiya asoschisi, jadidchilik harakati namoyondalaridan biri, alloma, yozuvchi, jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish, uning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda keng jamoatchilikka targ‘ib etish imkoni tug‘ildi. Bu esa zamon talablariga g‘oyaviy, ilmiy va badiiy jihatdan yangi muzey ekspozitsiyasini yaratish zarurligini anglatdi. Uy-muzeyi mashhur ma‘rifatparvar, dramaturg,

jurnalist va noshir hisoblangan Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijodiy faoliyatini ilmiy o‘rganish va keng targ‘ib etishda ilmiy-ma‘rifiy maskanlardan biri hisoblanadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning uy muzey O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 13 apreldagi 206 - sonli qaroriga [1]ga asosan Samarqand davlat muzey qo‘riqxonasining filiali sifatida Samarqand shaxrining Mir Said Baraka ko‘chasi 47 uyda tashkil etilgan. Uy muzey o‘z faoliyatini 2021yil 18 oktyabrdan boshladi. Uy muzey binosining umumiy maydoni qariyb 860 metr kvadrat kv.ga teng, shundan 128 metr kvadratni ekspozitsiya maydoni tashkil etadi. Binoning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, doimiy ekspozitsiyalar va uy inteyarlari tashkil etiladigan joylarga belgilangan. Behbudi uy muzeyining ekspozitsion zallari beshtani tashkil etadi va ular quyidagicha nomlangan.

1-xona: Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va ijodi.

Ushbu xonada Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va ijodi haqida batafsil ma‘lumotlar, fotosuratlar, Sadriddin Ayniy, Xoji Mu‘in Shukurullo, Begali Qosimov, Fayzulla Xo‘jayev kabi arboblarning Behbudi va jadidchilik namoyondalar haqidagi fikrlari bilan bezatilgan. Ma‘lumki, Behbudi “Turkiston jadidlarining otasi” degan sharafl unvonga sazovor bo‘lgan, chunki u Samarqandda o‘ziga xos ilmiy-ma‘rifiy muhit yaratgan. Masalan, uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Said Ahmad Siddiqiy bilan birgalikda Samarqand atrofidagi Halvoyi mahallasida, Abdulqodir Shakuriy bilan birgalikda Rajabamin mahallasida yangi maktablar tashkil etiladi. “Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va ijodi” ekspozitsiyasida namoyish etilayotgan “Risolai jug‘rofiy umroniy”, “Risoloy jug‘rofiyai rusiy”, “Risolai asbobi savod Alifboi maktabi Islomiya”, “Modxali jug‘rofiya umroniy”, “Muxtasari jug‘rofiyai rusiy”, “Muntahabi ba xabari Ihyoi umumiy”, “Tafakkur ul-atrof”, “Kitobat ul-atfol”, “Amaliyoti Islom”, “Kitobi muntahabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya”, “Tarixi Islom”, “Tatbiqoti diniya va fanniya”, “Alifboi maktabi Islomiya” kitoblarning asl nusxalari vitrinalarga joylashtirilgan. [2; B.22.]

Ekspozitsiyada Behbudi bilan bir davrda ijod qilgan jadidlarning asarlari ham namoyish etilmoqda. Bular Said Vasliy qalamiga mansub “Madaniyat va zoifa shariyati islomiya”, Said Ahmad Siddiqiy qalamiga mansub va Abdulqodir Shakuriy tomonidan chop etilgan “Anjumani arvoh”, Munavvarqori qalamiga mansub “Islom aqidalari” , Abulqosim Oxunzoda Ganjiyning “Risolai ittihodiya” asari, Abduqodir Shakuriyning “Jomi-ul hikoyot” asarlaridir. [3; B.46.],

Olimning xizmatlari o‘z davrida munosib baholanmadi. Mustaqillik sharofati bilan o‘zlikni anglash, ma‘rifatparvar olimlarning mehnatlarini munosib baholash imkoniyati paydo bo‘ldi. Behbudi ham o‘z davrining buyuk ma‘rifatparvarlari Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonovlar bilan birga 2020-yil 1- oktabr “O‘qituvchilar va murabbiylar kuni arafasida “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. [4; B.7.],

2-xona Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijodxonasi interyeri

M.Behbudi ijodxonasini ko‘rsatib berish uchun taqdim etilgan stol, stullar, shkaf, devor soati XIX asr oxiri - XX asr boshlariga taaluqlidir. Ushbu mebellar Turkiston o‘lkasiga XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ko‘p miqdorda olib kelingan, bu yerda mazkur mebellardan nafaqat Chor ma‘muriyati, balki mahalliy aholi vakillar ham foydalangan. Mazkur mebellar to‘plami XIX asrning oxirgi o‘n yilligi XX asr boshlarida (asosan Birinchi jahon urushigacha) keng tarqalgan me‘morchilik, amaliy va tasviriy san‘atdagi badiiy yo‘nalish bo‘lgan “modern” uslubida tayyorlangan.

Ekspozitsiyada shuningdek, M.Behbudiy va uning zamondoshlari tomonidan keng foydalanilgan odatiy uy-ro'zg'or buyumlari: kitob o'qish uchun lavh, qalamlarni saqlash uchun qalamdon, kitob tashish uchun sumkalar ham namoyish etilmoqda. Bu paytda yozuv mashinalari ham Turkiston hududida keng tarqalgan bo'lib, undan asosan ma'muriyat vakillari, ziyoli qatlam, olimlar va noshirlar ko'proq foydalangan edi. Yozuv mashinasining M.Behbudiy yashab, ijod etgan davrda Turkistonda keng tarqalgan turi 1903-yildan ishlab chiqarila boshlangan "Kontinental" yozuv mashinasi mazkur ekspozitsiyada namoyish etilmoqda. Shuningdek, ayni davrda rasm bo'la boshlagan telefon apparati va stol soati ham ijodxonalar interyerini bezab turibdi. Turkiston o'lkasining yirik shaharlari Yangi Marg'ilon, Kattaqo'rg'on bilan birga Samarqandda ham 1876-yildayoq telegraf aloqasi tashkil etilgan edi. Stol chirog'i esa o'sha davrga xos "modern" uslubida yasalgan bo'lib, u yoritishdan tashqari xona bezagi sifatida ham xizmat qilgan va o'z davrining ziyolilari ish xonalariga o'rnatilgan. Behbudiyning zamondoshlari, safdoshlari va shogirdlari bo'limida alohida o'rinni archa qipig'i va tut daraxtidan qo'lda yasalgan globus egallaydi. Uning yuzasida lak bilan qoplangan materiklar, okeanlar va dengizlar, tog'lar va turli mamlakatlarning konturlari aks ettirilgan. Ekvatorning keng chizig'ida o'n ikkita burj belgisi tasvirlangan. Ishlab chiqarilgan yili (1313/1895) va muallif o'z davrining eng bilimdon peshqadamlaridan biri, Xo'ja Yusuf Mirfayazov (1842-1924) ning ismi to'rtta burchakda arab yozuvida ko'rsatilgan. Globus Mahmudxo'ja Behbudiy zamonida boshqa fanlar qatorida geografiya va kartografiya ham rivojlanganligining belgisidir.

3-xona: Maxmudxo'ja Behbudiyning zamondoshlari va jadidchilik siyosiy harakati

Samarqandda ham jadidchilik harakati keng yoyilib, taraqqiyparvarlarning bir qator yetuk namoyondalari yetishib chiqdi. Samarqand jadidlarining eng ko'zga ko'ringan vakili shubhasiz Mahmudxo'ja Behbudiy hisoblanadi. "Turkistondagi jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) nafaqat mashhur dramaturg va publitsist, jamoat arbobi va mashhur ulamo bo'lishidan tashqari u o'z davrining yirik olimi, noshir va matbuotchisi hamda sayohatchisi sifatida o'zidan chuqur iz qoldirdi" [5; B.37.],

Behbudiy murakkab siyosiy davrda faoliyat ko'rsatgan edi. Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistondagi barcha jadidlar, ma'rifatparvarlarni birlashtirishga intilgan yirik shaxsdir. Xoji Muin ta'riflaganidek, "Bizdagi rahbarlarining biri va balki birinchisi, shubhasiz Mahmudxo'ja Behbudiydir. Behbudiy afandi yangilik rahbarlarining biri va o'zbek adabiyoti tarixida birinchi o'runni olurg'a loyiq bir zotdir. [6; B.45.], Vitrinalarning birida XIX asr oxiri XX asr boshlarida vatanimiz hududida foydalanilgan asosiy musiqa asboblari doira, qashqar va afg'on ruboblari, nay namoyish etilgan. Musiqa asboblarining xilma-xilligi shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo xududida Eron, Qashqar, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va boshqa mintaqalar musiqiy an'analari ta'sirida o'ziga xos musiqa madaniyati shakllangan. Shuningdek, XIX asr oxiri XX asr boshlarida aholining o'ziga to'q, ziyoli qatlami orasida urf bo'lgan kiyim-kechaklar namoyish qilinmoqda. Ular, yashil atlasdan qo'lda to'qilgan yaktak, tik yoqali paxtadan tikilgan ko'ylak, binafsharang baxmaldan tikilgan do'ppi, qizil, oq va moviy chiziqlarga ega salla, binafsharang, ko'k va yashil rangli chiziqlarga ega beqasamdan tikilgan ayollar choponi, gul naqshli qo'lda ishlangan ipak abra matodan tikilgan ayollar ko'yilagi, charmdan ishlangan erkaklar va ayollar oyoq kiyimlaridan iboratdir.

4- xona: M. Behbudiy va noshirlik

Mahmudxo'ja Behbudiy noshirlik yo'nalishda ham samarali ijod qilgan hamda bu yo'nalishda o'ziga xos maktab yaratgan. Navbatdagi ekspozitsiyada olim tomonidan XX asr boshlarida nashr qilingan "Samarqand" gazetasining 45-soni va "Oyna" jurnalining bir necha sonlari namoyish etilmoqda. Muzeyning noshirlik xonasi intererida asosiy e'tibor Behbudiyning noshirlik faoliyatini yoritishga qaratilgan. Turkistonda nashr ishlari bilan dastlab podsho Rossiyasi statistika qo'mitalari shug'ullangan. Shu sababdan 1868-yildan 1910-yilgacha nashrlarning asosiy qismini rus tilidagi gazetalar tashkil etgan.

XX asr boshida, aniqrog'i, 1913-yildan Behbudiy ham matbuot ishlari bilan shug'ullanadi. Shu yil aprel oyidan rus-o'zbek va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so'ng to'rt sahifada "Samarqand" gazetasini chiqaradi. 45 sondan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to'xtagan. O'sha yilning 20-avgustidan u "Oyna" jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik jurnal asosan o'zbek tilida bo'lib, unda ixcham forsiy she'rlar, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib borilardi. "Nashriyoti Behbudiya" nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochadi. Fitratning "Bayonoi sayyohi hindi" asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etadi. Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqardi. Shuningdek, muzeyda noshirlik faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq ashyolar ham namoyish etilmoqda. Ular "Samarqand" gazetasi, "Oyna" jurnali, "Noviy Samarkand" ("Yangi Samarqand", "Samarqandi Nav") gazetalarini nashr etish uchun Samarqand viloyati harbiy gubernatori nomiga yozilgan ariza namunalari, Samarqand viloyati harbiy gubernatorining nashrlarga ruxsat beruvchi guvohnomalardan iborat hujjat namunalari va XIX asr oxiri XX asr boshlarida Germaniyaning "FORSTE & TROMM LEIPZIG" fermasida ishlab chiqarilgan Eron orqali Turkistonga olib kelingan qo'l yordamida ishlatiladigan litografiya dastgohi namoyish etilmoqda.

Muzey ekspozitsiyasida Behbudiy ning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlarini aks ettirishga e'tibor berilgan. Behbudiy 1917-yilgi fevral va oktyabr oylaridagi Rossiya imperiyasi va jahon siyosiy sahnasida ro'y berayotgan o'zgarishlarni ziyraklik bilan kuzatadi va vatanparvar inson sifatida Turkistonning kelajagi haqida chin dildan qayg'uradi. U bor kuch-g'ayratini millatni o'yg'otishga bag'ishladi. Behbudiy publitsistik maqolalarida tarix faniga alohida urg'u berib, "Moziy istiqbolning tarozusidir", degan edi. "Kutubxonai Behbudiya"ning ham 70 foizdan ko'p kitoblari tarix faniga tegishli edi. O'zi ham tarix va geografiya fanlari bilan jiddiy qiziqib, bir qator maqolalar va kitoblar yozgan.

5- xona: Maxmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy- siyosiy va falsafiy qarashlari

Behbudiy jurnalist va siyosiy faollik faoliyati bilan bir qatorda musulmon huquqshunosi ham edi. [7; B.41.], Behbudiy siyosiy arbob sifatida Rossiya imperiyasi doirasidagi Rossiya musulmonlari ittifoqi partiyasi qurultoylarida faol ishtirok etdi. Rossiyadagi mavjud yirik siyosiy partiyalarni o'rganib, ulardan sotsial-demokratlarni, ayniqsa, bolsheviklarning qarashlarini tanqid ostiga oladi va ularni hatto, xavfli oqim sifatida qoralagan edi. U monarxiyachilar partiyasi qarashlaridagi mahdudlik sababli ularga ham qarshi chiqadi, bosiqlik bilan kurash olib borib, barcha musulmonlarni birlikka chaqiradi. U o'sha murakkab davrda Muvaqqat Hukumatni turkistonlik musulmonlar bilan teng huquqli munosabat olib borishga chaqirdi va ular uchun hukumatdan ajratiladigan o'rinlar soni uchdan biridan kam bo'l- masligini talab qiladi.

1918-yilda Behbudiy "Ittifoq" jamiyatining sa'y-harakati bilan Samarqand musulmon maorif sho'basiga mudir etib tayinlanadi. Biroq, tashkilotdagi yevropalik vakillar unga ishlash uchun hech qanday imkoniyat bermadilar. Ayniqsa, Osipov isyonidan so'ng avj olgan bosh-

boshdoqliklar natijasida zo‘ravonlik lar kundan-kunga kuchayadi. Behbudiy o‘zining Toshkentga so‘nggi safari davomida ham amalda hech qanday ijobiy natijaga erisha olmaydi. U hech bir ilojisiz qoladi va barcha ishlarini tashlab, sog‘lig‘ini bahona qilib, sho‘rolarga xizmat qilishdan voz kechadi.

Sanab o‘tilgan tarixiy jarayonlar va bevosita Turkistondagi jadidchilik siyosiy qarashlarini aks ettiruvchi ashyolar varaqalar, broshyuralar, Behbudiyning va boshqa ma‘rifatparvarlarning o‘z qarashlari bayon etilgan asarlari ham muzeyda keng namoyish etilmoqda

Адабиётлар/Литература/References:

1. <https://www.lex.uz/docs/-5370794?query=Behbudiy#sr-1%7CBERDAQ>.
2. Наим Каримов. Махмудхўжа Бехбудий – Т: 2010. –
3. Mahmudjon Yunosov. Mahmudxo‘ja Behbudiy uy muzeyi.// Moziy sado. 2. 94. 2022.
4. Erkinjon Turdimov. Ezgulik qadr topadi. Zarafshonning Behbudiyisi. (Buyuk ma‘rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 145 yilligiga bag‘ishlangan) Sahnof – 2020.
5. Rajabov Q. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Bolqon urushlari va Anvar Posho haqidagi fikrlari // “Mahmudxo‘ja Behbudiy diniy-ma‘rifiy qarashlarining zamonaviy talqinlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent, 2021.
6. Qarang: Абдирашидов З., Эгамқулова Н. Махмудхўжа Бехбудий ва унинг «Ойина» журнали. - Тошкент: 2019.
7. Thomas Welsford. “Becoming Behbudiy”. // London Journal of Central Asian History 1 (2022) 37–99. thomaswelsford@hotmail.com

Жабборова Ойдина Ихтиёржон қизи
ЎзМУ таянч докторанти

**XX АСРНИНГ 20-30 ЙИЛЛАРИДА МАҲАЛЛИЙ ТАРАҚҚИЙПАРВАРЛАР ТОМОНИДАН
ИҚТИДОРЛИ ЁШЛАРНИ ГЕРМАНИЯГА ЎҚИШГА ЮБОРИЛИШНИНГ ТАШКИЛ
ҚИЛИНИШИ**

Аннотация. Ушбу мақолада XX асрнинг бошларида Туркистон ўлкасида маҳаллий тараққийпарвар зиёлилар томонидан Германияда ўқиш учун билимли ёшларни жўнатишни ташкил этиш борасида амалга оширилган саъй-ҳаракатлар, ташкилий ишлар ёритилган. Шунингдек, иқтидорли ёшларни саралаш жараёнлари, уларни сафарга жўнатиш билан боғлиқ бўлган сарф-харажатларни қоплаш борасидаги қийинчиликлар ҳамда совет ҳокимиятининг муносабати билан боғлиқ масалалар ҳам акс эттирилган.

Калит сўзлар: Туркистон, тараққийпарварлар, Германия, “Кўмак” ташкилоти, жадидлар, «Ёш бухороликлар».

Jabborova Oydina Ikhtiyorjon qizi
Basic doctoral student of NUUz

**ORGANIZATION OF SENDING TALENTED YOUTH TO STUDY IN GERMANY BY LOCAL
PROGRESSIVES IN THE 20S AND 30S OF THE XX CENTURY**

Abstract. This article describes the efforts and organizational work carried out by the local progressive intelligentsia of Turkestan at the beginning of the 20th century to organize the sending of educated youth to study in Germany. The process of selecting talented young people, the difficulties of covering the costs associated with sending them on a business trip, and the attitude of the Soviet authorities are also reflected.

Key words: Turkestan, progressists, Germany, Komak organization, Jadids, Young Bukharians.

Жабборова Ойдина Ихтиёржон қизи
Базовый докторант НУУз

**ОРГАНИЗАЦИЯ ОТПРАВКИ ТАЛАНТЛИВЫХ МОЛОДЕЖИ НА УЧЕБУ В
ГЕРМАНИЮ МЕСТНЫМИ ПРОГРЕССИСТАМИ В 20-Е И 30-Е ГОДЫ XX ВЕКА**

Аннотация. В данной статье описываются усилия и организационная работа, проведенная местной прогрессивной интеллигенцией Туркестана в начале XX века по организации направления образованной молодежи на учебу в Германию. Отражены также процесс отбора талантливой молодежи, трудности покрытия расходов, связанных с отправкой их в командировку, отношение советской власти.

Ключевые слова: Туркестан, прогрессисты, Германия, организация «Комак», джадиды, «младобухарцы».

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N05>

1920 йил сентябрда Бухоро амирлиги тугатилгач, ташкил қилинган Бухоро Халқ Республикаси раҳбарлари этиб жадидлар - илмли, маърифатли «Ёш бухороликлар» сайланди. Улар Файзулла Хўжаев, Фитрат, Усмонхўжа, Садриддин Айний, Абдулвоҳид Мунзим эдилар. Бу инсонлар амирлик давридаги қоқоқлик, истибдод ва жаҳолатнинг

авж олиш сабабини илмга, техникага эътибор қилинмаганликнинг оқибати билан изоҳлашарди. Шунинг учун ҳам улар дастлабки ишни иқтидорли ёшларни тараққий этган Германияга ўқишга юборишдан бошладилар. Бухоро Халқ Республикаси бюджетидан айнан илмга интиланлар учун Германия банкларидан бирига пул ажратилди.

“Бухоро ахбори” ва “Озод Бухоро” газеталарида 1921-1922 йилларда Германияга талаба-ўқувчилар юбориш, уларни танлаш, юборилажак ўқувчиларнинг ёши, ижтимоий аҳволи, сони ҳақидаги мақола ва хабарлар эълон қилинган. Уларда хорижга талабалар юбориш билан боғлиқ моддий ва маънавий имкониятларни излаш, саводхон болаларни танлаб олиш, уларни тиббий кўриқдан ўтказишга доир ташкилий ишлар жараёни изчил бериб борилган[1].

Хабарларда ёзилишича, Германияга ўқувчи ва талабаларни юбориш иши БХСРнинг Москвадаги ваколатхонаси бошлиғи Ато Хўжанинг фаол иштироки ҳамда Германиядаги Винсдорф шаҳарчаси мусулмонлар мачити имоми, татар миллати вакили Олимжон Идрисий, ҳукумат раҳбарларидан Файзулла Хўжаев, Қори Йўлдош Пўлатов, Абдулвоҳид Бурҳонов, Абдурауф Фитрат ташаббуслари билан амалга оширилган. “Бухоро ахбори”да 1922 йилда бухоролик 43 талаба татар халқи вакили Идрисий ҳамда Бурҳонов ва Каменскийлардан иборат махсус комиссия билан Германияга боради, деб қайд қилинган[2].

Газета маълумотларининг муҳим манбалиги шундаки, хорижга ўқиш учун талаба ва ўқувчиларни саралаб олиш ишлари енгил кечмаган, бу сабаблар билан боғлиқ аввалдан мавҳум бўлган айрим масалаларга аниқлик киритиш мумкин. Бир қатор мақола ва хабарларда бухоролик ўзига тўқ хонадонлар фарзандларини хорижга ўқишга юборишга қаршилиги туфайли сағирхоналар (етимхоналар)даги болаларни жалб қилишга тўғри келганлиги танқидий руҳда баён қилинган[3]. Айрим ҳолларда эса талаба-ўқувчилар сафини тўлдириш учун БХСР номидан Туркистон АССРдан ҳам болалар танлов йўли билан рўйхатга киритилган.

“Бухоро ахбори”даги маълумотлардан аён бўладигани, Туркияга ўқиш учун юборилган талабалар ушбу мамлакатда БХСР вакиллари фаолият олиб бораётганлари сабабли ҳеч қийинчиликларсиз жойлашиб, ўқув юртларида таҳсилни бошлаганлар. Германияга юборилган Бухоро талабалари эса уч даражага бўлинган: кичиклар, ўрталар, катталар. “Кичиклар Берлинга яқин бир шаҳарда немис болалариға аралаш пансионға қўйилғон. Ўрталар вилоятларға юборилуб, хусусий оилаларға қўйилғонлар. Катталар Берлин шаҳриға қўйилғонлар”, -деб ёзилади. Маълумотлар шуни кўрсатадики, бухоролик болалар Германияда дарҳол ўқишни бошламай, анча муддат давомида немис тилини ўрганганлар. Улар Германиянинг ўнлаб шаҳарларидаги турли олий, ўрта махсус ва хусусий ўқув юртлари бўйлаб тарқалиб кетганлар[4].

“Озод Бухоро”нинг 1923 йил чоп этилган 2 та сонидида таниқли давлат арбоби Турар Рисқуловнинг “Германияда Ўрта Осиё талабалари” номли йирик мақоласида танқидий фикрлар ҳам мавжуд бўлиб, унда: “Германияга кетган талабаларнинг ҳаммаси у ерда ўрнаша олмасдан кўписи Русияға қочиб кетибди, айрими ташқари элларда яшовчи шахслар таъсириға берилғон экан деган хусусий хабарлар эшитила бошланди... Германиядаги талабалар ўзларининг муҳтожликлари тўғрисида сўзлаб, ўзлариға ёрдам берилмаганини сўрайдурлар”[5], - тарзидаги сўзларни ўқиш мумкин. Т. Рисқулов

Германиядаги ўқув юртларида ўқиётган талабалар сони, уларнинг моддий аҳволи ва асл ватанлари билан алоқаларини воқеаларнинг жонли гувоҳи сифатида Германия сафари таассуротлари асосида ёзган.

Бухоро Халқ Республикаси барпо этилиши, дастлаб мустақил ҳаракат қилиш ҳуқуқига эга бўлгани учун 1922-1923 йилларда 70 нафардан зиёд мусулмон ёшлари Германияга ўқишга юборилди[6]. Улар турли шаҳарларда юқори малакали доктор, инженер, зироатчи, иқтисодчи, кимёгар, юрист бўлиш учун ўқишади. Германияга БХСР ҳукумати ҳомийлигида борганларнинг 16 таси Туркистондан, 56 таси Бухородан, 2 нафари Хоразмдан эди. Шубҳасиз, бу ёшлар ватанга қайтгач ҳар қанча қийинчилик ва таъқибларга қарамай Туркистоннинг ҳар жиҳатдан ривожига ўз ҳиссаларини қўша олганлар[7].

Бухороликлардан ибрат олган бошқа ҳудудлардаги маърифатпарварлар ҳам Тошкент, Хоразм ва водий вилоятларидан иқтидорли ёшларни танлаб олиб, уларни Германияга ўқишга жўнатишга ҳаракат қилишди. Аммо керакли маблағ йиғиш жараёни катта қийинчиликлар билан кечади.

Ана шундай вазиятда, Саидносирбой, Чўлпон, Мунаввар қори ва Абдулла Қодирийлар бир ташаббус билан чиқдилар. Унга кўра, 1921 йилда «Ўзбек билим ҳайъати» қошида «Кўмак» уюшмаси тузилди[8].

Бу инсонларнинг ташаббуси ва хайр-саховатидан бошқалар ҳам ибрат олишди. «Туркистон» газетасининг 1922 йил 18 декабр сонидagi хабарга кўра, Тошкентдаги бир гуруҳ маориф ва маданият арбоблари ўқишга борувчилар учун пул топширишган. Улар орасида Саидносирбой Миржалолов (йигирма минг сўм), шоир Чўлпон (етти ярим минг сўм), Мунаввар қори, Шокиржон Раҳимийлар бор эди. Бундан ташқари, Тошкент зиёлилари 2 декабрда адабий кеча уюштириб, ундан тушган етмиш беш минг сўмни ҳам Германияга юбордилар[9].

Зиёлиларнинг бундай хайр-саховатини кўриб, оддий халқ «Кўмак»ка оз бўлса-да, пул топшира бошлади. Афсуски, ўзига тўқ, бойлигини маишатга сарфлаётган баъзи кишилар бундай тадбирдан ўзларини четга олишарди. Ташаббускорларга «Шундан бошқа ташвишим йўқми?», «Меним болам ўқирмиди?», дея жавоб бериб юборишарди. Бундай калтабинликка гувоҳ бўлган Абдулла Қодирий «Муштум» журналининг 1923 йил тўртинчи сонида «Кўмак» уюшмасига ионалар» номли ҳажвиясини эълон қилди. Қодирий-Жулқунбойнинг бу ҳажвияси ўлкада катта шов-шув бўлиб, баъзи дўкондор, савдогар, боғбонлар уялганларидан «Кўмак»ка хайрия қила бошлашди. Аммо айрим мутаассиб мулла, маишатпараст кишилар, барибир саховатдан, илмга хайрия қилишдан ўзларини тортдилар[10].

Шундай бўлса-да, маърифатпарварлар, халқнинг тушунган қисми саъй-ҳаракати, Қодирий ҳажвиясининг таъсири сабабли «Кўмак»ка анчагина пул тўпланди. Бу маблағга эса Хайринисо Мажидхон қизи, Абдулвоҳид Исҳоқ, Абдулвоҳид Муродий, Солиҳ Муҳаммад, Азимбек Байрамжон, Тўлаган Мўмин, Султон Маматқул, Иброҳим Аҳмаджон, Темирбек Қозибек сингари илмга интилган ёшлар Германияга жўнаб кетдилар.

Ўша долғали, қийин замонларда ҳам ёшларнинг Германияда ўқишига, «Кўмак»ка пул тўпланишига Чўлпон, Саидносирбой, Мунаввар қори ва Абдулла Қодирий каби маърифатпарвар аждодларимиз сабабчи бўлишган[11].

Большевиклар ҳукумати томонидан Германияда таҳсил олаётган Туркистонлик ўқувчиларга нисбатан ишончсизлик йилдан йилга ортиб борди. Талабаларни ҳали ўқишини тамомламасдан турли хил баҳоналар билан СССРга қайтариш бошланди. ОГПУ (Объединённое государственное политическое управление - Бирлашган давлат сиёсий бошқармаси) ташкилоти бу йўналишда изчил қирғинни бошлаб юборди. 1929 йил Абдуваҳоб Муродий ва Бадри Сайфулмулклар алоҳида-алоҳида қамоққа олиниб маҳв этилди. 1932 йилда Ўрта Осиё давлат университетида дарс берувчи Германияда таҳсил олиб қайтган Азиз Алихўжаев устидан иш очилади. 1938 йилнинг 4-9 октябрь кунлари эса Ўзбекистонда фаолият олиб бораётган илгари Германияда таҳсил кўрган талабаларнинг барчаси "жосус" сифатида отувга ҳукм этилди[12].

Адабиётлар/Литература/References:

1. Раҳмонов К. Туркистонда матбуот тарихининг долзарб муаммолари (бакалавриятнинг тарих йўналиши талабалари учун ўқув-услубий қўлланма). – Бухоро, 2015. – Б.116.
2. Раҳмонов К. Туркистонда матбуот тарихининг долзарб муаммолари (бакалавриятнинг тарих йўналиши талабалари учун ўқув-услубий қўлланма). – Бухоро, 2015. – Б.116.
3. Қизларнинг сағирхонаси керак //Бухоро ахбори. 158-сон. 1923 йил 18 апрел.
4. Раҳмонов К. Туркистонда матбуот тарихининг долзарб муаммолари (бакалавриятнинг тарих йўналиши талабалари учун ўқув-услубий қўлланма). – Бухоро, 2015. – Б.117.
5. Раҳмонов К. Туркистонда матбуот тарихининг долзарб муаммолари (бакалавриятнинг тарих йўналиши талабалари учун ўқув-услубий қўлланма). – Бухоро, 2015. – Б.118.
6. Азизов М. Шаҳрисабзда илк "усули жаҳид" мактабини ким очган? / <https://qashqadaryogz.uz/read/sha-risabzda-ilk-usuli-zhadid-maktabini-kim-ochgan>
7. Ирзаев Б. Германия таълимини олиб қатағонга учраган жаҳидлар - Биринчи ўзбек агрономи Абдуваҳоб Муродий О'zbekiston // <https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan-53638773>
8. Умид Бекмуҳаммад. Жасоратли Қодирий // <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/768>
9. Умид Бекмуҳаммад. Жасоратли Қодирий // <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/768>
10. Умид Бекмуҳаммад. Жасоратли Қодирий // <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/768>
11. Умид Бекмуҳаммад. Жасоратли Қодирий // <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/768>
12. Ирзаев Б. Германия таълимини олиб қатағонга учраган жаҳидлар - Биринчи ўзбек агрономи Абдуваҳоб Муродий О'zbekiston // <https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan-53638773>

08.00.00- ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Эшов Мансур Пулатович

Тошкент давлат иқтисодиёт университети, академик фаолият
бўйича проректори, иқтисод фанлари доктори, профессор

E-mail: m.eshov@tsue.uz

ORCID: 0000-0001-5861-8637

Насырходжаева Дилафруз Сабитхановна

Тошкент давлат иқтисодиёт университети, "Фундаментал иқтисодиёт"
Кафедраси профессори., иқтисод фанлари доктори.

E-mail: ndiliya@yandex.ru

ORCID: 0000-0002-3465-9204

ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ КОНЦЕПЦИЯСИ ВА УНИНГ ШАКЛЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация. Мақолада яшил иқтисодиёт концепцияси ва унинг шаклланиш хусусиятлари билан боғлиқ жараёнлар тадқиқ этилган. Яшил иқтисодиётни шакллантириш жараёнига таъсир кўрсатувчи омилларнинг комплекс ривожланиш тизими асосланган бўлиб, мавжуд шарт-шароит ва имкониятлар таъсирида яшил иқтисодиётни амалга ошириш тизимини такомиллаштиришга доир илмий таклиф ва амалий тавсиялар шакллантирилган.

Калит сўзлар: яшил иқтисодиёт, иқтисодий фаровонлик, энергия самарадорлиги, узоқ муддатли иқтисодий ўсиш, экологик муаммолар, яшил иқтисодиётга ўтиш стратегияси, инсон капитали, иқтисодий ўсишнинг миллий стратегияси.

Eshov Mansur Pulatovich,

Vice-rector for Academic Affairs, Doctor of Economic Sciences, Professor

Nasyrkhojaeva Dilafruz Sabitkhanovna,

Tashkent State Economic University, Professor
of the Department of Fundamental Economics, Doctor of Economics.

GREEN ECONOMY CONCEPT AND ITS FORMATION CHARACTERISTICS

Abstract. The article examines the processes related to the concept of green economy and its formation features. The complex development system of the factors affecting the process of formation of the green economy is based on the scientific proposal and practical recommendations on the improvement of the implementation system of the green economy under the influence of the existing conditions and opportunities.

Key words: green economy, economic prosperity, energy efficiency, long-term economic growth, environmental issues, green economy transition strategy, human capital, national strategy for economic growth.

Эшов Мансур Пулатович,

Проректор по академической части,
доктор экономических наук, профессор

Насырходжаева Дилафруз Сабитхановна,

Ташкентский государственный экономический

университет, профессор кафедры «Фундаментальная экономика», доктор экономических наук

ПОНЯТИЕ «ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА» И ОСОБЕННОСТИ ЕЕ ФОРМИРОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются процессы, связанные с понятием зеленой экономики и особенности ее формирования. Комплексная система разработки факторов, влияющих на процесс формирования зеленой экономики, основана на научных предложениях и практических рекомендациях по совершенствованию системы реализации зеленой экономики под влиянием существующих условий и возможностей.

Ключевые слова: зеленая экономика, экономическое процветание, энергоэффективность, долгосрочный экономический рост, экологические проблемы, стратегия перехода к зеленой экономике, человеческий капитал, национальная стратегия экономического роста.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N06>

Кириш. Жаҳон иқтисодиётида замонавий воқеликнинг асосий хусусиятлари ишлаб чиқариш муносабатларини ташкил этиш ва тегишли самарадорликка эришишда экологик тоза ва ресурсларни тежовчи технологиялардан фойдаланиш жараёнларини ортиб бораётганлигини кўрсатмоқда. Хусусан, бу борадаги устувор ёндашувлар табиий капитални янада самарали бошқариш ҳисобига табиий ресурслардан фойдаланиш борасидаги унумдорликни ошириш, дунё аҳолисини ўсиб бораётган ҳажмини ҳисобга олиб озиқ-овқат муаммосини самарали ҳал этишда экологик хавф даражасини қисартириш, экологик хавфларнинг турли даражаларида объектив ҳимояланиш механизминини шакллантириш заруриятини юзага келтирмоқда.

| ZohoBooks | Online | Zoho | 9-29 | Integratsiyalashgan platformaga ega bo'lgan foydalanuvchilar uchun qulay interfeysni buxgalteriya dasturi |

Bugungi kunda dunyo bo'ylab eng mashhur raqamli texnologiyalardan biri bulutli texnologiyalardir. Bulutli texnologiyalar Internet xizmati sifatida xotira yoki hisoblash kuchi kabi kompyuter resurslarini taqdim etishni nazarda tutadi. Ushbu texnologiyadan foydalanishning o'ziga xos xususiyati shundaki, tashkilotlar qimmatbaho texnikani sotib olishlari, uni ta'mirlash uchun mutaxassislarni yo'llashlari yoki maxsus dasturiy ta'minotni o'rnatishlari shart emas. Bulut xizmatlaridan foydalanish uchun Internetga kirish yetarli.

Bulut texnologiyalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan raqamli makon yoki ijara uchun taqdim etilgan hisoblash kuchi hisoblanadi:

- foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan funksiyalarni (ulanish tezligi, xotira miqdori, hisoblash kuchi, shuningdek, bulutni ijaraga olgan vaqtni) mustaqil tanlash qobiliyati.
- har qanday qurilma bilan bulut texnologiyasidan foydalanish imkoniyati.
- texnik mahsulot yetkazib beruvchi bilan muntazam aloqa talab etmasligi.
- foydalanuvchi faqat foydalanadigan xizmatlar to'plami uchun to'laydi.

Bulut texnologiyalari yordamida barcha an'anaviy buxgalteriya vazifalarini amalga oshirishingiz mumkin: moliyaviy, boshqaruv, soliq hisobini elektron shaklda saqlash va statistik hisobotlarni tuzish, dastlabki hisob-kitoblarni tuzish, soliqlar va sug'urta badallarini hisoblashni amalga oshirish.

3-jadval

Buxgalteriya hisobida "bulut" dan foydalanish

| Afzalliklari | Kamchiliklari |
|---|---|
| xarajatlarni kamaytirishi | uchinchi shaxslarga ichki foydalanish ma'lumotlarini taqdim etish zarurati |
| masofaviy erkin foydalanish imkoniyati | ko'pgina elektron hisob-kitoblar foydalanuvchilarga birxil standart to'plam taklif qiladi |
| ishonchlilik (texnik nosozliklar xavfi minimallashtiriladi) | Kerakli vaqtda internetga ulanishning yo'qligi xavfi |
| har qanday vaqtda tizimda ishlash qobiliyati | kerakli darajadagi mutaxassislarning etishmasligi |

Bulutdagi buxgalteriya hisobi barcha moliyaviy operatsiyalarni qayd etish, ularni toifalar bo'yicha taqsimlash imkonini beradi (hisoblarni shakllantirish, kassa, ombor, kontragentlar bilan operatsiyalar bo'yicha xarajatlar, ish haqini to'lash). Ba'zi xizmatlar, shuningdek, mavjud ma'lumotlar bazasidan ma'lumotlarni tezda ko'chirish yoki import va eksport qilish, elektron raqamli imzo yordamida buyurtmalarni avtomatik ravishda shakllantirish va imzolash hamda uning shablonlarni yaratish imkonini beradi.

Bulutdagi buxgalteriya hisobi ko'pgina hollarda moduli veb-dastur ishlatiladi. Ya'ni, mijoz interfeysni mustaqil ravishda sozlashi, fiskal hujjatlarni shakllantirish uchun plaginlarni qo'shishi, korxonaning aniq ish vazifalariga e'tibor qaratishi mumkin.

U barcha amaldagi qonuniy talablarga muvofiq amalga oshiriladi. Ya'ni belgilangan qonun va normalar asosida hujjatlar shakllar tuziladi va yuritiladi, shu bilan birga unda belgilangan standartlarga rioya etiladi. Hujjatlar imzo bilan tasdiqlangan, bu ularga qonuniy kuch beradi.

Xulosa. Buxgalteriya hisobini raqamli texnologiyalarga transformatsiya qilish, boshqacha qilib aytganda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish bu korxonalarda moliya xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida yuzaga kelgan iqtisodiy operatsiyalarni axborot texnologiyalari yordamida muntazam ravishda qayd etib borish, saqlash va qayta ishlash jarayonidir.

Bizning fikrimizcha buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish korxonalar moliya xo'jalik faoliyati bilan bog'liq axborotlarga ehtiyoji bo'lgan barcha subyektlarga birdek ahamiyatlidir: Korxonalar boshqaruvchilariga – hisob ishlari bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirganligi va muntazam nazorat qilish imkoniyatini yaratib berganligi uchun, buxgalterlarga – bajariladigan ishlar hajmini kamaytirganligi va vaqt bo'yicha samaradorlikni oshirganligi uchun, korxonalar xodimlariga – o'zlariga tegishli bo'lgan axborotlarni tezlik bilan olish imkoniyatini berganligi uchun, mijozlarga – korxonalar bilan bog'liq operatsiyalarni masofadan turib bajarish imkoniyatini ta'minlaganligi uchun, davlat organlari xodimlariga – korxonalar moliya xo'jalik faoliyatini masofadan nazorat qila olishlari uchun.

Buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilgan dasturiy paketlarining mavjud kamchiliklariga qaramasdan, bizning fikrimizcha, barcha korxonalar iqtisodiy axborotlarni raqamli texnologiyalarga transformatsiya qilish maqsadida dasturiy ta'minotlardan keng foydalanadilar va ularning talablari asosida dasturiy ta'minotlar yildan yilga takomillashtirilib borilmoqda. Sababi shundaki, nafaqat buxgalterlar, balkim menejerlar va korxonalar boshqaruvchi vakolatli shaxslar ham avtomatlashtirishdan yuqori darajada samaraga va foydali qiymatga erishadilar.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://president.uz/ru/4049> .
2. MAT, T. Z. Management accounting and organizational change: impact of alignment of management accounting system, structure and strategy on performance. Philosophy School of Accounting, Finance and Economics Faculty of Business and Law Edith Cowan University. Perth Western Australia, 2010.
3. SCOTT, W. The impact technology is having on the accounting profession. World conference on higher education, 2009.

4. ALLAHYARI, A.; RAMAZANI, M. Firm technological change and its effects on management accounting change: case study of Iranian manufacturing firms. *Global Journal of Management and Business Research*, v. 11, n. 9, 2011.
5. ACEVEDO, L. Business benefits of information technology. *Chron*, 2019. Disponível em: <<http://smallbusiness.chron.com/business-benefits-information-technology-4021.html>>. Acesso em: 10/mai/2021
6. Razzaqova, D. A. Q. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISHNING ROLI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 2(8), 243-249.
7. Qudbiyev, N. T., Ulug'bek Erkinjon, O. G. L., & Mominov, I. L. O. (2022). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ICHKI NAZORATNING SAMARALI TIZIMI SIFATIDA ICHKI AUDITNING O'RNI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 3(1), 449-457.
8. Кундузова, К. (2023). Onlayn moliyaviy xizmatlarning xususiyatlari. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/7).
9. Раззакова, Д. (2022). Системы Автоматизации Бухгалтерского Учета-Основа Эффективного Управления Экономикой. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(5), 62-67.
10. Султонова, М. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(3), 120-130.
11. Нуралиев, Т. (2023). BIZNES JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA UNING TASHKILOT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(5), 74-81.
12. Qudbiyev, N. T., No, D. M. O. G. L., Raximjonov, U. R. O. G. L., & Razzaqova, D. A. Q. (2022). SOLIQ ORGANLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLINI OSHIRISH AHAMIYATI. *Scientific progress*, 3(1), 927-933.
13. Tohirovich, Q. N., & Ibroximovna, N. I. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA EKSPORT VA IMPORTNI SOLIQQA TORTISH XUSUSIYATLARI. *Архив научных исследований*, 5(5).
14. Nabievich, I. I. (2023). The Role and Specifics of the Valuation Method in Accounting. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 4(5), 24-31.
15. Бутабоев, М. Т. (2023). БОЛЬШИЕ ДАННЫЕ (BIG DATA) КАК ГЛАВНЫЙ РЕСУРС ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. *QO 'QON UNIVERSITETI XAVARNOMASI*, 7, 7-10.
16. Бутабоев, М., & Исманов, И. (2023). ЎЗБЕКИСТОННИНГ «ЯШИЛ» ИҚТИСОДИЁТГА ЎТИШ СТРАТЕГИЯСИ ВА УНИНГ МОЎЖИЯТИ. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(1), 28-40.
17. Ismanov, I., & Davlyatova, G. (2023, June). Prospects for economic sustainable development of textile enterprises. In *AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1)*. AIP Publishing.
18. Kudbiev, D., Tursunova, D., & Qudbiyev, N. (2022). Buxgalteriya Hisobini Avtomatlashtirish Masalalari. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 107-112.

Muminova Elnorahon Abdukarimovna
Farg'ona politexnika instituti "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri

Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li
Farg'ona politexnika instituti tayanch doktoranti

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIGA MANBALARINING O'RNI

Annotasiya. Maqolada mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda QTEMLar va ularning o'ri, ulardan foydalanish, ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish orqali respublika hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta'minlash masalalari yoritilgan. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish "yashil" o'sishni ta'minlash maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish zarurati asoslangan. Shuningdek, 2000 - 2022 yillarda elektr energiya ishlab chiqarish dinamikasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ruzgar energiyasi, quyosh energiyasi, hidroenergetika, biomasali energiya, geotermal energiya, omadli energiya, yashil iqtisodiyot, energiya resurslari.

Elnorakhon Abdukarimovna Muminova
Head of the Economics Department of the Fergana Polytechnic Institute

Uraimjonov Azizbek Raxmonjon ugli
Basic doctoral student of the Fergana Polytechnic Institute

THE ROLE OF RENEWABLE ENERGY RESOURCES IN THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

Abstract. The article discusses renewable energy sources and their role in ensuring sustainable economic growth of our country. The study also highlights the issues of ensuring that costs are covered using renewable energy sources. The transition to a green economy is based on the need to use renewable energy sources to achieve green growth. The study analyzed the dynamics of electricity production in 2000 – 2022.

Key words: renewable energy sources, wind energy, solar energy, hydropower, biomass energy, geothermal energy, happy energy, green economy, energy resources.

Муминова Элнорахон Абдукаримовна
Заведующий кафедрой "Экономика"
Ферганского политехнического института

Ураимджонов Азизбек Рахмонжон угли
Базовый докторант Ферганского политехнического института

РОЛЬ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛеноЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация. В статье рассматриваются ВИЭ и их роль в обеспечении устойчивого экономического роста нашей страны. Так же в исследовании освещены вопросы обеспечения покрытия расходов за счёт ВИЭ. Переход к «зеленой» экономике основан на необходимости использования возобновляемых

источников энергии для обеспечения «зеленого» роста. В исследовании была проанализирована динамика производства электроэнергии в 2000 – 2022 годах.

Ключевые слова: возобновляемые источники энергии, энергия ветра, солнечная энергия, гидроэнергетика, энергия биомассы, геотермальная энергия, энергия счастья, зеленая экономика, энергетические ресурсы.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N11>

Kirish. Dunyo yalpi ichki mahsuloti va aholi sonining o'sib borishi natijasida birlamchi va ikkilamchi energiya resurslariga bo'lgan talab ortib boradi. Bu esa jahon energetika konyunkturasida rivojlanishning yangi bosqichi sifatida muqobil energiya manbalarining ahamiyatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro qayta tiklanuvchi energetika agentligi (IRENA) tadqiqotlariga ko'ra, bugungi kunda qayta tiklanadigan energiya manbalari (QTEM) barcha mamlakatlarda mavjud va ularning salohiyatidan hali to'liq foydalanilmagan. Biroq 2050 yilga borib dunyoda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining 90%i qayta tiklanuvchi energiyadan olinishi mumkinligi prognoz qilinmoqda. Energiya manbalarining ishlatilishiga doir muammolar va ularning hal qilinishi global tajribalardan kelib chiqqan holda o'zgaradi. Keyingi muammolar keng doirada hisoblanib, ularning hal qilinishi davlatlar va hududlar o'rtasida o'zaro aloqalar, siyosiy va iqtisodiy qarashlar va mamlakatlararo hamkorliklar orqali hal etiladi [1].

Respublikada iqtisodiyot barqaror o'sishini ta'minlashga va aholining farovonlik darajasini oshirishga, yoqilg'i-energetika resurslariga bo'lgan talab-ehtiyojni uzluksiz qanoatlantirishga qaratilgan neft-gaz, elektr energetika, ko'mir, kimyo, qurilish industriyasini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi amalga oshirilmoqda. 22.08.2019 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4422-sonli Qarorida yuqoridagi masalalarni amalga oshirish maqsadida "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini yanada oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish" bo'yicha yo'l xaritasi belgilangan [2].

Mamlakatimizda ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish orqali respublika hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta'minlash, bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda investorlar uchun qulay sharoitlar va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-57-sonli Qarori qabul qilingan. Mazkur qarorga asosan davlat-xususiy sheriklik asosida "Shamol elektr stansiyalari" ni qurish bo'yicha qiymati 2 453 trl.so'mlik va "Quyosh fotoelektr stansiyalari" ni qurish bo'yicha qiymati 6 911 trl.so'mlik loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. B.U. Urishev va boshqalar o'z tadqiqotlarida qayta tiklanadigan energiya manbalariga asoslangan lokal energiya tizimlarining samaradorligini aniqlash usullarini o'rganganlar. Tadqiqotlarida jahon energetikasida tez rivojlanayotgan lokal energetik tizimlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan, ushbu tizimlar tarkibidagi qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan energetik qurilmalarning samaradorligini aniqlash bo'yicha hisoblar natijalari keltirilgan [4].

A.I.Qarshibaev, O.Zoxidov, va A.Xamzaevlarning tadqiqotlarida konchilik va ishlab chiqarish korxonalarida ish unumdorligi hamda ishlab chiqarish hajmining ortishi o'z-o'zidan elektr energiyasi sarfini ortishiga olib keladi [5]. Bugungi kunda konchilik hamda sanoat korxonalarining elektr energiya iste'moli samaradorligini orttirish uchun muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining yangi turlarini ishlab chiqarish ob'ektlari xududida qo'llash - muammoning oqilona yechimi bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham mazkur masala atroflicha o'rganilgan bo'lib, "Yashil iqtisodiyot"ning energetika sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarining jahondagi hozirgi holati tahlil qilingan va rivojlanish tendensiyalari Z.Nurov tadqiqotlarida o'z aksini topgan [6].

T.K.Iminov, A.V.Vahobov, T.Z.Teshaboev, M.T.Bo'taboevlarning tadqiqotlarida "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning xorijiy tajribalari, sanoatni rivojlantirishda iqtisodiy-ekologik muammolar kabi masalalari atroflicha o'rganilgan [7].

Shuning bilan qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlab chiqarish, uglerod chiqindilarini kamaytirish, enegriya tejamkorligini ta'minlash, bu borada xalqaro miqyosda erishilgan natijalarga tayanish masalalarini o'rganish xanuz muxim ilmiy ahamiyatga ega, tadqiqotlarni amalga ishirish borasidagi ilmiy yondashuvlar esa ma'lum metodologik ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimiz iqtisodiyotining tarmoq va sohalari rivojlanib borishi bilan bir qatorda energiya quvvatlariga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Mamlakatimiz aholisi va iqtisodiyotini energiya bilan ta'minlash maqsadida hukumat tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqada. Jumladan, mintaqalararo energiya resurslarini uzatish tarmoqlarini rivojlantirish, "yashil" energetika texnologiyalarini keng joriy etishning ahamiyati oshmoqda [8].

"Yashil" iqtisodiyotni shakllantirish va uning barqaror rivojlanishiga o'tish global darajada ham, O'zbekiston uchun ham ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi insoniyat kelajagi uchun muhim manba bo'lib, u BMTning qaror va hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Barqaror rivojlanishning iqtisodiy-ekologik asosi, bu "yashil" iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabr, PQ-436-son "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori bilan "O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish maqsadlari belgilandi. Mazkur Qarorga ko'ra 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning [taraqqiyot strategiyasida](#) belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida «yashil» va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish borasida aniq maqsadlar belgilangan bo'lib, "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash" dasturi qabul qilindi. Shuningdek, issiqxona gazlarini YaIMga nisbatan avvalgi yillardagi darajaga nisbatan 35 foizga qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish maqsad etib belgilandi [9].

Qayta tiklanuvchi energiya manbalalari, yoki o'zgaruvchan energiya manbalalari, energiya olish uchun ishlatilayotgan manbalalardir va har doim to'plangan va tiklanuvchi sifatida mavjud bo'ladi. Ularning afzalligi, ularning ishlatilish jarayonlarida atmosferaga zarar bermaydigan manbalalar bo'lishidir. Qayta tiklanuvchi energiya manbalalari eng keng tarqalganlarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.


1-jadval

Qayta tiklanuvchi energiya manbalalari

| № | Energiya manbalalari | Tavsifi |
|----|----------------------|---|
| 1. | Ruzgar Energiyasi | Shamol kuchlaridan olingan energiya. Ruzgar turbinlari orqali shamol kuchlarini elektr energiyasiga aylantirish uchun ishlatiladi. |
| 2. | Quyosh Energiyasi: | Quyosh nuridan olingan energiya. Quyosh paneli tizimlari orqali quyosh nuridan olingan energiyani elektr energiyasiga aylantirish uchun ishlatiladi. |
| 3. | Hydroenergetika | Suvari turbinlar orqali suv kuchlarini energiyaqa aylantirish uchun ishlatiladi. Barajlar va bendlar suvning urnishini kontrol qilish orqali energiya ishlab chiqarishni ta'minlaydi. |
| 4. | Biomasal energiya | Hayvonlar, o'simliklar, o'tkir moddalar va organik materiallardan olingan energiya. Biogaz, biomassali qurilmalar orqali ishlatiladi. |
| 5. | Geotermal Energiya | Yerin ichki qismlaridan olingan isitma energiyasi. Geotermal elektr stansiyalari orqali yerenergiyasini olish mumkin. |
| 6. | Omadli Energiya | Sun'iy havo, quyosh va shamol, o'zlarining energiyasini olib keladigan manbalalardir. Sun'iy havo o'sish, yurak, shamol va ne'matli nergiyaga aylanadi. |

Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning asosiy qismi issiqlik elektr stansiyalarida (*IES*) ishlab chiqarilmoqda. Xususan, 2022 yilda jami 74,2 mlrd kVt-soat elektr energiya ishlab chiqarilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichning 89,7%i IESlarga to'g'ri kelgan. Issiqlik elektr stansiyalarida yoqilg'i iste'moli tarkibida tabiiy gazning ulushi 90-95%ni tashkil qiladi.

Elektr energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi o'rtacha 9-11%ni tashkil qilmoqda. Bu, asosan, gidroelektrostansiyalar (*GES*) hisobiga to'g'ri kelmoqda. Tabiiy omillar sababli GESlarda ishlab chiqariladigan elektr energiya hajmi o'zgarib turadi. Mamlakatimiz GESlarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasining eng katta hajmi 2005 yilga to'g'ri kelgan. Xususan, 2005 yilda ishlab chiqarilgan jami elektr energiyasining qariyb 19%i (8,9 mlrd kVt-soat) GESlarga to'g'ri kelgan. Hidroenergetika orqali hosil qilingan elektr energiyasi 2022 yilda umumiy elektr energiyasining 8,7%ni tashkil qilgan.

1-diagramma**O'zbekistonda 2000 - 2022 yillarda elektr energiya ishlab chiqarish dinamikasi¹**

Mamlakatimizda muqobil energiya manbalaridan foydalanish va sohani rivojlantirish mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining yirik salohiyati mavjud bo'lib, umumiy salohiyat neft ekvivalentida 117,9 mlrd tonnaga, uning texnik salohiyati esa 179,3 mln t.n.e.ga teng. Ushbu salohiyatning asosiy ulushini quyosh energiyasi tashkil qilib, uning texnik salohiyati 177 mln t.n.e.ga teng. Bu esa mamlakatimizning yillik energiya balansidan bir necha barobar ortiq ekanligini ko'rsatadi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga ko'ra, mamlakatimizda 2026 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25%ga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 mlrd kub metr tabiiy gazni tejash, uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha ob'yektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini bir birlik YaIMF hisobida 10% ga qisqartirish vazifalari belgilangan.

Mamlakatimizda elektr energiyasi ishlab chiqarish yildan-yilga ortib bormoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda yiliga 10 milliard dollarlik elektr energiyasi va gaz iste'mol qilinadi. Shuningdek, bugungi kunda 2-3 milliard kilovatt soat elektr energiyasiga qo'shimcha talab mavjud. Kelgusi 5 yil ichida bu talab ikki baravar yoki qo'shimcha 10 milliard kilovatt/soatga oshishi kutilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston MDH davlatlari orasida elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha Rossiya, Ukraina va Qozog'istondan keyin 4-o'rinda turadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Markaziy Osiyo yagona energetika tizimining o'rnatilgan quvvatlarining qariyb 50 foiziga egalik qiladi.

Qayta tiklanadigan quvvatlarning global qo'shimchalari 107 gigavattga (GVt) ko'tariladi, bu esa 2023 yilda 440 GVt dan oshiqroq bo'lgan eng muhim o'sishdir. Dunyoning asosiy bozorlarida dinamik kengayish kuzatilmoqda. Qayta tiklanadigan energiya Evropaning energiya inqiroziga javob berishda birinchi o'rinda turadi va u erda ularning o'sishini tezlashtiradi. Yangi siyosat choralari kelgusi ikki yil ichida Qo'shma Shtatlar va Hindistonda

¹ Statistik ma'lumotlarga asosan muallif tomonida tuzilgan.

sezilarli o'sishga yordam beradi. Shu bilan birga, Xitoy o'zining etakchi mavqeini mustahkamlamoqda va 2023 va 2024 yillarda qayta tiklanadigan energiya quvvatlarining global qo'shimchalarining deyarli 55 foizini tashkil qiladi.

So'nggi 5 yilda elektr energiyasi, jumladan, aholi iste'moli 20 foizga oshgani ta'kidlandi. 31 foizga, bu ko'rsatkich esa yiliga 6 foizga oshib borayotgani aholi daromadlari va maishiy texnika bilan ta'minlanishi ortib borayotganidan dalolat beradi va bu elektr energiyasi iste'molida ham o'z ifodasini topmoqda.

Mamlakatimizda muqobil energiya manbalaridan foydalanish va sohani rivojlantirish zaruriyatini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

- iqlim o'zgarishlari natijasida yuzaga kelayotgan energiyaga bo'lgan talabning keskin ortishi hamda bunday favqulodda holatlarning ko'payishi mamlakat energiya ta'minotini diversifikatsiyalash zaruratini tug'dirad;

- qazib olinuvchi yoqilg'i-energetika resurslarining cheklanganligi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga bo'lgan qiziqishning ortishiga sabab bo'lmoqda;

- qazib olinuvchi yoqilg'i hamda turli xil biomassalarni yoqish natijasida atmosferaga katta miqdordagi uglerod IV oksidi (SO_2) ajralib chiqadi. QTEM esa ekologik toza hisoblanib, atmosferaga zararli moddalar chiqarmaydi;

- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish uzoq va olis hududlarni elektr va issiqlik energiyasi bilan ta'minlashda iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi;

- muqobil energiya manbalaridan foydalanishni jadallashtirish an'anaviy energiya resurslarini tejash hamda ularni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari va aholi iste'moli uchun yo'naltirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentyabrdagi PF-220-sonli farmoniga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini oshirish maqsadida mamlakatimizda aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari xarid qilishini moliyaviy rag'batlantirish choralari belgilandi. Xususan, 2022 yil 1 oktyabrdan boshlab, jismoniy shaxslarga respublikada ishlab chiqarilgan quyosh va shamol elektr stansiyasi hamda quyosh suv isitish qurilmalarini 3 yil mobaynida foizsiz bo'lib-bo'lib to'lagan holda sotib olish imkoniyati yaratilib, QTEM qurilmalari qiymatini to'liq to'lagan holda ularni xarid qilgan va o'rnatgan iste'molchilarga xarid xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish tartibi belgilandi.

1-jadval

2025-2026 yilgacha bo'lgan davrda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining yangi quvvatlarini barpo etish maqsadlari

| No | QTEM yo'nalishlari | Barpo etiladigan yangi quvvatlar |
|----|---|--|
| 1. | Kamida 8 ta shamol elektr stansiyalarini (ShES) qurish hisobiga 4 GVt qo'shimcha quvvatlarni barpo etish | 2023 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy va Qorauzak tumanlari hamda Buxoro viloyati G'ijduvon va Peshku tumanlarida 3 ta (1,1 GVt); |
| | | 2024 yilda Navoiy viloyati Tomdi tumanida 1 ta (0,5 GVt); |
| | | 2025-2026 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda kamida 4 ta (2,4 GVt) ShES ni ishga tushirish. |
| 2. | Quyosh fotoelektr stansiyalari (FES) quvvatini 4 GVt ga etkazish maqsadida kamida 10 ta FESni ishga tushirish | 2023 yilda Navoiy, Jizzax, Samarqand va Surxandaryo viloyatlarida 1,1 GVtli 4 ta; |
| | | 2025-2026 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda jami 1,8 GVt quvvatli FESlarni ishga tushirish. |

| | | |
|----|---|--|
| 3. | 15 ta yangi gidroelektr stansiyalarini (GES) qurish va 5 ta mavjud GESlarni modernizatsiya qilish hisobiga qiliga qo'shimcha 868 MVt elektr energiyasini ishlab chiqarish quvatlarini barpo etish | 2023 yil Toshkent viloyatida 1 ta GES modernizatsiyasini yakunlash hamda Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida jami quvvati 29 MVt bo'lgan 2 ta; |
| | | 2024 yilda Andijon, Namangan, Surhandaryo va Toshkent viloyatlarida 1 ta GES modernizatsiyasini yakunlash hamda jami quvvati 122 MVt bo'lgan 4 ta; |
| | | 2025-2026 yillarda Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida jami quvvati 544 MVt bo'lgan 4 ta GESlarni ishga tushirish. |

2019-2030-yillarda O'zbekiston umumiy elektr energiyasidagi QTEM ulushini oshirishni maqsad qilgan. Shuningdek, energiya samaradorligi ko'rsatkichini ikki baravar oshirish, yalpi ichki mahsulotning uglerod intensivligini pasaytirish, butun aholi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiyadan foydalanishni ta'minlashni rejalashtirmoqda. O'zbekistonning katta QTEM salohiyati yashil, ekologik toza iqtisodiyotning sezilarli rivojlanishiga turtki berishi mumkin. Mamlakatning umumiy QTEM salohiyati 117 984 million tonnani tashkil etadi, uning texnik salohiyati esa 179,3 Mtoe. Ushbu potentsialning asosiy qismi quyosh energiyasiga to'g'ri keladi (umumiy salohiyat 51 Gtoe va texnik salohiyat 177 Mtoe). Darhaqiqat, quyosh energiyasining texnik salohiyati mamlakatning asosiy energiya iste'moli deyarli to'rt baravar ko'p. Uning qulay iqlimi va geografik joylashuvi O'zbekistonga quyosh energiyasidan turli sanoat maqsadlarida foydalanish imkonini beraradi. Shamol energetikasi salohiyati 2,2 Mtoe ni tashkil etadi, bunda 19% texnik rivojlanish mumkin. Umumiy geotermal energiya salohiyati (67 Gtoe) quyosh energiyasidan ko'p bo'lsa-da, energiyaning bu turidan foydalanish uchun oddiy va tejamkor texnologiyalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, texnik rivojlanishni faqat 0,3 Mtoe bilan cheklaydi.

2-jadval

O'zbekistonning QTEM salohiyati (Million tonna neft ekvivalenti = Mtne) [11]

| Qayta tiklanadigan energiya manbai | Yalpi potentsial | Texnik salohiyat |
|------------------------------------|------------------|------------------|
| Gidroenergetika | 9,2 Mtne | 2 Mtne |
| Shamol energetika | 2,2 Mtne | 0,4 Mtne |
| Quyosh fotoelektroni | 50973 Mtne | 177 Mtne |
| Geotermal energiya | 67000 Mtne | 0,3 Mtne |
| Jami muqobil energiya manbalar | 117984 Mtne | 179,3 Mtne |

2019-2030-yillarda O'zbekiston 2030-yilga borib elektr energiyasining umumiy ishlab chiqarishdagi QTEM ulushini 25 foizdan ko'proqqa oshirishni maqsad qilgan. Shuningdek, energiya samaradorligi ko'rsatkichini ikki barobarga oshirish, yalpi ichki mahsulotning uglerod intensivligini pasaytirish, butun aholini va barchani ta'minlashni rejalashtirmoqda [12, 13]. Zamonaviy, arzon va ishonchli energiyaga ega bo'lgan iqtisodiy tarmoqlar hosil qilishni maqsad qo'ygan.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda QTEM lari rivojlantirish "Yashil iqtisodiyot" tamoyillari amalga oshirishda quyidagi natijalarga erishi mumkin:

✓ Iqtisodiy chora-tadbirlar va dastaklarni ishlab chiqish, shu jumladan, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish uchun to'lovlarni joriy etish, energiyani tejashni, shu

jumladan moliyaviy imtiyozlarni qo'llash orqali rag'batlantirish tizimini, energiyani boshqarish va energiyani ko'p talab qiluvchi korxonalar faoliyatini tekshirish .

✓ bug'-gaz va gaz turbinali agregatlari negizida yuqori samarali texnologiyalarni joriy etgan holda mavjud elektr stansiyalarining ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilish.

✓ Energiya iste'moli tizimlarini avtomatik boshqarish va o'lchash asboblari bilan to'liq jihozlash.

✓ Issiqlik energiyasini ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini joriy etish, jumladan, markaziy qozonxonalarda va o'ta kritik bug' parametrlarida ishlaydigan ko'mirda ishlaydigan bug'-turbinali energetika bloklarida kogeneratsiya qilish, qozonxonaning eskirgan uskunalarni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish.

✓ "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi va "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi qonunlarni amalga oshirish.

✓ SCADA tizimini joriy etish orqali kompressor stansiyalarini, past va o'rta bosimli gaz taqsimlash tarmoqlarini, gaz tashish tizimini modernizatsiya qilish orqali tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash, tashish va taqsimlashda tabiiy gaz yo'qotishlarini kamaytirish [14].

✓ SCADA (nazorat qiluvchi nazorat va ma'lumotlarni yig'ish) - bu sanoat jarayonlarini boshqarish uchun dasturiy ta'minot ilovalari toifasi bo'lib, asbob-uskunalar va sharoitlarni boshqarish uchun uzoq joylardan real vaqt rejimida ma'lumotlarni yig'ishdir. SCADA tashkilotlarga sanoat jarayonlari bo'yicha ma'lumotlarga asoslangan qarorlarni qabul qilish va qo'llash uchun zarur bo'lgan vositalarni taqdim etadi)

energiya samaradorligini oshirishni hisobga olgan holda binolarni qurish va rekonstruksiya qilishda arxitektura va rejalashtirish yechimlariga yondashuvlarni takomillashtirish; binolarning energiya sertifikatlash tizimini yaratish; va issiqlik izolatsiyasi uchun mavjud normalar va standartlarni qayta ko'rib chiqish (va yangilarini qabul qilish).

Адабиётлар/Литература/References:

1. <https://www.irena.org/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4422-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-4486125>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.02.2023 yildagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6385716#-6386419>
4. Уришев, Б. У., Умиров, А. П., Қуватов, У. Ж., & Жомуродова, М. К. (2022). Қайта тикланадиган энергия манбаларига асосланган локал энергия тизимларининг самарадорлигини аниқлаш. *Муқобил энергетика*, 1(04), 97-102.
5. Қаршибаев, А., Зоҳидов, О., & Ҳамзаев, А. (2022). Муқобил энергия манбалари асосида электр энергия истеъмоли самарадорлигини оширишнинг экспериментал тадқиқотлари. *Innovatsion texnologiyalar*, 1(04), 72-76.

6. Нуров, З., Ражабова, М. Х. (2022). «Яшил иқтисодиёт» да энергетика соҳасининг иқтисодий. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 781-787.
7. Иминов Т.К., Ваҳобов А.В., Тешабоев Т.З., Бўтабоев М.Т. (2019). «Зелёная экономика» ка основа устойчивого развития. Монография. -Т: «Алоқачи», 480.
8. Muminova, E. A. (2023). Green economy as a mechanism of sustainable development. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 3(4), 19-28.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabr, PQ-436-son “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6303230#6305281>
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.02.2023 yildagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-57-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6385716#-6386419>
11. Uzbekistan Energy Profile. <https://iea.blob.core.windows.net/assets/8c1cefe6-4c29-46b0-82fa-c524714e54a5/UzbekistanEnergyProfile.pdf>
12. Kurpayanidi, K. I. (2023). Scenarios of economic development of Uzbekistan in conditions of instability. *Journal Of Central Asia Economy*, 7(1), 63-80. Doi: [10.18334/asia.7.1.117188](https://doi.org/10.18334/asia.7.1.117188)
13. Курпаяниди, К. И. (2022). Вопросы разработки стратегии инвестиционной политики в условиях институциональной трансформации. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 2(3), 7-23.
14. <https://habr.com/ru/hubs/scada/articles/>

Эргашев Отамурод Тоштемирович,
Ўзбекистон Республикаси Марказий банки,
Бошқарма бошлиғи ўринбосари, PhD
E-mail: invest_777@list.ru
ORCID:0009-0001-5844-3790

КИЧИК БИЗНЕСНИ МОЛИЯ-КРЕДИТ МЕХАНИЗМЛАРИ ОРҚАЛИ ҚЎЛЛАБ- ҚУВВАТЛАШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Аннотация. Бугунги кунда иқтисодийнинг локал тармоқларидан саналган кичик бизнес субъектларини қўллаб-қувватлаш ва шу орқали миллий иқтисодийдаги қатор муаммоларни ечимига барҳам бериш анча долзарб масалалардан бирига айланиб бормоқда. Шунингдек, уларнинг фаолиятига тўсиқ бўлувчи молиявий ресурсларнинг етишмаслиги, кредит фоиз ставкаларининг юқорилиги ва бошқа сабаблар олдини олиш бўйича хулоса ва таклифлар ишлаб чиқиш ҳам мақсадга мувофиқдир. Мақола ана шу долзарб масалалар назарий ва амалий таҳлиliga бағишланган.

Калит сўзлар: кичик бизнрес, тадбиркорлик фаолияти, ишбилармонлик, кредит, фоиз ставкаси, молия-кредит механизми, пул муносабатлари, молиявий ресурс.

Ergashev Otamurod Toshtemirovich,
Central Bank of the Republic of Uzbekistan,
Deputy Head of Department, PhD

DIRECTIONS FOR SUPPORTING SMALL BUSINESS THROUGH FINANCIAL-CREDIT MECHANISMS

Abstract. Today, the support of small business entities counted from local sectors of the economy and, through it, the elimination of a number of problems in the national economy is becoming one of the much more pressing issues. It is also advisable to develop conclusions and proposals to avoid the lack of financial resources, high credit interest rates and other reasons that are an obstacle to their activities. The article is devoted to the theoretical and practical analysis of these current issues.

Keywords: small Business, Business Activity, business, credit, interest rate, financial and credit mechanism, monetary relations, financial resource.

Эргашев Отамурод Тоштемирович,
Центральный банк Республики Узбекистан,
заместитель начальника управления, PhD

НАПРАВЛЕНИЯ ПОДДЕРЖКИ МАЛОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ ФИНАНСОВО-КРЕДИТНЫЕ МЕХАНИЗМЫ

Аннотация. Сегодня поддержка субъектов малого предпринимательства из местных отраслей экономики и решение тем самым ряда проблем в национальной экономике становится одним из наиболее актуальных вопросов. Также целесообразно сделать выводы и предложения по предотвращению нехватки финансовых ресурсов, высоких процентных ставок по кредитам и других причин, препятствующих их деятельности. Статья посвящена теоретическому и практическому анализу этих актуальных вопросов.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательская деятельность, предпринимательство, кредит, процентная ставка, финансово-кредитный механизм, денежные отношения, финансовый ресурс.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N12>

Кириш. Кичик бизнес мамлакатимиз иқтисодиётини ҳаракатлантирувчи асосий кучига айланиб бормоқда. Унинг кейинги йилларда ЯИМдаги улушининг барқарор ошиб бориши ушбу фикрни тасдиқлайди. Дунё иқтисодиётига назар ташлайдиган бўлсак, кичик бизнесни молия-кредит механизмлари орқали қўллаб-қувватлаш ва улар фаолиятини самарали ривожлантириш бўйича турли молия-кредит воситалардан фойдаланиш халқаро молия муассасалари томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу воситалар асосида давлат кичик бизнесни ривожлантириш бўйича қулай муҳит шароитини яратишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистонда сўнгги йилларда бизнес юритиш муҳитини янада яхшилаш, тадбиркорликка кенг эркинлик бериш орқали кичик бизнес субъектларини қўллаб-қувватлаш, жумладан уларнинг экспорт салоҳиятини янада юксалтириш, божхона божи ва солиқ тўловлари бўйича имтиёзли тизим жорий этиш, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларининг рақобатбардошлигини таъминлаш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, шунингдек, кичик бизнес корхоналарининг инвестициявий жозибдорлигини оширишга қаратилган ислохотлар изчиллик билан амалга оширилмоқда. Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев раислигида 2023 йил 25 январь куни камбағалликни қисқартириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши ўтказилди. Йиғилишда 2022 йилда камбағаллик даражаси 17 фоиздан 14 фоизга тушгани, 1 миллион аҳоли касб-хунарга ўқитилиб, иш бошлашига кўмаклашилиб, камбағалликдан олиб чиқилгани таъкидланди. Шу даврда 200 мингга яқин тадбиркорлик субъекти ташкил қилинди, 10 мингта корхонанинг фаолияти кенгайтирилди, 11 мингта корхона қуввати тикланди [1].

Таъкидлаш жоизки, бугунги кунда иқтисодиётимизнинг етакчи локомативи деб эътироф этилаётган кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг роли ва ўрни тобора мустаҳкамланиб бораётганининг ўзи иқтисодиётимизнинг таркибида бўлаётган ижобий ўзгаришлардан далолат беради.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Иқтисодий адабиётларда “молия-кредит механизми” тушунчаси жуда кенг қўлланилади. Аммо, иқтисодий моҳияти, мазмуни ва унинг таркибий қисмлари тўғрисида умумий фикр мавжуд эмас. Таҳлиллар кўрсатишича, кўплаб иқтисодчилар “молия-кредит механизми” ва “молия механизми” тушунчаларини айнан бир хил деб ҳисоблайдилар. Олимлар ва амалиётчиларнинг ушбу атамага турли хил таърифлари ва ёндашувлари орасида иккитаси энг кўп эътиборга лойиқдир.

Биринчи ёндашув шундан иборатки, унга кўра молия механизми деганда корхоналар молиясининг фаолияти тушунилади. Ушбу ёндашув корхоналар молиясининг ички тузилмасини акс эттиради. Аммо, мазкур тушунчани молия механизми билан бир хилда қараш мақсадга мувофиқ эмас. Иккинчи ёндашув шундан иборатки, молия механизми деганда корхонанинг ҳолати ва ривожланишига таъсир кўрсатадиган усул ва дастаклар, шакл ва воситалар тўплами тушунилади.

Жумладан, хорижий иқтисодчи олимлардан О.Р.Романенконинг фикрича, “молиявий механизм - бу иқтисодий механизмнинг таркибий қисми бўлиб, молиявий рағбатлантирувчи омиллар, воситалар, дастаклар, иқтисодий жараёнлар ва муносабатларни тартибга солишнинг шакл ва усуллари мажмуасидан иборатдир”.

Бундан келиб чиққан ҳолда тижорат корхоналарининг молиявий механизми, нотижорат корхона ва муассасаларнинг молиявий механизми, суғурта механизми ҳамда давлат молиявий механизмларини ажратиб кўрсатиш мумкин[2]. Молия механизми ички тузилмасининг таркибий элементлари бўлиб, молиявий режалаштириш, молиявий дастак ва воситалар, молиявий кўрсаткичлар, норматив меъёрий ҳужжатлар ва имтиёзлар, молиявий назорат, молия ҳуқуқи кабилар ҳисобланади.

Хорижлик иқтисодчи олимлардан А.И.Балабанов ва И.Т.Балабановларнинг фикрларига кўра, молиявий механизм корхоналар, ташкилотларнинг молиявий ресурсларини рағбатлантириш мақсадида фойдаланиш ва режалаштириш жараёнида молия дастаклари ҳаракатини ифодаловчи тизимни ташкил этади, деб кўрсатилади[3]. Бошқа томондан, “молиявий механизм давлат тузилмалари, хўжалик юритувчи субъектлар ва аҳолининг турли эҳтиёжларини қондириш мақсадида молиявий ресурс маблағларини яратиш ва улардан фойдаланиш жараёнидаги давлатнинг молиявий фаолиятини бошқаришнинг иқтисодий-ташкилий ва ҳуқуқий шакллари ва усуллари тўпламидир” [4]. Юқорида кўрсатиб ўтилган таъриф мазмунидан келиб чиқиб айтишимиз мумкинки, мазкур иқтисодчи олимлар молия-кредит механизмга умумдавлат миқёсига алоҳида тўхталиб ўтиб, корхоналарда молия-кредит механизмларининг мавжудлигини бутунлай инкор қилади.

Е.И.Шохиннинг фикрича, “молиявий механизм - режалаштирилган стратегик мақсадларга эришиш учун молиявий бошқарув субъектлари ва объектларига таъсир кўрсатишнинг шакл ва усуллари тўпламидан иборатдир”. У молиянинг функцияларини тўлиқ ва самарали бажарилишини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга[5]

В.К.Сенчагов молия-кредит механизмини “молия ва кредит бошқарувини ташкил этишнинг шакллари, молия-кредит дастак ва усуллариининг ўзаро боғлиқ тизими” сифатида таърифлайди [6]. А.Бергер ва Г.Уделларнинг фикрича, молия-кредит механизми пул муносабатларининг соҳа ёки бўғинлари мажмуи сифатида таърифланиб, у ёрдамида молия-кредит инструментлари орқали кичик бизнеснинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига таъсир кўрсатилади. Пул муносабатлари бу ерда “негиз”, молия-кредит воситалари эса “устқуртма” ролида намоён бўлади[7].

Академик Д.А.Аллахвердяннинг фикрича, молия-кредит механизми такрор ишлаб чиқариш жараёнидаги ўзаро боғлиқликдаги иқтисодий муносабатлар ва уларнинг молиявий ресурслардан самарали фойдаланиш жараёни натижасини ифодаловчи восита-дастакларнинг миқдор ва сифат кўрсаткичлари комплекс мажмуасидан иборат.

Мамлакатимиз иқтисодчи олимларидан А.Ваҳобов ва Т.Маликовларнинг таъкидлашича, “молиянинг функциялари молия механизми орқали амалга оширилади. Бу механизм миллий хўжаликдаги молиявий муносабатлар ташкилий шакллариининг мажмуини, марказлаштирилган ва марказлаштирилмаган пул маблағлари фондларини шакллантириш ва улардан фойдаланиш тартибини, молиявий режалаштириш методларини, молия ва молия тизимини бошқариш шакллариини, молиявий қонунчилиқни ўз ичига олади”[8]. Б.О.Турсунов, Ҳ.А.Тўхташева тадқиқотларида кичик бизнесни молия-кредит механизмлари миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини оширишнинг асосий омили сифатида қайд этилади[9].

Муҳокама. Маълумки, молиялаштиришнинг моддий асослари молиявий ресурслар ва кредитлардир. Уларнинг ҳажми ва даражаси хўжалик юритувчи

субъектларнинг молия-кредит салоҳиятига хизмат қилади ҳамда уларнинг ривожланиши учун тегишли шарт-шароитлар яратади. Корхона ва ташкилотларнинг хўжалик юритиш фаолиятидаги ҳамда мамлакат ижтимоий иқтисодий тараққиётининг асосий молиявий манбалари бўлиб молия ва кредит ресурслари ҳисобланади. ЯИМни яратиш, тақсимлаш нуқтаи-назаридан молия-кредит механизми макроиқтисодий ва микроиқтисодий даражада қараб чиқиш имконини беради.

Агар молия пул билан боғлиқ бўлган алоқа муносабатларини ифодаловчи объектив иқтисодий категория сифатида гавдаланса, молиявий механизм эса молияни бошқариш ёки молия турли молиявий методлар асосида молиявий дастак ва воситалар орқали молиявий муносабатларга таъсир этишдир[10].

Макроиқтисодий даражадаги молия-кредит механизми учун давлат томонидан қўлланиладиган режалар, кўрсаткичлар, усуллар ва ҳуқуқий ҳужжатлар характерлидир. Микроиқтисодий даражада молия-кредит механизми хўжалик юритиш субъектлари молия-кредит механизмини бошқариш жараёнини тавсифлайди.

Молия-кредит механизми корхона миқёси билангина чегараланиб қолмайди, балки бюджет ва бюджетдан ташқари фондлар, банклар ва бошқа кредиторлар, институционал инвесторлар билан бевосита узвий муносабатлар тизимига асосланади. Кичик бизнес субъектлари учун молиявий стратегияни ишлаб чиқишда жорий молиявий мажбуриятларнинг бажарилишини таъминлаш, вақтинча бўш бўлган молиявий ресурсларни жойлаштириш ҳамда уларни самарадорлигини таҳлил этиш муҳим ўрин тутаяди. Капиталнинг доиравий айланиши бўйича фаолият функциялари такрор ишлаб чиқариш, тақсимот ва назоратни ташкил этишга қаратилса, молиявий ресурслар таъминоти бўйича функцияларда пул айланмасини ташкил этиш, молиявий воситалар ва сармоялар билан таъминлаш, шунингдек, асосий ва айланма фондлар мутаносиблигига эришиш талаб этилади. Кредит ресурсларининг айланиши бўйича функцияларга кредит улушини аниқлаш, кредит рискининг олдини олиш, уларнинг қайтарилиш тартибини ишлаб чиқиш ва назорат қилиш киритилади.

Ўзбекистонда олиб борилган кичик ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш сиёсати ушбу соҳада ишлаб чиқаришнинг юқори ўсиш суръатларини таъминлади. Бугунги кунда бизнес-муҳитни янада яхшилаш бўйича тизимли чора-тадбирларни амалга ошириш кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг барқарор иқтисодий ўсишини таъминлаш ва қўллаб-қувватлаш имконини бермоқда.


Ўзбекистон Республикасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг улуши ЯИМга нисбатан 31 фоизни ташкил этган бўлса, 2022 йилга келиб мазкур улуш салмоғи 51,8 фоизга ўсган. Мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ЯИМдаги улуши бўйича қайд этилган кўрсаткичлар аксарият бозор иқтисодиёти ривожланган мамлакатлар кўрсаткичларидан юқори ҳисобланади. Жумладан, ушбу кўрсаткич Италияда 60,0 фоизни, Японияда 55,0 фоизни, Германияда 54,0 фоизни, Буюк Британияда 53,0 фоизни ташкил этади. МДҲ мамлакатлари гуруҳидан Қозоғистонда 25,6 фоиз, Россия Федерациясида эса 20,0 фоизга тенг[13].

Бунда турли мамлакатларда кичик бизнес соҳасига тегишли ўрнатилган меъёрлар турлича эканлигини ҳам инобатга олиш лозим. Масалан, АҚШда савдо соҳасида ҳодимлар сони 100 кишигача бўлган иқтисодий субъектлар кичик бизнес вакиллари ҳисобланади, жумладан, ишлаб чиқариш ва нефтни қайта ишлаб саноатида

бўлса ҳодимларининг сони 1 500 тагача, электроника маҳсулотларини ишлаб чиқариш соҳасида эса ҳодимлар сони 1 000 тагача бўлган иқтисодий субъектлар кичик бизнес вакиллари ҳисобланади.

Европа Иттифоқи мамлакатларида эса ҳолат бироз ўзгача кўринишга эга. Минтақада ишчилари сони 1-9 тагача бўлган, корхонанинг йиллик айланмаси ва баланси 2 млн. еврогача бўлган иқтисодий субъектлар микро бизнес вакиллари ҳисобланса, иш ўрни 10-49 тагача бўлган йиллик капитал айланмаси ва баланси ҳажми 10 млн. еврогача бўлган иш берувчилар кичик бизнес субъекти ҳисобланади [11].

Қуймда келтирилган 1-жадвал маълумотларидан кўринадики, таҳлил қилинаётган даврда асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялар салмоғи 2017 йилда 119,4 фоизни ташкил этган бўлса, 2022 йилга келиб бундай ўсиш тенденцияси 100,2 фоизга пасайган. 2017-2019 йилларда асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялар салмоғи ўртача 129 фоизни ташкил этган. Кичик бизнес корхоналари асосий капиталга киритилган инвестицияларини молиялаштириш манбалари бўйича солиштира салмоғининг таҳлили шуни кўрсатадики, бу борада энг катта салмоқ чет эл инвесторлари маблағларига тегишли бўлиб, у 2016 йилдаги 52,7 фоиздан 2022 йилда 59,4 фоизга қадар ўсган.



1-расм. Ўзбекистонда кичик бизнес корхоналарнинг инвестиция ресурсларидан фойдаланиш ҳолати, фоизда [13]

Ўз салмоғининг аҳамиятлилиги бўйича навбатдаги манба корхонанинг ўз маблағлари бўлиб, у 2017 йилдаги 47,3 фоиздан 2022 йилда 40,6 фоизга қадар пасайган. Банкларнинг кредитлари ва бошқа қарз маблағларининг салмоғи тегишли равишда қарийб 12,6 фоизлик кўрсаткичдан 6,6 фоизга камайган. Бундан кўринадики, тадқиқ этилаётган даврда кичик бизнес корхоналарининг асосий капиталга киритилган инвестицияларини молиялаштириш манбалари орасида чет эл инвесторлари маблағлари ва чет эл кредитларининг салмоғида ўсиш тенденциялари кузатилмоқда. Кичик бизнес корхоналарида асосий капиталга киритилган инвестицияларнинг мамлакат ҳудудлари бўйича солиштира салмоғида сезиларли тафовутлар мавжуд.

Ўзбекистон Республикаси Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш давлат

жамғармасининг 2024 йилги даромадлари 96,9 млрд сўмни ташкил этиши прогноз қилинмоқда. Шу билан бирга жамғармага Давлат бюджетидан Ўзбекистон Республикаси Президентининг тегишли қарорларига мувофиқ кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектларининг тадбиркорлик ташаббусларини молиявий қўллаб-қувватлаш учун тижорат банкларининг кредитлари бўйича фоиз харажатларини қоплаш мақсадида компенсациялар ва кафилликлар беришга 947,0 млрд сўм ажратилиши режалаштирилган. Жамғарма харажатлари 1 008,0 млрд сўмни ташкил этиб, шундан тижорат банкларига қарз олувчиларнинг кредитлари бўйича тақдим этилган кафолатлар билан боғлиқ тўловларни тўлашга 29,5 млрд сўм, тижорат банкларининг 95 кредитлари бўйича фоиз харажатларининг бир қисмини қоплаш учун компенсациялар беришга 940,3 млрд сўм ва жамғармани сақлаш харажатларига 28,7 млрд сўм йўналтириш режалаштирилган.

Миллий иқтисодиёт тармоқларида юқори сифатли ва рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришга мўлжалланган истиқболли лойиҳаларни амалга оширишда кичик бизнес субъектлари иштирокини фаоллаштириш муайян миқдордаги молиявий маблағларни талаб этади. Мазкур жараёнда кичик бизнес субъектлари фаолиятини молиявий қўллаб-қувватлашнинг самарали тизимини яратиш орқали молиявий ресурсларни жамлаш ва уларни истиқболли лойиҳаларга йўналтириш ҳамда иқтисодиёт тармоқларига жорий этиш барқарор иқтисодий ўсишнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Натижалар. Молия-кредит механизмини шакллантириш аҳамияти шундаки, мазкур механизм жамият ижтимоий-иқтисодий тараққиёти билан узвий боғлиқдир. Чунки, реал секторнинг самарали фаолияти бевосита молия секторига боғлиқ, айнан молия секторига молия муассасалари томонидан молиявий ресурсларни яратиш, тақсимлаш функцияларининг ўз вақтида бажарилмаслиги реал сектордаги иқтисодиёт тармоқ ва соҳаларининг инқирозга юз тутишига сабаб бўлади. Шунингдек, молия-кредит механизмининг асосий блок воситалари бўлиб бизнинг фикримизча, молия-кредит режалаштириш, молия-кредит восита ва дастаклари, ташкилий-хуқуқий механизмлар ҳисобланади.

Айрим замонавий иқтисодчилар эса, субъектлар ўртасидаги пул муносабатларини бошқариш шакл ва усуллари тизимини ўзида ифодаловчи корхоналарнинг молия-кредит механизмини ажратиб кўрсатганлар. Хусусан, Л.В.Попованинг фикрига кўра, корхонанинг молия-кредит механизми бу шакл ва усулларнинг тартибга солинган тўплами бўлиб, у орқали корхона ўзини зарур пул маблағлари билан таъминлайди ҳамда молиялаштириш ёки кредитлаш шартлари асосида бўлинмалар ўртасида қайта тақсимлаган ҳолда барқарорлик ва ликвидликнинг маълум даражасига эришади, фойда олиш ва капитал қийматини оширишни таъминлайди[12].

Фикримизча, молия-кредит механизми бу кичик бизнеснинг ривожланишига бевосита эмас, балки билвосита, молия-кредит воситалари орқали таъсир кўрсатадиган пул муносабатларининг мажмуидир. Молия-кредит воситаларига солиқлар, давлат буюртмалари билан таъминлаш, бино ва ускуналарни ижарага бериш шартлари, фоиз ставкаларини субсидиялаш, банк тўловлари, бож тўловлари, микромолиялаштириш, франчайзинг, суғурта, тезлаштирилган амортизация, банк кредити, микрокредитлаш,

солиқ имтиёзлари, бюджет ссудаси, тижорат кредити, факторинг ва лизинг кабиларни киритиш мумкин. Молия-кредит воситаларининг асосий мақсади кичик бизнесни ривожлантириш учун молиявий ресурсларни излашдан иборатдир.

Хулоса. Ўзбекистонда кичик бизнес субъектларини ривожлантиришнинг молия-кредит механизмини такомиллаштириш бўйича қуйидаги ишларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

– кичик бизнес субъектлари учун молиявий стратегияни ишлаб чиқишда жорий молиявий мажбуриятларнинг бажарилишини таъминлаш, вақтинча бўш бўлган молиявий ресурсларни жойлаштириш ҳамда уларни самарадорлигини таҳлил этиш лозим;

– замонавий хориж амалий тажрибасида кичик бизнес субъектларини кредитлашда, кичик бизнес субъектлари ўртасида махсус сўрономалар ўтказилиши ва унинг натижасида аниқланган камчиликлар асосида келгуси кредитлаш жараёнини ташкил этишни Ўзбекистон амалиётида қўллаш керак;

– республикада кичик бизнес субъектларига ажратилаётган кредит фоиз ставкаларининг юқорилиги ва кўплаб кредитлар қисқа муддатга, тадбиркор учун ноқулай шартларда берилмоқда. Бу ўз навбатида хорижий валютадаги кредитлар валюта курсининг мунтазам ўсиши ҳисобига тадбиркор учун қўшимча харажатларни юзага келтирмоқда. Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш давлат жамғармаси томонидан кўрсатилган молиявий ёрдам асосида ажратилган кредитларнинг кафиллик, компенсация ва ресурс маблағлари асосида шартномалар тузиш;

кичик бизнес субъектларига молиявий ёрдам сифатида ажратилаётган кредитларни республика минтақалари ички салоҳиятини ҳисобга олган ҳолда ҳамда фаолият кўрсатаётган бизнес субъектларининг ривожланиш даражасига кўра ажратиш керак;

Адабиётлар/Литература/References:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/5839>. Аҳоли бандлигини таъминлаш борасидаги имкониятлар кўрсатиб ўтилди. 2023 йил 25 январь.
2. Романенко О.Р. Финанси: Пидручник. – К.: ЦНЛ, 2003. – 312 с.
3. Балабанов А.И., Балабанов И.Т. Финансы. – СПб.: Питер, 2000. – 192с.
4. Базилевич В.Д., Бонастрик Л.О. Государственные финансы. / За ред. Базилевича В.Д. – К.: Атика, 2004. 380 с.
5. Финансовый менеджмент: учебник / коллектив авторов; под ред. проф. Е.И. Шохина. - 4е изд., стер. – Москва: КНОРУС, 2017. – 476 с.
6. Сенчагов В.К. Финансовый механизм в повышение эффективности производства. М., 1979. С. 5.
7. Berger, Allen N. and Udell, Gregory F. The Economics of Small Business Finance: The Roles of Private Equity and Debt Markets in the Financial Growth Cycle. Journal of banking and finance. Vol. 22, 1998. p. 69.
8. Ваҳобов А.В., Маликов Т.С. Молия. Дарслик /Тошкент Молия институти. – Тошкент: “Шарқ”, 2010. – 804 бет.

9. Tursunov, B. O., & Tokhtasheva, H. A. Q. (2021). Improving The Credit Mechanism To Increase The Competitiveness Of The National Economy. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 3(04), 73-78.
10. Булгакова Л.Н. Формирование финансового механизма и систем управления инвестиционной деятельностью предприятия // Финансы и кредит. – 2004. - №16. С. 41-49.; Ковалев В.В. Финансовый анализ: методы и процедуры. – М.: Финансы и статистика, 2006. -560.
11. Kersten R, Harms S, Liket K and Maas K. 2011 Small Firms Large Impact? A Systematic Review of the SME Finance Literature. *World Development* 97 p. 330-348
12. Попова Л.В. Финансово-кредитный механизм воспроизводства капитала в агроформированиях. Дисс. на соискание ученой степени доктора экономических наук. Волгоград – 2008. 43 с.
13. www.stat.uz. - Ўзбекистон Республикаси статистика агентлиги сайти.

Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna,
Urganch davlat universiteti, dotsenti

Qobulov Ozodbek O`ktambov og`li,
Urganch davlat universiteti o`qituvchisi

**MINTAQALARDA GLOBAL OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA QISHLOQ XO`JALIGINI
RIVOJLANTIRISHDA TADQIQOTNING O`RNI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada, oziq-ovqat xavfsizligini kamaytirishga qaratilgan tadqiqotlar, asosan rivojlanayotgan mamlakatlarni tashvishga solayotgan sohalarga qaratilgan asosiy yo`nalishlar tadqiq qilingan.

Kalit so`zlari: Oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat tizimlari, oziq-ovqat ta`minoti, ehtiyoj, samaradorlik, investitsiya, strategiya, mahsuldorlik.

Dilfuza Olimboyevna Matyokubova,
PhD of Urgench State University

Qabulov Ozodbek Oktambov ogli,
Teacher of Urgench State University

**THE ROLE OF RESEARCH IN GLOBAL FOOD SECURITY AND AGRICULTURAL
DEVELOPMENT IN THE REGIONS**

Abstract. This article reviews the main areas of research aimed at reducing food insecurity, focusing mainly on areas of concern to developing countries.

Key words: Food security, food systems, food supply, need, efficiency, investment, strategy, performance.

Дилфуза Олимбоевна Матёкубова,
PhD Ургенчского государственного университета

Кабулов Озодбек Октамбой угли,
Преподаватель Ургенчского
государственного университета

**РОЛЬ ИССЛЕДОВАНИЙ В ГЛОБАЛЬНОЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И
РАЗВИТИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РЕГИОНАХ**

Аннотация. В этой статье рассматриваются ключевые области исследований, направленных на снижение продовольственной безопасности, с особым акцентом на области, вызывающие обеспокоенность развивающихся стран.

Ключевые слова: Продовольственная безопасность, продовольственные системы, снабжение продовольствием, потребность, эффективность, инвестиции, стратегия, производительность.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N13>

Kirish. Qishloq xo`jaligi va oziq-ovqat tizimlari hozirda global issiqxona gazlari chiqindilarining deyarli uchdan bir qismi uchun javobgardir. Energetika va transport sohalarini

karbonsizlantirish bo'yicha erishilgan yutuqlar bilan birga e'tibor qishloq xo'jaligi oziq-ovqat sektoriga qaratiladi va bu iqlim o'zgarishi uchun yangi chegaraga aylanadi [1].

Qishloq xo'jaligidagi tadqiqotlar tez o'sib borayotgan aholining oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirish uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni ko'paytirish orqali oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Don va boshqa ekinlar, chorvachilik, baliqchilik samaradorligidagi katta o'sish 1960-yillarning o'rtalaridan beri jahon oziq-ovqat mahsulotlarining 80 foizga o'sishiga asosiy hissa bo'ldi.

Dunyoda oziq-ovqat ta'minoti aholi sonidan tezroq o'sganiga qaramay, davom etayotgan qashshoqlik va to'yib ovqatlanmaslik muammolari rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 20 foizini to'yib ovqatlanmaslikka olib keladi. Bozorda oziq-ovqat mavjud bo'lsa ham, oziq-ovqat mahsulotlariga kirishning yetishmasligi saqlanib qoladi. 2025-yilga borib 8,3 milliardga yetishi kutilayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash va qashshoqlikni kamaytirish uchun va resurslar bazasiga tobora kuchayib borayotgan bosim tufayli dunyo qishloq xo'jaligi mahsuldorligini sezilarli darajada oshirishga muhtoj bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili .Qishloq xo'jaligidagi tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan ilmiy asoslangan qishloq xo'jaligi texnologiyalari tabiiy resurslar va atrof-muhitning barqarorligini saqlab qolish yoki yaxshilash bilan birga unumdorlikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy fanlar tenglikni va oziq-ovqatdan foydalanishni ta'minlaydigan siyosiy ishlanmalarini kuchliroq qo'llab-quvvatlashi zarur.

Ushbu qiyinchiliklarga qaramasdan, qishloq xo'jaligi va qishloqlarni rivojlantirish uchun tabiiy va ijtimoiy yo'nalishlarga investitsiyalar so'nggi o'n yillikda sanoatlashgan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida, ularning jamiyatga bevosita va qishloqda o'sish orqali katta daromad keltirishining aniq belgilariga qaramasdan kamaydi. Qishloq xo'jaligida o'tgan yutuqlarni saqlab bo'lmaydi va rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi oziq-ovqat bilan ta'minlanmagan odamlarning ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lmagan yangi ilmiy yo'nalishlarni chetlab o'tadi, degan xavotir bor [2].

Oziq-ovqat ta'minoti va oziq-ovqat xavfsizligini oshirish uchun turli xil agroekologik sharoitlarga tayanish tizimli yondashuvlarni, texnologiyani ishlab chiqarish va uzatishda fermerlarning o'zlarini ko'proq ishtirok etishni hamda fermerlar ehtiyojlarini qondirish uchun tadqiqotchilar va kengaytma ishchilarining fikrlash tarzini o'zgartirishni talab qiladi. Sug'orish, erlarni yaxshilash, yangi qishloq xo'jaligi asboblari va mashinalari, chorva zotlari va o'simlik navlarini yaratish uchun turli xil xo'jaliklarda investitsiyalar talab qilinadi. Sarmoyaning katta qismi fermerlarning shaxsiy mehnati shaklida bo'ladi. Yuqori va quyi oqim investitsiyalari barqaror intensivlashtirishning yangi shakllarini jismoniy jihatdan mumkin va xususiy foyda keltirishi uchun yangi turdagi xom ashyo, o'simlik yoki hayvon zotlari va mashinalari, qayta ishlash, sotish va saqlash ob'ektlari bilan ta'minlaydi. Qishloq infratuzilmasiga investitsiyalarni osonlashtirish ishlab chiqaruvchilarni iste'molchilarning ortib borayotgan qismi yashaydigan mega-shaharlar bilan bog'laydi va ijtimoiy xizmatlar qishloq aholisiga yangi imkoniyatlarga jismoniy va ruhiy jihatdan javob berishga imkon beradi. Muhim transchegaraviy va global muammolarga e'tibor kerak bo'ladi, birlashtirilgan investitsiyalar texnologiya va resurslarni boshqarishning umumiy muammolariga yondashishda alohida mamlakat harakatlariga qaraganda tejamkorroqdir. Global ittifoqlar dunyo oziq-ovqat ta'minotining paydo bo'layotgan tendentsiyalarini va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni kuzatishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy usul, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va abstrakt fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Qishloq xo'jaligi tadqiqotlari kun tartibi oziq-ovqat xavfsizligi, qashshoqlik, resurslar va atrof-muhit degradatsiyasi muammolariga javob berishi kerak. U rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning hukumatlari va institutlari tomonidan xususiy va davlat sektorlari o'rtasidagi tadqiqot manfaatlarining taqsimlanishini to'liq hisobga olgan holda tadqiqot sarmoyalari va strategiyalarini tanlash asosida shakllantiriladi. Ushbu maqola oziq-ovqat xavfsizligini kamaytirishga qaratilgan tadqiqotlar uchun uchta asosiy yo'nalish e'tiborga olingan. U asosan rivojlanayotgan mamlakatlarni tashvishga soladigan sohalarga qaratilgan:

➤ Asosiy ekinlar, chorvachilik va baliqchilik, ayniqsa kambag'al odamlar tayanadigan mahsulotlar va ularning oziq-ovqat ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi tizimlarida mahsuldorlikni oshirish bo'yicha aniq qiyinchiliklarni hal qilish uchun maqsadli davlat tadqiqotlari va xususiy tadqiqotlarni rag'batlantirish zarur.

➤ Intizomga yo'naltirilgan tadqiqotlar bilan bir qatorda, ekinlar, chorvachilik, baliq va o'rmonlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadigan, inson salomatligi, gender tenglik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, shu jumladan yer, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni o'rganadigan yanada yaxlit tadqiqot mavzulariga e'tibor qaratish lozim.

➤ Noto'g'ri yoki oddiygina samarasiz siyosat natijasida qishloq xo'jaligi taraqqiyotidagi kengroq cheklovlarni aniqlash uchun siyosat tadqiqotlari milliy va xalqaro darajada olib borilishi kerak. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tadqiqotlar tadqiqot kun tartibiga ustuvor ahamiyat berish va siyosatchilarni noto'g'ri siyosatning oqibatlarini va oziq-ovqat xavfsizligi va qashshoqlik milliy muammolarini hal qilishda qishloq xo'jaligi tadqiqotlarining ahamiyati haqida ma'lumot berishga hissa qo'shishi mumkin. Bozor kon'yunkturasi, siyosiy muhit, xususiy sektor ishtiroki, fermerlarning xabardorligi va jamoaviy tashkilot darajasi, shuningdek, donorlarning ustuvorliklaridagi asosiy o'zgarishlar so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi tadqiqotlariga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Ularni tushunish va hal qilish lozim. Qishloq xo'jaligi qashshoqlik muammosini yolg'iz hal qila olmasa-da, ishlab chiqarishni ko'paytirish va oziq-ovqatdan foydalanishga qaratilgan milliy siyosat oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash uchun bir xil darajada muhim kalit hisoblanadi.

Milliy qishloq xo'jaligi tadqiqot tizimlari (NARS) [3] - hukumatga asoslangan institutlar, universitetlar, nodavlat tashkilotlar (NNT) [4] va tobora ko'proq xususiy sanoat - global qishloq xo'jaligi tadqiqot tizimining asosi hisoblanadi va shunday bo'lib qoladi. Faqat ular o'z mamlakatlarida unumdorlik va barqarorlik masalalarini hal qilish uchun mas'ul bo'lishi mumkin. Agroekologik sharoitlarning xilma-xilligini va kichik fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishining joylashuvi va tabiiy resurslarni boshqarish muammolarini hisobga olgan holda, NARS ular tarkibiy qismi bo'lgan global qishloq xo'jaligi tadqiqotlari tizimi o'rtasidagi interfeys sifatida fermerlar va boshqa tabiiy resurslardan foydalanuvchilar uchun yanada katta rol o'ynashi kerak. Global qishloq xo'jaligi tadqiqot tizimining muvaffaqiyati samarali texnologiyalarni uzatish mexanizmi bilan to'ldiriladigan kuchli milliy tadqiqot salohiyatiga bog'liq. NARS ular bilan mintaqaviy va xalqaro ilmiy-tadqiqot institutlari, shu jumladan Xalqaro qishloq xo'jaligi tadqiqotlari bo'yicha maslahat guruhi (CGIAR) [5] o'rtasidagi mustahkam hamkorlik global tadqiqot tizimi samaradorligini oshirishning yana bir asosiy shartidir.

Xususiy sanoat qishloq xo'jaligi tadqiqotlari bilan, masalan, qishloq xo'jaligiga biotexnologiyani qo'llash orqali tobora ko'proq jalb qilinmoqda. Agrokimyo sanoati va qishloq xo'jaligi asbob-uskunalari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqot ishlari ham asosan sanoati rivojlangan mamlakatlarning xususiy sektoriga asoslangan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda texnologiyalarni ishlab chiqarish uchun xususiy sektor tadqiqotlari uchun yetarli iqtisodiy rag'batlarning yo'qligi so'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlardagi NARS xalqaro ishtirokining umumiy pasayishi bilan birlashtirildi. Bu tendentsiyalarni orqaga qaytarish kerak. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi tadqiqotlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni sezilarli darajada oshirish muhim, ammo ko'paytirish moliyalashtirish yetarli bo'lmaydi: chuqur institutsional islohotlar ham talab qilinadi. Shu bilan birga, CGIAR xalqaro markazlarini barqaror va sezilarli darajada moliyalashtirishni ta'minlash kerak. Shuningdek, bu vazifani bajarish uchun sanoati rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lgan katta inson resurslari rezervuarini safarbar etish zarur. Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha global muammoga duch kelganda, bu resurslarning yemirilishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha puxta ishlab chiqilgan va taqdim etilgan qishloq xo'jaligi tadqiqot dasturi, keng ma'noda, barcha rivojlanayotgan va sanoati rivojlangan mamlakatlar, hukumat va xususiy sektorlarning qat'iy qo'llab-quvvatlashi bilan global hamjamiyat oziq-ovqat xavfsizligiga hissa qo'shish uchun ishlab chiqishi keyingi ikki-uch o'n yillikda mumkin bo'lgan eng yaxshi vositalardan biridir.

Xulosa. Garchi ko'pchilik odamlar oziq-ovqat bilan ta'minlanmagan bo'lsa-da, butun dunyo so'nggi o'n yilliklarda umumiy oziq-ovqat talabini qondirishda muvaffaqiyat qozondi. FAO tomonidan o'z tadqiqotida Jahon qishloq xo'jaligi hisob-kitoblarga ko'ra, oziq-ovqat ta'minoti va samarali talab o'rtasidagi umumiy muvozanatni saqlab qolish uchun oqilona istiqbollari mavjud, ammo surunkali yetishmovchilikni bartaraf etish jiddiy qo'shimcha muammo bo'lib qolmoqda. Bunga erishish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar va oziq-ovqatning adolatli taqsimlanishi hozirgacha hisoblab chiqilmagan. Yo'naltirilayotgan investitsiyalar to'g'risida bir nechta tizimli yondashuvlar mavjud, shuningdek, qishloq xo'jaligiga investitsiyalar va oziq-ovqat ta'minoti o'rtasidagi sababiy bog'liqlikning yaxshi modellari mavjud emas.

Oziq-ovqat ta'minoti va oziq-ovqat xavfsizligini oshirish uchun turli xil agroekologik sharoitlarga tayanish tizimli yondashuvlarni, texnologiyani ishlab chiqarish va uzatishda fermerlarning o'zlari ko'proq ishtirok etishni, shuningdek, tadqiqotchilar va ekspeditorlar fikrini fermerlarning ehtiyojlarini qondirish uchun o'zgartirishni talab qiladi. Sug'orish, yerlarni yaxshilash, innovatsion qishloq xo'jaligi texnika va texnologiyalari chorva zotlari va o'simlik navlarini yaratish uchun turli xil xo'jaliklarda investitsiyalar talab qilinadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. <https://www.cgiar.org>
2. <https://www.fao.org>
3. <https://www.fao.org/research-extension-systems/agricultural-research/national-agricultural-research-systems/en>
4. <https://hls.harvard.edu>
5. <https://www.cgiar.org>

Isaqova Zebo Murodovna

Davlat boshqaruvi akademiyasi tadqiqotchisi
zeboisakova@gmail.com

DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHA BOSHQARUVI STANDARTLARI INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. Hozirda O'zbekistonda davlat xizmatining bir turi bo'lgan fuqarolik xizmati sohasidagi munosabatlarni, ya'ni davlat organlari va tashkilotlari o'rta bo'g'inlari xodimlarining ishini tartibga solishga oid islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, unda davlat fuqarolik xizmatining davlat xizmatining boshqa turlaridan qanday farq qilishi, fikrimizcha, juda aniq emas. Davlat fuqarolik asosiy prinsiplari tushuntirilmagan, davlat xizmatining uzviy qismi bo'lgan xalqqa xizmat qilish tushunchasi yetarlicha ta'riflanmagan. Maqolada aynan mana shu masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat xizmati, loyiha, loyiha boshqaruvi standartlari, samaradorlik, jarayonli boshqaruv, loyihaviy boshqaruv, qadriyatlar, davlat boshqaruvi, taraqqiyot strategiyasi.

Isakova Zebo Murodovna

Researcher of the Academy of Public Administration

INTEGRATION OF PROJECT MANAGEMENT STANDARDS IN THE DEVELOPMENT OF THE PUBLIC MANAGEMENT SYSTEM

Abstract. Although Uzbekistan is currently implementing reforms in the field of the state civil service, which is a type of public service, nevertheless, in our opinion, it remains unclear, its differences from other types of public service, the basic principles of the civil service are not explained, it is not sufficiently defined the concept of serving the people, which is an integral part of public service. This article analyzes precisely these issues.

Key words: public service, project, project management standards, efficiency, process management, project management, values, public administration, development strategy.

Исакова Зебо Муродовна

научный сотрудник Академии
государственного управления

ИНТЕГРАЦИЯ СТАНДАРТОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация. Хотя в настоящее время в Узбекистане реализуются реформы в сфере государственной гражданской службы, которая является видом государственной службы, тем не менее, по нашему мнению, она остается непонятным, ее отличия от других видов государственной службы, не разъяснены основные принципы гражданской государственной службы, недостаточно определено понятие служения народу, которое является неотъемлемой частью государственной службы. В статье анализируются именно эти вопросы.

Ключевые слова: государственная служба, проект, стандарты проектного управления, эффективность, процессное управление, проектное управление, ценности, государственное управление, стратегия развития.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N14>

Ilmiy adabiyotlarda tadqiqotchilar ko'pincha davlat xizmatini alohida yuridik institut sifatida ko'rib chiqadilar. Bu yondashuv butunlay ob'ektiv ko'rinmaydi. G.V. Atamanchuk o'zi asoslab bergan davlat boshqaruvi kontseptsiyasining mohiyati va ma'nosini ochib berar ekan, davlat boshqaruvini o'rganish "davlat tomonidan shakllantirilgan hodisalar majmuasi doirasida: **"davlat – davlat hokimiyati – davlat apparati – davlat boshqaruvi – davlat xizmati"** ni o'rganish zarurligini haqli ravishda ta'kidlaydi. Xuddi shu kompleks yondashuv davlat xizmatini o'rganishda qo'llanilishi kerak, bu esa taniqli "umumiydan xususiyga" usulini amalga oshirishga imkon beradi. Davlat boshqaruvi va davlat xizmati umumiy va xususiy sifatida bir-biriga bog'liqdir, shuning uchun davlat xizmatining mohiyati va mazmunini tushunish uchun uning davlat boshqaruvidagi roli va o'rnini aniqlash kerak.

Davlat xizmati har qanday mansabdor shaxsga, hatto eng yuqori lavozimli shaxsga ham emas, balki davlatga xizmatdir. Darhaqiqat, davlat xizmatchilari, jumladan, davlatning eng yuqori rahbarlari davlat xizmatini amalga oshiradilar, davlatga ustki tuzilma sifatida emas, balki birinchi navbatda ushbu davlat aholisiga xizmat qiladilar. Lekin shu kungacha davlatga xizmat qilish tamoyilini amalga oshirishning samarali mexanizmi yaratilmagan; davlat xizmatining turli turlari o'rtasidagi munosabatlar ta'minlanmagan.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturida iqtisodiyot sohani yanada rivojlantirish masalalari taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilab olindi. Xususan, davlat boshqaruvi tizimida ish jarayonlarini maqbullashtirish, hududlarni rivojlantirish bo'yicha vazifalarni hal qilishda barcha darajadagi davlat boshqaruvi organlari hududiy boshqarmalarining samarali ishini tashkil etish, davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etishda davlat xizmatchilari va davlat organlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash tizimini joriy etish asosiy vazifalardan etib belgilandi. Shuningdek, so'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iboratligi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Chunki tashqi muhitga oid bunday muammolar har qanday davlatni ma'muriy tizimni isloh qilish, uni global o'zgarishlar va jamiyat talablariga moslashtirishga undaydi. Bu esa o'z navbatida davlat boshqaruviga oid islohotlarini amalga oshirishda biznesga yo'naltirilgan texnologiyalarning keng tarqalishini ta'minlaydi. Davlat siyosatini amalga oshirish uchun ilmiy menejmentning eng yorqin yutuqlariga aylangan dasturiy-maqsadli yondashuv, strategik rejalashtirish, strategik menejment va nihoyat, loyihalarni boshqarishni joriy etishga yetaklaydi. Tahlillarga ko'ra, ushbu yo'nalishdagi faoliyatni samarali olib borishda loyiha boshqaruvi standartlarini davlat xizmatiga joriy etish yaxshi natija beradi.

Umuman olganda, loyiha boshqaruvi standartlarini joriy etish orqali faoliyat samaradorligi ko'tarilgan, moliyaviy muvaffaqiyat va manfaatdor tomonlarning qoniqishiga olib kelgan. Jumladan, PM Solution xalqaro tashkiloti tomonidan 2022 yil yakunida dunyo bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra eng katta 64% yaxshilanish loyihalarni biznes maqsadlariga moslashtirishda kuzatildi. Sog'liqni saqlash/ijtimoiy xizmatlar tashkilotlarida manfaatdor tomonlarning qoniqish darajasi 72% ortdi. Byudjet hisobidan amalga oshirilgan loyihalar samaradorligi tashkilotlarda 74 % yaxshilandi». Shuningdek, loyiha boshqaruvida nufuzli hisoblangan PMI hisobotiga ko'ra mehnat samaradorligining biznes maqsadlariga mosligi 72% ga ortgan, byudjet yo'qotishlari 17% ni ko'rsatgan.

Natijalarga erishishga yo'naltirilganlik, samaradorlikning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari monitoringi, byudjetni tejash, ijodiy tashkiliy madaniyat kabi yangi davlat boshqaruvining elementlarini ishlab chiqish loyihalarni boshqarishni tavsiflovchi iqtisodiy va strategik vositalar majmuasi tufayli amalga oshdi. Davlat xizmatiga loyiha boshqaruvi standartlarini joriy etish davlat hokimiyati ijroiya organlarining quyidagi xususiyatlarga ega davlat dasturlari va strategiyasini samarali malga oshirishda:

- ulkan maqsadlar va ochiq mazmunga egalik;
- maqsadli ko'rsatkichlarning murakkab tabiati va ko'p bosqichli tuzilishi;
- faoliyatni amalga oshirish uchun qat'iy qonunchilik bazasining mavjudligi;
- katta miqdordagi davlat investitsiyalari;
- ko'p sonli ishtirokchilar va tashqi manfaatdor tomonlar;
- asosiy e'tiborni jamoat tovarlari va aholi turmush sifatini yaxshilashga qaratish.

Davlat organlarida loyiha boshqaruvi standartlarini joriy etish quyidagi 2 ta asosiy yo'nalishda amalga oshirishni nazarda tutadi:

- Davlat darajasida loyihalashtirish - strategik maqsadlar va ustuvorliklarni tanlash, milliy miqyosdagi loyihalar portfelini shakllantirish, ularni amalga oshirish uchun resurslarni aniqlash va ularni respublika byudjetida ta'minlash;

- Loyiha boshqaruvining davlat mexanizmini yaratish - milliy va hududiy darajadagi davlat hokimiyati organlari tizimida loyihalarni boshqarishning institutsional negizini yaratish, loyiha standartlari asosida loyiha hayotiy sikli faoliyatini (yaratish, rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat qilish, yakunlash va baholash) institutsional jihatdan mustahkamlash va huquqiy-me'yoriy tartibga solish tayyorlash, amalga oshirish, yakunlash, baholash).


Shuni ta'kidlash kerakki, loyihani boshqarish bo'yicha qo'llanma (PMBOK Guide) mavjud bo'lib, u aslida loyihalarni ishlash va boshqarish uchun uslubiy tavsiyadir. Mazkur qo'llanma standart sifatida qabul qilinib, undagi loyihani boshqarish tamoyillari loyiha amaliyotchilarining global hamjamiyatini jalb qilish orqali aniqlanadi va ishlab chiqiladi. Amaliyotchilar turli rollarda va har xil turdagi loyihalarda tajribaga ega bo'lgan turli sohalar, madaniy kelib chiqishlar va tashkilotlarni namoyon qiladi.

Mazkur standart yordamida hamda ko'p yillik tajriba asosida loyiha samaradorligini ta'minlovchi loyihaning samaradorligi sohasi aniqlandi. Loyiha samaradorlik sohasi - bu loyiha natijalarini samarali yetkazib berish uchun muhim bo'lgan o'zaro bog'liq faoliyatlar guruhi hisoblanadi. Shunisi e'tiborliki, loyiha samaradorligi loyihani amalga oshirish bilan uzviy bog'liq sanaladi. Loyihani amalga oshirish sohalari - bu interaktiv, uzviy va o'zaro bog'liq bo'lgan yo'nalishlar bo'lib, ular istalgan loyiha natijalariga erishish uchun birgalikda qo'llaniladi. Quyidagi 8 ta omil loyiha boshqaruvida muhim hisoblanadi va ular har doim e'tibor markazida bo'lishi talab etiladi:

- Manfaatdor tomonlar
- Jamoa
- Rivojlanish yondashuvi va hayotiy sikl
- Rejalashtirish
- Loyiha ishi
- Yetkazib berish,
- O'lchov
- Noaniqlik.

Davlat boshqaruvi tizimida jarayon va loyiha yondashuvini amalga oshirish ularni qo'llab-quvvatlovchi faoliyat tarkibiy qismlarida bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Davlat xizmatida loyiha va jarayonli boshqaruvining integratsiyasi davlat boshqaruvi tizimining yangi institutsional dizaynini shakllantirish uchun sharoit yaratadi, davlat qarorlarini qabul qilishda loyiha va jarayon vositalarini birlashtiradi.

Yuqoridagilarni hisobga olib aytish mumkinki, davlat xizmati tizimida loyiha boshqaruvi standartlarini joriy etish mazmuni quyidagilardan iborat: maqsadlarning yangi tamoyillari-byudjet mablag'larini o'zlashtirish uchun emas, balki milliy mintaqaviy va hududiy darajadagi aniq muammolarni hal qilish bilan yakuniy natijalarga yo'naltirilgan belgilash; ko'p bosqichli davlat boshqaruvi kommunikatsiya tizimini shakllantirish; innovatsion rivojlanish ehtiyojlarini qondiradigan inson resurslari ni rivojlantirish (1-rasm).



1-rasm. Loyiha va jarayonli boshqaruv integratsiyasi (muallif ishlanmasi)

Davlat xizmatida jarayonli boshqaruvni qo'llash bir qator qiyinchilik hosil qilishi mumkin. Jarayonga yondashishning qiyinligi shundaki, jarayonlar juda batafsil bayon etilishi taqazo qilinadi va shuning uchun o'ziga xos bo'lishi mumkin. Mazkur holat ularni hamma sohalariga tatbiq etishda chegaralaydi. Shu bilan bir qatorda jarayonlar yuqori darajada bo'lishi ham mumkin, bu ularga mavhum tus beradi va amaliyotda qo'llashni qiyinlashtiradi.

Shunday qilib, jarayonli yondashuv va loyiha boshqaruvining uyg'unlashuvi boshqaruv tizimiga yangi ko'rinishga o'zgarishiga ikkita asosiy o'zgarish ta'sir ko'rsatdi:

- Mijozga e'tibor qaratish va unga foyda keltirishni asosiy maqsad qilib olish;
- Mahsulotlarni yaratish va loyihalarni amalga oshirish uchun turli xil yondashuvlar va ramkalaridan foydalanish.

Davlat xizmatiga loyihalarni boshqarish standartlarini joriy etish metodologiyasi haqida gapirganda, quyidagi asosiy bosqichlarni ko'rsatish mumkin:

1. Davlat organlarida qiymat zanjirlarini hosil qilish, tahlil qilish, optimallashtirish
2. Loyiha boshqaruvi standartlariga asosan biznes jarayon tizimini ishlab chiqish
3. Tashkiliy tuzilmani optimallashtirish
4. Loyiha boshqaruvi jarayonlarini tartibga solish
5. Jarayonlarni boshqarish uchun ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish.

6. Strategik rejalashtirish tizimining biznes jarayonlarini boshqarish tizimi bilan integratsiyalashuvi

Yuqorida keltirilgan bosqichlarni joriy etishdan avval davlat xizmatiga xos bo'lgan byurokratik tuzilmaning o'ziga xosligini ham nazardan chetda qoldirmaslik zarur. Xususan:

- Davlat organlarida qiymat zanjirlarini hosil qilish, tahlil qilish, optimallashtirishda qiymat zanjiri yuqori darajadagi biznes jarayonlari darajasidagi biznes modeli sanaladi. Shu sababli ham davlat idorasida biznes jarayonlar qanday tuzilganligini, uning boshqaruv tizimi qanday tashkil etilganligini, qanday biznes-jarayonlar ichkarida amalga oshirilayotganligini, ular uchun kim mas'ul ekanligini, qayerda to'siqlar paydo bo'lishini, mavjud tizimdan istiqbolli biznes tizimiga qanday o'tishni aniqlasj va tahlil qilish muhim. Aytish mumkinki, mazkur bosqich davlat xizmatini optimallashtirish, uni qayta tashkil etish, strategik tahlil qilish, strategik rejalashtirish va eng yuqori darajadagi boshqa mas'uliyatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishning birinchi bosqichidir.

- Loyiha boshqaruvi standartlariga asosan biznes jarayon tizimini ishlab chiqish kasbiy faoliyat va biznes jarayonlarini modellashtirish, jarayonlarini tahlil qilish, mazkur jarayonlarini optimallashtirish bilan bog'liq. Davlat idorasi miqyosida modellashtirish muhitini joriy etish va biznes jarayonlarining elektron omborini shakllantirishning foydali jihati shundaki, u idoralararo darajada ham, davlat organi ichida ham qiymat zanjirlarini tahlil qilish davlat xizmatidan bahramand bo'luvchu mijozlari ehtiyojlarini qondirish uchun muhim bo'lgan natijalarni olish uchun biznes jarayonlar tizimini yo'naltirish imkonini beradi.

Loyihaviy jarayonlar ombori (ixtisoslashtirilgan dasturiy mahsulot) davlat idorasida biznes jarayonlari haqidagi ma'lumotlarni yaratish, yangilash va samarali foydalanish imkonini beradi, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa normativ-uslubiy hujjatlarni dasturiy jihatdan yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi.

- Tashkiliy tuzilmani optimallashtirish uchun quyidagi bosqichlarni bajarish kerak: 1) qiymat zanjirini tahlil qilish va optimallashtirish; 2) uning loyiha boshqaruvi standartlari asosida qurilgan biznes-jarayon tizimlarini tahlil qilish va optimallashtirish; 3) tashkiliy tuzilmani davlat idoralarining biznes jarayonlari tizimiga moslashtirish mavjud tashkiliy tuzilmani tahlil qilish va optimallashtirish. Faqatgina bunday tizimli yondashuv bilan davlat idoralaridagi biznes jarayonlarni rivojlantirish va strategik ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish uchun resurslardan iloji boricha samarali foydalana olasiz (kompaniya strategiyasini amalga oshirish nuqtai nazaridan). Va sizning tashkiliy tuzilmangiz buning uchun ishlaydi.

- Loyiha boshqaruvi jarayonlarini tartibga solish. Agar bir qator shartlar bajarilsa, mavjud boshqaruv jarayonlarini loyiha boshqaruvi standartlari asosida tartibga solish kasbiy faoliyatni tartibga solish va takomillashtirish uchun chinakam kuchli mexanizmdir. Bunda mijozga yo'naltirilganlik ortadi, chunki to'g'ri tartibga solish davlat xizmatini ko'rsatish jarayonni amalga oshirish texnologiyasini ham, uning operativ boshqaruvini ham, o'zgartirishlar kiritish bilan doimiy takomillashtirish imkoniyatlarini ham hisobga oladi.

5. Jarayonlarni boshqarish uchun ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish davlat idoralari maqsadlariga yo'naltirilgan motivatsiya tizimini ishlab chiqish va joriy etish bilan uzviy bog'liqdir. Davlat xizmati samaradorligi indikatorlari tizimi boshqaruvning barcha darajalari uchun ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar to'plamidir. Davlat idorasi aniq ishlab

chiqilgan strategiyasiga ega bo'lishidan qat'i nazar, jarayonlarning operatsion samaradorligini o'lchash ularni boshqarish uchun zarurdir.

6. Strategik rejalashtirish tizimining davlat xizmati jarayonlarini boshqarish tizimi bilan integratsiyalashuvi. Mazkur jarayonda loyiha boshqaruvi stabdartlarining davlat idorasi strategik maqsadlarining "vertikal" ko'rsatkichlarini barcha darajadagi biznes jarayonlarining "gorizontal" ko'rsatkichlariga ajratish amalga oshirilada. Ushbu mexanizm orqali strategik maqsadlariga erishish osoblashadi.

Xulosa sifatida shuni aytish muhimki, loyihaga yo'naltirilgan boshqaruv jarayon faoliyatini istisno qilmasligi muhimdir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish va davlat faoliyatini moliyalashtirish jarayon va loyiha tarkibiy qismlarini birlashtiradi va bu davlatning turli vazifalariga bog'liq.

Davlat xizmati ajralmas ijtimoiy-huquqiy institutdir, ya'ni. davlat apparatining turli darajadagi va turli quyi tizimlaridagi xizmatlar yig'indisi emas, balki uni yaratgan, tegishli infratuzilma hajmiga ega bo'lgan yagona bir davlatga xizmatdir¹. Davlat xizmatini aynan mana shunday anglash undan davlat funksiyalarini amalga oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, pirovardida inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish, aholi turmush darajasini oshirishda foydalanish imkonini beradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Атаманчук Г.В. Теория государственного управления: учебник. М.: Омега-Л, 2010. С. 12.
2. Кардашевский В.В. Соотношение понятий «государственная служба» и «государственное управление» - Вестник Московского университета МВД России – с. 230 -234 – 233-с.
3. Управление проектами. Полный курс MBA / А.В. Полковников, М.Ф. Дубовик. М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2015. 552 с. – 46 -с.
4. Мирошниченко И.В. Подготовка кадров для национальных проектов: экспертное заключение по итогам Российского инвестиционного форума – 2019.
5. Сущность государственной службы: история, теория, закон, практика. М., 2002. С. 122—125.
6. Хамидулин М.Б., Турсунов И.Б. Управление инвестиционными проектами/Учебное пособие/Под общей ред. академика Абдурахманова К.Х. – Тошкент: «Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи», 2021. – 304 стр.
7. Управление проектами: учебное пособие/Ш.И. Мустафакулов, Э.В. Ахаев, Б.Б. Сондибоев, М.Ш. Эгамбердиева – Тошкент: Издательский дом Инновационного развития, 2019. – 205 с.
8. Mahkamova M.A., Taraxtiyeva G.K. Loyiha faoliyatini tashkil qilish va ilgari surish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Universitet", 2022 – 224 b.
9. Usmanov S.M. O'zbekiston Respublikasi kompaniyalarida loyihaviy boshqaruvni joriy qilish. – 08.00.13. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023 – 148 b.
10. Crawford, L. & Helm, J. (2009). Government and governance: the value of project management in the public sector. *Project Management Journal*, 40(1), 73–87.

11. Мирошниченко И.В., Шпиро Л.А. Проектное управление в государственном секторе: зарубежный опыт и Российская практика / Вестник Удмуртского университета – Москва, 2019. Т. 3, вып. 3 – 360-368 стр.
12. Синявский Д.А., Моргунова Н.В., Омаров Т.Д. Исследование практики управления проектами в органах государственной власти и местного самоуправления// Экономика и управление.2012. №8 (93). С. 96-100
13. Филимошкин И.С. Внедрение проектного управления в органах исполнительной власти. Пенза, 2014.
14. Трофимова О.М., Маковкина С.А. Внедрение стандартов управления проектами в государственном и муниципальном управлении/Вопросы управления. – 2016. – стр. 52-58
15. Davlat xizmati personalini boshqarish/ Adburahmonov Q.A., Rahimova D.N. va boshqalar. – Toshkent: Akademiya. 2002.
16. Байбобоева Ф.Н., Саиднугманов У.Р. Методы привлечения негосударственных инвестиций для развития высшего профессионального образования. //Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 2015. – №14, ноябрь-декабрь;
17. Бекмуродов А.Ш. ва б. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2010. – 166 б.
18. Matmurodov F.M. Ma'muriy menejment/O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 144 b.
19. Мазур И.И., Шапиро В.Д. Управление проектами: Справочник для профессионалов. М.: Высшая школа, 2001.-875с.;
20. Королев Д. Эффективное управление проектами. М.: Олма-Пресс, 2003 – 128с;
21. Коссов В., Лившиц В., Шахназаров А. Методические рекомендации по расчету эффективности инвестиционных проектов: вторая редакция//Инвестиции в России.-2000.-№21.-С.4-7;
22. Кочетков А.И., Пикешин С.Н., Рудаков Ю.П., Шапиро В.Д., Шейнберг М.В. Управление проектами (зарубежный опыт).- СПб.: ДваТриИ, 1993.- 443с.;
23. Липсиц И.В., Коссов В.В. Инвестиционный проект. – М.: БЕК, 1996. – 304с.; Бурков В.Н., Новиков Д.А. Как управлять проектами.- М.: Синте-Гео,
24. Yuldasheva Nilufar Abduvakhidovna. (2022). Classification of innovative strategies of industrial enterprises. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(06), 239–242. Retrieved from <http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/699>
25. Yuldasheva, N. (2022). Scientific and Theoretical Aspects of the Development of Innovative Strategies in the Management of Industrial Enterprises. Bulletin of Science and Practice, 8(5), 457-461. (in Russian). <https://doi.org/10.33619/2414-2948/78/53>
26. Yuldasheva, N.A. Issues of active development of the digital economy. ISJ Theoretical & Applied Science. 05 (97). 375-379. Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS>

Улашов Алибой Рашид ўғли
Тошкент молия институти ассистенти
E-mail: aliboyulashov623@gmail.com
ORCID:0009-0001-5844-3790

**ҚОЗОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНИШИДА
МИНТАҚАВИЙ ТАФОВУТЛАРНИНГ ЎРНИ**

Аннотация. Мақолада Қозоғистон Республикасининг геосийёсий тузилмаси, бутлиги унинг ички мамурий-худудий қисмлари, минтақавий бошқарув субъектлари асосида шаклланиши ва ижтимоий-иқтисодий ҳаёти худудий ташкил этиш ва бошқариш тизими орқали амалга оширили тадқиқ этилган, шунингдек, уларни шакллантириш имкониятлари аниқланган ҳамда зарурий шароитларни яратишга қаратилган тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: Минтақавий тафовутлар, мамурий-худудий қисмлар, минтақавий бошқарув, меҳнат ва энергетик ресурслар, иқтисодиётнинг кўп укладлилиги, инфратузилманинг шаклланганлиги, иерархик босқич, иқтисодий режалаштириш, саноат тармоқлари ривожланганлиги.

Ulashova Aliboy Rashid ugli
Assistant of Tashkent Financial Institute

**THE ROLE OF REGIONAL DIFFERENCES IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF
THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN**

Abstract. The article examines the geopolitical structure of the Republic of Kazakhstan, its integrity on the basis of its internal administrative-territorial parts, regional management and socio-economic life through the system of territorial organization and management, as well as identifies opportunities for their formation and management. recommendations.

Keywords: Regional differences, administrative-territorial units, regional administration, labor and energy resources, diversification of the economy, infrastructure formation, hierarchical stage, economic planning, development of the industrial field.

Улашова Алибой Рашид угли
Ассистент Ташкентского финансового института

**РОЛЬ РЕГИОНАЛЬНЫХ РАЗЛИЧИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ
КАЗАХСТАН**

Аннотация. В статье исследуется геополитическая структура Республики Казахстан, ее целостность на основе ее внутренних административно-территориальных частей, региональное управление и социально-экономическая жизнь через систему территориальной организации и управления, а также выявляются возможности для их формирования и управления. рекомендации.

Ключевые слова: Региональные различия, административно-территориальные единицы, региональное управление, трудовые и энергетические ресурсы, диверсификация экономики, формирование инфраструктуры, иерархический этап, экономическое планирование, развитие отраслей промышленности.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N15>

Кириш. XXI аср бўсағасида халқаро ҳаётнинг мустақил субъекти сифатида Марказий Осиёнинг қайта тикланиши, шубҳасиз оламшумул ўзида муҳим жарайонларни ҳам ифодалувчи, ҳам акс эттирувчи ходиса бўлди.

Худудий ёки минтақавий тафовутлар йўқолмайди, аммо, уларни камайтириш, қисқартириш, айрим кўрсаткичлар бўйича бартараф этиш мумкин. Айниқса, ривожланаётган мамлакатлар худудлари ўртасида кескин тафовутлар намоён бўлиб туради. Марказий Осиё мамлакатлари ҳам бундан истисно эмас. Марказий Осиё мамлакатлари саноати ривожланган худудлар бошқа худудлардан ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлари билан ажралиб туради. Бундай тафовутларнинг юзага келиши узоқ тарихга бориб тақалади. Бу мамлакатда саноат тараққиёти асосан узоқ йиллар аввал жадаллашган. Бу даврда йирик уларнинг атрофидаги районларда саноат корхоналари қурилган, замонавийлаштирилган ва хорижий капитал иштирокида кўпайиб борган. Яна шуни айтиш жоизки уларнинг географик жойлашганлиги, қазилма бойликларининг қай даражада мамлакатларда тақсимланганлигига ҳам боғлиқ. Бу борада Қозоғистон ва Ўзбекистон мамлакатлари ажралиб туради. Шунинг учун ҳам бу мамлакатларда саноатнинг оғир саноат, тўқимачилик, озиқ-овқат, қурилиш материаллари саноати каби соҳалари ривож топган. Шу билан бирга, саноат корхоналари ишлаб чиқариш соҳаларида кичик ва хусусий тадбиркорлик ривожига ҳам этарли даражада таъсир кўрсатган.

Бутун минтақанинг собитқадам ва барқарор ривожланишини таъминлаш ҳамда можороли вазиятларнинг олдини олиш учун ҳозирги кунда ички ва ташқи муозанатни сақлаш ва қўллаб қувватлашгина бирдан бир мақбул тамоилдир. Минтақада географик сиёсий мувозанатни ва барқарорликни сақлаган тақдирдагина мазкур муаммаоларни ҳал этиш имкони туғулади. Шунинг учун Халқаро ва минтақавий хавфсизликка таҳдидлар тобора кучайиб бораётганини ҳисобга олиб, биз янги Мудофаа доктринасини қабул қилдик[1]. Бу, Евросиёдаги геосиёсий вазиятни тубдан ўзгаришига олиб келган, жаҳон миқёсида авж олаётган чуқур, тектоник силжишлар хосиласи бўлди. Марказий Осиёнинг иқтисодиёти мустақил субъект сифатида тикланиши, ўз навбатида, дунё миқёсида рўй бераётган жарайонларга кучли таъсир кўрсатувчи муҳим омилга айланди. Юзлаб йиллар давомида унутилган, эътибордан четда қолган ўлка бўлиб келган Марказий Осиё жаҳон ҳамжамияти томонидан қайта кашф этилди. Дунё бу минтақанинг халқаро иқтисодий, сиёсий муносабатларга, цивилизациялараро алоқаларга қўшилишига катта умид боғлади.

Марказий Осиё мамлакатлари бой меҳнат ва энергетик ресурсларга эга, бу улкан ва ҳали-ҳамон тўлиқ ўзлаштирилмаган бозор бўлиб, табиий ресурслари ўзлаштирилиши ва аҳоли фаровонлиги ошиши билан унинг истеъмол салоҳияти ҳам ортиб боради. Жаҳон мамлакатлари ривожланишидаги яна бошқа қонуниятлардан бири шуки, уларнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиётида мамлакат худудларининг ўрни ва роли бир хил бўлмасдан, турли шарт-шароитлардан келиб чиқиб ҳар хил аҳамият касб этади. Бундай вазият ёки ҳолатни фақатгина кичик давлатларда, орол давлатларида кузатмаслигимиз мумкин. Йирик ва ўрта катталиқдаги давлатларда доимо худудлар ўртасида ижтимоий-иқтисодий тафовутлар мавжуд бўлган, бу жарайонлар ҳозирги замонда ҳам давом этмоқда.

Марказий Осиё мамлакатлари минтақалари ўртасида тафовут сезиларли

даражада намаён бўлади. Бу жарайонлар ҳозирда ҳам давом этмоқда. Бу Марказий Осиё мамлакатларида ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг хусусиятларидан бирига айланди. Шу сабабли ушбу давлатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш хусусиятларини саноати ривожланган ҳудудлар мисолида аниқлаш имконияти юзага чиқди.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Минтақавий тафовут ва уларнинг вужудга келиш омиллари, сабабларини объектив асослари, минтақавий тафовутларни аниқлашнинг макроиқтисодий кўрсаткичлар тизимида тутган ўрни ва минтақавий тафовутларнинг миллий хўжалик ривожига таъсири бир нечта хорижлик иқтисодчи-олимлар томонидан кенг ўрганилган. А.Г. Гранберг “минтақа - бу бошқа ҳудудлардан бир қанча жиҳатлари билан ажралиб турадиган ва унинг таркибий элементларининг бир бутунлиги, ўзаро боғлиқлиги бўлган маълум бир ҳудуд”[2] деб таъриф берган. А.Л.Гапоненко “Ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияси: мамлакат, вилоят, шаҳар” асарида “минтақа - бу умумий ишлаб чиқариш, функционал, маъмурий, маданий хусусиятларга эга бўлган одамларнинг ҳудудий бирлашмаси”[3] эканлигини таъкидлайди.

И.О.Калиникованинг ўқув қўлланмасида минтақа дегани ҳудудий ижтимоий-иқтисодий шаклланиш, унинг асосини ва ишлаб чиқариш кучларини фазовий ташкил этиш, репродуктив жараённинг яхлитлиги ва яхлитлиги билан тавсифланади[4]. Шундай қилиб, биз норматив ҳужжатлар ва илмий адабиётларда “минтақа” тушунчасини таърифлашга этарлича хилма-хил ёндашувларни баён этишимиз мумкин. Хорижлик олимлар орасида “минтақа” тушунчасини таърифлашда ҳам умумий ёндашув мавжуд эмас. Хусусан, америкалик тадқиқотчилар П.Жеймс ва Ж.Мартинлар “Оламнинг барча имкониятлари” асарида “минтақа” сўзи моҳиятига кўра бир ҳил ва аниқ чегараларга эга бўлган ҳудуднинг ажралмас қисми сифатида таърифланади[5]. Шунингдек, минтақа иқтисодиёти муҳитини шакллантиришнинг илмий-назарий асослари хорижий мамлакатлар иқтисодчи олимларининг издошларида ўз ифодасини топган бўлиб, жумладан Л.Дж.Гитман, П.Ф.Друкер, Дж.Р.Хикс, У.Шарп тадқиқотларини алоҳида таъкидлаб ўтиш мумкин[6].

Юқорида айтиб ўтилган олимларнинг минтақавий тафовутларни ўрганиш, уларни асосий йўналишларини илмий-назарий ва амалий жиҳатдан тадқиқ этишга қўшган ҳиссаларини эътироф этган ҳолда шуни таъкидлаш лозимки, Марказий Осиё мамлакатлари иқтисодиётига минтақавий тафовутларни аниқлашнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш ва ҳудудий хусусиятлари иқтисодий адабиётларда етарли даражада ўрганилмаган. Бизнинг тадқиқотларимиз амалий аҳамиятга эга бўлиб, қиёсий таҳлил, мантиқийлик, умумлаштириш методлари асосида Қозоғистон республикасида минтақавий тафовутларнинг амалдаги ҳолати таҳлил қилиниб, таҳлиллар асосида мамлакат иқтисодиётида минтақавий тафовутларни аниқлашнинг иқтисодий механизмларини ривожлантириш йўналишлари белгилаб берилган.

Муҳокама. Ҳар қандай мамлакат ёки минтақанинг иқтисодий-ижтимоий ривожланишида турли хил омиллар таъсир кўрсатади. Булар қаторига қуйидагиларни киритишимиз мумкин:

- Табiiй-географик жойлашув;
- Иқтисодиётнинг кўп тармоқчилиги;

- Иқтисодиётнинг кўп укладлилиги;
- Инфратузилманинг шаклланганлиги;
- Меҳнат ва хомашё ресурсларига бойлиги ва ҳоказолар.

Бундай тизим иерархик(босқичли) кўринишда бўлиб, у вилоят, туман, вилоят ва республикаларга бўйсунувчи шаҳарлар, қишлоқ туманлари, қишлоқ фуқаролар йиғини ва маҳаллалардан иборат.

Юқоридагилар орасида энг муҳим бўғин вилоятлар ҳисобланади ва бундай даражада минтақаларда халқ хўжалиги комплекс ривожлантиришнинг ҳуқуқий ва ташкилий имкониятлари мавжуд. Шу билан бирга, вилоят даражасидаги ҳуқуқий бўғинларга ижтимоий-иқтисодий, сиёсий муаммолар ҳал этилса қўйи бўғинларга борган сари ижтимоий экологик масалалар маҳаллий бошқарув органлари фаолиятида устивор ҳисобланади. Демак энг юқорида сиёсат, энг пастда эса кишиларнинг кундалик ҳаёти, яни соф ҳолдаги социал масалалар этакчилик қилади.

Марказий Осиё мамлакатларида минтақавий тафовутларни вужудга келиш сабабларига биз буни мамлакатимиз мисолида кўрадиган бўлсак мустақиллик йилларида иқтисодиётни ҳудудий жиҳатдан тартибга солиш вазифаларини такомиллаштириш, маҳаллий бошқарув органларининг ҳуқуқлари ва ваколатларини кенгайтириш, минтақаларда мавжуд минерал-хомашё, табиий-иқлим ресурслари ва иқтисодий салоҳиятдан самарали фойдаланиш мақсадида ишлаб чиқариш кучларини жойлаштириш ва иқтисодиётнинг ҳудудий таркибини такомиллаштириш, экспортга йўналтирилган ва импорт ўрнини босувчи ишлаб чиқаришни ривожлантириш соҳасида сезиларли ютуқларга эришилди.

Марказий Осиё давлатлари орасида энг юқори мавқейга эга бўлган Қозоғистон Республикасида ҳам минтақавий тафовутлар мавжуд. Қозоғистон беш асосий иқтисодий минтақалардан ташкил топган. Улар қуйдагилар: Жанубий Қозоғистон, Шимолий Қозоғистон, Ғарбий Қозоғистон, Марказий Қозоғистон, Шарқий Қозоғистон.

Иқтисодий районларда саноат тармоқлари яхши ривожланган. Фақат саноат тармоқлари иқтисодий районларда унинг табиий бойликлари, аҳолининг зичлиги, географик жолашуви, ҳудуди, қазилма бойликлари ва бошқа турли омиллар тасирида районларда саноат тармоқлари ривожланганлиги бир биридан фарқ қилади(2- жадвал).

Минтақавий тафовутларнинг мавжуд бўлиши қандайдир маънода зарур, чунки улар капитал, меҳнат ва моддий ресурслар миграциясига ёрдам беради, ижтимоий-иқтисодий ривожланишга муайян даражада динамизм бахш этади. Аммо бошқа томондан ҳудудий тафовутларнинг вужудга келишига табиий-иқлим ёки ижтимоий-тарихий омилларга бевосита боқлиқ бўлмаган, балки бевосита иқтисодий омиллар билан боғлиқ бўлган сабаблар устивор ўринга эга бўлиши мумкин.

Иқтисодий районлаштириш - мамлакат ҳудудининг халқ хўжалиги ривожини нуқтаи назаридан иқтисодий қисмларига - районларга ажратиш деб тушунилиши мумкин. Иқтисодий районлаштириш мамлакатнинг ҳудудий - иқтисодий таркибини акс эттиради. Ундаги асосий омил ҳудудий ижтимоий меҳнат тақсимотидир. Бу тақсимот туфайли айрим районлар ишлаб чиқаришнинг маълум тармоқлар бўйича ихтисослашган район доирасидаги ва районлараро иқтисодий алоқалар амалга ошади[7].

Дунёдаги барча давлатларда миллий, сиёсий ва маъмурий-ҳудудий бўлиниш

районлаштиришни амалга оширишда асосий омиллардан ҳисобланади. Иқтисодий жаёнлаштириш мамлакат ҳудудий меҳнат тақсимоли, айрим жойларнинг ўзлаштириш даражаси, аҳоли зичлиги транспорт воситаларининг қай даражада ривожланганлиги, йирик шаҳарлар ёки иқтисодий марказларнинг бор ёқилғини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади.

Қозоғистоннинг вилоятларга бўлинишида улар эгаллаган майдони ва аҳолиси ўртасидаги тафовутни 1-жадвалда кўриб турибмиз. Бу тафовутларни йўқотиб ҳам камайтириб ҳам бўлмади, нигаки бу тафовутлар мамлакатнинг географик жойлашуви билан боғлиқ ҳисобланади. Бу вилоятларда ривожланиш турлича ҳар бир вилоят ўзининг салоҳиятидан келиб чиққан ҳолда ривожланган. Бунда вилоятлар салоҳияти бир хилда эмас, шу боис ҳам тафовутлар мавжуд.

Қозоғистоннинг иқтисодий районларида саноат тармоқлари бўйича ўзаро тафовут яни фарқни кўришимиз мумкин. Бунга сабаб районларнинг жойлашуви, аҳолининг қай даражада жойлашганлиги, қазилма бойликлари ва бошқалар. Мисол тариқасида Жанубий Қозоғистон иқтисодий районини оладиган бўлсак у ерда район республикадаги суғорма деҳқончиликка асослашган техника экинлари (пахта, қанд лавлаги, тамаки) ва дон экинларидан шоли, маккажўхори, боғдорчилик ва узумчиликка эътибор қаратилган бўлиб, бу соҳаларга бу районда етарлича шароитнинг борлигидир. Бунинг бошқа районлардан асосий фарқи шунда ҳисобланади. Яна мисол тариқасида ғарбий Қозоғистон иқтисодий районини оламиз.

1-жадвал

Қозоғистоннинг мамурий-ҳудудий бўлиниши[9]

| Худудлар | Маркази | Майдони (кв.км) | Аҳолиси |
|-----------------------------------|----------------------|--------------------|-------------------|
| Республика аҳамиятига эга шаҳар | <u>Алмати</u> | 332 | 1 450 327 |
| Республика аҳамиятига эга шаҳар | <u>Астана</u> | 710 | 742 918 |
| <u>Алмати вилояти</u> | <u>Талдикўрған</u> | 223 911 | 1 909 362 |
| <u>Ақмола вилояти</u> | <u>Кўкшөтов</u> | 146 219 | 731 328 |
| <u>Ақтўбе вилояти</u> | <u>Ақтўбе</u> | 300 629 | 786 349 |
| <u>Атирау вилояти</u> | <u>Атирау</u> | 118 631 | 542 987 |
| <u>Шарқий Қозоғистон вилояти</u> | <u>Ўсткемен</u> | 283 226 | 1 395 059 |
| <u>Жамбул вилояти</u> | <u>Тараз</u> | 144 264 | 1 055 976 |
| <u>Ғарбий Қозоғистон вилояти</u> | <u>Ўрал</u> | 151 339 | 612 551 |
| <u>Қарағанди вилояти</u> | <u>Қарағанди</u> | 427 982 | 1 358 064 |
| <u>Кўстаной вилояти</u> | <u>Кўстаной</u> | 196 001 | 879 579 |
| <u>Қизилўрда вилояти</u> | <u>Қизилўрда</u> | 226 019 | 712 992 |
| <u>Манғистов вилояти</u> | <u>Ақтов</u> | 165 642 | 545 724 |
| <u>Павлодар вилояти</u> | <u>Павлодар</u> | 124 755 | 747 055 |
| <u>Шимолий Қозоғистон вилояти</u> | <u>Петропавловск</u> | 97 993 | 583 598 |
| <u>Жанубий Қозоғистон вилояти</u> | <u>Чимкент</u> | 117 249 | 2 621 523 |
| Умумий | | 2 724 902 | 16 675 392 |

Бу иқтисодий район географик ўрнининг хусусияти шундан иборатки бу ерда Эмба ва Манғистов нефт захираларига бой конлар жойлашган. Бундай фойдали қазилмаларнинг жойланиши иқтисодий район ихтисослашувини белгилайди. Иқтисодий район жанубда қадимдан нефт саноати яхши ривожланган. Ғарбий

Қозоғистон 50% дан ортиқ турли хилдаги рудали ва рудали бўлмаган қазилма бойликларининг мингдан ортиқ конлари топилган. Бу эса бошқа районларда учрамайдиган хусусиятдир. Бунинг бошқа районлардан фарқи ҳам шунда.

Натижалар. Шимолий Қозоғистон иқтисодий районини оладиган бўлсак, бу районда аҳоли деярли бир текисда тақсимланган. Шимолий, шарқий ва ғарбий Қозоғистон иқтисодий районлари каби шаҳар аҳолиси кўпчиликти ташкил қилади. Бу шуни кўрсатадики, иқтисодий районда қишлоқ хўжалиги билан биргаликда саноат яхши ривожланган. Ушбу зона узоқ йиллар давомида қозоқлар томонидан яйлов сифатида фойдаланиб келинган. Иқтисодий районда деҳқончилик XVIII аср охирларида буларга Сибир қозоқлари, XIX аср охири XX аср бошларида рус-украин деҳқонларининг кўчириб келиш натижасида ривожлана бошлади. 1997 йилга келиб Шимолий Қозоғистон қишлоқ хўжалиги ривожланган районлардан бирига айланган эди. Ҳозирга қадар ҳам худди шу натижани эгаллаб турибди. Бу иқтисодий районлардаги тафовутларнинг келиб чиқиш омиллари ҳам шунда.

2-жадвал

Иқтисодий районларнинг саноат тармоқларининг ривожланганлиги [10]

| № | Иқтисодий районлар | Саноат тармоқлари |
|---|---------------------|---|
| 1 | Жанубий Қозоғистон | Озиқ-овқат ва енгил саноат маҳсулотлари |
| 2 | Шимолий Қозоғистон | Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини қайта ишлаш саноати, енгил саноат ва озиқ-овқат саноати |
| 3 | Ғарбий Қозоғистон | Нефт ва газни қайта ишлаш, нефт саноати учун керакли асбоб-ускуналар ишлаб чиқариш, минерал ўғитлар ва агросаноат |
| 4 | Марказий Қозоғистон | Ёқилғи, металлургия, кимё, қурулиш |
| 5 | Шарқий Қозоғистон | Ўрмон ва ёғочни қайта ишлаш саноати |

Шимолий, қишлоқ хўжалиги, темир рудаси ва кўмир, машинасозлик, нефт маҳсулотлари ва Ферро, энергия қазиб олиш ривожлантиришда. Шарқий Қозоғистонда рангли металлургия, энергетика, машинасозлик ва ўрмон хўжалиги ҳукмрон бўлади. Ғарбий Қозоғистон – нафақат Қозоғистондаги, балки МДҲ мамлакатларидаги йирик нефт ва газ ишлаб чиқарувчи вилоят ҳисобланади. Марказий Қозоғистон асосий хусусиятлари – қора ва рангли металлургия, машинасозлик, чорвачилиқдан иборат. Жанубий Қозоғистонда пахта, гуруч, дон, мева, сабзавот, узум ишлаб чиқариш; рангли металлургия, муҳандислик воситалари, енгил ва озиқ-овқат саноати, балиқчилик ва ўрмон хўжалиги ривожланган. Саноатни жойлаштириш минерал конлар, йирик шаҳар ва сув билан боғлиқ. Қозоғистоннинг иқтисодий районлари бир биридан фарқли жиҳатларини кўриб чиқамиз.

Ғарбий Қозоғистон – мамлакатнинг энг йирик нефт ва газ ишлаб чиқарадиган иқтисодий район ҳисобланади. Дунёдаги энг катта ривожланган нефт ва газ конларини – Тенгиз, Қорачағанқ, Қашаған жойлашган.

Марказий Қозоғистон иқтисодий районида оғир саноати тараққий этган ҳудудий ишлаб чиқариш мажмуасидан иборат. Иқтисодий районда ишлаб чиқаришнинг кўмир, металлургия-кимё, машинасозлик мажмуалари давлатлараро аҳамиётга эга. Раёнда агросаноат мажмуи етакчи тармоқ эмас.

Жанубий Қозоғистон иқтисодий байналминал мамлакатнинг энг кўп вилояти

жойлашган район ҳисобланади. Қозоғистон асосий шаҳарлари шу районда жойлашган. Бу районнинг бошқа районлардан фарқли томони шундаки бу районда саноатнинг кўпгина тармоқлари жойлашган. Жанубий Қозоғистон 2 та шаҳар ва 3 та вилоятни ичига олади.

3-жадвал

Қозоғистон аҳолисининг гуруҳланиши[11]

| Юқори | Ўрта | Паст | Енг паст |
|---|---|---|--|
| Жанубий Қозоғистон вилояти Алмати вилояти Шарқий Қозоғистон вилояти | Қарағанди вилояти Жамбул вилояти Қўстаной вилояти | Ақтўбе вилояти Павлодар вилояти Ақмола вилояти Қизилўрда вилояти | Ғарбий Қозоғистон вилояти Шимолий Қозоғистон вилояти Манғистов вилояти Қўстаной вилояти Атирау вилояти |

Учинчи жадвалдан кўриниб турибдики, Қозоғистоннинг энг юқори натижаларини Жанубий Қозоғистон вилояти, Алмати вилояти, Шарқий Қозоғистон вилояти эгаллайди. Бу вилоятлар аҳолиси кўп ва шу сабаб ҳам бу вилоятларда саноат, ишлаб чиқариш бошқа вилоятларга нисбатан яхшироқ. Ҳар қандай мамлакатнинг иқтисодий ва ижтимоий салоҳияти унинг минтақалари ва ҳудудларида мужассамлашган бўлади. Шимолий Қозоғистон иқтисодий районда аҳоли деярли бир текисда тақсимланган. Шунга қарамасдан аҳоли темир йўлга яқин ҳудудларда ва Иртиш, Тобол дарёлари водийларида жойлашган. Шимолий, шарқий ва ғарбий Қозоғистон иқтисодий районлари каби шаҳар аҳолиси кўпчиликни ташкил қилади. Бу шуни кўрсатадики, иқтисодий районда қишлоқ хўжалиги билан биргаликда саноат яхши ривожланган.

Минтақавий тафовутларни камайтириш борасида Қозоғистонда ҳам кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда. Бунга давлат томонидан минтақаларни ривожлантириш, улардаги мавжуд ресурслардан фойдланиш ва фақатгина битта минтақа эмас балки барча минтақалар ўртасидаги тафовутларни сезиларли даражада камайтириш кераклиги ҳақида дастурлар ишлаб чиқариладиган.

Ҳудудлар мамлакат салоҳиятини оширишда турлича рол ўйнайди ва аҳамиятга эга бўлади. Чунки бирор бир давлатнинг ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнида турли хил мавқени эгаллайди. Хусусан, XX асрнинг иккинчи ярмида Хитой иқтисодиётида давлатнинг технологик инфратузилмасини ривожлантиришни рағбатлантиришга йўналтирилган махсус зоналар ташкил этилиши ушбу ҳолатнинг ёрқин ифодаси ҳисобланади[8]. Ўз ўрнида ҳар бир ҳудуднинг ижтимоий хусусиятлари, иқтисодий, техник, саноат, қишлоқ хўжалиги, хизматлар секторлари ривожланишининг даражасига эътибор қаратилади. Фикримизча, жаҳон хўжалигида ҳудудлари ёки минтақалари бирдай тараққий топган давлатлар мавжуд эмас. Ҳар қандай давлатнинг ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий тараққиёт кўрсаткичларига кўра бир биридан фарқ қилади, улар ўртасида муайян тафовутлар мавжуд бўлади.

Хулоса ва таклифлар. Миллий иқтисодиётининг ишлаб чиқариш ва ижтимоий соҳа мажмуалари тавсифланганда, бир вақтнинг ўзида минтақаларнинг ўзи ижтимоий-иқтисодий мажмуалар сифатида тавсифланади. Бу мажмуаларнинг шаклланиши

алоҳида ҳудудлар ишлаб чиқариш кучларининг ривожланиши учун табиий ва ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитлар ва омилларнинг турличалиги билан белгиланади.

Минтақалар ёки ҳудудлар мамлакатнинг ички минтақаларининг шаклланиши учун объектив асос яратувчи, барқарор иқтисодий муносабатлар ўрнатилган кўплаб объектлардан иборат мураккаб, динамик ривожланувчи тизимдир.

Қозоғистон иқтисодиёти миқёсида минтақалар ва ҳудудлар ривожланишини турлича шаклланганлиги, ривожланганлиги ва бу тафовутлар вилоятлар орасида ҳам, вилоят ичидаги ҳудудларда ҳам фарқланишни кўрсатади. Қозоғистон мамлакатада ҳудудий ёки минтақавий тафовутлар йўқолмайди, аммо, уларни камайтириш, айрим кўрсаткичлар бўйича бартараф этиш мумкин. Мамлакат вилоятлари ҳудудлари ўртасида кескин тафовутлар намоён бўлиб туради.

Ушбу мақолада Қозоғистонда иқтисодчи олимларнинг ҳудудий, минтақавий тадқиқотлари ва шу билан бирга бу мамлакатларнинг саноати, иқтисодиёти ва улар ҳақидаги изланишлари ўрганиб чиқилди.

Қозоғистоннинг тараққиёт даражасини кўпинча саноатнинг ривожланиши белгилаб беради. Чунки саноат тармоғида меҳнат унумдорлигини ошириш имкониятлари, миқёс самарасидан юқори даражада фойдаланиш салоҳияти, табиий таваккалчиликлардан ҳимояланиш йўллари бошқа тармоқларга нисбатан кўпроқ ҳисобланади. Шу сабабли мамлакатлар ўзларининг саноат салоҳиятини оширишга, унинг халқаро рақобатбардошлигини таъминлашга ҳаракат қиладилар. Шу сабабли ҳам ҳудуд ва минтақаларда саноатни ривожлантириш иқтисодиётни тараққий этишида муҳим омил ҳисобланади.

Ҳар қандай мамлакат бошқа давлатлар орасида ўз суверенлигини сақлаб қолиш мақсадида доим ўз хавфсизлигини мустаҳкамлаш ҳақида қайғуради. Бунда давлат мазкур мақсадга қандай воситалар ёрдамида эришиши муҳимдир. Ҳозирги замон қуролининг хусусияти бирон-бир давлатга ўз хавфсизлигини фақат ҳарбий- техника воситалари, қурол-аслаҳа ва қуролли кучларни кўпайтириш билан таъминлаш имконини бермайди, чунки ҳозир нафақат ядро урушида, балки қуролланиш пойгасида ҳам ютиб чиқиш мумкин эмас. Бугунги кунда давлатнинг хавфсизлигини таъминлашда иқтисодий, сиёсий, шу жумладан юридик воситалардан фойдаланишни устун қўйиш зарурлиги аён бўлиб қолди.

Литература/Адабиётлар/References:

1. Мамлакатимиз Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020-йилнинг асосий яқунлари ва 2021-йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Олий Мажлисга мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2020-йил 29-январ.
2. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. Учебник для вузов. –М.: ГУ ВШЭ, 2000. –495 с.
3. Гапоненко А.А., Панкрухин А.П. Стратегическое управление. Учебник, 2-е изд. –М.: Омега-Л, 2006. –464 с.
4. Калининкова И. О. Управление социально-экономическим потенциалом региона:

- Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2009. — 240 с.: ил.
5. П.Джеймс., Дж.Мартин. Все возможные миры / Пер. с англ. М., 1988.
 6. Katarzyna Czerewacz-Filipowicz, Agnieszka Konopelko. Regional Integration Processes in the Commonwealth of Independent States. Springer 2016.
 7. СолиевА.С. ва бошқалар. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. Масъул муҳаррир З.Аҳмаджонова. -Т.: Университет, 2020.
 8. Omonovich, T. B. (2022). The Chinese Experience of Increasing the Competitiveness of the National Economy and the Possibilities of Effective use it in the Economy of Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 325-331.
 9. <http://worldgeo.ru/lists/?id=18&code=102>.
 10. www.uzembassy.kz
 11. www.stat.gov.kz.

Матюсупов Бунёд
Урганч Давлат университети
Иқтисодиёт кафедраси ўқитувчиси
E-mail: bunyodbest@gmail.com

АҚЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ТУРИЗМ ДЕСТИНАЦИЯЛАРИ ВА ШАҲАРЛАРДА САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ

Аннотация. Ушбу мақолада ақли туризм технологиялари, шунингдек ақли шаҳар ва туризм дестинацияси тушунчалари таҳлил қилинган, уларнинг ўзаро боғлиқлиги ўрганилган ҳамда рақамли технологиялардан самарали фойдаланиш бўйича тегишли хулоса ва таклифлар берилган.

Калит сўзлар: смарт туризм, ақли шаҳар, туризм дестинацияси, ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ), туризм дестинациясида 6А, ақли туризм технологиялари (АТТ).

Matyusupov Bunyod
A teacher at the Economics Department
of Urgench State University

EFFECTIVE USE OF SMART TECHNOLOGIES IN TOURISM DESTINATIONS AND CITIES

Abstract. In this article, the concepts of smart tourism technologies, smart cities and smart tourism destinations are analysed, their interrelationship is studied, and relevant conclusions and suggestions are given on the effective use of digital technologies.

Keywords: smart tourism, smart city, tourism destination, information-communication technologies, six "A" in tourism destinations, smart tourism technologies.

Матюсупов Бунёд
Преподаватель кафедры "Экономика"
Ургенчского государственного университета

А ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СМАРТ-ТЕХНОЛОГИЙ В ТУРИСТИЧЕСКИХ ДЕСТИНАЦИЯХ И ГОРОДАХ

Аннотация. В данной статье анализируются технологии смарт-туризма, а также понятия «умный город» и туристическая дестинация, изучается их взаимосвязь, а также даются соответствующие выводы и предложения по эффективному использованию цифровых технологий.

Ключевые слова: смарт-туризм, умный город, туристическая дестинация, информационно-коммуникационные технологии, шесть «А» в туристических дестинациях, технологии смарт-туризма.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N16>

Кириш. Глобаллашув шароитида туризм соҳаси янги иш ўринлари яратилишига, аҳоли турмуш даражасини ошишига, инфратузилма шароитларининг яхшиланишига ҳамда жамият ривожига сезиларли ҳисса қўшиб келаётганлиги сабабли кўплаб мамлакатларнинг ижтимоий-иқтисодий фаолиятининг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. UNWTO [1] маълумотларига асосан,

2023 йилнинг III чораги якунлари бўйича олдинги йилнинг мос даврига нисбатан 38 фоиз кўп (975 миллион киши атрофида) туристлар халқаро саёҳатларини амалга оширган бўлсада, бу 2019 йил натижаларидан 13 фоизга кам ҳисобланади. Пандемия сабабли мамлакатларга киришда қўйилган чекловлар кейинги йилларда юмшатирилганлиги сабабли халқаро туризм йўллари очилди ва кун сайин унга талаб ортиб бормоқда. Шунингдек, UNWTO экспертлари 2024 йилда халқаро туризм пандемиядан олдинги кўрсаткичларига тўлиқ эришади деб прогноз қилишган. Ушбу кўрсаткичларга эришиш учун дунё мамлакатларида туристик дестинациялар фаолиятида АТТдан самарали фойдаланиш механизmlарини кенг жорий қилиш асосий вазифа бўлиб ҳисобланади.

Бугунги кунда иқтисодиётнинг бошқа соҳаларида бўлгани каби туризм соҳаси ривожига ҳам АКТдан самарали фойдаланиш муҳим йўналишлардан бири ҳисобланади. XXI асрга келиб, “smart” (ақлли) атамаси билан бевосита боғлиқ деб ҳисоблаган АКТнинг жадал ривожланиши кўплаб соҳалар қатори туризм индустриясида ҳам сезиларли ўзгаришларга сабаб бўлди ва “смарт туризм дестинацияси” атамаси қўлланила бошланди [2]. Ақлли технологиялар ҳозирда саёҳатчилар фаолиятининг барча босқичларида кенг қўлланилганлиги сабабли АТТ тушунчаси туризм соҳасида энг муҳим омилга айланди. Юқорида келтирилган фикрлардан келиб чиқиб, илмий тадқиқотларда олимлар томонидан смарт туризмга туристик дестинацияда технологик йўналтирилган сайёҳлик тажрибаси сифатида таъриф беришган [3].

Смарт туризм дестинациясини шакллантириш манфаатдор томонлар ўртасида маълумот алмашишни осонлаштиришни талаб қилади, бу уларнинг қарор қабул қилиш жараёнини яхшилайдди ҳамда туристларга янги такомиллаштирилган хизматларни тақдим этилишига ёрдам беради [2]. Шу сабабдан, ақлли туризм айнан туристик ресурслар ва смарт технологияларнинг интеграциясига олиб келиши ҳамда туризм манфаатдор томонларига муҳим маълумотларни тезкор алмашиш имконини бериши билан манфаатдор томонларнинг эътиборини тортмоқда [3,4]. Масалан, буюмлар интернет, мобил иловалар, виртуал реаллик (VR), тўлдирилган реаллик (AR), ижтимоий медиа ва сунъий интеллектга асосланган ақлли қурилмаларнинг кенг тарқалиши туристик хизматлар кўрсатувчи субъектларга катта ҳажмда маълумотларни яратиш, сақлаш ва қайта ишлаш учун улкан имкониятларни тақдим этади.

Методология ва материаллар. Ушбу мақолада туризм соҳаси ривожига АКТнинг аҳамияти, шунингдек смарт (ақлли) шаҳар ва туризм дестинациясининг хусусиятлари ҳамда улар ўртасидаги муносабатларни ўрганиш мақсад қилинган. Кўзланган мақсадларга эришишда туризм дестинацияси рақобатбардошлигини оширишда ақлли технологияларнинг ролини, шунингдек ақлли шаҳарларнинг моҳиятини ва уларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳамда ақлли туризм дестинациялари табиатини ёритиш учун сифат таҳлил ўтказилиб, кенг қамровли адабиётлар ўрганилди. Мақолада АТТнинг, ақлли шаҳар ва туризм дестинацияларига берилган таърифлар кўриб чиқилиб, уларнинг хусусиятлари, аҳамияти ва ўзаро алоқалари таҳлил қилинган. Ақлли туризм бўйича тадқиқотлар меҳмондўстлик ва туризм соҳасидаги журналлар билан чекланиб қолмаслиги, бунда ақлли шаҳарларни тадқиқ қилувчи журналлар ҳамда тегишли бошқа материалларни ҳисобга олиб, адабиёт таҳлилида турли хил фан соҳалари бўйича материаллар кўриб чиқилди. Фойдаланиш қулайлиги ва

тадқиқотчилар учун очиқлиги туфайли Web of Science, Scopus ва Google Scholar ушбу тадқиқот учун онлайн маълумотлар базаси сифатида танланди.

Тадқиқот натижалари, таҳлиллар ва муҳокамалар. Бугунги кунда туристлар томонидан саёҳатни режалаштириш ва амалга оширишда кенг қўлланилаётган АТТ барча манфаатдор томонларга кўпроқ асосли қарорлар қабул қилиш имконини берувчи, реал вақтда маълумотларни тақдим этиш учун технологик ускуналар, дастурий таъминот ва тармоқ технологияларини бирлаштирган инфратузилмадир [3]. АТТ таркибига буюмлар интернет (Internet of things), булутли технология, Wi-Fi, сунъий интеллект, AR, VR, мобил иловалар, ижтимоий тармоқлар ва бошқа туризм билан боғлиқ платформаларни киритиш мумкин [5]. Ўз навбатида, кўпчилик сайёҳлик компаниялари АТТдан фойдаланиб рақобатбардош фаолиятни амалга ошириш ва дестинация имиджини яхшилашга ҳаракат қилмоқдалар [6, 7, 8]. Бундан ташқари, сайёҳлик фаолиятини режалаштиришда ва бошқаришда сайёҳлик агентликларининг таклифларига таянмасдан, мобил иловалар, веб-сайтлар ҳамда АТТнинг кенг қамровли имкониятларидан фойдаланмоқдалар. Чунки, смартфонларда ақлли туризм иловаларидан фойдаланиш сайёҳларга келажакдаги саёҳат режаларини тузиш ҳамда туризм дестинациясини танлашда ушбу дестинациялар тўғрисидаги тажрибалар, шарҳ ва фикр-мулоҳазаларни ўрганиш учун қулай ҳисобланади.

АТТ туристларни қулай ва бой маълумотлар билан таъминлаш орқали уларнинг саёҳат тажрибаларини оширадиган саёҳат мобил иловалари ва онлайн маълумот манбаларининг барча турларини ўз ичига олади [5, 9]. Ушбу йўналишда амалга оширилган тадқиқотларда ахборотлилик (informativeness), интерактивлик (interactivity), қулайлилик (accessibility), шахсга йўналтириш (personalization) ва хавфсизлик (security) каби бешта атрибутлари орқали АТТни ўрганиб чиққан [3, 10, 11].

Ахборотлилик - бу туристик дестинацияларда АТТ томонидан тақдим этиладиган маълумотларнинг ҳажми, сифати, ишончлилиги ва аниқлиги нуқтаи назаридан комбинацияси сифатида аниқланади [10]. Ушбу атрибут АТТга сайёҳлик веб-сайти фойдаланувчиларига фойдали, зарурий ва инновацион маълумотларни тақдим этиш имконини беради. Шунингдек, ахборотлилик - бу туристик дестинацияларда АТТ томонидан тақдим этилаётган ахборот сифати ва ишончлигининг комбинациясидир [5, 12]. Маълумот сифати ва ишончлилиги туризмнинг номоддий табиати туфайли сайёҳларнинг дестинациядаги умумий тажрибасига таъсир қилишда ҳал қилувчи рол ўйнайди [9]. Хулоса қилиб айтганда, ушбу атрибут дестинациянинг рақобатбардошлигига ҳисса қўшишда АТТнинг қимматли ўлчовидир.

Иккинчи атрибут ҳисобланган интерактивлик АТТни туристларга онлайн жонли мулоқот қилиш ва ўз саволларига тезкор жавобларни олишда қанчалик ёрдам беришини ифодалайди [12]. Jeong ва Shin [9] фикрига асосан АТТнинг интерактивлиги туристик хизмат кўрсатувчиларга ўзаро алоқани ривожлантиришга, янгиланган туристик маълумотларни олишга, шунингдек янада жозибадор хизматларни таклиф қилишга имкон беради. Маълумот излаш вазифасини сезиларли даражада осонлаштирилганлиги сабабли, юқори интерактивлик саёҳатчиларни технологиялардан фаол фойдаланишга, изоҳлар ёзишга ва фикр билдиришга ундайди. Бундан ташқари, интерактивлик мақсадли маркетинг бўйича мутахассисларга бозорнинг турли сегментларининг ўзига хос хусусиятларини аниқлашга имконият яратиб, кўпроқ

индивидуал мослаштирилган хизматларни лойиҳалаш ва амалга оширишда ёрдам беради. АТТнинг интерактивлиги юқорида келтирилган хусусиятлари орқали туристик маҳсулотларни излаб топиш ва сотиб олишда муҳим аҳамият касб этади.

Учинчиси қулайлилик атрибути бўлиб, у АТТдан фойдаланишнинг қанчалик осон ва қулай эканлигини, яъни туристик дестинациянинг мавжуд хизматлари тўғрисидаги маълумотларни сайёҳлар томонидан онлайн тарзда осонгина топиш ва улардан фойдаланиш даражасини билдиради [6, 12]. Туристлар саёҳатга чиқишдан олдин ҳамда саёҳат давомида маълумот олиш учун турли хил АТТнинг мавжудлиги ва улардан фойдаланишнинг қулайлиги муҳимлигини таъкидлайдилар. Шунингдек, АТТнинг юқори қулайлик даражаси сайёҳларнинг туристик дестинация ҳақида кўпроқ билиш истагини оширади [7]. Бу эса, ўз навбатида, туристларнинг саёҳат тажрибасини ва ўз саёҳатидан ҳамда туристик дестинациядан зарурий даражада қониқишини таъминлайди [6]. Бундан ташқари, ушбу атрибут рақамли дунёда дестинацияни тарғиб қилиш ва потенциал ташриф буюрувчиларни жалб қилишда ҳам муҳим рол ўйнайди.

АТТнинг тўртинчи атрибути, шахсга йўналтириш (персоналлаштириш ёки маълумотларни фойдаланувчиларга мослаш, уларнинг ўзларига бевосита тегишли маълумотлар билан таъминлаш деб ҳам аташ мумкин) мижозларнинг эҳтиёжлари, мақсадлари ва афзалликлари ҳақида маълумотларни аниқлаб, улар бўйича тегишли маълумотларни тақдим этиш жараёнидир [8]. Шахсга йўналтириш - бу маълум маҳсулот, хизмат ва маълумотларга индивидуал эътибор бериш ёки уларни туристларнинг индивидуал истаклари ва афзалликларига мослаштиришдир [12]. Бу атрибут сайёҳларга саёҳат талабларига жавоб берадиган аниқ маълумотларни тақдим этиши [9], шунингдек, катта маълумотлар ёки булутли ҳисоблаш саёҳатчиларга уларнинг афзалликлари, шахсияти ва сотиб олиш тарихига мослаштирилган тавсиялар бериши мумкин [7]. Буларнинг барчаси маълумот қидиришга сарфланган вақтни қисқартириш орқали ушбу атрибутнинг туристлар қониқишига ижобий таъсир қилишига кўмаклашади. Масалан, дестинациянинг диққатга сазовор жойлари ҳамда уларга қандай бориш мумкинлиги ҳақида туристлар учун мўлжалланган маълумотларни тақдим қилувчи мобил илова ёрдамида туристлар ўз саёҳатларини янада эса қоларли ва мазмунли ўтказишлари мумкин. Шунингдек, автомобил йўлларидаги тирбандликни кўрсатувчи иловалар туристлар учун йўл вақтини қисқартириш ҳамда тирбандлик сабабли юзага келиши мумкин бўлган стрессни камайтириш орқали туризм тажрибасини оширишда муҳим восита ҳисобланади [9]. Бундай иловалар сайёҳларга кўплаб имкониятларни тақдим этиши мумкин бўлган самарали йўл ҳисобланади.


Хавфсизлик, АТТнинг охириги атрибути, фойдаланувчиларнинг шахсий маълумотларининг хавфсизлиги ҳисобланади [6]. Хусусан, хавфсизлик деганда, бевосита манфаатдор томонларнинг шахсий маълумотлари онлайн харид ёки брон қилиш бўйича транзакциялар пайтида хавфсиз ва махфий сақланиши тушунилади. Шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш рақамли дунёда ҳал қилувчи аҳамият касб этиб, турли хил онлайн транзакциялар пайтида мижозларнинг, жумладан туристларнинг шахсий маълумотларининг хавфсизлигига бўлган ишонч даражасини оширади. Бу масаланинг қониқарли даражада таъминланмаслиги туристларнинг қайта ташриф буюриш истагига салбий таъсир қилади, чунки туристлар шахсий маълумотлар

хавфсизлигига хавф ёки таҳдидни ҳис қилганда, уларнинг бу борадаги хавотирлари ошади ва натижада режалаштирилаётган онлайн транзакцияни яқунламайдилар [9].

Ўз навбатида, ақлли туризм дестинациялари билан бевосита боғлиқлиги сабабли ақлли шаҳар тушунчасига алоҳида тўхталиб ўтиш лозим. Ақлли шаҳар аҳолининг умумий ҳаёт сифатини яхшилаш ва ижтимоий муаммоларни ҳал қилиш учун замонавий хизматларни тақдим эта оладиган АКТ билан таъминланган шаҳар ҳисобланади [2]. Ривожланган АКТ инфратузилмаси орқали ақлли шаҳарлар ҳудуднинг иқтисодий даражасини, бошқарув жараёнларида фуқаролар иштирокини ва давлат фаолияти самарадорлигини оширади ҳамда ижтимоий ривожланишга сезиларли ҳисса қўшади. Шу билан бир қаторда, ақлли шаҳарлар (1) интеграциялашган, яшаш учун қулай, экологик тоза шаҳар марказларини ривожлантириш учун мавжуд технология ва ресурслардан оқилона фойдаланишни ҳамда (2) электр, транспорт ва бошқа логистика операцияларини оптималлаштириш ёрдамида шаҳарлар инфратузилмаларини ривожлантириш, бу орқали эса аҳоли учун ҳаёт сифатини яхшилашни англатади [4]. Ушбу таърифларда қўлланилган ақлли шаҳарнинг ўзига хос хусусиятлари қуйидагилардан иборат: АКТ орқали алоқа имкониятларини яхшилаш, интеграциялашни амалга ошириш, мавжуд ресурслардан фойдаланишда самарадорликка эришиш, барқарор ривожланишни таъминлаш, атроф-муҳитга зарар етказмаслик ва ҳаёт сифатини яхшилаш. Шу нуқтаи назардан, смарт технологиялар билан интеграциялашган туризм дестинациялари барқарор ривожланишни таъминловчи инновацион туристик ҳудудлар бўлиб, ташриф буюрувчиларнинг тажрибаларини янада яхшилайти, туристлар оқимини оширади, иқтисодий самарадорликка эришишга кўмаклашади ва натижада аҳолининг ҳаёт сифатини оширишга хизмат қилади.

Бундан ташқари, Mosannenzadeh ва Vettorato [13] томонидан ақлли шаҳарни тасвирловчи структура ишлаб чиқилган бўлиб (1-расм), бунда **биринчи ҳалқа** нима учун ақлли шаҳарларни яратиш зарурлигини; **иккинчи ҳалқа** ақлли шаҳарларни яратишдаги асосий компонентларни; **учинчи ҳалқа** эса ақлли шаҳарларни яратишдаги иштирокчи томонларни кўрсатади; бундан ташқари ҳалқалар ёнида алоҳида кўрсатилган 4 та тўртбурчакда ақлли шаҳарларни яратиш жараёнининг қандай амалга оширилиши ҳақида маълумотлар берилган. Ушбу олимларнинг тадқиқот хулосаларига кўра, “Ақлли шаҳар” барқарор ва ҳаёт сифати юқори бўлган шаҳар бўлиб, унинг мақсади хизматлар бозори ва инфратузилмани такомиллаштиришда АКТни қўллаш ҳамда унинг асосий манфаатдор томонлари, яъни фуқаролар, университетлар, ҳукумат, индустриялар, молиявий институтлар, лойиҳачилар ва дастурчилар ўртасидаги ҳамкорликни йўлга қўйишидир. Бундан ташқари, ижтимоий капиталга инвестицияларни жалб қилиш, шунингдек, 1-расмда иккинчи ҳалқада кўрсатилган ақлли шаҳарнинг асосий устунлари интеграциясини амалга ошириш ҳам долзарб ҳисобланади. Юқорида келтирилган йўналишлар орқали шаҳарнинг муҳим масалаларини, яъни аҳоли саломатлигини, хавфсизлигини ҳамда ижтимоий ривожланишни таъминлаш, мобилликни кучайтириш, ресурслардан фойдаланишни оптималлаштириш, иқтисодий ўсишга эришиш ва бошқарув жараёнларида фуқаролар иштирокини қўллаб-қувватлаш масалаларини ҳал қилиш кўзда тутилган.

Шунингдек, ақлли шаҳар нафақат юқорида санаб ўтилган йўналишларни ёки ўз фуқаролари учун ҳаёт сифатини оширишни, балки кўплаб шаҳарлар учун даромад манбаи ҳисобланган туризмни ривожлантиришни ҳам мақсад қилиши зарур. Buhalis [14] ақлли туризм дестинациялари ақлли шаҳарлар ва туристик маҳсулотларнинг комбинациясидан бошланганлигини таъкидлайди. Шунингдек, ақлли туризм дестинацияларининг яна бир устун тарафи АТТ имкониятларидан самарали фойдаланган ҳолда, туристларнинг шахсий эҳтиёжларига эътибор бериши, уларга дестинацияда ўзлари излаган маълумотларни топишда ёрдам бериши ва уларга ғамхўрлик қилишидир. Бу пировардида дестинацияда хизмат сифатини яхшилайти ҳамда унинг рақобатбардошлигини оширади [6,7,15].



1-расм. Ақлли шаҳарни тасвирловчи структура¹

Buhalis [14] tadqiqotlariga asosan, muvaffaqiyatli turizm dastinatsiyalarini yaratishda quyidagi muhim bta "A" inobatga olinishi lozim: (1) diqqatga sazovor joylar (attractions), ya'ni tabiiy, inson q'uli bilan yaratilgan madaniy dam olish maskanlari (to'g'lar, k'ungilochar istiroxat bo'glari va musika festivalari); (2) ochiklik, foydalaniш imkoniyati (accessibility), ya'ni dastinatsiyaga olib boradigan y'nalishlar, mavjud terminallar va teгишли jamoat transportlaridan iborat b'ulgan barча transport tizimi tushuniladi; (3) qulayliklar (amenities), ya'ni yashash qulayliklarini, yashashni osonlashtiradigan barча xizmatlarni, ya'ni turar joy, gastronomiya va dam olish imkoniyatlarini tavsiflaydi; (4) mavjud paketlar (available packages), ya'ni turistlar e'tiborini teгишли dastinatsiyaning o'ziga xos xususiyatlariga y'unalтириш uchun turistik xizmat k'ursatuvchilar va turizmni q'llab-

¹ Manba: Mosannenzadeh va Vettorato, 2014

қувватловчилар томонидан ишлаб чиқилган хизмат пакетларининг мавжудлигини англатади; (5) мавжуд машғулотлар ва тадбирлар (activities), яъни асосан сайёҳларни белгиланган жойга ташриф буюришга ундайдиган борар жойидаги барча мавжуд машғулот ва фаолият турларини ифодалайди; (6) ёрдамчи хизматлар (ancillary services)-бу банк, почта алоқаси ва шифохона каби асосан туристлар учун мўлжалланмаган кундалик фойдаланиш хизматлари. Туристик дестинацияларнинг юқори рақобатбардош бўлиши учун ҳар бир бта “А”ни оптимал ҳолда ва тўғри амалга ошириш муҳим ҳисобланади [2].

Ақлли шаҳарлар ва туризм дестинацияларида мавжуд муаммоларни бартараф этиш учун барқарор ечимларни амалга оширишда турли мураккаб ва инновацион технологиялардан фойдаланиш назарда тутилади. Лекин, технологиялар борасида етарли саводхонликка эга бўлмаган кўпчилик фуқаролар ва туристлар АКТдан фойдаланишда қийинчиликларга дуч келиши мумкин. Шу сабабли, ҳар бир шаҳар ёки туристик дестинация ўзида мавжуд имкониятларидан ва хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, уларга мос фойдаланиш осон АТТни тадбиқ қилиши, жумладан туристик мобил иловалардан фойдаланишни йўлга қўйиши муҳим [2]. 1-жадвалда ақлли туризм иловалари ва туризм дестинацияларининг ўзаро боғлиқлигини, шунингдек бир қатор ақлли хизматларни кўриш мумкин. Бундан ташқари, ушбу жадвалда юқорида санаб ўтилган 6А ва туристик дестинациялар хусусиятлари ақлли туристик иловаларнинг бажарадиган фойдали функциялари билан қандай бирлаштирилиши ҳамда сайёҳлик дастурларини амалга оширилиши кўрсатиб берилган.

1-жадвал.

Ақлли туризм дестинациялари ва туризм иловаларининг ўзаро боғлиқлиги¹

| Туризм иловалари | Бажарадиган Функциялари | Дестинация компонентлари (6А) | Ақлли туризм дестинациялари хусусиятлари, ўлчовлари |
|---|---|---------------------------------------|--|
| AR иловаси дестинациянинг рақамли муҳитидан баҳраманд бўлиши | Талқин қилиш (interpretation) | Диққатга сазовор жойлар (attractions) | Ақлли инсонлар, ақлли мобиллик |
| Автоуловларнинг жорий ҳолати ва жойлашуви ҳақида маълумотларнинг олиш учун автоуловни кузатиш ва мониторинг қилиш тизими | Режалаштириш | Фойдаланиш имконияти (accessibility) | Ақлли яшаш шароитлари, ақлли мобиллик |
| Меҳмонхоналар атроф-муҳитни муҳофаза қилиш борасида энергия аудитини шакллантириш ва амалга ошириш учун энергияга бўлган талабни башорат қилишга қодир бўлиши | Барқарорлик | Қулайликлар (amenities) | Ақлли муҳит |
| Сайёҳлар учун бир қатор мавжуд пакетларни таклиф қилувчи электрон саёҳат йўриқномалари каби кўплаб хизматларни тақдим этадиган кўп тилли иловалар | Йўналтириш, такликлар бериш (ингл. guiding) | Мавжуд пакетлар (available packages) | Ақлли одамлар, ақлли мобиллик |

¹ Манба: Buhalis ва Amarangana, 2014

| | | | |
|--|---|--|-----------------------|
| Мобил қурилмалар ёрдамида яқин атрофдаги диққатга сазовор жойлар ҳақида маълумотлар олиш учун НФС NFC (Near-Field communication - Яқин атрофдаги алоқа) теглари ва QR кодлари | Маркетинг | Мавжуд машғулотлар ва тадбирлар (activities) | Ақлли мобиллик |
| Сайёҳлар ўзлари учун қизиқарли хизматлар сифати ҳақида АТТ ёрдамида туристлардан тоғридан-тўғри ва тезкор фикр-мулоҳозалар олишга ёки ўз шикоятларини шаҳарда мавжуд шикоятларни бошқариш тизими | Тескари алоқанинг мавжудлиги, фикр-мулоҳозалар олиш имкони (feedback) | Ёрдамчи хизматлар (ancillary services) | Ақлли яшаш шароитлари |

Юқоридаги жадвалда ақлли туристик дестинациялар хусусиятлари сифатида ақлли мобиллик, аҳолига яратилган ақлли яшаш шароитлари, атроф-муҳитни ақлли муҳофазаси, аҳоли ва туристларнинг технологиялардан фойдаланиш борасида етарли билимга эга бўлиши назарда тутилган. Хусусан, смарт мобиллик транспорт соҳасини тубдан ислоҳ қилиш, барқарор ва хавфсиз транспорт инфратузилмасини яратиш, қулай пиёдалар ва велосипед йўлакларини шакллантириш, инновацион транспорт воситаларинидан фойдаланишни янада такомиллаштириш ҳамда йўл ҳаракатини (тирбандликни) самарали бошқариш тизимларини йўлга қўйишни ифодалайди. Шунингдек, аҳоли яшаш шароитларини ақлли технологиялар интеграцияси орқали яхшилаш муҳим ҳисобланади. Бунда, нафақат туристлар, балки шу ҳудудда яшовчи аҳоли учун ҳам сихатгоҳ ва дам олиш зоналари, жамоат кутубхоналари, кўнгилочар марказлар, таълим ва соғлиқни сақлаш муассасалари, яшил ҳудудларнинг мавжуд бўлиши, уларнинг АКТ билан оптимал интеграцияси амалга оширилганлиги ҳамда ҳудуддаги мавжуд ресурсларнинг самарали бошқарилиши назарда тутилган. Кейинги ўринда, ақлли муҳитни таъминлаш чораларининг амалга оширилиши муҳим босқичлардан бири ҳисобланади. Бунда ҳудуднинг экологик барқарорлигига, CO₂ эмиссиясини камайтириш ҳамда чиқиндиларни қайта ишлаш стратегияларининг амалга оширилишига, сув ва электр энергиясидан самарали фойдаланишга, шунингдек яшил майдон ҳудудларининг кенгайтирилишига эришиш асосий мақсад қилиб белгиналади. Яна бир муҳим масала, ақлли шаҳарларда яшовчи фуқароларнинг саводхонлик даражаси АКТ дан фойдаланишга етарли бўлишидир. Акс ҳолда, ақлли шаҳарларни барпо қилишдан кўзланган мақсадларга эришилмаслиги мумкин. Ўз навбатида, ақлли туризм дестинациялари муваффақияти учун унга ташриф буюраётган туристларнинг рақамли технологиялардан фойдаланиш борасида етарли саводхонликка эга бўлиши муҳим ҳисобланади.

Хулоса ва таклифлар. Юқорида келтирилган фикрлардан айтиш мумкинки, экологик жиҳатдан тоза, барқарор, яшашга қулай, АКТ билан интеграциялашган ва ривожланган шаҳар ақлли шаҳар ҳисобланади. Ақлли шаҳарларда асосий эътибор ўз фуқароларига қаратилса, ақлли туризм дестинациясида АКТ интеграцияси орқали туристлар тажрибасини яхшилаш ҳамда уларнинг эҳтиёжлари ва истакларига мос инфратузилма шароитларини яратишга эътибор қаратилиши лозим. Бу борада ривожланган мамлакатларнинг ақлли туризм дестинацияларида ахборот алмашинувини яхшилашга кўпроқ эътибор қаратилмоқда. Хусусан, одамлар саёҳат

қилишга етарли вақт топмаганида, жисмоний имконияти чекланган ҳолатда (масалан, ногиронлиги сабабли) ёки молиявий етишмовчиликлар сабабли саёҳатга бориш режаларини бекор қилганда ёки пандемия пайтида уйда қолса, уларга ўзлари орзу қилган дестинацияга виртуал саёҳат қилиш ва сайёҳлик тажрибасини яхшилаш учун реал вақтда VR ёки AR контентини таклиф қилиш муқобил ечим бўлиши мумкин. Тараққий этган давлатлар тажрибасидан маълумки, мамлакатлар узоқ муддатли стратегик мақсадларига эришишда, хусусан туризмни ривожлантиришда тегишли инфратузилма ва бир қатор муҳим шарт-шароитлар яратилиши керак. Шу сабабли, ақлли туризм дестинациясининг асосий мақсади жадал ривожланишга эришиш ҳамда маҳаллий ва халқаро миқёсда ўз рақобатбардошлигини оширишдир. Шунингдек, ақлли шаҳарлар ва туризм дестинацияларини ривожлантиришда инфратузилмани самарали шакллантириш ҳамда барқарор рақобатбардошликка эришиш борасидаги муҳим вазифалар ва амалга оширилаётган жараёнлардан ҳар бир манфаатдор томоннинг ҳабардорлиги талаб қилинади. Бунга эришишда ҳудуд инфратузилмасини яхшилаш орқали тегишли корхона ва ташкилотлар ўртасида кучли технологик алоқани таъминлаш лозим.

Шаҳарларни ва туризм дестинацияларини барқарор ривожлантириш учун оптимал ёндашув сифатида нафақат технологияга, балки ҳудудда истиқомат қилувчи аҳолига, айниқса уларнинг саводхонлик даражасини оширишга ҳам эътибор қаратиш мақсадга мувофиқдир. Бу орқали ҳудудда яратилган АКТ имкониятларидан самарали фойдаланишга ва барқарор ривожланишга, хусусан ахборот алмашувининг яхшиланишига, тадбиркорлик субъектлари томонидан таклиф қилинаётган хизматларнинг рақамлашиш кўрсаткичларининг ошишига, мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланишга, аҳоли ўртасида атроф-муҳитга дўстона муносабатнинг шаклланишига ҳамда аҳолига қулай шарт-шароитларнинг яратилишига эришиш мумкин. Бунда туристик дестинацияларда яшайдиган ёки фаолият кўрсатадиган технологик саводсиз одамларни янги технологиялардан самарали фойдаланиш бўйича ўқитишга эътибор қаратиш муҳим аҳамиятга эга.

Яна бир муҳим масала ақлли шаҳар инфратузилмасини шакллантиришда барқарорликни таъминлашдир. Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва экологик тоза шароит яратиш учун стратегик режалар тузишда саноат, хизмат кўрсатиш ва қишлоқ хўжалиги соҳаларида табиат ресурсларидан оқилона фойдаланиш, аҳолининг ичимлик суви таъминоти, канализация ҳамда маиший ва саноат чиқиндиларини бошқариш тизимларига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Бу туристик хизматларни макро даражада мамлакатнинг барқарор ривожланиш чора-тадбирлари билан боғлайди.

Юқорида кўрсатилган чора-тадбирларни амалга ошириш санаб ўтилган масалаларни ҳал қилишда, жумладан ақлли туризм дестинацияларида пайдо бўлаётган инновацион технологиялардан самарали фойдаланиш билан боғлиқ муаммоларга ечим топишда ҳамда туризм шароитларини янада ривожлантиришда муҳим ҳисобланади. Бу нафақат туристларнинг тажрибасини ва дестинациядан қониқиш даражасини оширади, балки рақамли даврда туризм дестинацияларининг барқарор ривожланишига ҳам ҳисса қўшади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. UNWTO. (2023). World Tourism Barometer, Vol.21, Issue 4, EXCERPT https://webunwto.s3.eu-west-1.amazonaws.com/s3fs-public/2023-11/UNWTO_Barom23_04_November_EXCERPT_v2.pdf?VersionId=Q3i27HkRVsyU9gSP6yV4NCgxZiPdHlrE
2. Buhalis, D., & Amaranggana, A. (2014). Smart tourism destinations. *Information and Communication Technologies in Tourism 2014* (pp. 553-564). Berlin-Heidelberg: Springer, DOI:10.1007/978-3-319-03973-2_40.
3. Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., & Koo, C. (2015). Smart tourism: foundations and developments. *Electronic Markets*, 25(3), 179-188.
4. Buhalis, D. (2019), "Technology in tourism-from information communication technologies to eTourism and smart tourism towards ambient intelligence tourism: a perspective article", *Tourism Review*, Vol. 75 No. 1, pp. 267-272. DOI:10.1108/tr-06-2019-0258
5. Huang, C.D.; Goo, J.; Nam, K.; Yoo, C.W. (2017). Smart tourism technologies in travel planning: The role of exploration and exploitation. *Inf. Manag.* 2017, 54, pp. 757–770
6. Azis N., Amin M., Chan S., Aprila C. (2020), "How smart tourism technologies affect tourist destination loyalty", *Journal of Hospitality and Tourism Technology Emerald Publishing Limited*, 1757-9880, DOI: 10.1108/JHTT-01-2020-0005
7. Pai Ch., Liu Y., Kang S., Dai A. (2020). "The Role of Perceived Smart Tourism Technology Experience for Tourist Satisfaction, Happiness and Revisit Intention", *MDPI, Sustainability*, 2020, 12, 6592; doi:10.3390/su12166592
8. Buhalis, D., & Amaranggana, A. (2015). Smart Tourism Destinations Enhancing Tourism Experience Through Personalisation of Services. In: Tussyadiah, I., Inversini, A. (eds) *Information and Communication Technologies in Tourism 2015*. Springer, (2015). https://doi.org/10.1007/978-3-319-14343-9_28
9. Jeong, M. and Shin, H.H. (2019). "Tourists' experiences with smart tourism technology at smart destinations and their behavior intentions", *Journal of Travel Research*.
10. Pai, Ch.; Kang, S.; Liu, Y.; Zheng, Y. (2021). An Examination of Revisit Intention Based on Perceived Smart Tourism Technology Experience. *Sustainability* 2021, 13, 1007. <https://doi.org/10.3390/su13021007>
11. Zhang, Y., Sotiriadis, M. and Shen, S. (2022). "Investigating the Impact of Smart Tourism Technologies on Tourists' Experiences", *Sustainability*, Vol. 14 No. 5, p.3048. <https://doi.org/10.3390/su14053048>
12. No, E. and Kim, J.K. (2015). "Comparing the attributes of online tourism information sources", *Computers in Human Behavior*, Vol. 50, pp. 564-575.
13. Mosannenzadeh, F., and Vettorato, D. (2014). Defining smart city. A conceptual framework based on keyword analysis. *TeMA-Journal of Land Use, Mobility and Environment*.
14. Buhalis, D. (2000). Marketing the competitive destination of the future. *Journal of Tourism Management*, volume 21, pp. 97-116, [https://doi.org/10.1016/S0261-5177\(99\)00095-3](https://doi.org/10.1016/S0261-5177(99)00095-3)
15. Bekjanov, D., and Matyusupov, B. (2021). Influence of innovative processes in the competitiveness of tourist destination. In *Innovation and entrepreneurial opportunities in community tourism* (pp. 243-263). IGI Global. chapter 14, doi: 10.4018/978-1-7998-4855-4.ch014.

Мухитдинова Камола Алишеровна
Ислом Каримов номидаги Тошкент
Давлат Техника Университети доценти

ИҚТИСОДИЁТДА ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛИЯТИ ВА УНИ БЕЛГИЛОВЧИ ОМИЛЛАР

Аннотация. Мақолада инвестицион фаоллик инвестицион фаолиятга объектив ва субъектив маълумотлар орқали таъсир кўрсатиши билан намоён этилиши, инвестицион фаолият даражалари ва уни белгиловчи омиллар кенг таҳлил қилинган. Шунингдек, инвестицион фаолиятни молиялаштириш манбалари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: инвестицион фаоллик, инвестицион жозибadorлик, инвестицион салоҳият, инвестицион ресурслар, инвестицион муҳит, инвестицион жараёнлар, инвестиция лойиҳалари.

Mukhitdinova Kamola Alisherovna,
PhD Student of Tashkent State Technical
University named after Isлом Karimov

INVESTMENT ACTIVITY IN THE ECONOMY AND ITS DETERMINING FACTORS

Abstract. The article shows the impact of investment activity on investment activity through objective and subjective data and analyzes in detail the levels of investment activity and the factors that determine it. An analysis of the sources of financing of investment activities was also carried out.

Key words: investment activity, investment attractiveness, investment potential, investment resources, investment environment, investment processes, investment projects.

Мухитдинова Камола Алишеровна,
Базовый докторант Ташкентского
государственного технического
университета имени Ислама Каримова

ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ЭКОНОМИКЕ И ЕЕ ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ФАКТОРЫ

Аннотация. В статье проявлено влияние инвестиционной активности на инвестиционную деятельность через объективные и субъективные данные и подробно проанализированы уровни инвестиционной деятельности и определяющие ее факторы. Также проведен анализ источников финансирования инвестиционной деятельности.


Ключевые слова: инвестиционная активность, инвестиционная привлекательность, инвестиционный потенциал, инвестиционные ресурсы, инвестиционная среда, инвестиционные процессы, инвестиционные проекты.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N17>

Кириш. Бугунги кунда олиб борилаётган иқтисодий тадқиқотларда “инвестициялар”, “инвестицион фаоллик”, “инвестицион механизм”, “инвестицион фаолият” ва шу каби иқтисодий тушунчаларга ягона бир таъриф келтирилмаган. Кўпгина илмий адабиётларда “инвестицион фаоллик”ка яқин бўлган тушунчалар: “инвестицион

жозибаторлик”, “инвестицион муҳит” “инвестицион имиж” синоним сифатида қўлланиб келинмоқда. Бизнинг фикримизча, “инвестицион фаоллик” мустақил категория бўлиб, хўжалик субъектларининг барқарор молиявий ҳолатини тавсифлайди ва аниқ давр учун реал ресурсларининг сафарбар этилишини англатади. Буни инвестицион талабни қондирадиган жараён сифатида ҳам талқин этиш мумкин.

Адабиётлар таҳлили ва методологияси. Юқорида зикр этилган турли хил омилларнинг ижобий тарздаги амалга оширилиши хорижий инвестицияларнинг фаол кириб келишига имкон беради. Бу эса табиийки, қўшимча иш жойлари, қўшимча



даромад, иқтисодиётнинг ўсишига қўшимча имкониятдир. Яна, энг муҳими, хорижий инвесторлар ўзлари билан нафақат капитал олиб кирадилар, балки ўз мамлакатларида бўлган илғор билим ва тажрибани ҳам олиб келадилар. Бу ҳам мамлакатнинг келгуси иқтисодий ўсишига имкон туғдиради.

2-расм. Инвестицион фаоллик омиллари¹

Инвестициялар инвесторлар томонидан ўз мақсадларига эришиш учун тегишли фаолият турига киритиладиган ва пулда ифодаланган ҳар қандай фуқаролик ҳуқуқлари объектидир.

Инвестицион иқлим ички ва ташқи инвестицияларнинг кириб келишига таъсир кўрсатадиган ялпи иқтисодий, сиёсий ва молиявий шароитдир.


Инвестицион жозибаторликни баҳолаш тарихига назар ташлайдиган бўлсак, бундай тадқиқотлар 1970 йиллардан бошланганлигини кўришимиз мумкин. Гарвард бизнес мактабида дунё мамлакатларининг инвестицион жозибаторлиги бўйича ўтказилган тадқиқотлар ушбу соҳада амалга оширилган дастлабки изланишлардан бири ҳисобланади. Шунингдек, бугунги кунда “Euromoney”, “Fortune”, “The Economist” каби халқаро иқтисодий журналларда ҳам доимий равишда инвестицион муҳит бўйича рейтинг баҳолари эълон қилиб борилмоқда. Ушбу айтиб ўтилган рейтинглар, асосан, мамлакатларнинг инвестицион жозибаторлигини баҳолашга қаратилган, яъни макроиқтисодий даражадаги таҳлиллардир. Ваҳоланки, инвесторлар аниқ бир инвестицион лойиҳа бўйича инвестиция қарорларини қабул қилишлари учун инвестицион жозибаторликнинг макроиқтисодий даражалари каби микроиқтисодий – тармоқлар, минтақалар, ташкилотлар даражаларини ҳам ҳисобга олишлари керак.

¹ Тадқиқот натижаларига кўра муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Инвестицион жозибадорликни баҳолаш учун иккита муҳим жиҳатга эътибор қаратиш лозим бўлади. Биринчиси - маълум бир объектни инвестициялашнинг инвестицион жозибадорлиги. Бунда аниқ бир ҳудудий тизимда мавжуд бўлган тармоқлар, соҳалар иқтисодий ҳолати таҳлил этилади. Иқтисодий таҳлилни амалга оширишда инвестицион лойиҳа ва дастурлар самарадорлигини аниқлашнинг таянч кўрсаткичлари баҳоланади.

Иккинчиси - ҳудудий хўжалик тизимининг инвестицион жозибадорлиги. Бунда қуйидаги ҳолатлар таҳлил этилиши назарда тутилади:

2-расм. Инвестицион фаолиятга оид тушунчаларнинг ўзаро боғлиқлик механизми¹



- мавжуд ҳуқуқий-норматив база;
- сиёсий вазият;
- инвестицион инфратузилма;
- ижтимоий-иқтисодий шароитлар;
- инвесторлар манфаатини ҳимоя қилиш даражаси;
- солиққа тортиш даражаси;
- стратегик ва маъмурий ресурслар.


Юқорида қайд этганимиздек, инвестицион фаоллик иқтисодий категория бўлиб, инвестицион фаолиятга объектив ва субъектив маълумотлар орқали таъсир кўрсатиши билан намоён бўлади.

Иқтисодчи олима Т.М. Смаглюкова инвестицион фаолликни белгиловчи барча кўрсаткичлардан комплекс баҳолаш талабларига кўпроқ мувофиқ келадиган кўрсаткичларни ажратиб олади. Унинг фикрича, мазкур кўрсаткичлар инвестицион жараённинг барча томонларини акс эттирувчи инвестицион фаоллик омиллари таркибига киритилади. [6]

¹ Муаллиф ишланмаси.

Шаклланган кўрсаткичларнинг йиғиндиси иқтисодий тизим ва инвестициялаш объектлари сифатида ҳудудлар фаолиятининг ташқи ва ички омилларини қамраб олади (3-расм).

3-расм. Ҳудудларнинг инвестицион фаоллигини белгилайдиган омиллар [6]



Олиманинг фикрича, барча келтирилган омиллар ёрдамида қўйилмаларнинг хатарликка тортилган даражаси таҳлил қилиниши мумкин. Тармоқлар даражасида қўйилмаларнинг хатарлик даражасини баҳолаш учун ушбу рўйхатдан сиёсий, ижтимоий, инфратузилма, қонуний ва жиноий, инновацион ва ресурс-хом ашё омиллари чиқариб ташланган. Бу уларнинг таҳлил қилинаётган кўрсаткичларни шакллантиришга етарли даражада таъсир кўрсатмаётгани билан изоҳланади.

Инвестицион салоҳият категорияси узоқ вақт давомида фойдаланиладиган активларга, шу жумладан, даромад ёки бошқа иқтисодий натижаларни кўпайтириш мақсадида қимматли қоғозларга маблағларни йўналтириш имконияти сифатида талқин этиб келинган.

Мамлакатнинг инвестицион салоҳиятини шакллантириш ва амалга ошириш таҳлиliga бағишланган, Ф.С.Тумусов томонидан таклиф этилган ёндашув ҳам диққатга сазовор. У “инвестицион салоҳият”ни сармояни такрор ишлаб чиқаришнинг моддий, молиявий ва интеллектуал эҳтиёжларини қондиришни таъминловчи реал инвестицион талабга айланиш имконига эга бўлган инвестициялар бозорида инвестицион талаб шаклида намоён бўладиган, тўпланган сармоянинг бир қисмидан иборат инвестицион ресурсларнинг жамланмаси сифатида талқин қилинади. [1]

Бизнинг фикримизча, инвестицион салоҳият мамлакатнинг инвестицияларнинг кириб келиши учун очиклиги ва иқтисодий ресурслар захираларининг мавжудлиги, уларнинг ҳажми билан белгиланади.

Buyuk Britaniyada iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha institutsional tizim keng miqyosli yarim hukumat tashkilotlari tarmog'iga ega. Ish bilan bandlik va ishsizlik masalalari hukumatga nisbatan maslahatchi vazifasini bajaruvchi mehnat komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda davlat miqyosida bandlikni tartibga solish Mehnat Departamenti tomonidan amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyaning kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha tajribasi e'tiborga loyiqdir. Kasb-hunarga oid faoliyatning asosiy muvofiqlashtiruvchi organi 3,6 mingdan ortiq konsultant va ularning yordamchilaridan tashkil topgan, yoshlarni ish bilan ta'minlash xizmati hisoblanadi.

Ushbu sohadagi trening 1949 yildan buyon Buyuk Britaniyada o'tkaziladi. Buyuk Britaniyada 2016 yilning boshida ishsizlik darajasi oxirgi 7 yil davomida eng minimal qiymatga (5,3 %), band bo'lganlar soni esa rekord qiymat (31,2 mln.kishi) ga ko'tarilib, mehnat bozoridagi sharoitlar ijobiy tomonga o'zgarganligini ko'rsatdi [8].

5. Yapon modelida mehnat munosabatlari tizimi umrbod yollanish tizimiga asoslanib, xodimlarning korxonada ishlaydigan eng yuqori (55-56) yoshga yetgunlariga qadar ish bilan ta'minlanishi kafolatlangan.

Umrbod yollanishning bunday tizimi ishga yollanuvchilar ish haqi, mukofotlar, rag'batlantirish hamda ijtimoiy to'lovlar tarzidagi moddiy taqdirlash miqdorlari o'sib borishiga qulay asos hisoblanadi. Bu esa xodimlarda mehnatga ijobiy munosabatda bo'lish va yuqori darajada sifatli mehnatga intilishni tarbiyalashga qaratilgan siyosatni barqarorligini ta'minlashga asoslanadi. So'nggi yillarda Yaponiyada ishsizlik darajasi 33,5 foizni tashkil etmoqda

Yaponiyada xodimlardan uzoq vaqt davomida foydalanishni ko'zlash, ularning kasb tayyorgarligi va malakasini oshirishni ish o'rinlari tarkibi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini hisobga olgan holda, ichki firma darajasida amalga oshirish, avvaldan xodimning firma ichida kasbiy harakatchanligini nazarda tutishi, xodimlarda mehnatga, yuqori ish sifati darajasiga erishishga ijobiy yondashishni tarbiyalash imkoniyatini yaratadi.

Mazkur rivojlanish modelida mehnatni rag'batlantirish va tartibotni shakllantirishning muhim belgisi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash masalalarining barcha xodimlar tomonidan ishlab chiqilishi, ishchilarning tashabbuskorligini taqdirlashdir. Mehnatga munosabat va samarali ishlash, ratsionalizatorlik takliflari, uzoq yil bir

joyda ishlashga qo'shimcha haq belgilash, nafaqaga chiqayotganda yirik to'lovlar orqali rag'batlantiriladi. Tadbirkorlar ishlab chiqarishni qisqartirish masalasini personalni qisqartirish bilan emas, balki ish vaqti davomligini qisqartirish yo'li yoki ishchilarning ma'lum bir qismini boshqa korxonaga, ular bilan kelishgan holda, o'tkazish bilan hal etadi.

Yaponiyada an'ana bo'yicha boshqaruvning yuqori bo'g'inida erkaklar imtiyozga ega bo'lganligi, o'tgan asrning 50-yillarida boshlangan va 70- yillarda yanada faollashgan "feminizatsiyalash" jarayoni natijasida 80-yillarda menejerlar orasida ayollar paydo bo'la boshladi.

Xulosa va takliflar. Fikrimizcha, mamlakatimizda ish o'rinlarini tashkil etish sohasidagi davlat siyosati ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini ko'paytirish bo'yicha xorijiy davlatlar singari aniq usullar asosida ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun quyidagi tadbirlarni e'tiborga olish zarur deb o'ylaymiz:

- davlat tomonidan iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarni rag'batlantirish, bu esa yangi ish joylarini yaratishning asosiy sharti hisoblanadi;

- yangi ish joylari tashkil etilganda tadbirkorlarga va kichik biznes korxonalariga soliq imtiyozlari berish;

- o'z-o'zini ijtimoiy zarur mehnat bilan band qilishni rag'batlantirish;

- kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikda investitsion faollikni rag'batlantirish asosida shart-sharoitlar yaratish, bu ko'plab mamlakatlarda aholi bandligini ta'minlashning muhim uslubi sifatida o'rganilmoqda;

- tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq ishsiz qolgan yoki ishidan ajralib qolish xavf solayotgan shaxslarning ish izlashlarini faollashtirish maqsadida kasbga o'qitish, qayta tayyorlash va ularga axborot-konsalting xizmatlarini ko'rsatish;

- mehnat bozorida vositachilik qilayotgan mehnat birjalari va bandlik xizmatlarini rivojlantirish, friksion ishsizlik va tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq ishsizlikni pasaytirish maqsadida vakant ish joylari to'g'risida ma'lumotlar yig'ish, tahlil qilish va ularga tezkor murojaatini ta'minlash (axborot-maslahat markazlari);

- aholining alohida guruhlari - yoshlar, nogironlar, ishlash qobiliyati chegaralangan insonlar uchun ish joyi sharoitlarini yaratish bilan bog'liq xarajatlarni qoplashlari uchun ish beruvchilarga kompensatsiyalar ajratish;

- kompetentlik va mehnatga ijodiy munosabat uchun moddiy rag'batlantiradigan ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaratish;

- zarurat tug'ilganda oilalarga ishchi kuchi zich bo'lgan hududlardan vakant joylar bo'lgan xududlarga ko'chib o'tishida subsidiya va kreditlar berish yo'li bilan ko'maklashish;

- bandlik muammolarini hal qilishda xalqaro hamkorlik, xalqaro mehnat migratsiyasi bilan bog'liq masalalarni hal qilish;

- davlat sektorida - ta'lim, tibbiy xizmatlar, kommunal xo'jaligi, jamoatchilik binolari va inshootlarini qurish sohalarida ishchi o'rinlarini yaratish; - maqsadli jamoat ishlarini tashkil qilish va hokazo.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida aholi ish bilan bandligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari bo'yicha xorijiy amaliyotlar tajribasini ilmiy tadqiq va tahlil etish mazkur davlatlar tajribasining ilg'or, respublikamiz uchun qulay bo'lgan jihatlaridan foydalangan holda, aholi ish bilan bandlik darajasini oshirishning samarali, istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF - 4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6 -son.
2. Belous, I. Opit stran YES v sfere sotsialnoy podderjki naseleniya. // Mir finansov. -2006. - № 4. - S. 165-169.
3. Drujinina, V.V. Obespecheniye sbalansirovannosti mestnogo rinka truda: zarubejniy opit. //Nauchny Vestnik Xersonskogo gosudarstvennogo universiteta.
4. Zaytseva, K.V. Upravleniye trudovoy zanyatostyu v usloviyax smeshannoy ekonomiki: monografiya. - Donetsk: МСНР «VIK», 2003. - 294 s.
5. Олимова, Н. Х., & Ахунова, О. Э. (2019). Научно-теоретические аспекты организационной торговли текстилем. In Тенденции развития мировой торговли в XXI веке (pp. 66-69).
6. Axunova, O., Teshabaeva, O., & Yulchiev, A. (2021). Analysis of the status, movement and level of funding of fund funds in foreign enterprises. *academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 450-460.
7. Akhunova, O. E., Kh, O. N., & Kh, E. A. (2019). Role of innovative technologies in ensuring competitiveness of export products in Uzbekistan. *Process management and scientific developments*.
8. Ахунова, О. Э., Олимова, Н. Х., & Хамидова, З. А. (2019). влияние эффективной занятости населения на рынке туристических услуг на национальное прикладное искусство и экономическое развитие страны. *Научные исследования*, 24.

Nasriddinova Dildora Shukrullayevna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti

**OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQOTLARINI
TAKOMILLASHTIRISH VA MODELLARINI YARATISH**

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim xizmatlari bozorida ishchi hodimlarni malakasini oshirish bo'yicha samaradorlik koeffitsiyentini hisoblash uslubiyatlari yoritilgan. Shuningdek, mehnat bozorining turli rivojlanish bosqichlarida oliy ta'lim xizmatlarini tashkil etish modellari hamda oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishning "uch fazali" mexanizmi taklifi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim xizmatlari, mehnat bozori, ish beruvchi, inson kapitali, inson kapitalini investitsiyalash, kasbiy bilim, kasbiy ko'nikma.

Nasriddinova Dildora Shukrullaevna
Masters Student of Samarkand Institute of Economics and Service

**IMPROVING AND BUILDING MODELS OF MARKETING RESEARCH IN THE HIGHER
EDUCATION SERVICES MARKET**

Abstract. The article covers methods for calculating the efficiency coefficient for improving the qualification of working employees in the higher education services market. Also, at various stages of development of the labor market, models for the organization of higher education services and a "three-phase" mechanism for the provision of higher education services have been developed.

Key words: higher education, educational services, labor market, employer, human capital, investment in human capital, professional knowledge, professional skills.

Насриддинова Дилдора Шукруллаевна
Магистрант Самаркандского института экономики и сервиса

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ И СОЗДАНИЕ
МОДЕЛЕЙ НА РЫНКЕ УСЛУГ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

Аннотация. В статье рассмотрены методики расчета коэффициента эффективности повышения квалификации персонала, работающего на рынке услуг высшего образования. Также разработаны модели организации услуг высшего образования на различных этапах развития рынка труда и предложение "трехфазного" механизма предоставления услуг высшего образования.

Ключевые слова: высшее образование, образовательные услуги, рынок труда, работодатель, человеческий капитал, инвестиции в человеческий капитал, профессиональные знания, профессиональные навыки.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N20>

Kirish. Jahonda oliy ta'limni bandlik bilan bog'liqligini tahlil qilishda Iqtisodiy hamkorlik taraqqiyot tashqiloti ma'lumotiga ko'ra "IHTTga a'zo mamlakatlarda 25-64 yoshdagi band aholining oliy ta'lim darajasi bo'yicha 84 foizni tashkil etgan bo'lsa, jumladan Islandiya 94 foiz, Shvetsiya 90 foizni, Norvegiya 89 foizni, Shvetsariya, Polsha, Niderlandiyada 88 foizni, Isroil, Latviya, Yangi Zelandiyada 87 foizni tashkil etadi" [1].

Ishlovchilarni intellektual darajasi va mehnat unumdorligini oshirishning muhim omili hisoblangan ta'lim xizmatlari bozori aholini ta'lim jarayoniga jalb etish va kelajakda mehnat bozorining tegishli segmentida inson mavqeini kuchaytirish imkonini beradi.

Mamlakatda mehnat bozori va oliy ta'lim xizmatlari bozorlari o'rtasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun mamlakatda taqdim etilayotgan oliy ta'lim xizmatlarini sifatini oshirish, mehnat bozori talablarini hisobga olib yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarni berish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda inson kapitali mamlakatlar milliy boyligining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, inson kapitali mamlakat iqtisodiyotining amal qilishi, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, mehnat bozorining amal qilishi, iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazishning samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda, mamlakatda milliy inson kapitalini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda ta'lim xizmatlaridan keng foydalaniladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oliy ta'lim tizimini rivojlanishini nazariy va amaliy jihatlarini, ta'lim sifatini oshirishning rivojlangan mamlakatlar tajribalari va ularning ijobiy tomonlaridan O'zbekiston oliy ta'lim tizimida foydalanish yo'nalishlari A.V.Vaxabovning tadqiqot ishlarida tahlil qilingan [2].

N.R.Raxmonovning "Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish" [3] mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida oliy ta'lim sifatini oshirish va kadrlar tayyorlashning hududiy xususiyatlarini takomillashtirishga qaratilgan.

A.O.Ochilovning ilmiy tadqiqot ishi "yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish" [4] masalalariga bag'ishlangan. O.S. Qahharovning tadqiqot ishlarida "oliy ta'lim muassasalarida qabulni shakllantirish maqsadida olib borilgan, ya'ni real o'rganilgan potensial ish beruvchilar ehtiyojlarini hamda hukumat doirasida tasdiqlangan yo'l xaritalari va dasturlarini inobatga olgan holda qabul shakllantirishga asos bo'luvchi marketing tadqiqotlarini sifatli o'tkazilishi natijasida to'g'ri qaror qabul qilinishiga erishish" [5] zarurligini taklif etgan.

Sh.A.Kuldashevning tadqiqot ishlarida "ta'lim xizmatlarining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari, ta'lim xizmatlari kategoriyasining mohiyati, oliy ta'lim tizimi bo'yicha ta'lim xizmatlari bozori ishtirokchilarining o'zaro munosabati va ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishning ahamiyati hamda oliy ta'lim tizimida raqobatbardoshlik muhitining shakllanishi" [6] o'rganilgan.

Xorijlik iqtisodchi YU.B. Rubin tadqiqotlari mehnat bozoridagi munosabatlarning turli rivojlanish bosqichlarida amal qilgan oliy ta'lim xizmatlarini tashkil etish modellari o'rganilgan [7].

Uzoq xorijlik iqtisodchi olimlardan E. Vuds va K. Metsgerlar o'z ilmiy tadqiqotlarida insonni kapital sifatida baholab uni mehnat resursida simmetrik tarzda "qadrsizlanish", "saqlash" va "ishdan chiqish" kabi kategoriyalarda o'rganadilar. Inson kapitalini saqlanishi ish haqidan insonning tovar va xizmatlar iste'moliga xarajatlari bilan asoslanadi. Uning qadrsizlanishi va ishdan chiqishi esa o'rtacha daromadlar darajasi bilan asoslanadi: "mazkur faktorlar (qadrsizlanish va ishdan chiqish) yosh jihatdan katta va nisbatan yosh ishchi hodimlarning o'rtacha yillik daromadlari hajmining orasidagi farq bilan xarakterlanadi.

Yosh jihatdan katta ishchi hodimlar o'zlaridan yosh va sog'ligi jihatdan mukammalroq bo'lgan yoshroq kadrlarga nisbatan kamroq ish haqi oladilar. Chunki yoshlar kelajakda o'zidan avvalgi avlodning malaka va ko'nikmalarini o'zlashtirish hisobiga o'zlarining o'rtacha yillik daromadlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar va keksalar esa asta sekin ishdan chiqq boshlaydilar [8]."

MDHdan rossiyalik iqtisodchi L.V. Zaxarova "ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanish xususiyatlari, ta'lim xizmatlari va mutaxassislar mehnat bozorining o'zaro bog'liqligi, ta'lim xizmatlari tushunchasining mohiyati, mazmuni va tasnifi, ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni shakllanishi, ta'lim xizmatlariga talab va taklifning shakllanishi, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish" [9] masalalarini o'rgangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishini amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanayotgan oliy ma'lumotli mutaxassislariga qo'yilayotgan malaka qobiliyatlari, kasbiy qobiliyatlari va ish beruvchilar tomonidan ularning qobiliyatlariga qo'yilayotgan talablar statistik, empirik tahlil qilish asosida mavjud muammolar aniqlab olingan hamda oliy ta'lim va mehnat bozorini bog'liqligini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar. Tahlillarga ko'ra, mehnat bozorida mehnatni tashkil etish, uning mazmuni va mohiyati o'zgarib borgan sari, oliy ta'lim xizmatlarini ham ularga moslashtirib borish talab etiladi.

Yaqin xorijlik iqtisodchi olim YU.B. Rubin o'z ilmiy tadqiqotlarida mehnat bozorida munosabatlarning turli rivojlanish bosqichlarida amal qilgan oliy ta'lim xizmatlarini tashkil etish modellarini ajratib ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishdagi guruhlashni amalga oshirish orqali olim mehnat bozori va oliy ta'lim xizmatlarining o'zaro bog'liqlikdagi rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligini isbotlaydi (1-jadval).

1-jadval

Mehnat bozorining turli rivojlanish bosqichlarida oliy ta'lim xizmatlarini tashkil etish modellari [6]

| Model nomi | Amal qilish davri | Xususiyatlari | Amal qilish mexanizmi |
|--|---|--|--|
| Klassik universitetlar yoki institutlar | XIX asrning boshlaridan 1917 yilga qadar | Kasbga yo'naltirilganlik va nodavlat oliy ta'lim muassasalarining mavjudligi | Mehnat bozori talablarini qondirishga yo'naltirilgan kasbiy ta'lim berish |
| Kasbga yo'naltirilgan klassik universitetlar yoki institutlar | XX asrning o'rtalaridan 1990 yillarning boshiga qadar | Bozor tamoyillarini nisbatan inkor etilishi, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobatning yo'qolishi va yashirin sektorning rivojlanishi | Nufuzli universitetlarning shakllanishi natijasida oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatning yo'qolishi va ta'lim sifatining pasayishi |
| Kasb bo'yicha ixtisoslashtirilgan universitetlar yoki institutlar | 1990 yillardan to bugungi kunga qadar | Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini davlat tomonidan taribga solish, Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat kurashining kuchayishi va ta'lim xizmatlarining kasbga ixtisoslashuvi bo'yicha differentsiatsiyalashuvi | Oliy ta'lim xizmatlari bozorida chuqur tarkibiy islohotlarni amalga oshirish va mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda, kasb bo'yicha ixtisoslashgan oliy ta'lim xizmatlarini yo'lga qo'yish |

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrdan to bugungi kunga qadar oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozorining integratsiyalashuvining rivojlanish bosqichlarida klassiy universitetlar, kasbga yo'naltirilgan klassik universitetlar va kasb bo'yicha ixtisoslashgan universitetlar modellari shakllangan bo'lib, ular quyidagi tartibda tasniflanadi:

➤ XIX asrning boshlarida 1917 yilga qadar bo'lgan davr. Bunda oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda klassik universitetlar shakllangan bo'lib, ular tomonidan mehnat bozoridagi ishchi kuchiga bo'lgan talab asosida kasbiy ta'lim berish amalga oshirilgan. Bunda kasb bo'yicha mehnat bozoridagi mavjud ish o'rinlaridan kelib chiqqan holda oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatilgan bo'lib, kasbiy ta'lim asosiy talabalarga u haqdagi umumiy ma'lumotlarni berish bilan cheklangan. Shu bilan birgalikda, asosiy e'tibor ta'lim sifatiga emas, balki mehnat bozoridagi ishchi kuchiga bo'lgan talabga mos bo'lgan miqdordagi bitiruvchilarni o'qitishga qaratilgan.

➤ XX asrning o'rtalaridan 1990 yillarning boshlariga qadar bo'lgan davr oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozorini integratsiyalashuvining ikkinchi bosqichi sifatida baholanadi. Ushbu bosqichda oliy ta'lim xizmatlari bozorida ayrim universitetlarning boshqa oliy ta'lim muassasalariga nisbatan nufuzi ortib, bu turdagi universitetlarda o'qishni hohlovchilar soni keskin ortib ketadi. Natijada oliy ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobat kurashi nisbatan kamayib, nufuzli universitetlar monopol kuchga ega bo'la boshlaydi. Ushbu holat oliy ta'lim xizmatlari sifatiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatishi bilan birgalikda, mehnat bozorida taklif etilayotgan ish o'rinlari bo'yicha bitiruvchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarining sifat ko'rsatkichlarini keskin tushib ketishiga olib keladi. Mehnat bozorida oliy ta'lim muassasalarining o'zlari istagan ish o'rinlariga ega bo'la olmaslik holatlari ortib borgan sari, mamlakatlar iqtisodiyotining norasmiy sektorida aholi bandligi ko'rsatkichi orta boradi. Natijada oliy ta'lim xizmatlari bozorida chuqur tarkibiy islohotlarni o'tkazish zaruriyati vujudga keladi.

➤ keyingi bosqich 1990 yillardan to bugungi kunga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga olib, ushbu davrda oliy ta'lim xizmatlari bozorida chuqur tarkibiy islohotlar amalga oshiriladi. Bunda mehnat bozorida ish beruvchilar tomonidan taklif etilayotgan ish o'rinlari bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga asoslangan oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish amaliyotini rivojlantirishga ustuvorlik qaratiladi. Natijada kasbiy ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilib, oliy ta'lim muassasalari bilan ish beruvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarining akademik va moliyaviy sohadagi mustaqilligini ta'minlashga ustuvorlik qaratiladi [6].

Tahlillar ko'rsatishicha, oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozori o'rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarining rivojlanish bosqichlarida ushbu ikki bozor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning rivojlanishi natijasida ish beruvchilar tomonidan yollanma ishchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar ortishi bilan birgalikda, oliy ta'lim muassasalari tomonidan talabalarga kasbiy ta'lim berish sifatining tobora ortishi ko'zga tashlanadi.

Jumladan, iqtisodiy adabiyotda oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishning davlat tomonidan bozor iqtisodiyoti dastaklari orqali tartibga solishning jamoaviy va ommaviy modellari o'zaro farqlanadi.

Jamoviy model uchun quyidagi xususiyatlar xos hisoblanadi:

- ✓ akademik va moliyaviy sohalardagi oliy ta'lim muassasalarining institutsional jihatdan mustaqilligi;
- ✓ oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'zini-o'zi boshqarishga ixtisoslashganligi;
- ✓ nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yilganligi;
- ✓ oliy ta'lim xizmatlari bozorini davlat tomonidan ma'lum bir tashkilotlar orqali bilvosita tartibga solish;
- ✓ oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy tuzilishi jihatidan qat'iy talablarning yo'qligi va bu boradagi erkinligi;
- ✓ ish beruvchilar uyushmalari bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning mavjudligi;
- ✓ oliy ta'lim xizmatlarining mehnat bozori talablariga yo'naltirilganligi;
- ✓ kasbiy standartlarni shakllantirishda davlatning minimal ishtiroki va ish beruvchilar uyushmalarining ushbu sohadagi ustuvorlikka egaligi [9].

Yuqorida keltirib o'tilgan oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishning davlat tomonidan bozor iqtisodiyoti dastaklari orqali tartibga solishning jamoaviy modeli uchun xos bo'lgan xususiyatlar bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida keng qo'llaniladi.

Oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishning davlat tomonidan bozor iqtisodiyoti dastaklari orqali tartibga solishning ommaviy modelida yuqorida keltirib o'tilgan jamoaviy modelga nisbatan davlatning ishtiroki ko'p bo'lib, ushbu model uchun quyidagi xususiyatlar xos hisoblanadi:

- ❖ oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga solishda davlatning bevosita ishtiroki va davlat tomonidan oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish amaliyotini markazlashgan boshqaruvga asoslanganligi;
- ❖ oliy ta'lim tizimida davlat mulkinging ustuvorligi. Ya'ni, oliy ta'lim muassasalari davlat tasarrufidagi ta'lim tashkilotlari hisoblanadi;
- ❖ oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy tuzilishi qat'iy belgilangan iyerarxik tuzilishga asoslanadi;
- ❖ oliy ta'lim muassasalari bilan ish beruvchilar uyushmalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning yo'qligi;
- ❖ kasbiy ta'lim berishda an'anaviy usullarga asoslanish va mehnat bozori talablariga nomuvofiqlikning yuqoriligi;
- ❖ oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashda davlat buyurtmasiga asoslanish.

Boshqa so'z bilan aytganda, oliy ta'lim muassasalari uchun qabul kvotalari davlat mutasaddi tashkilotlari tomonidan tasdiqlanadi [10].

Tahlillarga ko'ra, oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishning davlat tomonidan bozor iqtisodiyoti dastaklari orqali tartibga solishning ommaviy modeli asosan bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan, shuningdek, kam daromadli mamlakatlar guruhlarida keng qo'llaniladi.

Oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishning davlat tomonidan bozor iqtisodiyoti dastaklari orqali tartibga solishning jamoaviy va ommaviy modellarining qiyosiy tahliliga asoslangan holda aytish mumkinki, jamoaviy model bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida amal qilib, ushbu modelda yuqori malakali, sifatli kadrlar tayyorlash imkoniyati ommaviy modelga nisbatan yuqori hisoblanadi. Ommaviy model har taraflama bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bera olmaydi. Jumladan, ushbu model oliy ta'lim xizmatlari sifatini keskin tushib ketishi bilan

birgalikda, oliy ta'lim xizmatlari bozorida sog'lom raqobat muhitini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz oliy ta'lim xizmatlari bozorida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, oliy ta'lim muassasalari boshqaruvining zamonaviy tizimlarini joriy etish, ularning akademik va moliyaviy sohadagi mustaqilligini ta'minlash, nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish kabi chora-tadbirlar oliy ta'lim tizimini bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashtirish borasida qo'yilayotgan muhim qadamlardan hisoblanadi.

Avvalgi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishning davlat tomonidan bozor iqtisodiyoti dastaklari orqali tartibga solishning ommaviy modeli amal qilgan bo'lsa, endilikda jamoaviy modelga o'tishga qaratilgan chuqur tarkibiy islohotlar amalga oshirilmogda.

Jumladan, 2030 yilga qadar mamlakatimizda aholi turmush darajasi va sifatini tavsiflovchi xalqaro indekslar qatoriga kiruvchi inson taraqqiyoti indeksi ko'rsatkichini 2020 yildagi 0,720 koeffitsiyentdan 0,820 gacha oshirish maqsad etib belgilangan. Ushbu maqsadga erishishda inson taraqqiyoti indeksining tarkibiy komponentlari hisoblangan kutilayotgan o'rtacha umr davomiyligi indeksini 2030 yilga borib 0,900 ga, ta'lim indeksini 0,830 ga, daromad indeksini esa 0,740 ga yetkazish rejalashtirilgan.

Jumladan, uzoq muddatli istiqbolda mamlakatda aholiga ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari qamrovi va ularning sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, unda yoshlarni oliy ta'lim xizmatlari bilan qamrov darajasini 2026 yilga borib 50 foizga yetkazish rejalashtirilgan [11].

Bu orqali mamlakat mehnat bozorini yuqori malakali kadrlar bilan to'yintirish va aholining daromadlari hajmini oshirishga erishish nazarda tutilgan. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda, mamlakatimizda mehnat bozorida ish beruvchilar tomonidan yollanma ishchilarning kasbiy malakalariga qo'yiladigan talablari asosida oliy ta'lim xizmatlari orqali sifatli kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish orqali inson kapitlanini investitsion samaradorligini oshirishga erishiladi, deb hisoblaymiz. Bunda oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishning "uch fazali" mexanizmini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (2-jadval).

2-jadval

Oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishning "uch fazali" mexanizmini tashkil etish modellari

| Oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning "uch fazali" mexanizmi | | |
|---|--|---|
| I faza - ish beruvchiga yo'naltirilgan | II faza - OTM ehtiyojiga yo'naltirilgan | III faza - iste'molchiga yo'naltirilgan |
| Umumkasbiy fanlar oliy ta'lim muassasasi, tanlov fanlari esa ish beruvchi tomonidan tanlanadi | Umumkasbiy va tanlov fanlari to'liq oliy ta'lim muassasasi tomonidan tanlanadi | Umumkasbiy fanlar oliy ta'lim muassasasi, tanlov fanlari esa talaba va uning vakili tomonidan tanlanadi |

Taklif etilayotgan oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishning "uch fazali" mexanizmi oliy ta'lim muassasalarida inson kapitalini investitsiyalash samaradorligini ham keskin oshirish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan mexanizmning birinchi fazasi ish beruvchi, ya'ni mehnat bozorida tegishli soha bo'yicha ishchi kuchining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalariga yo'naltirilgan

bo'lib, bunda talabalarga o'qitiladigan umumkasbiy fanlar oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilansa, tanlov fanlari esa ish beruvchi korxonalarining yetakchi mutaxassisleri (kadrlar bilan ishlash bo'limi vakili, korxonada menejari, korxonada direktori, bo'lim boshliqlari va h.k.) tomonidan tanlab beriladi.

Jumladan, oliy ta'lim muassasasida ish beruvchilar tomonidan tanlangan fanlarni o'qitishda oliy ta'lim muassasasi bilan ish beruvchi korxonada va tashkilotlar o'rtasida tuzilgan o'zaro hamkorlik shartnomasi asosida uzoq korxonada yillik mehnat stajiga, yuqori kasbiy ko'nikma va malakaga ega bo'lgan yetakchi hodimlarini jalb etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu bilan birgalikda, talabalarining malakaviy amaliyotlarini ish beruvchi korxonada va tashkilotlar bazasida tashkil etish lozim bo'ladi. Bu orqali talabalarga ta'lim berish jarayonlarining amaliyot bilan uzviy bag'liqligini ta'minlashga erishiladi.

Ishlab chiqilgan mexanizmning ikkinchi fazasi oliy ta'lim muassasalarining o'z ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lib, bunda talabalarga o'qitiladigan umumkasbiy va tanlov fanlari bevosita oliy ta'lim muassasasi vakillari (ilmiy kengash a'zolari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va h.k.) tomonidan belgilab beriladi. Fanlarda tanlashda talabalarga ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, ilmiy tadqiqot ishlari, jumladan, ilmiy maqolalar, diplom ishi, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini yozish, ularni rasmiylashtirish, ta'lim berish bo'yicha pedagogik mahoratlarini oshirishga qaratilgan fanlarga ustuvorlik qaratilishi maqsadga muvofiq. Talabalarining malakaviy amaliyotlarini bevosita oliy ta'lim muassasasi yoki ilmiy tadqiqot institutlarida tashkil etilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Taklif etilayotgan mexanizmning so'nggi, uchinchi fazasi bevosita iste'molchiga yo'naltirilgan bo'lib, bunda umumkasbiy fanlar oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilansa, tanlov fanlari esa talabaning o'zi yoki uning vakili (masalan, ota-onasi, yaqinlari, qarindoshlari) tomonidan tanlanishi maqsadga muvofiq. Ushbu faza o'z biznesiga ega bo'lgan o'rta ma'lumotli jamiyat a'zolariga yo'naltirilib, ular kelajakda mehnat bozorida ish beruvchi sifatida ishtirok etishlari ehtimoli yuqori bo'lgan aholi guruhlari hisoblanishadi. Ushbu fazada malakaviy amaliyotlarni tashkil etishda talabalarni oliy ta'lim muassasasi bilan turli ish beruvchi korxonalariga yo'naltirish maqsadga muvofiq. Bu orqali korxonada faoliyatini tashkil etish borasidagi ish beruvchilarning o'zaro tajriba almashinuvi jarayonlari jadallashishiga erishiladi.

Xulosa. Fikrimizcha, yuqorida bildirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni inobatga olgan holda, oliy ta'lim xizmatlari orqali inson kapitalini rivojlantirish uzoq muddatli istiqbolda ularning mehnat bozoridagi faoliyati samaradorligini oshirish bilan birgalikda, yuqori daromadga ega bo'lish imkoniyatlarini kengayib, bitiruvchilarning bandligini ta'minlash muammosini ham ijobiy hal etishga erishiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилоти.(OECD) (2017), Education at a Glance 2017: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris. [Электронный ресурс]. – URL: <http://dx.doi.org/10.1787/eag-2017-en>.
2. Vaxabov A.V. Oliy ta'lim sifatini oshirishning xorij tajribasidan O'zbekiston oliy ta'lim tizimini isloh etishda foydalanish imkoniyatlari. // Oliy ta'lim sifati iqtisodiy diagnostikasi: jahon amaliyoti va milliy xususiyatlari. Res. ilm.-amal. konf. mater. to'p.. – Namangan, 2019. – 403-407 b.;

3. Ochilov A.O. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish: Iqt. fan. dok. (DSc) diss. –T., 2018. –241 b.;
4. Raxmonov N.R. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish. Iqt. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. –Toshkent, 2019, 82 b.;
5. Isxakova S.A. Xizmat ko’rsatish sohasi xodimlari daromadlarini oshirish va tarkibini takomillashtirish strategiyasi (Oliy ta’lim xizmatlari sohasi misolida): iqt. fan. fal. dok. dis. avtoref. (PhD). –Samarqand.: 2019. –64 b.;
6. Рубин Ю.Б. Рынок образовательных услуг: от качества к конкурентоспособным бизнес моделям (часть 1) // Высшее образования в России. - № 3. – 2011. – с. 23-64
7. Woods E.A., Metzger C.B. Americas Human Wealth: Money Value of Human Life. N.Y.: F.S. Crofts & Co, 1927. P. 122.
8. Sattinger, M. (1993). Assigment models of the distribution of earnings. Journal of Economic Literature, vol. 31 (2). pp. 831-880.
9. James J. Heckman. Introduction to The Distribution of Earning and of Individual Output, by A.D. Roy. The Economic Journal, 125 (March). 2015. – pp. 378-402. DOI: 10.1111/ecej.12226
10. Вахштайн В. Две модели образовательных систем: континентальная и атлантическая. [Электронный ресурс]. с. 32. – Режим доступа: http://www.intelros.ru/pdf/prognosis/321-352_vahstain.pdf 11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni, 28.01.2022 y. <https://lex.uz/docs/5841063>

09.00.00- ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Хайридинов Аббосхон Анварович

Ўзбекистон Республикаси Ichki ishlar vazirligi
Toshkent shahar 2-son akademik litseyi
maxsus fanlar o'qituvchisi, Podpolkovnik
E-mail: akademikaget6767@gmail.com

**YOSHLAR ORASIDA MAFKURAVIY TAHDIDLARNI OLDINI OLISHDA HUQUQ TARTIBOT
ORGANLARINING VAZIFALARI**

Annotatsiya. Ma'lum hozirgi texnika inqilobi internet yoki varaqalar, karikaturalar, rasmlar va boshqa axborot vositalari yordamida ma'lumot tarqatish orqali mafkuraviy tahdidlar jamiyat mamlakat hayotiga xaf solmoqda. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish murakkab vazifa bo'lib, ushbu maqolada O'zbekistonda mafkuraviy tahdidlarga qarshi davlat siyosati, Yoshlar orasida mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda huquq tartibot organlarining vazifalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mafkuraviy tahdidlar, IIB, milliy xavfsizlik, ekstremizm, jamiyat.

Khayridinov Abbaskhan Anvarovich

Ministry of Internal Affairs of the Republic
of Uzbekistan Academic Lyceum No. 2, teacher
of special subjects, lieutenant colonel

**DUTIES OF LAW ENFORCEMENT AGENCIES IN PREVENTING IDEOLOGICAL THREATS
AMONG YOUNG PEOPLE**

Abstract. Ideological threats are threatening the life of society and the country by spreading information with the help of internet or leaflets, cartoons, pictures and other media. Combating ideological threats is a complex task, this article talks about the state policy against ideological threats in Uzbekistan, the duties of law enforcement agencies in preventing ideological threats among youth.

Key words: ideological threats, IIB, national security, extremism, society.

Хайридинов Аббасхан Анварович

Министерство внутренних дел Республики
Узбекистан, Академический лицей №2,
учитель специальных предметов, подполковник

**ОБЯЗАННОСТИ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ ПО ПРЕДОТВРАЩЕНИЮ
ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ УГРОЗ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ**

Аннотация. Идеологические угрозы угрожают жизни общества и страны путем распространения информации с помощью Интернета или листовок, карикатур, картинок и других средств массовой информации. Борьба с идеологическими угрозами – сложная задача, в данной статье рассказывается о государственной политике противодействия идеологическим угрозам в Узбекистане, обязанностях правоохранительных органов по предотвращению идеологических угроз среди молодежи.

Ключевые слова: идеологические угрозы, МИБ, национальная безопасность, экстремизм, общество.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N21>

Kirish. XXI asrni haqli ravishda ko'plab mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy hayotidagi burilish nuqtasi deb atash mumkin. Xalqaro munosabatlarning keskinlashishi, muxolifat mulohazalari, iqtisodiyotning beqarorligi va yangi koronavirus infeksiyasi tufayli yuzaga kelgan fuqarolik tartibsizliklari fonida jamiyat tarqalish holatida, radikal qarashlarning salbiy ta'siriga duch kelmoqda. Ma'lumki Mafkuraviy tahdidlar muammosi har doim birgalikda hal qilingan, chunki bu hodisaning chegaralari yo'q, milliy va diniy mansubligi bilan belgilanmaydi, balki alohida irq, fuqarolar guruhi, dinning imtiyozlariga alohida e'tibor beradi. O'zbek jamiyati mamlakatda sodir bo'layotgan barcha siyosiy voqealarning markazida. Qonun hujjatlarida norozilik kayfiyatini keltrib chiqarish, diniy va milliy tuyg'ularni foydalish, konstitutsiyaviy tuzumni ag'darishga chaqirish, terrorizmni oqlash va moddiy yordam berish, internetda yoki varaqalar, karikaturalar, rasmlar va boshqa axborot vositalari orqali ma'lumot tarqatish bularning barchasi mafkuraviy tahdidlar orqali jamiyat mamlakat hayotiga xaf solmoqda. O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasidagi xavfsizlik strategiyalari "dunyoda tobora kuchayib borayotgan beqarorlik, radikal va ekstremistik kayfiyatning kuchayishi ichki va tashqi dushmanlarni, iqtisodiyotni, an'anaviy qadriyatlarni yo'q qilish va insonning asosiy huquq va erkinliklarini paymon qilish orqali kuchayib borayotgan davlatlararo qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarish" kabi ichki tashqi xavflarni oldini olishga qaratilgan[1]. Davlatimizning milliy xavfsizligi va yaxlitligiga tahdidlar uzoq vaqtdan beri namoyon bo'lib kelmoqda. Har qanday mamlakatda buguni axborot asrining imkoniyatlari tufayli ekstremistik, terroristik guruhlar maqsadiga erishishning birdan bir yo'li jamiyatni buzish uning mafkurasi o'zgartirishdir. Shu sababli, hozirda Davlatimiz huquq tartibot organlarining oldida turgan asosiy vazifasi mamlakatimiz fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash, yoshlar o'rtasida ekstremistik faoliyatning oldini olishdir.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili.

Yoshlar orasida mafkuraviy tahdidlarning hozirgi holati

Hozirgi kunda yoshlar orasida Norasmiy yoshlar tashkilotlari safiga qo'shilish hollari tez-tez uchraydi, voyaga etmagan yoshlar o'zlari bilib-bilmay ekstremistik-millatchilik qarashlarini ommalashtirmoqda. Bunday guruhlarda ko'p hollarda 14 yoshli bolalar ishtirok etadi, ularga "adolatli davlat" g'oyasi sindirilgan bo'lib ushbu mafkura ostida jamiyat orasida fitna chiqarishga undashadi. Yoshlar bilan bir qatorda, bunday guruhlarining a'zolari ham insoniyatning eng fazilatli, komil insonlar sifatida o'zlarini nomoyon etishadi va shu orqali maanan yetuk bo'lmagan aqlu shurida malum g'oyaga ega bo'lmagan vatandoshlarning ongiga kirib boradi. Shuni tushunish kerakki, marginal pozitsiyani egallagan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilari o'ziga xos xususiyatlarga va fikrlashga ega. Ko'pincha aynan shu jamiyat vakillari davlatning siyosiy yo'nalishi bilan rozi bo'lmaydilar, ularning huquqlari buzilgan deb hisoblashadi va adolatli qarorning huquqiy kafolati yo'qligini ro'kach qilishadi. [2; 29-30-b] Ichki noroziliklarini ifoda etib, ular ekstremistik va terroristik guruhlar safiga qo'shilishmoqda. Rasmiy manbalarga ko'ra, 2021 yilda O'zbekistonda mafkuraviy tahdidlarga oid ekstremizm sohasidagi jinoyatlar soni chorakdan oshdi. Shu bilan birga, milliy Qonunchilik "xorijiy agentlar", soxta yangiliklar va internetda targ'ibot choralari kuchaytirdi. Joriy 2023

yilda Mafkuraviy tahdid debholat aniqlandi va bu asosan Facebook va Instagram you tube orqali o'z faoliyatlarini olib borgan jismoniy shaxslar ekanligi ta'kidlandi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ilgari ko'rilgan profilaktika choralari etarli bo'lmagan. [3;26-b]

Ijtimoiy hodisa sifatida zamonaviy ekstremizm mafkurasi uning asosidir. Mafkuraviy tahdidlarning ko'plab tarkibiy shakllari mavjud. Ekstremistik targ'ibot va materiallar eng samarali hisoblanadi, chunki ular matnli, audiovizual ifodaga ega (atributlar, ramzlar). Ekstremizm g'oyasining tashuvchilari aholining zaif qatlamlaridan mohirona foydalanib, ularni o'z hayotlarini o'zgartirishga chaqiradilar, masalan, bu diniy yo'l bilan amalga oshirishlari mumkin. Ikkinchisi ekstremistning xatti-harakatlarida dominant motivga aylanadi, uning voqelik haqidagi g'oyasini buzadi, o'z-o'zini anglash va psixologik holatga ta'sir qiladi. Nazariyotchilar orasida fikriga ko'ra mafkuraviy tahdidlarning bugungi kunda asosli ilmiy xarakteristikasi yetakchi o'rinni egallaydi. Odamlarning ongiga psixologik bosim, "yaxshi ish" nomi bilan birlashishga intilish, "adolat va tenglik uchun" kurashishga chaqirish ekstremistik mafkuraning raqiblarini yo'q qilish istagini kuchaytiradi. Fikrimcha, " biz mafkuraviy ekstremizm haqida gapirganda, ekstremistik g'oyalar va bilimlarning turli shakllarida cheksiz doiradagi shaxslarga etkazilishini yodda tutishimiz kerak. Bizning nuqtai nazarimizdan, mafkuraviy ekstremizmning namoyon bo'lish shakllari, ya'ni uning tashqi ifodasi, nafratni qo'zg'atish yoki targ'ib qilishga qaratilgan aniq harakatlarga yo'naltirilgan " [4; 118-b.]. Mafkuraviy tahdidlarning mohiyatini aniqlash uchun faqat g'oyalarni yetkazish etarli emas, ekstremistik guruhlarining jinoiy faoliyatining ta'siriga faqat g'oya aniq shakllantirilgan, asosli bo'lgan taqdirdagina erishish mumkin. Eng keng tarqalgan mafkuraviy tahdidlar sud amaliyotining ko'plab materiallariga asoslansak, ijtimoiy, milliy tengsizlik, diniy adovatga asoslangan.

Shaxsiy e'tiqodga ko'ra, ekstremistik tashkilotlar a'zolari "natijaga ishlash" uchun eng ekstremal choralarni ko'rishga tayyor. Hozirgi vaqtda ekstremizmning eng tajovuzkor g'oyalari orasida diniy va siyosiydir. Aynan ekstremistik mafkuraning bu turi oddiy aholini, boshqa millat, millat vakillarini, dissidentlarni yo'q qilishga qaratilgan. Aqidaparastlik ko'lamiga ega bo'lgan ekstremistik mafkura jamiyatning barcha a'zolariga dahshatli zarba beradi. So'nggi 20 yildagi voqealar shuni ko'rsatdiki, diniy ekstremizm ommaviy zo'rvonlik va tinch aholini o'ldirishga olib keladi.

Muhokama

O'zbekistonda mafkuraviy tahdidlarga qarshi davlat siyosati

O'zbekiston qonunchiligi mafkuraga qarshi kurash vositasi sifatida huquqiy javobgarlik choralarni qo'llash nuqtai nazaridan ko'plab sanksiyalarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, statik ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ekstremistik guruhlar tobora ko'payib bormoqda. Mafkuraviy tahdidlarga nisbatan jinoiy-huquqiy ta'sir choralarni kuchaytirish bunday jinoiy hodisani minimallashtirishga yordam beradi. Ekstremistik mafkuraga qarshi kurashning samarali usuli aholi bilan ishlash deb hisoblanishi kerak, ayniqsa yosh avlodlar haqida gap ketganda, chunki ular jinternet tufayli jinoiy ta'sirga moyildir. Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash arxiv ahamiyatiga ega, shuning uchun mamlakatimiz hududida joylashgan barcha ta'lim muassasalari, kelajakdagi mutaxassislarni tayyorlash profilidan qat'i nazar, ushbu yo'nalishdagi ishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Muloqot va jamiyatning barcha a'zolari bilan umumiy til topishga

urinishlar ekstremistlarning samaradorligini pasaytirishga yordam beradi. Ekstremizm mafkurachilari odamlarni manipulyatsiya qilib, ularning kundalik hayotida duch keladigan muammolarga go'yo yechim beradi. Shu bois yoshlar tarbiyasida axloq, rahm-shafqat, boshqalarga g'amxo'rlik va birdamlik g'oyalari singdirish muhimdir

Natija.

Yoshlar orasida mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda huquq tartibot organlarining vazifalari

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish ko'pincha ko'p tarmoqli va muvofiqlashtirilgan yondashuvni talab qiladigan murakkab vazifa bo'lishib.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda huquq tartibot organlarining vazifalari va strategiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Tahdidlarni tushunish: Bu tahdidlarning mohiyatini, shu jumladan ularning sabablarini, potentsial ta'sirini va paydo bo'lish shakllarini aniqlash va tushunish uchun keng qamrovli tadqiqot va tahlillarni o'tkazish

2. Hamkorlik va muvofiqlashtirish: Ekzistensial tahdidlarga samarali javob beradigan jamoaviy javoblar va strategiyalarni ishlab chiqish uchun turli sohalaridagi hukumatlar, tashkilotlar va ekspertlar bilan ishlash.

3. Ta'lim va xabardorlik: aholining mafkuraviy ekstremistik tahdidlar to'g'risida xabardorligi va tushunchasini oshirish va ushbu xavflarni kamaytirishga yordam beradigan harakatlar va siyosatlarni ilgari surish.

4. Siyosat va boshqaruv: Mafkuraviy tahdidlarni o'zgarishi, yadroviy qurollarning tarqalishi va kabi egzistensial tahdidlarning ehtimoli va ta'sirini kamaytirishga qaratilgan siyosat va qoidalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

5. Texnologiya va innovatsiyalarga tizimlarni joriy etish: egzistensial tahdidlarni bartaraf eta oladigan yechimlarni ishlab chiqish uchun tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash.

6. Xalqaro hamkorlik: Global mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish uchun chegaralar bo'ylab sheriklik va ittifoqlar qurish, chunki bu muammolarning aksariyati transchegaraviy hamkorlik va yechimlarni talab qiladi.

7. Barqaror rivojlanish: iqtisodiy tengsizlikni bartaraf etish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, qonun ustuvorligini ta'minlash orqali aholiga ta'sir o'tkazish mumkin bo'lgan mavjud tahdidlarning oldini olish va yumshatishga yordam beradigan barqaror amaliyot va siyosatlarni ilgari surish.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish shaxslar, jamoalar, tashkilotlar va hukumatlardan uzoq muddatli majburiyat va barqaror sa'y-harakatlarni talab qiladi. Oldini olish, tayyorgarlik ko'rish va javob choralarini o'z ichiga olgan yaxlit yondashuvni qo'llash orqali Mafkuraviy tahdidlarni yumshatish va yanada mustahkam va barqaror kelajakni yaratish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ta'kidlashni istardimki, murosasizlik, ksenofobiya, millatchilik, diniy va etnik xilma-xillikni inkor etish bilan chegaradosh ekstremizm va uning mafkurasini yo'q qilish imkonsiz albatta.

Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar butun insoniyat tarixida har qanday davlatning ijtimoiy-siyosiy tizimi uchun eng og'riqli, halokatli tomoniga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda bu

yovuzlikka qarshi kurashda nafaqat davlat xavfsizlik xizmati xodimlari balki butun jamiyatning har bir a'zosining mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan barcha strategik normativ-huquqiy hujjatlar milliy xavfsizlikni ta'minlash va ichki va tashqi tahdidlarning oldini olish ustuvor vazifalar qatoriga kiradi. Bunday sharoitda huquqni qo'llash amaliyoti ham muhim rol o'ynaydi. Noqonuniy ekstremistik mafkuraviy tahdidlarni qat'iy to'xtatish, bunday hodisaning zararli ekanligi to'g'risida axborot targ'ibotini olib borish kerak.

Mafkuraviy tahdidlardan himoyalash uchun ta'lim dasturlari, tanqidiy fikrlash, axborotdan erkin foydalanish, kuchli fuqarolik jamiyati institutlari va demokratik jarayonlarni o'z ichiga olishi mumkin. Shuningdek, inson huquqlari va so'z erkinligini hurmat qilish va himoya qilish, odamlar o'z fikr-mulohazalarini erkin ifoda etishi, ommaviy muloqotda ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash turli yondashuvlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bunday tahdidlarni ta'lim, madaniy almashinuv, turli guruhlar o'rtasidagi muloqot va tushunish orqali bartaraf etish mumkinligini hisobga olish muhimdir. Shuningdek, tafovut va demokratik qadriyatlarni hurmat qilishni targ'ib qilish muhimdir. Muloqot va o'zaro hamjihatlikni qo'llab-quvvatlash orqali biz mafkuraviy tahdidlarni yengib o'tishga yordam bera olamiz, nizolarni tinch va konstruktiv tarzda hal qilishga intilamiz.

Адабиётлар/Литература/References:

1. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi"-Toshkent-2023
2. Mirziyoev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat biln davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild -T.: O'zbekiston , 2018. 29-30-betlar.
3. Mirziyoev.Sh.M. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -T.: O'zbekiston. 2017. -326 b.
4. Safoeva. S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta'siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiy-huquqiy masalalari. - Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006, 118-bet.

Jurayev Alisher Tulqinboyevich
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

**TA'LIMGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA ZAMONAVIY
YONDASHUVLARNING IJTIMOIIY AHAMIYATI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'limga oid davlat siyosatini amalga oshirishda bugungi kundagi zamonaviy yondashuvlar va ularning ijtimoiy ahamiyati. Ta'lim siyosatini amalga oshirishda yetakchi bo'lgan xorijiy davlatlar tajribasidan na'munalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim siyosati, liberal, ijtimoiy-korporativ model, "Maktab - OTM", davlat-xususiy sherikchilik, "ijtimoiy hamkorlik".

Jurayev Alisher Tulkinboyevich
Doctoral student of Namangan State University

**THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF MODERN APPROACHES IN THE IMPLEMENTATION OF
STATE POLICY ON EDUCATION**

Abstract. In this article, today's modern approaches to the implementation of the state policy on education and their social significance. Examples of the experience of foreign countries that are leaders in the implementation of education policy are given.

Key words: Education policy, liberal, social-corporate model, "School - HEI", public-private partnership, "social cooperation".

Жураев Алишер Тулкинбоевич
Докторант Наманганского
государственного университета

**СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ В РЕАЛИЗАЦИИ
ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ**

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные подходы к реализации государственной политики в сфере образования и их социальная значимость. Приведены примеры опыта зарубежных стран, являющихся лидерами в реализации образовательной политики.

Ключевые слова: Образовательная политика, либеральная, социально-корпоративная модель, «Школа - ВУЗ», государственно-частное партнерство, «социальное сотрудничество».

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N22>

Kirish. Ta'lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida 3 ta siyosiy sub'yektlar ishtirok etadi: davlat, bozor, akademiya. Har birining o'z roolidan kelib chiqib, quyidagi ta'lim siyosati modelini ko'rish mumkin:

Davlat-paternalistik (davlat ustunligi ostida)

Liberal (bozor ustunligida)

Ijtimoiy-korporativ (akademiya asosiy boshqaruvi ostida).

Globalashuv sharoitida millatlarni bir-biriga yaqinlashish tendensiyalari rivojlanishi

Ibn Xaldun yunon faylasuflaridan farqli o'laroq, hokimiyat turlarini musulmon davlatlarida tarqalgan xalifalik, amirlik, sultonlik kabi shakllarga ajratgan. Mutafakkir fikricha, davlatchilik ijtimoiy hodisa sifatida shariat qarashlariga mos ravishda hammaning diniy va dunyoviy manfaatlarini himoya qiladi. Shuningdek, uning g'oyalari qomusiy donishmand Arastu ta'sirida yo'g'irilganligini ham e'tirof etish joizdir. Zero, Arastu o'z davridagi mavjud stratifikasion, ya'ni ijtimoiy tabaqalashuv tartiblarini qo'llab quvvatlagan. Uning fuqaro va adolatli davlat xususidagi qarashlari asosida Ibn Xaldun komil inson tarbiyasi konsepsiyasini ishlab chiqqani diqqatga sazovor. Unga ko'ra, komil inson jamiyat tartibotlariga ehtiroimli, xalqi uchun vatanparvar, o'z davlati ijtimoiy, siyosiy tuzumiga sadoqatli shaxsdir. Binobarin, komil fuqaro tarbiyasi doimo har tomonlama mukammal davlat tartibotini yuzaga keltirishdan boshlanadi [2]. Komillik tizimidagi «davlat-fuqaro-inson» tartiboti Ibn Xaldunning davlat va jamiyatni mukamallashtirish iborat murakkab jarayon, degan sosiologik konsepsiyasini tashkil etadi. U jamiyat a'zolarining ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasi masalasida davlat rolini ustuvor, deb hisoblaydi. Jamiyatning tarbiyaviy vazifasi ayrim shaxslar yoki alohida guruhlar qo'liga topshirib qo'yilmasligi lozim. Shuningdek, mutafakkir o'z qarashlarida davlat va jamiyatning maqsadlari mushtarak, ya'ni umumiy bo'lgan holdagina tarbiyaviy tizim samarador bo'lishini ta'kidlab isbotlab bergan. U ijtimoiy jarayonga ta'rif berib, ijtimoiy jarayon imkoniyatlardan natijalarga o'tishga bo'lgan intilish ekanini qayd etgan.

Ibn Xaldun o'z qarashlarida jamiyatdagi barqarorlik, tenglik, adolat, mehr-oqibatning qaror topishini o'zining «birdamlik konsepsiyasida» ilgari surgan. Uning qayd etishicha, yolg'iz bir inson hayotiy vositalarni yaratish holati va qobiliyatiga ega emas, bunday holatga kishilar faqatgina bir-biriga yordam berish orqali nafaqat bevosita ishlayotganlarni, balki bilvosita boshqa katta guruh a'zolari ehtiyojini ham qondirishi mumkin. U o'zining «Muqaddima» asarida quyidagi xulosaga kelgan: «Agar odamlarga ularning tabiati va mohiyatiga ko'ra, ish tutish imkoniyati qo'yib berilsa, ular xudbin va yovuz bo'ladilar. Agar birortasi o'z tug'ishganining mulkiga ko'z olaytirsam, u yomonlik sari intilgan bo'ladi. Buni faqat hukmdor to'xtatishi mumkin. Hukmdor – bu jamiyat a'zolaridan biri bo'lib, boshqalardan o'z maqomi bilan baland turadi va odamlar bir-birlariga ziyon-zahmat yetkazmasligi uchun ularni boshqaradi. Shohlikning ma'nosi aslida mana shu». Chunki, allomaning bu boradagi qarashlarini uning shaxsiy faoliyatidan kelib chiqib, tahlil qiladigan bo'lsak, mutafakkir o'z siyosiy boshqaruv faoliyatida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga aniq dalil, isbotlar asosida yondashib, ijtimoiy hayot muammolarini adolatli hal qilishga intilgani diqqatga sazovor. Shu bois jamiyat qonuniyatlari uning ijtimoiy ma'naviy, madaniy hodisa sifatidagi asoslari, davlat boshqaruvi va unda muayyan me'yorlarni vujudga kelishi to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Hech shubhasiz, Ibn Xaldunning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini shakllanishiga buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy g'oyalari kuchli ta'sir ko'rsatgan. Zero, Forobiy tomonidan siyosat, davlat va hokimiyat to'g'risidagi fundamental g'oyalar batafsil ishlab chiqilgan. Bunda, Ibn Xaldun nazariyasiga mashhur mutafakkirlar, Ixvon as-Safo* (X asr mualliflari), Abu Ali Ibn Sino (980–1037) va Ibn Ro'shd (1126-1198) larning ijtimoiy qarashlari hamda X asrda faoliyat yuritgan "Ixvon as-safo" guruhining risolalari kuchli ta'sir ko'rsatgan [3].

O'rta asr musulmon falsafasining vakillari siyosat muammolariga ko'pincha yunon falsafasiga, birinchi navbatda, Aflotun va Arastu qarashlariga izdosh hisoblanadilar. Yunon tilidan arab tiliga tarjima qilingan birinchi asar ham Aflotunning «Dialoglar»i hisoblanadi, bu ishni «Ixvon as-Safo» a'zolari amalga oshirganlar. Shuning uchun ham tasodifiy emaski, ularning ko'pchiligi siyosatni fozil shahar amaliyoti to'g'risidagi ilm-fan hisoblaganlar va bunday shaharga «fozil shahar» deb nom qo'yganlar. Ularning fikricha, bunday shahar nisbatan mustaqil, o'z aholisiga ega hududdagi muayyan jamoa yoki odamlar guruhi hisoblanib, ularning yashashi, umumiy maqsad va rahbariyati, ya'ni yagona hokimga ega kichik bir qishloqdagi arab xalifatichadir. Yunon siyosiy ta'limoti an'analarini musulmon siyosiy voqeligi bilan birlashtirish natijasida o'rta asrlik arab-musulmon falsafasining barcha masalalariga o'zining chuqur ta'sirini o'tkazgan.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, siyosiy xokimiyat fozil shahar boshqarilishini tashkil etish va saqlab qolish uslublarini o'rganib, shahar ahlining, qay tarzda yaxshi holat va ne'matga erishishini va bu holatga yetishish, uni saqlab qolishning yo'llarini ko'rsatadi. Ma'lumki, Forobiy o'z qarashlarini to'liq tarzda «Fozil davlat arbobining «hikmatli so'zlari» va «Fuqarolik siyosati» nomli asarlarida bayon etgan. Bu asarlarda u hokimiyat boshqaruvi xususiyatlarini ko'rib chiqishga katta e'tibor bergan. Forobiy davlatni baxt-saodatga yetishish sharoitini yaratuvchisi tarzida talqin etib, hokimiyatning 2 antonim turi: johillar va fozillar davlatini bir-biridan farqlagani diqqatga sazovordir. Uningcha, faqat fozillar hokimlik qiladigan shahar, ya'ni davlatda yashovchilar bilim va ma'naviy ne'matga tayanib baxt-saodatga erishadilar. Faqat mana shunday davlatdagina boshqaruvchilar shahar manfaatlariga mos ish tutishga harakat qilishadi.

Demak, Forobiyning fozil shahar davlatida odamlar oliy ne'mat va unga loyiq yashash tarziga yeta olishadi. Mana shunday shahar -davlatning asosiy belgilari, uning «johillar» davlatidan tafovuti shundaki, undagi tartibotlar barqarorligi va yashovchilarning turmush tarzi farovonligi hokim-boshqaruvchilarning axloqiy fazilatiga bevosita bog'liqdir. Shu bois Forobiy «fozil shahar» - davlatida, ma'rifatli hokimga katta e'tibor qaratib, u shunday shaxski, o'zining shaxsiy sifat - fazilatlarini bilan jamoaga namuna sifatida hamisha xolis javob bera olishi lozim, deya ta'kidlagan.

Forobiy ushbu shaharni kishilar ongli birlashmasining yetuk darajasi, deb hisoblagan. Keyinchalik bunday yondashuv an'ana sifatida ko'pgina G'arb olimlari asarlarida davom ettirilgan. Shuningdek, Forobiy shaharlarning barcha tamaddunlar davrida iqtisodiy qonuniyatlari, ijtimoiy qoidalari urf-odatlarini, o'zlariga xos xususiyatlari va tillari bilan farqlanishini, xalqlarning o'zaro farqlari qandaydir azaliy va tashqi kuch tomonidan emas, balki jug'rofiy muhit ta'sirida, xususan, suv, havo, ma'dan, o'simlik kabilarning ta'sirida shakllangan, deb qayd etgan.

Buyuk donishmandning bunday fikrlari keyinchalik Ibn Xaldun qarashlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Forobiy jug'rofiy muhitni jamiyat shakllanishining asosi, deb hisoblasa, Ibn Xaldun esa ijtimoiy muhitni insoniyat tarixiy taraqqiyotining muhim omili sifatida baholagan. Shu nuqtai nazardan, Ibn Xaldun inson turmush tarzi, uning ma'naviyati, tabiati hamda fazilatli g'oyalari bilan bog'lab, real voqelikdagi hayotni tubdan yaxshilashda muhim, deb bilgan.

Ibn Xaldunning ijtimoiy qarashlariga Abu Ali Ibn Sinoning ta'siri beqiyos bo'lgan. Ibn Sinoning qarashlari «Muallimi soniy» -Forobiy g'oyalariga yaqin bo'lib, uning ta'limotida fanning maqsadi - davlat va jamiyat boshqaruvi fozil va johil jamoalarda turmush tarzi

xususiyatlarini o'rganish, davlat va xalqlarning ravnaqi va inqirozining tub sabablarini bilib olishdan iborat. Jamiyatning amal qilish tendensiyalariga bo'lgan bunday qarash, birinchi navbatda, unga "axloqiy yondashishdan iborat bo'lib, bu holat ilk -o'rta asr Sharq ijtimoiy dunyoqarashlarining kvintessensiyasini tashkil etadi". Shu nuqtai nazardan Forobiy bu davr ijtimoiy fikrining oliy maqsadi – inson taraqqiyoti, uning baxt-saodati real hayotining yaxshilanishiga erishish demakdir.

Ibn Sino ijtimoiylikka doir bilimlarni ikkiga ajratadi: nazariy va amaliy ilmlar. Nazariy ilmlarni insonning amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan narsalar to'g'risidagi faoliyatlardir, deb ta'riflaydi. Uning fikricha, amaliy ilmlar ob'yekti insonning bevosita yaratuvchanlikdan iborat faoliyatidir. Ibn Sino amaliy ilmlarni uchga bo'ladi:

1. Shaxs haqidagi ilm;
2. Insonlarning o'zaro munosabatlari haqidagi ilm;
3. Davlatni, mamlakatni boshqarish ilmi.

«Ma'lumki, – deb qayd etgan Ibn Sino, – inson o'zga hayvonlardan o'zining shunday xususiyati bilan farqlanadiki, u alohidalik holatida va o'zaro aloqa hamda munosabatda bo'lmasdan turib, shodu xursandchilik bilan hayot kechira olmaydi. Inson o'z ehtiyojlarini qondirish va qo'lga kiritishni o'zga odamlar bilan hamkorlik va o'zaro ko'maklashish tufayli amalga oshira oladi». Tabiiyki, inson hayoti, uning amaliy faoliyati uchun jamoalararo ichki tartibot zarur. Jamoalararo ichki tartibot va jamoaviylik esa faqat hamkorlik hamda o'zaro yordamlashish vositasi bilangina mavjud bo'ladi. Ibn Sino kishilik jamiyati turli tabaqalardan iborat ekanligini e'tirof etib, o'z davrining stratifikasion tasnifini ham ko'rsatib berganligi bilan ham ahamiyatlidir. Mutafakkirning fikriga ko'ra, birinchidan, mudabbirlar, ya'ni boshqaruvchilar bo'lmog'i lozim. Bular: hokim, boshliq, ashroflar va harbiy rahbarlardan iborat: Ikkinchidan, sunna ahli, ya'ni dehqonlar, hunarmand, kosiblar: Uchinchidan, qo'riqchi va mudofaa qiluvchilar: To'rtinchidan, choraklar, ya'ni xizmat sohasi hodimlari. Jamiyatda bir-biriga o'zaro ichki bog'liqlik holatidagi tabaqalar bo'linsagina, jamoalararo mustahkam tartib va barqarorlikka erishiladi. Zero, jamiyatda turli xil tabaqa va toifalar mavjudligi bois, ular jamoat tartibi, yashash qoidalariga rioya qilishi, ularga bo'ysunishi, jamoa a'zolarining faoliyati ustidan qonun nazorat qilishi va o'rnatilgan davlat va ijtimoiy qoidalar yuqoridan pastgacha, ya'niy uzviy iyerarxik tizimdagi kabi bo'lmog'i lozim. Qonunlar esa kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinishi va ular amaliy ahamiyat kasb etishi zarur.

E'tiborli jihati shundaki, qomusiy alloma Ibn Sinoning g'oyalari mutafakkir Ibn Xaldun ta'limotida rivojlantirilgan. Ibn Xaldun o'zining "Muqaddima" asarida xalq ommaviy noroziligi sababi va uning oqibatlarini jamiyatdagi umumiy tartibotlarga rioya etilmasligida deb hisoblaydi. Uning nazarida shohlar 2 xil toifaga: biri adolatli, ya'ni yaxshi, ikkinchisi esa zulmkor va yomon shohga mansub bo'ladi. Yaxshi hukmdor shunday hukmdorki, uning davlat siyosatining kuchini o'z xalqi qo'llab quvvatlaydi, u o'z fuqarolari bilan doimo samimiy muomalada bo'lib, uning qarorlari adolatli bo'ladi. Aksincha, yomon hukmdor siyosatini esa xalqi mohiyatan qo'llamaydi. Ibn Xaldun shu bois o'z davri shohlariga xalqning erkinligini bo'g'maslikka chaqirib, jumladan quyidagilarni qayd etgan:

"Agar tarbiya kuch ishlatish, qo'rqitish yo'li bilan bo'lar ekan, u hoh o'quvchi, hoh qul, hoh xizmatkor bo'lsin, ularga doimo qo'rqinch tahdid qilib turadi, natijada fuqaro ruhining o'sishiga xalaqit beradi, harakatchanlikni so'ndiradi, amalda aldash, yolg'onchilikni

kuchaytiradi". Biroq, mutafakkir, har qanday zo'rvonlik ham abadiy emasligi, uning ham oxiri borligini alohida uqtirgan.

U xalq qayg'usining ham cheki chegarasi bor, deb hisoblaydi Ibn Xaldun Bu qayg'uni tug'dirgan zo'rvonlik esa o'z halokatini yanada tezlashtiradi. Bu halokatdan saqlanish faqat o'sha davlatning o'z ixtiyori, ya'ni o'z qo'lida va o'zigina bunday adolatsizlikni to'xtatib qolishi mumkin. Bu bilan Ibn Xaldun o'sha davr shohlariga murojaat qilib, ularning hukmronligi ilohiy inoyat ekanligini qayd etar ekan, o'zi yashagan davlatini ideallashtirgan. Biroq, Ibn Xaldun davlat va jamiyatni inqirozga yuz tutishida sub'yektiv omilni mutlaqlashtirgan.

Ibn Xaldunning adolatli jamiyat, adolatli boshqaruv, sohasidagi fikrlarining shakllanishida Abdulvalid Muhammad ibn Ro'shdning (1126-1198) ham hissasi katta katta bo'lgan. Ibn Ro'shd jamiyatdagi tenglik, barqarorlik, adolat va e'tiqod masalalarini inson omili va uning taraqqiyoti bilan bevosita bog'lagan. Ibn Xaldun Ibn Ro'shdni o'z davrining ilg'or kishisi bo'lganligi, uning adolatli jamiyat qurish, xotin-qizlarga teng huquq berish, ozodlik va hurlik to'g'risidagi g'oyalari ma'qullagan. Eng asosiysi, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Ro'shd singari mutafakkirlar o'z qarashlarida ijtimoiy munosabatlar sosiodynamik tendensiyasini ijtimoiy adolat, odob-axloq va boshqaruv mazmuniga bilvosita bog'liq, deb hisoblashgan. Bunday yondashuv Ibn Xaldun ijtimoiy qarashlarining shakllanishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Bundan tashqari Ibn Xaldun ma'naviy dunyoqarashining shakllanishida o'sha davrda Mag'ribning mashhur muallimlaridan bir bo'lgan al-Abilining o'rne beqiyos bo'lgan. Al-Abilining tavsiyalari ta'sirida Ibn Xaldun ijtimoiyat, falsafa, mantiq, matematika fanlaridan ilmiy risolalar yaratgan. Binobarin Al-Abili Ibn Xaldunning nazm va nasrga bo'lgan qiziqishini ortishiga, uning dunyoqarashi shakllanishiga hissa qo'shgan olimlardan biri edi.

Al-Abili ta'siri ostida Ibn Xaldun Ibn Sino, Faxr ad-Din ar-Roziy, Nosir ad-Din at-Tusiy, Ibn Ro'shd kabi buyuk siymolarning ishlari va ta'limotlaridan bahramand bo'lgan. U 1351 yili, ya'ni 19 yoshida o'zining ilk falsafiy risolasini yaratadi. Bu risolada Arastu izdoshlaridan bo'lgan peripatetizm vakillaridan al-Kindi, Al-Forobiy, Ibn Sino hamda ahli kalom mutakallimlarining g'oyalari aks ettirilgan. Ular ta'limotining mazmuni va mohiyatini o'zining aqli, zehni va tafakkuriga asoslanib sharhlagan.

Mazkur risola tuzilishiga ko'ra Fahr-ad-Din Roziy o'zining «Muxassal afkor al-Mutaqaddimin va mutaxirin» ya'ni «O'tgan va keyingi allomalarning fikr qarashlarining ahamiyati» asarida asosan Ibn Sino maktabiga tanqidiy yondashuv bilan qaragan. Nosir-ad-Din Tusiy esa o'zining «Talxis al Muxassal» asarida uning g'oyalari e'tiroz bildirgan. Biroq, Ibn Xaldun bu ikki alloma qarashlarini, ya'ni pozitiv va negativ yondashuvlarni o'zi uchun ma'qul deb bilgan [4].

Ibn Arabshoh ham o'zining «Amir Temur tarixi» asarida Ibn Xaldunning Amir Temur bilan uchrashuvi voqealarining bayonini to'liq qayd etib, uning buyuk donishmand va bilimdon shaxs ekanligini alohida ochib bergan. AQSHning, Kaliforniya universiteti professori Uolter Fishel Ibn Xaldunning tarjimai holidan Amir Temur va Ibn Xaldun uchrashuviga bag'ishlangan qismining arabcha matnini tiklagani diqqatga sazovordir. Xorijlik olim uni ingliz tiliga tarjima qilib, mukammal tadqiqot va har bir detalga o'ziga xos izohlar bilan nashrga tayyorlagan.

1952 yili ushbu tadqiqot arab tiliga, shuningdek, Said Nafisiy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Sohibqironning Ibn Xaldun bilan olib borgan suhbatida, uning ilm-ahliga bo'lgan hurmat-e'tibori katta ekani, ulamolar fatvosi tomonidan ijtimoiy dolzarb masalalar

hukmdor maslahati asosida adolatli hal etilishi, Amir Temurning ilm-homiysi bo'lganligidan dalolatdir.

Yuqoridagi muhim ma'lumotlarga asoslanib, agi shunday xulosaga kelish mumkinki, Ibn Xaldun faoliyatida jamiyat taraqqiyoti, uning farovonligi, adolat, mehr-oqibat, odamiylik, mehnatsevarlik kabi go'zal fazilatlarining shakllanishida, eng avvalo, buyuk siymolarning ma'naviy merosi kuchli ta'sir etganligi bilan ahamiyatlidir. Ularning qarashlari asosida buyuk mutafakkir jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish yo'lida o'zining bor kuch g'ayratini safarbar etishga harakat qilgan. Shu jumladan, Ibn Xaldun qoldirgan noyob ma'naviy meros asrlar osha insoniyatning ma'naviy-ijtimoiy yuksalishiga xizmat qilib kelmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ibn Khaldon. Wall Ad-Din Abd-Ar-Rahman. Kitab al-Ibar wa-diwan al-mubtada wa-l-khabar. 7 vols. –Bulaq, 1284. pp. 134-152.
2. Бациева С.М. Историко-социологический трактат Ибн Халдуна Мукаддима, – Москва: Наука, 1965. –С. 223.
3. Игнатенко А.А. Ибн Хальдун. –Москва: Мысль, 1980, –С. 20-65.
4. D.V. Macdonald, A selection from the Prolegomena of Ibn Khaldun with notes and an english-german glossary, –Leiden, 1905, pp. 66-70

Shokirov Mubin Rustamovich
Buxoro davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy
fanlar” kafedrasida dotsenti

**MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA TARIXIY TAFAKKUR MADANIYATINING O‘RNI VA
AHAMIYATI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi davr mamlakatimizda eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan chuqur ijtimoiy islohotlar jarayonida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy tafakkurning shakllantirish zarurati ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tarixiy ong, tarixiy tafakkur, milliy ong, o‘zlikni anglash, global muammolar, ma’naviy qadriyatlar.

Shokirov Mubin Rustamovich
Associate professor of the Department
of “Social Sciences” of the Bukhara
State Pedagogical Institute

**THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE CULTURE OF HISTORICAL THOUGHT IN THE
UNDERSTANDING OF THE NATIONAL IDENTITY**

Abstract. this article contains a socio-philosophical analysis of the need to understand the national identity, the formation of historical thinking in the process of deep social reform, which is one of the most important features of the current period in our country.

Keywords: historical consciousness, historical thinking, national consciousness, self-awareness, global problems, spiritual values.

Шокиров Мубин Рустамович
Доцент кафедры “Социальные науки”
Бухарского государственного
педагогического института

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КУЛЬТУРЫ ИСТОРИЧЕСКОЙ МЫСЛИ В ОСОЗНАНИИ
НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ**

Аннотация. В данной статье проведен социально-философский анализ необходимости формирования национального самосознания, исторического мышления в процессе глубоких социальных реформ, одной из важнейших черт которых является нынешний период в нашей стране.

Ключевые слова: историческое сознание, историческое мышление, национальное сознание, самосознание, глобальные проблемы, духовные ценности.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N25>

Kirish. Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida yosh avlod ongida tarixiy ong va tarixiy xotira tuyg‘usini tarbiyalash, o‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixini xolisona o‘rganishning ilmiy asoslarini shakllantirishga oid islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 30 iyundagi PQ-3105-son “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2020 yil 9 sentyabrdagi “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari shular jumlasidandir. Tarixiy ong va tafakkurni tiklash va yuksaltirish yo‘llarini keng ochish, mamlakat fuqarolarini tarixiy ong bilan qurollantirish davlatimiz siyosatining asosiy masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Tarixiy ong masalasi ko‘p ming yillik tariximiz butun mohiyatini anglab etishga va xolisona baho berishga undaydi. Shu jihatdan o‘tmishga yondashuvning tafakkur va falsafa orqali baholash mezoniga o‘tish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yosh avlod ma‘naviy-axloqiy tarbiyasiga doir kontseptual g‘oyalar, tariximizni o‘rganish va o‘rgatish, bebaho tarixiy merosimizni tadqiq etish bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, ma‘ruza va nutqlar mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Tarixiy tafakkurning ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi kuchi, xususan, tarixiy ong va tarixiy madaniyat tiplari nazariyasi Y.Ryuzen, tarixiy tafakkurning milliy madaniy mansublikka oid xususiyatlari S.Xantington, tarixiy tafakkur metodologiyasi, R.Aronning tadqiqotlarida keng tahlil etiladi. Zamonaviy falsafiy ta‘limotlarda birinchilardan bo‘lib I.Kon va Yu.Levada tarixiy ong va tafakkur tushunchalariga ta‘rif berdilar va uning genezisini ochib berganlar. Tarixiy ongning umumfalsafiy metodologiyasi va mohiyati M.Barg, tarixiy ong, xotira va o‘zlikni anglash aloqadorligi masalalari A.Panyukov, tarix nazariyasi va metodologiyasiga doir kontseptsiyalar D.Alimova, tarix falsafasi va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, tarixiy jarayonlarni tadqiq qilishda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni ilmiy jihatdan aniqlash masalalari N.Jo‘raev, Q.Nazarov, ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlashda tarixiy tafakkurning o‘rni A.Sharipov tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ob‘ektivlik, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil, xronologik, retrospektiv tahlil, dialektik va sinergetik tahlil kabi usullardan foydalanilgan

Tahlil va natijalar. Istiqloq g‘oyalari asosida bosh islohotchilik vazifasini bajarayotgan davlat odamlar ongi va tafakkurida tub burilishlar yasash, har qanday islohotlarni fuqarolar ongi, tafakkuri va qalbi orqali o‘tkazish yo‘lini tanladi. Ana shu yo‘l odamlarning o‘tmishga bugungi va kelajakka munosabatlarini o‘zgartirish, muayyan manfaatlarga yondoshish psixologiyasini yangilash orqali asta-sekinlik bilan ularni ma‘rifatli, komil inson qilib voyaga etkazishga olib boradi. Fuqarolarning ma‘rifatliligi orqali ma‘rifatli jamiyat barpo etiladi [1,147].

Tarixiy tafakkur va tarix falsafasi ma‘rifatli jamiyat qurishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Zotan, o‘tmishni anglash, uni to‘g‘ri tushunish orqali kishilar ongi va ruhiyatida jiddiy o‘zgarishlar yasashga, shu orqali hayotni, turmush-tarzini, oxir-oqibatda esa jamiyatni isloh qilishga erishiladi. Buni nimalarda ko‘rish mumkin?

Birinchiidan, tarixni anglash orqali hayotni anglash, insonning insonligini anglash qobiliyati shakllanadi;

Ikkinchidan, tarixiy tafakkur va tarix falsafasi orqali bugungi hayot mazmuni chuqurroq tushuniladi va istiqbolni ko‘rish falsafasi dunyoga keladi. Bu har bir insonning uziga xos

tafakkur tarzini shakllantirish orqali shaxs sifatidagi fenomenini vujudga keltirishga, fe'l-atvorining shakllanishiga xizmat qiladi;

Uchinchidan, tarixni o'rganish orqali mustamlakachilik ta'sirida va kommunistik zo'rvonlik mafkurasi natijasida o'zligini yo'qotgan, o'z qadru-qimmatini butkul unutgan fuqaroni uyg'onishga, o'zligini anglashga, o'z haq huquqini himoya qila oladigan barkamol shaxs sifatida shakllanishga da'vat etadi;

To'rtinchidan, ajdodlari buyuk bo'lgan, jahon tsivilizatsiyasi va insoniyat taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shgan madaniyatga daxldor fuqaro qalbida o'tmishini o'rganish orqali milliy g'ururining uyg'onishi mamlakat mustaqil taraqqiyot io'lini tanlagan bir paytda katta ijtimoiy-ma'naviy qudrat va ulkan iroda kuchi bo'lib xizmat qiladi. Ana shu anglash jarayoni insonning o'zini o'zi yangilash, ma'naviy tozalash va isloh qilishiga olib keladi;

Beshinchidan, har bir fuqaroni ma'naviy-ruhiy va axloqiy jihatdan yangilash orqali jamiyatni yangilash, turmush tarzini yangilash kabi g'oyatda chuqur, keng miqyosli islohot amalga oshiriladi. Bu bugungi islohotlar davrida qilinayotgan ko'p qirrali o'zgartishlarning asosiy omili sifatida qadriyatga aylanadi [2].

O'zlikni anglash, eng avvalo, o'tmishni o'rganishdan, tarixni bilishga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat, o'zini anglayotgan, o'zini tushunayotgan har bir odam qanday oilada dunyoga kelgani, o'z ajdodlari kimlar bo'lgani, ota-bobolari nimalar bilan shug'ullanishgani va qanday umr kechirishganini bilib olishga intiladi. Ularning fazilatlari va meroslari bilan faxrlanib yashaydi.

O'z naslu nasabini bilish, kelib chiqishini o'rganish kishining hayotda omonatligini va ayni chog'da tasodifiy emasligini tushunishga imkon beradi. Shu bilan birga atrof-muhit, uni o'rab turgan olam xususida o'ylashga undaydi.

Darhaqiqat, olamni tadqiq etish tafakkurimizni boyitishning, dunyoqarashimizni kengaytirishning muhim yo'llaridan biridir. Olamni anglash hissi insonning o'zligini anglashga, o'zligini tushunishga, olam va odam haqida o'ylashga doimiy tarzda da'vat etib turadi. U jami insonlarga xos bo'lgan idrok va irodani uyg'otadigan kuch hamdir. Biz olamni qanchalik keng va chuqur anglasak, inson va insoniyat olamini shunchalik ko'proq tushunishga, mohiyatini anglashga, inson va hayot, insoniyat va mavjudot o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga, xullaski, insoniyat tarixi bilan qiziqishga harakat qilamiz [3].

Aslini olganda tarix faqat o'tmish haqidagi ma'lumotlar yoki tushunchalarni ifodalash bilan cheklanmaydi. Uning buyuk qudrati, tarbiyaviy kuchi, murabbiylik mohiyati utmishni o'rganish, tadqiq etish orqali bugunni baholash, bugunni anglash, bugungi odamlarni tushunish va ularni yo'lga solish borasidagi fikrlarni, g'oyalarni o'zida mujassam etganida namoyon bo'ladi.

Agar chindan ham tarixni ma'naviyat va ruhiyat fenomeni aylantirsak, aniqrog'i, uni shunday idrok etib, shunday tadqiq etsak, yana va yana o'tmishni sana va voqealar orqali emas, inson orqali o'rganishga ehtiyoj sezamiz. Oxir-oqibatda inson tarixning yaratuvchisi, ishtirokchisi, dunyoga keltiruvchi eng oliy xilqat ekanligini va bu rad etib bo'lmas haqiqat, tengsiz qadriyat ekanligini tan olamiz.

Tarixiy ong keng qamrovli dunyoqarashni shakllantirish va tarbiyalash omilidir. U xilma-xil qarashlarni umumiy maqsad yo'lida yaqinlashtiradi va birlashtiradi. Yangi mafkura, milliy ong, tuyg'uni falsafiy va siyosiy madaniyat bilan qo'shish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu milliy mafkura kishilarning ongi, tafakkuri, e'tiqodi, dunyoqarash va bilim darajasi turlicha

ekanligini e'tiborga oladi, ezgu shaxs ma'naviyatini taqozo etadi. Jamiyatni ma'naviy yuksaltirish yoki yuksak madaniyatga asoslangan jamiyatini barpo etishni tarixiy ong va tafakkurni mustahkamlash orqali o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va qadriyatiga tayanib yashaydigan - erkin fuqaro, ozod shaxsning faoliyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Jamiyat ma'naviy xayotini yuksaltirishda tarixiy ongga bo'lgan yangicha qarashlar o'zbek xalqi milliy qadriyatlari, O'rta Osiyo allomalari qarashlariga asoslanadi. Islom dinining muqaddas kitobi Kur'on, hadislar, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur, Naqshband, Axmad Yassaviy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Marg'inoniy va boshqa mutafakkirlar qarashlarida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy g'oyalarni insonparvarlik, halollik, poklik, millatni sevish, o'zlikni anglash, Vatan bilan g'ururlanish, mehnatsevarlik, hurfikrlilik kabi g'oyalarni kishilar ongiga singdirishga harakat qiladi.

Tarixiy ongning jamiyat taraqqiyoti uchun o'ziga xos ijtimoiy va tarixiy xususiyatlarga ega. Tarixiy ongning g'oyaviy, retrospektiv, evristik va tarbiyaviy vazifalarini quyidagi tartibda tahlil etamiz:

- tarixiy ongning mafkuraviy funktsiyasi shundan iboratki, uning yordamida tarixiy bilimlarning yangi natijalari umumlashtiriladi, tarixni badiiy tushunish dialektik tahlil qilish asosida tarixiy jarayonning yaxlit manzarasi shakllantiriladi, tarixiy jarayonning o'zaro bog'liqligi anglab olinadi.

- tarixiy ongning retrospektiv funktsiyasi turli zamonlarning tarixiy ongini qayta tiklashda (o'tmishga murojaat qilish, o'tmish voqealarni tahlil qilish) ko'rinadi. Jamiyatning ma'naviy hayot sohasida zamonaviy g'oyalar, nazariyalar, badiiy obrazlar hamisha oldingi tarixiy zamonlarning ma'naviy yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

- tarixiy ongning evristik funktsiyasi ilmiy tadqiqot ishlarida muhim o'rin tutadi. Bu funktsiya tarixda yangilik ochish jarayonida qo'llaniladi. SHuningdek, arxiv hujjatlari bilan, memuarlar bilan ishlashda qo'l keladi. Bu metod barcha fanlar uchun umumiylik kasb etadi.

- tarixiy ongning tarbiyaviy funktsiyasi tarixni o'zlashtirishning axloqiy, xulq, odob ma'nolari bilan bog'lanib ketadi. Tarix ahloqiy ustoz va tarbiyachidir [4].

Yangilanayotgan jamiyatda tarixiy davr ma'rifat davri, ma'rifatchilik davri sifatida vujudga kelmoqda. Bosh islohotchilik vazifasini bajarayotgan davlat xalq ongi va tafakkurida tub burilish yasash, har qanday islohotlarni fuqarolar ongi, tafakkuri va qalbi orqali o'tkazish yo'lini tanladi. Ana shu yo'l odamlarning o'tmishga, bugunga va kelajakka munosabatlarini o'zgartirish, muayyan manfaatlarga yondashish psixologiyasini yangilash orqali asta - sekinlik bilan ularni ma'rifatli, komil inson qilib voyaga etkazishga olib boradi. Fuqarolarning ma'rifatliliigi orqali ma'rifatli jamiyat barpo etiladi. Davlat va jamiyat rivojlanishi bir erda to'xtab qolmaganligi singari tarixiy ong va tafakkur ham bir xil darajada qotib qolmaydi, balki yangi jamiyatdagi o'zgarishlar ta'sirida tarixiy ong ham o'zgarib, rivojlanib boradi.

Insoniyat tarixi bu har birimizga bog'liq bo'lgan o'zligimizni ko'rsatadigan, bizning olis shajaramizni, naslu-nasabimizni, insoniy qadru-qimmatimizni belgilaydigan muqaddas va mo'tabar voqeliqdir. Biz uni shunday tushunishimiz va shunday qabul qilishimiz kerak. Agar o'tmishimizga shunday munosabatda bo'lsak, ana shu yuksaklikdan turib unga qararakkina, tarix ayni tafakkur mahsuliga aylangan taqdiridagina bizni ma'naviy jihatdan boyitishi, ruhiyatimizga qudrat baxsh etishi mumkin bo'ladi. Ana shu jihatdan qaraganda bugun hayot shajarasini davom ettirayotgan, o'ziga xos tarix yaratayotgan odamlarning dunyoqarashlari, ma'naviy-ruhiy kechinmalari, insonlik sha'ni nimalarga bog'likligi, uning ildizlari qayoqlarga

etib borishi va qanday ma'naviy sarchashmalardan ozuqa olayotganligi aniq bo'ladi va u bevosita tarix va tarixshunoslik bilan bog'liq ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Agar tarix chindan ham falsafa va tafakkur mahsuliga aylantirilsa zamondoshlarimizning o'tmishi kimlarga borib taqalishi ayon bo'ladi va hayotda o'z o'rnimizni belgilashimizga, o'zimizning kimligimizni anglab olishimizga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda shakllanayotgan yangi ma'naviylashgan, fuqarolik jamiyatida yangicha falsafiy kontseptsiyani xalqimiz ongiga, ishonch va e'tiqodiga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Tarixiy ong'dagi o'zgarishlarning jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o'rni va rolga bag'ishlangan ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish hamda OAV chiqishlarini yanada kuchaytirish zarur va bu millat va xalqning uyg'onishiga, o'zligini anglab etishga yordam beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ш. Мирзиёев. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. Т.: "Ўзбекистон" 2019. – б. 400.
2. Shokirov M.R. The Concept of "Culture of Historical Thought" and its Importance in the Cognition of Social Phenomena // American Journal Of Social And Humanitarian Research. -Volume 3, -№4. April, 2022. -PP.60-64 (Indexed by Copernicus; IF: 2022=8.7)
3. Shokirov M.R. The role and importance of historical thought culture in the perception of national identity // World Bulletin of Social Sciences. -№9. April, 2022. -PP.70-74. (Research Paper Indexed by Citefactor; IF: 2022=7,545)
4. Шокиров М.Р. Тарихий жараённи билиш методлари асосида таҳлил қилиш // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги расмий веб-сайтнинг илмий бўлими (электрон журнал). – Тошкент, 2021 йил, июнь. – Б.266-275 (09.00.00; №27).
5. Шокиров М.Р. Янгича тарихий тафаккур маданиятини шакллантиришнинг мантиқий асослари // Фалсафа ва ҳуқуқ. – Тошкент, 2021. -№3. – Б.110-113 (09.00.00; №15)
6. Shokirov M.R. The origins of historiography as an art form and a subject of philosophical thought in ancient Greece // Elektronik journal of actual problems of modern science, education and training (Zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari). – Хоразм, 2022. -№5. -P.117-123 (09.00.00; №19)
7. Shokirov M.R. The importance of taking into account social interests in the process of historical weltanschauung // International Conference on Research Identity, Value and Ethics Hosted from USA, April 30th 2022. – PP.14-16.

Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна

Фалсафа фанлари бўйича PhD

University of management and future technology

МАҚОМ САНЪАТИ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ

Аннотация. Ушба мақолада мақом санъатининг генезиси, унинг фалсафий-эстетик, маданий ва маънавий-руҳий омиллар билан боғлиқ жиҳатларини очиб берилган. Муаллиф мақом санъатида эстетик категорияларнинг ифодаланиши, шакл ва мазмун уйғунлиги, мақомнинг эстетик мезонлари ҳамда унинг эстетик маданиятни юксалтириш омилларини таҳлил қилган.

Калит сўзлар: мақом, санъат, мусиқа, руҳий покланиш, эстетик завқланиш, улуғворлик, фожевийлик.

Nurullaeva Zulhumor Sidamatovna

PhD in Philosophy

University of management and future technology

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF ARTISTIC AND AESTHETIC FEATURES OF MAKOM ART

Abstract. The article reveals the genesis of poppy art, its aspects related to philosophical, aesthetic, cultural and spiritual factors. The author analyzed the expression of aesthetic categories in maqom art, the harmony of form and content, aesthetic criteria of status and its factors for enhancing aesthetic culture.

Key words: makom, art, music, spiritual purification, aesthetic pleasure, greatness, tragedy.

Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна

PhD по философии

University of management and future technology

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ИСКУССТВА МАКОМ

Аннотация. В статье раскрывается генезис искусства маком, его аспекты, связанные с философскими, эстетическими, культурными и духовными факторами. Автор проанализировал выражение эстетических категорий в искусстве макома, гармонию формы и содержания, эстетические критерии статуса и его факторы повышения эстетической культуры.

Ключевые слова: маком, искусство, музыка, духовное очищение, эстетическое удовольствие, величие, трагедия.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N26>

Кириш. Мақом санъати ўзида юксак ҳикмат дурдоналарини акс эттирган жанр ҳисобланади. Мақом инсонда санъатни билиш-англаш имкониятлари бадиий адабиётга нисбатан бироз чеклайди. Чунки унда воқеликни алоҳида нозиклик, сезгирлик, инсоннинг илоҳий ҳис-туйғулари бетакрор нозик оҳанг-куйларда ифодаланади, воқеликни бадиий-эстетик ҳис-туйғулар орқали янада тўлақонли, жозибали англашга ёрдам беради. Фалсафа каби мақом санъати учун ҳам бош мавзу инсон ҳисобланади.

Мақом санъати воситасида инсон табиат ҳодисаларидан ўзи учун аҳамиятли бўлган маъно излайди, шу орқали ўз қалбини поклайди. Шу боисдан ҳам бу санъат тури инсоннинг ҳар томонлама камол топишида муҳим аҳамиятга эга.

Мақом санъатидаги ритм ва гармония кишиларнинг эстетик оламига, уларнинг маънавий-ахлоқий тарбиясига катта таъсир кўрсатади. Янги билимлар, ғоялар, бадий асарлар яратилишида мақом санъати асосини ташкил этувчи мусиқа муҳим ўрин эгаллайди.

Мақом санъатида айримликнинг умумийга бўлган диалектик нисбатини кўришимиз мумкин. Мақом санъатидаги ҳар бир ижод намунаси мустақил, ўзига хос ва бетакрор бўлиб, воқеликнинг муайян томонини бевосита акс эттиради.

Мақомлар Шарқ халқларининг мусиқа меросида жуда катта ўрин тутди. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси»да қайд этилишича, «Мақом» (араб. — жой, макон, ўрин) – мусулмон Шарқи мусиқасидаги асосий тушунчалардан бири. Дастлаб, муайян баландликдаги товушни ҳосил қилиш учун торли чолғунинг дастасида бармоқ билан босиладиган жой парда маъносида ишлатилган. Кейинчалик Шарқ мусиқа назарияси ривожланиши жараёнида мақомнинг мазмун доираси тобора кенгайиб, бир-бирига нисбатан боғлиқ бошқа маъноларни ҳам англата бошлади: лад тузилмаси, лад тизими; муайян пардалар заминиде вужудга келган куй-оҳанглар, шакл, жанр; бир қисмли ёки туркумли чолғу ва ашула йўллари, мусиқий услуб ва бошқалардан иборат бўлган[1, 544 б.].

Адабиётлар таҳлили ва методология. Мақом мусиқа чолғуларида куй ва ашулаларни ташкил этадиган товушларнинг жойлашадиган ўрни, яъни пардалардир. Мусиқага оид баъзи китобларда «мақом» тушунчаси турлича таъриф ва тасниф этилади. Ибн Зайланинг фикрича, «мақом» сўзининг луғавий маъноси арабча «ўрин», «жой», «ҳолат», «вазият», «босқич», «даража» каби маъноларни билдиради. Бу атама дастлаб мусиқий атама сифатида талқин қилинмаган. Мақом атамаси турли соҳаларда турли маъноларда қўлланилган. У илк бор тасаввуф таълимотида сўфийликнинг тўрт босқичини ифода этган. Бу босқичларни инсон Оллоҳни таниши, билиши учун ўз нафсини енгиб, руҳий-ахлоқий покланиши учун босиб ўтиши лозим бўлган. Тўрт босқичнинг ҳар бири ўн асосдан иборат бўлиб, улар «мақом» деб аталган. Мақом атамаси хусусидаги бундай таъриф «Ўзбекистон миллий энциклопедияси»да ҳам қайд этилган. Кейинчалик мақом сўзи «математика» фанида «махраж» маъносини англатган.[2, 37-38 б.] Дилором Каромат «Ўн икки мақом тизими ва унинг ҳинд рагалари билан ўхшашлиги (қўлёзмаларга кўра)» деб номланган мақоласида Кашмирда ҳам мақом «сўфиёна калом»[3]деб аталишини эътироф этади.

Фалсафий нуқтаи назардан мақом эволюциясига баҳо берадиган бўлсак, мақом куй-қўшиқлари олий цивилизация ёки ғойибдан (арши аълодан) келган. У тасаввуфдаги «ҳол»ни ифодалайди, яъни сўфий «жазва» ҳолатига айнан шу куйлар орқали тушган ва руҳий комилликка интилган. Балки айнан мана шу омил туфайли мақом куйларининг ривожига катта даврни қамраб олади. Шу билан бир қаторда, мақом инсон тафаккурини, ҳиссий ва эстетик вазифасидан ташқари, гносеологик ойдинлаштиришга ёрдам беради.

Мақом куйлари генезисига эътибор қаратсак, турли мусиқа илми билан шуғулланувчи олимларда бу масала бўйича икки хил қараш шаклланганлигини кузатишимиз мумкин. Бир гуруҳ тадқиқотчилар фикрича, мақом санъати асоси

инсонларнинг интуитив билишига асосланади. Унга қарама-қарши ўлароқ, баъзи олимлар мақомнинг соф тафаккур маҳсули эканлигини таъкидлашади. Хусусан, профессор О.Иброҳимов мақом санъатининг илоҳий-интуитив асосларига эътибор қаратиб, уни тасаввуф илми билан боғлаган. Унинг фикрича, мақомларнинг шаклланиши ва вужудга келишида пайғамбарларнинг роли катта. Масалан, Рост мақоми ҳазрати Одам Алайҳиссаломга, Ушшоқ мақоми Нуҳ Алайҳиссаломга, Роҳавий мақоми эса Муҳаммад с.а.в.га нисбат берилган[4, 31-б.].

Муҳокама. Фалсафий нуқтаи назардан мақомнинг тарихий эволюциясини 3 босқичга бўлиш мумкин: 1-босқич – мақомлар базис субстанциялари (ийқоъ ва алҳон)нинг шаклланиши; 2-босқич – мақомлар назарий-методологик асосларининг шаклланиши; 3-босқич – мақомларнинг замонавий ривожланиш даври. Мақомларнинг назарий-методологик асослари яратилишида Мавлоно Нажмиддин Кавкабий салмоқли ҳисса қўшган. Унинг асарлари ичида бизгача «Рисолаи мусиқий»гина етиб келган. Бу рисола ўн икки бобдан иборат бўлиб, ўн икки мақом тизими (Дувоздаҳмақом), ритм масалалари шарҳлаб берилган, Мавлоно Нажмиддин Кавкабий бастакор ҳам бўлган, мақом йўллари асосида нақшлар, амаллар ва пешравлар яратган. XVI-XVII аср мусиқа санъатининг яна бир йирик намоёндаси Дарвиш Али Чангий эди. Унинг «Рисолаи мусиқий» асари ўн икки бобдан иборат бўлиб, мусиқа рисолаларида куй-ашула турлари ва шакллари масалаларига махсус боблар ажратилган бўлиб, бу мусиқа намуналарини, мавҳумроқ бўлса-да, тасаввур этишга ёрдам беради. Шубҳасиз, бундай куй шакллари ташкил этувчи асосий қисмлар ҳозирги мақом йўлларида ҳам мавжуд. Сафуддин Урмавий ўзининг «Китабул-адвар» («Мусиқа ва ритм доиралари китоби») асарида мақом ва ритм уйғунлиги инсонни ҳаётнинг фожиали дунёсидан узиб олиб, олис ва хурликка етаклайдиган мусиқани намоён этишини биринчилардан бўлиб асослаб ўтади. Унинг даврида ишлаб чиқилган ўн икки мақом тизими XVII асргача шундай давом этади. Ўн икки мақом негизида миллий ва минтақавий мақом туркумлари вужудга кела бошлади. Ўзбек ва тожикларда мақом, туркман ва уйғурларда муқом, эрон ҳамда озарбайжон халқларида муғом ёки дастгоҳ, араб халқларида мақам шаклида вужудга келди.[5, 145-б]

Натижалар. Категориялар ижтимоий борлиқ, инсон ҳаёти соҳаларининг ҳар бирида – ишлаб чиқариш, меҳнат ва ижтимоий-сиёсий фаолиятда, табиатга муносабатда, маданият, турмуш ва ҳоказоларда оламни эстетик ўзлаштиришнинг ўзига хос кўриниши. Мақом санъатидаги бадиийлик эстетик категориялар гўзаллик, уйғунлик, улуғворлик, фожиавийлик, кулгилилик, ҳаёлилик-мўъжизавийлик орқали намоён бўлади.

Эстетикада ҳар бир категория инсоннинг идеалга нисбатини англатади. Инсон улуғворлиги ва унинг руҳий ҳамда жисмоний кучларининг кўлами улуғворлик категориясини эстетик қадриятга айлантиради, чунки улуғворлик инсон ва жамиятнинг идеалларини ифода этади. Фожиавийлик реал ҳаёт ва инсон тасаввуридаги кучлар тўқнашувининг натижаси бўлиб, бу тўқнашув курашининг қандай тугалланиши, пировардида, инсоният истиқболи, тақдири билан боғланиб кетади.

Гўзаллик категорияси меъёр билан боғлиқ бўлиб, бу билвосита уйғунлик орқали рўй беради. Яъни, меъёр уйғунлик хусусиятини белгилайди. Уйғунликда мослик ва

мутаносиблик билан бир қаторда, баъзан мос эмаслик ва номутаносиблик катта аҳамият касб этади. Меъёр гўзалликни белгиловчи энг асосий омил ҳисобланади.

Мақомларнинг гўзаллиги ҳам айнан унинг универсаллиги, мослиги ва мутаносиблигидадир. Яъни, мақомларда куй бирламчи ўрин эгалласа, шеър иккиламчи ўринни эгаллайди. Мақом куйларига мос ғазал танланади. Яъни, мақом куйлари ритмига мос келувчи аруз вазнидаги ғазаллар танлаб, ижро этилган. Масалан, Тошкент-Фарғона мақом йўлларига кирувчи Дугоҳ Хусайний асари бир нечта ғазалларда ижро этилади. Айнан бу асар 8 та, Фузулий, Сайфий, Навоий, Оразий, Собир Абдулла ғазаллари билан ижро қилинган.

Улуғворлик инсонда фахр, ғурур, салобат каби туйғуларни уйғотувчи эстетик категориядир. Улуғворлик Бузрук мақомида авж пардаларда ижро этилувчи қўшиқларда намоён бўлади. Бузрук катта, улуғ маъноларида келиб, улуғ мақом деган маънони билдиради. Бузрук мақоми бутун борлиқнинг яралишини акс эттираётгандек улуғвор ҳиссиётни беради. Улуғворлик – Бузрук мақоми ҳажмининг катталиги билан ҳам ўлчанади. Бузрук мақоми бутун борлиқ яралишини акс эттирса, унинг лади (муайян пардалар заминидан вужудга келган куй-оҳанглар) коинотнинг пайдо бўлишига ишора бераётгандек улуғвор ҳиссиётни беради. Инсон улуғворлик орқали руҳий моҳиятга эришади ёки Худо билан бирлашади.

Фожиавийлик – эркинлик ва заруриятнинг ўзаро таъсири жараёнида юзага келадиган ҳамда одамларнинг азобланиши, ўлиши ва ҳаёт учун муҳим бўлган қадриятларнинг йўқ қилиниши билан бирга бўлган энг кескин ҳаётий қарама-қаршилиқ, вазият ва шароитларни акс эттирадиган эстетик омил. Фожиавийлик инсоннинг кадр-қиммати ва буюклиги ғоясидан ажралмаслиги билан ҳам, инсоннинг эркин ҳаракатларида ҳам, зарурият кучлари билан тўқнашувда ҳам бу ҳаракатларга ҳамроҳ бўлган азоб-уқубатларда намоён бўладиган гўзал ва улуғворлик билан боғлиқ. Сақил ритмли куйлар Шашмақомнинг Мушкулот қисмида учрайди. Сақил оғир деган маънони билдиради. Ушбу мақомлар оғир ритмли бўлгани учун ҳам уни тинглаётган инсон дардни, фожиани ҳис қилади.

Фалсафада мазмун ва шакл категориясини бошқа категориялар тизимидан ажратиб олиб, нисбатан мустақил таҳлил қилганда, унга инсонларнинг муайян манфаат ва эҳтиёжлар асосида ёндашишларини алоҳида эътиборга олиш керак. Бу мазмун ва шаклнинг объектив характериға путур етказа олмаса ҳам уларни баҳолашдаги субъектив, муқобил қарашларда ўз ифодасини топади.

Мақом санъатида эстетик шакл ва мазмун уйғунлиги масаласига эътибор қаратганимизда бу муаммонинг фалсафий-онтологик жиҳатларига тўхталиб ўтишимиз жоиз. Бадиий асар фақат мазмун ёки шаклдан иборат бўлмайди. Иккиси мудом диалектик алоқада бўлади. Ёшларда бошқа мусиқа санъати турлари каби мақом ҳам самарали таъсирга эга. Яъни, мақом ўзига хос ритмга эга бўлганлиги учун ҳам идрок этувчининг диққатини жамлайди ва фориғлантиради. Шунингдек, ёшларда эстетик онгни юксалтиришда мусиқадан фойдаланиш ўзига хос самара беради.

Мақомнинг герменевтик хусусиятлари учта компонентдан иборат. Улар – интерпретация, тушуниш ва эмпатиядан иборат. Биринчи компонент **интерпретация** – мақомни эстетик идрок қилишда намоён бўлади. Эстетик объект бўлган мақомни тушунтирувчи ва тушунувчи (ижро этувчи ва тингловчи) субъект ўз дунёқарашидан

келиб чиқиб, талқин этади. Бу ерда тушунувчининг мақомни қай даражада тушуниши тушунтирувчи (ижро этувчи)нинг ижро маҳоратига боғлиқ бўлади.

Мақомни англашдаги иккинчи компонент **тушуниш** ҳисобланади. Инсон эстетик объектни тушунсагина ундан эстетик завқ олади ва унга эстетик баҳо бера олади. Бу ўринда инсоннинг макон ва замондаги хатти-ҳаракати, ижтимоий келиб чиқиши муҳим аҳамиятга эга. Учинчи компонент **эмпатия**да фалсафанинг сабаб ва оқибат категорияси кесимида эстетик завқ сабаб катарсис (фориғланиш) оқибатни ифодалайди, ундан кейин калокагатия (ахлоқий гўзаллик) ҳолатига ўтади. Мақомда айнан унинг «лади» (уйғунлик тартиб) инсонга эстетик завқ беради. Калокагатия маънавий юксалишнинг муҳим воситаларидан бири ҳисобланади. Мақомларнинг яна бир эстетик хусусияти унда калокагатия (ички гўзаллик)нинг намоён бўлишидир. Қадимги юнон маданиятининг ахлоқий-эстетик идеали авлодлар алмашилишида жисмоний ва руҳий баркамоллик уйғунлигини назарда тутди.

Хулоса. Илмий мақолада мақом санъати генезисда 3 та фалсафий гипотезани илгари сурганмиз. Биринчиси, мақом куйлари интуитив билиш маҳсули, иккинчиси, мақом куйлари соф инсон тафаккури, яъни мусиқий тил билан айтганда, бастакорлик маҳсули, учинчиси, мақом куйлари араб халқлари мусиқий шаклидан ҳозирги шаклга келган ва минтақага мослашган. Мақомнинг фалсафий-эстетик моҳиятини очиб бераётганда ҳаддан ташқари идеаллаштириш, шунингдек, материалистик нуқтаи назардан талқин қилиш тенденциясидан қочиш керак. Чунки мақом инсоннинг ҳам маънавий-руҳий оламини, ҳам табиат билан уйғун бўлган жиҳатларини ўзида ифода этади. Бу учта йўналиш ҳам, бизнингча, нотўғри эмас. Чунки инсоннинг дунёқараши макон ва замонда ўзгарувчан хусусиятга эга, шу сабабдан бу йўналишлар бир-бирини тўлдиради.

Адабиётлар / Литература / References:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. М ҳарфи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. - 544 б.
2. Орипов З. Ибн Зайланинг “Китаб-л-кафи фи-л-мусиқа” рисоласидаги атамалар. – Тошкент, 2008. – Б.37-38.
3. Dilorom Karomat. “12 maqam system and its similarity with Indian Raga’s (according to the Indian Manuscripts)”. <http://syrianmusiclives.files.wordpress.com>
4. Иброҳимов О. Мақомлар семантикаси: Сан. фан. док. ... дис. – Тошкент, 1996. – 31 б.
5. Туленов Ж. Ҳаёт фалсафаси. – Тошкент: ЎЗБЕКИСТОН, 1993.-Б.145.

Наврўзова Гулчехра Нигматовна
Бухоро муҳандислик-технология институти
“Ижтимоий фанлар” кафедраси профессори,
фалсафа фанлари доктори
email: premium.progress@mail.ru

“ХУШ ДАР ДАМ” МОҲИЯТИ: МЕТАФИЗИК ТАҲЛИЛ

Аннотация. Мақолада Нақшбандия таълимотининг “Хуш дар дам” тамойили метафизик методология асосида таҳлил этилган. “Хуш дар дам” тушунчасининг асосий категорияси нафасни бутун борлиқ билан уйғун ўрганиб, илоҳий хусусиятга эга эканлиги ва инсон вужудига ҳаво билан бирга илоҳий нур ва қувватлар кириши асосланган.

Калит сўзлар: Нақшбандия, “Хуш дар дам”, нафас, илоҳий, нур, файз, ҳаво.

Navruzova Gulchehra Nigmatovna
Doctor of Philosophical Sciences, Professor.
Bukhara Engineering Technological Institute

ESSENCE OF “KHUSH DAR DAM”: METAPHYSICAL ANALYSIS

Abstract. The article analyzes the principle of "Hush dar dam" of the Naqshbandi doctrine based on metaphysical methodology. The main category of the concept of "hush dar dam" is based on the fact that the breath has a divine nature by studying it in harmony with the whole being, and divine light and energies enter the human body along with the air.

Key words: Naqshbandiya, "Hush dar dam", breath, divine, light, grace, air.

Наврўзова Гулчехра Нигматовна
Профессор кафедрасы «Общественных наук»
Бухарского инженерно-технологического
института, доктор философских наук

СУЩНОСТЬ “ХУШ ДАР ДАМ”: МЕТАФИЗИЧЕСКИЕ АНАЛИЗ

Аннотация. В статье анализируется принцип «Хуш дар дам» учения Накшбанди, основанный на метафизической методологии. Основная категория понятия «Хуш дар дам» основана на том, что дыхание имеет божественную природу, изучая его в гармонии со всем существом, а божественный свет и энергии входят в тело человека вместе с воздухом.

Ключевые слова: Накшбандия, «Хуш дар дам», дыхание, божественное, свет, благодать, воздух.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N27>

Кириш. Инсон камолотида тасаввуф таълимотининг алоҳида ўрни бор. Тасаввуф фалсафасининг ўзига хос қуйидаги асосий категориялари мавжуд: инсон, тана, руҳ, жон, нафс, нафас, ақл, қалб, зикр, мақом, ҳол, зоҳир, ботин, вужуд, комил инсон, вақт, тавҳид, олам, амр, халқ, олами акбар, олами асфар, илм, зоҳир илми, ботин илми, ладун илми, яқин илми, фаросат, хусни хулқ, тариқат, маърифат, ҳақиқат. Буларнинг кўпи ҳақида

тадқиқотлар олиб борилган бўлсада, аммо нафас тушунчаси етарли ўрганилмаган. Ҳолбуки тасаввуфда нафас тушунчаси асосийдир. Бу тушунчанинг мазмун-моҳиятини билиш инсон камолоти учун ниҳоятда зарурдир.

Нақшбандия таълимотида “Ҳуш дар дам” рашҳа-ҳаётбахш ўғитини таҳлил ва тавсифида нафас тушунчасининг моҳияти етарли даражада очилмаган. Бу вазифани мукамал бажариш учун метафизик таҳлил зарарлиги маълум бўлди. Мақолада шу методология асосида муаммони таҳлил этиш ва асослашга ҳаракат қилдик.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Нақшбандия таълимотининг асосий тамойили бўлган 11 рашҳанинг биринчиси “Ҳуш дар дам” ҳаётбахш ўғитидир.[1,2,5,6,11,12,13,14,16,17] “Ҳуш дар дам” рашҳасининг фалсафий таҳлиliga махсус эътибор берилган.[4:161-176,10:65-75] Монографиянинг 4.2. банди “Ҳушёрлик - уйғунлик йўли” деб аталади ва унда “Ҳуш дар дам” тамойили нафас олиш жараёни сифатида батафсил таҳлил этилган. Бу рашҳа Нақшбандия йўлини хушёрликка асосланган меъёрдаги камолот йўли бўлишига асос бўлади.

“Ҳуш дар дам” тамойили инсон ҳаёти асоси нафас эканлиги масаласи сифатида таҳлил этилган. [7:3-10] “Ҳуш дар дам” тамойилининг фалсафий таҳлили, [9:171-173] унинг билиш жараёни билан боғлиқ бўлган янги қирраси, яъни нафас олиш жараёнининг интуитив билишга таъсири, бутун олам тебранишлари билан боғлиқлиги таҳлил этилган. [8:42-44,15]

Шайх Ҳаким Моуниддин Чиштиё сўфиёна даволанишга бағишланган асарининг 11 қисми “Вселенная дыхания” – “Коинот нафаси” деб аталади ва унда нафасни илоҳийлиги масаласи ёритилади. [18:147-151] Сўфийлик инсонни энг олий ҳад даражасига юксалишига ёрдам беради. Тана, ақл, руҳнинг ҳақиқий саломатлигига эришиши нафас масаласига жуда ҳам боғлиқ.

Нафас масаласи “Ҳуш дар дам” тамойилининг асосини ташкил этади. Бу масалани тарихийлик ва мантиқийлик, қиёсий таҳлил каби услублар билан бирга метафизик методология асосида таҳлил этишга ҳаракат қилдик.

Муҳокама. Қуръони каримнинг 15. Ҳижр сурасининг 28-29-оятларида шундай ёзилган: “(Эй Муҳаммад) эсланг, Раббингиз фаришталарга: “Мен (асли) қора балчиқдан (олиб) қуритилган лойдан инсон яратувчиман. Бас, уни тиклаб, ичига Ўз (даргоҳимдаги) руҳимдан киритганимда, сизлар унга сажда қилган ҳолингизга йиқилдингиз!” – деди”. [19:263] Бу оятлар инсон ва Оллоҳ ўртасидаги яралиш муносабатини очиб беради. Оллоҳ айтмоқдаким, инсонни қуритилган балчиқ лойдан ясаб, унга ўз даргоҳидан руҳини киритган. Мантиқан маълум бўладики, Оллоҳ инсон танасига нафаси орқали руҳини киритган ва унга ҳаёт бағишлаган. Демак, инсон танасининг асли тупроқ ва сув аралашмаси бўлган балчиқдан иборат бўлиб, у олов ва ҳаво таъсирида қуритилган. Маълум бўладики, инсон танасини Оллоҳ тўрт унсурдан яратган ва танага жон киритиб, ҳаёт бағишлаш учун унга Оллоҳ ўз даргоҳидан руҳини нафаси билан киритган. Оллоҳ 29-оятда “нафахтуху” сўзини ишлатиб руҳни нафаси билан киритганини таъкидлаган.

Оллоҳ ўз руҳини одам танасига уфуришини нафас ибораси билан айтган. Бу билан ўз нафаси орқали инсонга руҳини киритиб, жон ато этганини маълум қилмоқда. “Ҳижр” сурасининг бу оятлари инсон нафаси илоҳий моҳиятга эгалигидан, инсон руҳи Оллоҳдан эканлигидан ва инсон ҳаётини Оллоҳ берганидан далолат беради.

Инсон учун илоҳий моҳиятга эга нафаснинг таҳлил этган олимнинг қуйидаги фикрлари келтирилган:

1. Нафас - Оллоҳ изнини элтувчи, ташувчидир.
2. Нафас - юракдан қалб орқали илоҳий зоту сифатларни ақл, тана ва нафснинг турли марказларига етказди.
3. Нафас - тана асослари орасидаги мувозанат ва уйғунликнинг манбаидир.
4. Нафас - ҳаётбахш заррачаларни танани ташқи муҳитидан ички психологик муҳитга киритади. [18:147]

Натижалар. Биз “Хуш дар дам” тамойили ҳақидаги аввалги тадқиқотларимизда нафасни вужудга кислородни киритиш жараёни сифатида муҳокамасига эътибор қаратган эдик. Шу билан нафас олиш жараёнининг таҳлилида нафас олишга ёрдам берувчи тана аъзоларининг аҳамияти, вазифалари, кислороднинг танага таъсирини ёритишга диққатни қаратган эдик. Кейинги узоқ йиллик таҳлил ва мулоҳазалар асосида аввалги фикрларимиздаги кемтиклик томонларини аниқладик. Метафизик таҳлил асосида қуйидаги янги фикрларга келдик:

1. Нафас бу энг олий илоҳий неъматлардан бири бўлган атмосферадаги ҳавони вужудимизга кириб, физиологик жараёнларни меъёрида келтирадиган асосгина эмас, балким Оллоҳнинг изну иродаси ва ҳукмини қалбга етказувчи восита экан. Чунки нафас олиш жараёнида кислород билан бирга илоҳий қувват, нур ва файз ҳам киради.

Аввалги тадқиқотларимизда нафасни таҳлилида инсонни коинотнинг бир қисми эканлиги ва нафас бу атмосфера ҳавосини инсон вужудига кириш жараёни сифатида тавсиф этганмиз. Метафизик методология асосида инсон бутун борлиқнинг бир қисми эканлиги аён бўлади. Табиат борлиғидан ташқари Амр олами - Оллоҳ Амри билан яратилган Улуҳият, Жабарут, Малакут каби лозамон – вақтдан, замондан ташқари ва ломакон - макондан ташқари оламлар борлиги ҳамда уларнинг инсон камолотига таъсири аниқланди. Бу оламлар нуру файзининг нафас орқали инсон вужудига кириши нуқтаи назари асосида ёндашиб “Хуш дар дам” тамойилини таҳлил этдик. Қуръони Карим тафсиридан маълум бўладики, бутун борлиқда Оллоҳ изнисиз бирор нарса амалга ошмайди. Оллоҳ нафасимиз орқали ўз изнини бизга етказди ва шунга уйғун вужудда рағбат, куч-қувват ҳосил бўлади. Инсон нафас олиш билан илоҳий изнни қабул этади ва унга амал қилади.

2. Биз аввалги тадқиқотларимизда ёзганимиздек, “Хуш дар дам” тамойилида нафас олиш ва чиқариш вазифаларини адо этишда фақат ўпка асосий хизмат қилмай, юрак ва қалб марказий ролни бажарар экан. Айнан юрак қон билан бирга вужуднинг барча қисмларини кислород билан таъминлайди ҳамда юракда жойлашган қалб илоҳий зоту сифатларни тана, рух, ақл ва нафс марказларига етказиб, уларни илоҳий амр ила ҳаракат қилишини таъминлайди. Бунга сабаб нафас ўзи билан фақат ҳавони эмас, балким илоҳий файзу барака, нуру қувватни ҳам вужудга киритади. Ҳаво таркибидаги кислород юрак орқали барча вужуд аъзоларига тарқалса, юракда жойлашган илоҳий марказ бўлган қалб Оллоҳ изни билан унинг зоту сифаларини тана, рух, нафс[3] ва ақл марказларига етказиб, уларни бутун борлиқга уйғун илоҳий ҳаракатга рағбат ҳосил қилади. Юрак тананинг жисмоний маркази бўлса, қалб инсонни Оллоҳ билан боғлайдиган ҳам жисмоний, ҳам руҳий марказидир.

3. Нафас орқали илоҳий изн билан кирган қувватлар тана, руҳ асосларини бутун олам билан уйғун, мувозанатда ҳаракат қилишга сабабчи бўлади. Натижада инсон Оллоҳнинг ҳақиқий бандаси сифатида бутун борлиққа эзгулик қилади. Тананинг ҳар бир маркази, руҳ, нафс ва ақл ҳам эзгу амалли бўладилар. Қалб бутун илоҳий изну қувватнинг маркази бўлиб, уларни эзгуликка сафарбар этади. Бутун борлиқ билан уйғун, мувозанатда бўладиган инсон ўз ҳадди, меъёрини билади ва ўз-ўзини англаб ўзига белгиланган вазифани мукамал адо этади. Бундай инсон ҳақиқий бандалик мақомига етади.

4. “Ҳуш дар дам” тамойили натижасида нафас инсоннинг ҳам жисмоний танаси ҳаётига, ҳам руҳий, маънавий қалбига ҳаёт бағишловчи зарралар, нуру файз мажмуидир. Нафас инсон танасидан ташқарида бўлган муҳитдаги илоҳий неъмат - ҳаво ҳамда илоҳий файзу футуҳ, изн ва куч-қувватни унинг психологик ҳолатига боғлиқ ички муҳитига киритади, яъни инсонни бутун борлиқ билан боғлайди ва уйғунлаштиради. Нафас фақат ҳаво ва кислород эмас, балким у илоҳий даргоҳ манбаидан ҳосил бўлувчи ва бутун самонинг илоҳий моҳиятини ўзида акс эттирувчи улуғ ва латиф неъматдир. Нафас олиш бу нурли материя ҳамда Оллоҳнинг латиф қувватидан баҳраманд бўлиш жараёнидир.

Нафас олиш жараёни инсон жисмини тозалаш билан бирга унинг ҳиссиётларини: шодлик, хафалик, ҳаловат, роҳат, ғазаб ва бошқаларни туғдиради. Нафас ҳам миқдор жиҳатидан, ҳам сифат жиҳатидан инсонни саломатлигига таъсир этади. Инсон нияти пок, вужуди зоҳиран ва ботинан пок, манзили пок ҳолатида тоза, соф ҳаводан нафас олганида илоҳий моҳиятни ҳис этади ва унга уйғун мукамал ҳаракатда бўлади. Ҳаром луқма, ҳаром кирган вужуд ва ифлос ҳаводан нафас олиш инсоннинг соғлигига ёмон таъсир этади, чунки бу ҳолат табиий, илоҳий тоза муҳитни ифлослантиради. Демак, инсонни ҳолати нафас олишига таъсир этади. Инсон кўп ғазабланса, руҳий тушкунликка тушса, кўрқса нафас олиш жараёнига салбий таъсир этади. Аксинча, гўзал табиат, гуллар ифори, яхши куй ва мусиқа нафас олишга ижобий таъсир этади.

Нафас олиш жараёнида инсон Оллоҳ билан боғланади. Агар у “Ҳуш дар дам” онгли нафас олиш жараёнига амал қилса тўлақонли нафас олади ва ҳақиқий тирик ҳолатида умрини мазмунли ўтказади. Қуръони Каримни қироат билан ўқиш ҳам тўғри нафас олишга ёрдам бериб, инсонни файзу баракали қилади. Тасаввуфда зикр амалиёти мавжуд. Зикр тўғри нафас олиш жараёнида катта аҳамиятга эгадир. Оллоҳни эслаш билан боғлиқ зикр амалиёти тўғри нафас олиш билан боғлиқдир.

Хулоса. “Ҳуш дар дам” рашҳасининг моҳияти шундаки, у инсонни онгли нафаси орқали бутун борлиқ билан боғлайди ва унга мос, уйғун ҳаракатни таъминлайди.

1. Нафас бир томондан вужудга атмосфера ҳавоси билан кислородни киритиб танани соғломлаштиришга ёрдам бериб, ҳаёт бағишласа, иккинчи томондан инсонни Оллоҳ билан боғлайди ва илоҳий изн-ҳукм, ирода, нур, файзни ботинга киритиб инсон умрига мазмун-моҳият бағишлайди.

2. “Ҳуш дар дам” тамойилининг асоси бўлган нафас ҳаво ва илоҳий изн, нур, файз ҳамда қувват каби латоифлар мажмуасидан иборатдир.

3. Инсон нафас олиш жараёнида юраги жисмоний, табиий марказ сифатида унинг бутун вужудига кислородни етказиб, унга ҳаёт бағишлайди. Унинг қалби илоҳий марказ бўлиб, Оллоҳнинг изни, нури, файзи, қувватини бутун тана, ақл, нафс ва руҳий

марказларга етказди. Шу билан инсонни бутун болиқ билан алоқага киритиб, уйғун, мувозанатдаги ҳаракатини таъминлайди. Жисмоний ва илоҳий марказ ёдамида “Ҳуш дар дам” тамойили инсонни камолотига ёрдам беради.

4. Инсонни зоҳиран Олами сағир - Кичик олам ва ботинан Олами кабир - Катта олам бўлишига “Ҳуш дар дам” тамойили асосий рол ўйайди. У онгли нафас орқали инсонни илоҳий бўлишга, илоҳий амрни ҳис этишга, ботинини нуру файзга тўлишига ёрдам беради.

5. “Ҳуш дар дам” тамойили инсонни коинотни бир қисми сифатида нафас олиши билан фақат табиат ва атмосферадан эмас, балки илоҳий амр ила яралган ва ломакон, лозамон, яъни макон ва замондан ташқаридаги илоҳий оламдан ҳам нафаси орқали илоҳий файздан баҳраманд бўлувчи илоҳий хилқат бўлишига ёрдам беради.

6. Инсон юраги табиий вужуд маркази бўлиб, нафасни тананинг барча нуқталарига етказса, қалб инсонни Оллоҳ билан боғлайдиган бутун борлиқ маркази ва илоҳий нур, тебранишларни қабул этувчи, фаҳмлайдиган марказдир. Умумий хулоса қилсак, “Ҳуш дар дам” тамойили инсонни илоҳий мавжудотга айланишига ёрдам берувчи Нақшбандия талимотининг асосий талабларидан биридир.

Адабиётлар / Литература / References:

1. Абул Муҳсин Муҳаммад Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Мақомоти Хожа Баҳоуддин Нақшбанд / Форсийдан таржимон, сўз боши, изоҳ ва луғат муаллифи Маҳмуд Ҳасаний. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 335 б.
2. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин/ Хамса. Тўла Асарлар Тўплами. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – 805 б.
3. Муҳаммад Зоҳид Қутқу. Нафс нимадир?. Таржимон: Зебунисо Ҳусайн қизи. Т.: “Sharq” 2021. 335 б.
4. Наврўзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: Фан, 2005. – 233 б.
5. Наврўзова Г. Н Нақшбандия – камолот йўли. – Тошкент: Фан, 2007. – 189 б.
6. Наврўзова Г.Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Т.: Фан, 2021. – 244 б.
7. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия таълимотида ҳаёт тушунчаси. Islom tafakkuri. 1-Maxsus son. 2023. - Б. 3-10.
8. Наврўзова Г.Н. “Ҳуш дар дам” тамойили ва билиш масалалари. Фалсафа ва ҳуқуқ. 2023. №2. 42-44-б.
9. Наврўзова Г.Н. “Ҳуш дар дам” тамойили: фалсафий таҳлил. Scientific forum:theory and practice of research III International scientific and theoretical conference. 10 march, 2023. С.171-173.
10. Наврўзова Г.Н., Рахматова Х.Х. Нақшбандия тушунчалари генезиси. Бухоро: “Бухоро”, 2010. 155 б.
11. Наврўзова Г., Зоиров Э. Бухорои шарифнинг етти пири. – Тошкент: Muhammad nashriyoti, 2018. – 72 б.

12. Navruzova G.N. Bahauddin Naqshband – the seventh pir of Bukharai Sharif (Noble Bukhara). Islom tafakkuri (Maxsus son), 2020. – В. 5-8.
13. Наврўзова Г.Н. “Dam – bu damdir” // Тафаккур. 2019. 3-сон. 119-121-бет.
14. Наврўзова Г.Н. Махдуми Аъзам Нақшбандия асоси бўлган тўрт калима хусусида// ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. 2021. №3. 188-199- бет.
15. Проф. Инайят-хан. Суффикское послание о свободе духа. Москва: 1914. 47 С.
16. Фахруддин Али Сафий. Рашаҳоту айнил-ҳаёт («Обихаёт томчилари»): тарихий-маърифий асар / Табдил қилувчилар, нашрга тайёрловчилар: М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ. Масъул муҳаррир: Б.Умрзоқ (ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти). – Т.: Абу Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2004. – 536 б.
17. Хожа Абдулхолиқ Гиждувоний. Сўз боши, таржима луғат ва изоҳлар муаллифи Маҳмуд Ҳасаний. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2003. – 128 б.
18. Шайх Хаким Моуннуддин Чиштий Суффикское целительство. Москва – Санкт-Петербург: “Диля”, 2002. С. 147-151.
19. Қуръони карим таржимон ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. Т.: “Sano-standart”, 2021. 618 б.

O'razov Bobir Baxtiyorovich
Buxoro davlat pedagogika instituti,
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti

**IJTIMOIIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH
SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy davlat tushunchasi, uning vujudga kelishidagi omillar, ijtimoiy davlatning nazariy va uslubiy asoslari ochib berilgan. Shuningdek ushbu maqolada ijtimoiy davlat borasidagi xalqaro tajribalar ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, fuqarolik jamiyati, davlat, ijtimoiy harakat, siyosat, boshqaruv, harakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi.

Urazov Bobir Baxtiyorovich
Docent of the department of "Social sciences"
of the Bukhara state pedagogical institute

**THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE SOCIAL STATE:
CONDITIONS, SIGNS AND FUNCTIONS OF EMERGENCE**

Abstract. This article reveals the concept of a social state, the factors in its formation, the theoretical and methodological foundations of a social state. This article also analyzes international experiments on the social state.

Key words: social state, civil society, state, social action, politics, governance, action strategy, development strategy.

Уразов Бобир Бахтиёрлович
доцент кафедры "Социальные науки", Бухарский
государственный педагогический институт

**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА:
УСЛОВИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ, ПРИЗНАКИ И ФУНКЦИИ**

Аннотация. В данной статье раскрыто понятие социального государства, факторы его возникновения, теоретические и методологические основы социального государства. В этой статье также анализируется международный опыт социального государства.

Ключевые слова: социальное государство, гражданское общество, государство, общественное движение, политика, управление, стратегия действий, стратегия развития.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N28>

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquqlari, fuqarolik jamiyatini barpo etish borasida anchagina salmoqli ishlar amalga oshirilayotganining guvohi bo'lib turib. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 07.02.2017 yildagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni, 28.01.2022 yildagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni, 11.09.2023 yildagi "'O'zbekiston - 2030"

strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmonlarida jamiyatni demokratlashtirishga oid ustuvor maqsad hamda vazifalarning belgilab berilganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Qolaversa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 iyunda konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda Konstitutsiyamizda "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan tamoyilni mustahkamlash g'oyasini ilgari surgan edilar. Yurtboshimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bu g'oya yanada mustahkamlanib, ijtimoiy davlatni barpo etishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Davlatimiz rahbari bu xususda to'xtalib, "Biz Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak", deya ta'kidlagan edi. Shu asosda yangitdan qabul qilingan Konstitutsiyamizning 1-moddasida O'zbekiston "boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" ekanligi ta'kidlandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, "ijtimoiy davlat" tushunchasi ilk bor 1850 yilda Lorens fon Shteyn tomonidan qo'llanilgan. U davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlikni o'rnatish, quyi va kam ta'minlangan tabaqalarni boylar va qudratlilar darajasiga ko'tarishdan iborat, deb hisoblagan.

Milliy davlatchiligimiz tarixini o'rganganimizda ham "ijtimoiy davlat" tushunchasi shunga o'xshash nomlarda ko'plab uchrashiga guvoh bo'lamiz. Masalan, IX-X asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida fozil shahar haqida bildirilgan fikrlar aynan "ijtimoiy davlat" tamoyilining mazmun-mohiyati hisoblanadi. Shunga o'xshash fikrlarni Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida ham uchratish mumkin.

Prezidentimiz ushbu tushunchani izohlar ekan, "Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir", deya ta'rif bergan edi. Nazarimizda, buyuk bobolarimiz orzu qilgan va o'z asarlarida keltirgan "fozil shahar" ham aynan shu "ijtimoiy davlat"dir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada inson taraqqiyoti haqidagi ta'limotlar va uning mohiyatini yoritib berishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik, usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Globallashuv jarayoni va bozor iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan davrda olimlar ijtimoiy davlatning o'ziga xos belgilari mavjud ekanini ta'kidlaydi va Lorens fon Shteyndan farqli ravishda ushbu jihatlarga quyidagilarni kiritadi:

— aholining daromadlari va boyliklarini yirik mulkdorlarga daxl qilmasdan qayta taqsimlash imkonini beruvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasi;

— ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti;

— ko'p tarmoqli va aralash iqtisodiyot;

— fuqarolik jamiyatini shakllantirish;

— davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish;

— davlatning har bir inson uchun munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta'minot va shaxs sifatida o'zini o'zi anglash yo'lida teng boshlang'ich sharoitlarni ta'minlash maqsadlarini tasdiqlash;

— fuqarolar oldidagi ijtimoiy javobgarlik;

- sug'urta ijtimoiy to'lovlarining rivojlangan tizimi va byudjetni tashkil etuvchi soliqlarning yuqori darajasi, ijtimoiy sohaga to'lovlarning yuqori miqdori;
- aholining barcha guruhlari uchun xizmat ko'rsatish va ijtimoiy xizmatlarning rivojlangan tizimi;
- byudjet ijtimoiy to'lovlarining mavjudligi;
- ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot va bandlik davlat tizimlarining mavjudligi;
- jamiyatning barcha muhtoj a'zolarini istisnosiz ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi mavjudligi;
- fuqarolarning farovonlik darajasi uchun javobgarlikni davlat o'z zimmasiga olishi.

Hozirgi zamon tajribasiga ko'ra, Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy davlat g'oyasi turli normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Xususan, Germaniyada uning ijtimoiy davlat ekani Konstitutsiya darajasida belgilangan. Shuningdek, ijtimoiy davlatning Skandinaviya va kontinental modellari ham mavjud bo'lib, bunda davlatlar o'z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun mas'ul bo'ladi.

Ijtimoiy davlat tor ma'noda o'z faoliyatida aholiga nafaqalar to'lashni, jamiyatga xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi va uy-joy bilan ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal qiladi. Keng ma'noda nafaqat aholini bevosita qo'llab-quvvatlashga qaratilgan sezilarli darajada ko'p sonli dasturlarni, balki iqtisodiyotni boshqarish va tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni, shu jumladan, bandlik va u bilan bog'liq masalalarni hamda kompleks makroiqtisodiy boshqaruvni amalga oshiradi.

Ijtimoiy davlatning o'ziga xos funksiyalari mavjud bo'lib, olimlarning aksariyati ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash;
- korrupsiya, qashshoqlik va ishsizlikka qarshi kurash;
- yosh tadbirkorlarga yordam;
- aholi bandligi va daromadlari doimiy o'sishini ta'minlash;
- jamiyatning barcha a'zolarini ijtimoiy sug'urta bilan ta'minlash;
- ta'lim, sog'liqni saqlash va ma'naviy-madaniy rivojlanishning qulayligini ta'minlash;
- ehtiyojmand shaxslarni moddiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish;
- jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali munosib turmush sharoitlarini yaratish;
- ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish.

Umuman olganda, ijtimoiy davlatda mehnatga layoqatli har bir insonning bandligi ta'minlanadi. Uning munosib hayot kechirishi uchun yetarli miqdordagi ish haqi belgilanadi, ishchi uchun xavfsiz mehnat sharoitlari yaratiladi, ishsizlikdan himoyalani, sifatli ta'lim, malakali tibbiy xizmat olish huquqlari real amalga oshiriladi. Bolalar, ayollar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, migrantlar va ularning oila a'zolari har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning aksariyati ijtimoiy sohaga yo'naltirilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Odamlarning farovon va hayotdan rozi bo'lib turmush kechirishi uchun munosib

sharoit yaratish, bandlikni ta'minlash va daromadini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, turmush sharoiti va sifati jihatidan tabaqalanishga yo'l qo'ymaslik kabi masalalarga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ishsizlikdan himoyalani, kafolatlangan sifatli ta'lim berish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarni, migrantlar va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimizning doimiy diqqat markazida. Davlat byudjetining asosiy qismi aynan shu kabi masalalarga yo'naltirilayotgani ham fikrimizning amaliy tasdig'idir. Alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan oilalar, ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun respublika miqyosida joriy etilgan "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "mahallabay" ishlash tizimi ham ijtimoiy davlatning mohiyatini va hayotiy ko'rinishini namoyon etmoqda.

Shu o'rinda mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning ijobiy natijalari ham diqqatga sazovor. Chunonchi, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga oshib, 2 millionga yaqin bolaning bog'cha bilan qamrab olingani xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari 2,5 barobarga oshishi, ya'ni ularning soni 198 taga etishi, o'z navbatida, oliy ta'limga qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga ortishiga zamin yaratdi. Shu qatorda, 40 dan ziyod oliygohga akademik va moliyaviy mustaqillik berilishi ulardagi ta'lim sharoiti va sifati sezilarli darajada yuksalganiga hissa qo'shganini qayd etib o'tish ham adolatdan bo'ladi.

Shuningdek, aholining ehtiyojmand qatlamlarini uy-joy bilan ta'minlash ijtimoiy davlatning muhim vazifalaridan biridir. Ta'kidlash o'rinliki, so'nggi olti yilda mamlakatimizda 500 mingga yaqin yangi uy-joy qurilib, foydalanishga topshirildi. Uy-joyga bo'lgan ehtiyojni qondirish bo'yicha birinchi marta ayollar va yoshlarga, ehtiyojmand oilalarga subsidiyalar ajratish tizimi yo'lga qo'yildi. Mazkur tizim qonuniy, adolatli va shaffof ishlashi uchun onlayn platformalar ishga tushdi.

Ayniqsa, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni ish bilan ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Yoshlar bandligini ta'minlashda ilg'or zamonaviy usullardan foydalangan holda, yigit-qizlarimizdan 5,2 mingga "Future Skills Uzbekistan" va "Bir million dasturchi" loyihalari doirasida IT kasblariga, 6,4 mingga "Yoshlar 1+1" va "Tadbirkor ayol" loyihalari doirasida tadbirkorlik ko'nikmalari va xorijiy tillar bo'yicha o'qitildi.

Yoshlar va xotin-qizlarda zamonaviy kasb, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida "Ishga marhamat", band bo'lmagan aholiga xizmat ko'rsatuvchi "Monomarkaz", tuman va shahar kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahallalarda kasb-hunarga o'qitish maskanlari faoliyat yuritmoqda.

Yuqorida keltirilgan keng ko'lamli islohotlarni yanada mustahkamlash va bardavom bo'lishini ta'minlash zarurati "ijtimoiy davlat" tamoyilini Konstitutsiyada aks ettirishni taqozo etmoqda. Shu sababdan ham umumxalq muhokamasidagi aksariyat taklif va mulohazalar aynan ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan edi. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ham, asosan, "ijtimoiy davlat" tamoyilini mustahkamlashga qaratilgan. Shu o'rinda, Asosiy qonunimizda mamlakatimizning ijtimoiy davlat ekanini mustahkamlab qo'yish Yangi O'zbekistonning mazmun-mohiyatiga ham shaklan, ham ma'nan mos bo'ladi, desak adashmagan bo'lamiz.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar "Inson qadri uchun" tamoyili asosida aholi turmush darajasini yaxshilash, ularning farovon hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit hamda qulayliklarni yaratishga qaratilgan. "O'zbekiston – 2030" dasturida nazarda tutilgan har bir band va uni maqsadli amalga oshirish mexanizmlari ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bu xayrli ishlar "Avval — inson, keyin — jamiyat va davlat", degan ezgu g'oyani ro'yobga chiqarish, xalqimizni rozi qilish, erkin va farovon jamiyat barpo etishda muhim omil bo'ladi.

Адабиётлар / Литература / References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: "Yuridik adabiyotlar publish". 2023.
2. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent, 2021. "O'zbekiston". - B. 458.
3. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
4. "'Ozbekiston - 2030" taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
5. O'razov Bobir Baxtiyorovich: ANTIK FALSAFADA ERKINLIK G'OYASI TAKOMILI //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
6. URAZOV BOBIR BAXTIYOROVICH: SPECIFIC FEATURES OF THE SCIENTIFIC AND SPIRITUAL HERITAGE OF JALALIDDIN RUMI //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
7. Sobirovich, T. B. (2021). New Uzbekistan: Socio-Philosophical Analysis of the Strategy of Human Indicators. Available at SSRN 3949264.
8. Sobirovich, T. B. (2020). The criterion of human indicators in development and renewals in Uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 6(8), 509-511

10.00.00- ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Xolmatova Malika Ibadullayevna

“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrası assistenti
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

**AD’EKTIVLI IDIOMALAR: QO‘LLANILISHI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY AHAMIYATI
TAHLILI**

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishi ad’ektivik idiomlar dunyosini tadqiq qilib, ularning qo‘llanilishi, etimologiyasi va madaniy ahamiyatini o‘rganib chiqadi. Adjektivli idiomalar – aniq ma’nolarni berish yoki aniq vaziyatlarni tasvirlash uchun ilova qilinadigan lingvistik ifodadir. Turli ad’ektivli idiomlarni chuqur tahlil qilish orqali bu tadqiqot ulardan foydalanishni har tomonlama tushuntirishni ta’minlashga va mazkur ifodalarni davr o‘tishi bilan shakllantirgan madaniy ta’sirlarga oydinlik kiritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: sifat, sifat idiomalar, etimologiya, frazeologiya, komponent.

Kholmatova Malika Ibadullayevna

Assistant teacher of the department
“Uzbek and foreign languages”
Tashkent Institute of Textile and Light Industry

ADJECTIVAL IDIOMS: AN ANALYSIS OF USAGE, ORIGINS, AND CULTURAL SIGNIFICANCE

Abstract. This research paper explores the world of adjectival idioms, examining their usage, origins, and cultural significance. Adjectival idioms are linguistic expressions that use adjectives to convey specific meanings or describe particular situations. Through an in-depth analysis of various adjectival idioms, this research aims to provide a comprehensive understanding of their usage and shed light on the cultural influences that have shaped these expressions over time.

Key words: adjective, adjectival idioms, etymology, phraseology, component.

Холматова Малика Ибадуллаевна

Ассистент кафедры «Узбекский и иностранные
языки» Ташкентского института текстильной
и легкой промышленности

**АДЪЕКТИВНЫЕ ИДИОМЫ: АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ, ПРОИСХОЖДЕНИЯ И
КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ**

Аннотация. Этот исследовательский документ исследует мир адъективных идиом, исследуя их использование, происхождение и культурное значение. Адъективные идиомы - языковые выражения, использующие прилагательные для передачи конкретных значений или описания конкретных ситуаций. Посредством углубленного анализа различных адъективных идиом, это исследование направлено на обеспечение всестороннего понимания их использования и пролить свет на культурные влияния, которые сформировали эти выражения с течением времени.

Ключевые слова: прилагательное, прилагательные идиомы, этимология, фразеология, компонент.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N30>

Kirish. Ad’ektiv idiomalar – ma’lum bir ma’no yoki his-tuyg’ularni bildirish uchun sifat so’z turkumidan tarkib topgan frazemalar yoki iboralardir. Bu idiomatik iboralar odatda shaxsni, vaziyatni yoki hodisani tasvirlash uchun sifatning majoziy yoki metaforik ishlatilishini o’z ichiga oladi. Sifat komponentli idiomalar kundalik xayotimizda keng tarqalgan bo’lib, ko’pincha og’zaki yoki yozma nutqga rang, urg’u yoki o’ziga xos ohang qo’shish uchun ishlatiladi. Ad’ektiv iboralarga ingliz tilida “red flag,” “black sheep,” “green with envy,” “blue in the face,” and “white lie” kabi ayrim namunalar, o’zbek tilida “oq ko’ngil”, “terisi qalin”, “ichi qora”, “qichiq gap” va “ko’ngli bo’sh” kabilarni kiritishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Ad’ektiv iboralarning xususiyatlari. Šarac, Ljubešić va Pandžić (2018) “Sifat idiomalar: tillararo perspektiv” tadqiqotida sifat komponentli idiomalarning asosiy xususiyatlarini aniqlab berdilar. Ularning ta’kidlashicha, sifat idiomalar tildan foydalanishda muhim birlik bo’lib, til nazariyasi va tilni qayta ishlash uchun o’ziga xos qiyinchilik tug’diradi. Mualliflarning ta’kidlashicha, sifat iboralar o’ziga xos sintaktik tuzilishga va semantik talqinga ega bo’lib, ularni idiomatik iboralarning boshqa turlaridan ajratib turadi.

Tilda sifat frazeologizmlarning qo’llanilishi borasida Langlotz (2006) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bunday idiomalar nafaqat o’ziga xos ma’nolarni, balki sezilar-sezilmas bo’lgan juda kichik ijtimoiy yoki madaniy farqlarni ham yetkazish uchun ishlatiladi. Nemis adjektiv idiomalarini o’rganishda Langlotz bu iboralar ko’pincha ma’lum bir jamiyatda o’rnatilgan qadriyatlar va e’tiqodlarni aks ettiradi, ijtimoiy voqelikni belgilashga va tajribalar ulashuvchi sifatida xizmat qiladi. Bu lingvistik va sotsial-madaniy tahlilda sifat iboralarning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Sifat iboralarning kognitiv jarayonlari haqida bir qancha tadqiqotlar o’rganilgan. Cacciari va Glucksberg (1991) italyan tilidagi sifat iboralarni tushunishni o’rganish uchun tajribalar o’tkazdilar va bunday iboralar aqliy leksikamizda yaxlit birliklar sifatida saqlanishini taklif qildilar. Xuddi shunday, Shibahara va Kuperberg (2016) ingliz tilidagi ad’ektiv iboralarni qayta ishlash asosidagi nerv mexanizmlarini o’rganib, kognitiv tilni shakllantirishda majoziy tilning rolini ta’kidlab o’tdilar.

Til o’rgatish va o’rganishga ta’siri. Sifat idiomalarning pedagogik ta’sirlari ham qiziq mavzulardan biridir. Shumin (1997) ingliz tilini ikkinchi til sifatida o’qitish bo’yicha o’z ishida kontekstda sifat frazeologizmlarni o’rgatish muhimligini ta’kidlaydi, chunki o’quvchilarning madaniy va pragmatik konnotatsiyani tushunishning afzalliklarini borligini aytib o’tadi. Bu shuni ko’rsatadiki, sifat birikmalarini til o’quv dasturlariga kiritish nafaqat o’quvchilarning leksik malakasini oshirishi, balki ularning madaniyatlararo kompetentsiyasini ham chuqurlashtirishi mumkin.

Muhokama va natijalar. Ad’ektiv iboralarni tahlil qilishda bir nechta metodlardan foydalandik, jumladan:

1. Ad’ektiv iboralarni aniqlash: Bu usulning o’ziga xosligi shundaki, birinchi navbatda gap yoki matndagi sifat so’z turkumini aniqlashdan iborat. Bunda otlarni tasvirlash, aniqlash uchun aniqlovchi vazifasini bajaradigan so’zlar yoki iboralarni aniqlashimiz zarur bo’ladi. Masalan, “a piece of cake” or “at the drop of a hat.”

2. Kontekst tahlili: Sifat frazeologizmlar qo'llanilgan o'ziga xos kontekstni tushunish juda muhim. Bu jumlaning umumiy ma'nosini, tilning ohangini, madaniy yoki ijtimoiy oqibatlarini, o'quvchi yoki tinglovchiga mo'ljallangan ta'sirini ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

3. Semantik tahlil: Sifat so'z turkumining o'ziga xos ma'nosi va ma'lum bir sifat qanday leksik ma'no anglatishini o'rganishdir. Bu so'zma-so'z va majoziy talqinlarni va idioma bilan bog'liq har qanday konnotatsiyalarni tushunishni o'z ichiga oladi.

4. Qiyosiy tahlil: Ushbu metod yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi sifat komponentli iboralarni bir-biriga qiyoslab, ularning nozik tomonlarini va farqlarini tushunishga harakat qildik. Bu tahlil ikki tildagi iboralarning nutqda ishlatishning o'ziga xos nozik tomonlarini va u eng mos keladigan kontekstni anglashga yordam beradi.

5. Tarixiy-madaniy tahlil: Bu metod sifat so'z birikmasining kelib chiqishi va uning madaniy yoki tarixiy ahamiyatini o'rganishga katta yordam berdi. Bu kabi tahlillar idiomaning vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanganligini va uning o'ziga xos madaniy ma'nolarini tushunish uning ishlatilishi va talqini bo'yicha qimmatli tushunchalarni berishi mumkin.

6. Lingvistik tahlil: Gap yoki bo'lak ichidagi sifatning grammatik tuzilishi va sintaksisini tekshirishda bu tahlildan samarali foydalandik. Bunga idiomaning kengroq lingvistik kontekstda qanday ishlashini va u iboraning umumiy ma'nosiga ta'sirini tushunish kiradi.

Bu usullarni qo'llash orqali sifat va sifatdosh so'zlar va ularning til va muloqotdagi ahamiyati haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lish mumkin.

1. "Barking up the wrong tree ." - adashib yoki bilmasdan noto'g'ri harakat qilishni anglatadi. Example: *"He accused me of stealing his phone, but he was barking up the wrong tree because I had no reason to take it."* - Misol: *"U meni telefonini o'g'irlaganlikda aybladi, lekin u noto'g'ri yo'nalishda edi, chunki menda uni olishga hech qanday sabab yo'q edi"*. [2; b-85]

2. "Cold shoulder " - qasddan kimnidir e'tiborsiz qoldirmoq yoki so'kmoq ma'nosi. Example: *"She gave me the cold shoulder after our argument and didn't talk to me for days."* - *"U bizning bahsimizdan keyin menga sovuq munosabatda bo'ldi va men bilan bir necha kun gaplashmadi."* [2; b-348.]

3. "Head over heels " - kimnidir qattiq sevish yoki sevib qolish. Example: *"He's head over heels for her; he can't stop talking about her."* - *"U uni qattiq sevib qolgandi; u haqida gapirishdan o'zini to'xtata olmas edi."* [2; b-193]

4. "In the same boat" - bir xil vaziyat yoki qiyin ahvolda bo'lishni anglatadi . Example: *"We're all struggling financially right now, so we're all in the same boat."* - *"Biz hozir hammamiz moliyaviy jihatdan qiynalmoqdamiz, shuning uchun hammamiz bir qayiqdamiz."*

5. "On cloud nine" - nihoyatda xursand bo'lish yoki shodlanish . Example: *"After receiving the promotion, she was on cloud nine for days."* - *"Lavozimi oshgach, u bir necha kun o'zini ettinchi osmonda uchib yurgandek his qildi"*

6. "A dime a dozen" - umumiy yoki oson topiladigan narsani bildiradi, son-sanoqsiz, juda ko'p uchraydigan ma'noda ishlatiladi . Example: *"Fast food restaurants are a dime a dozen in this city."* - *"Bu shaharda fast food o'nlab topiladi."*

7. "Green with envy" - haddan tashqari hasadgo'y, rashkchi bo'lmoq. Example: *"When she saw her friend's new car, she was green with envy."* - *"U do'stining yangi mashinasini ko'rganida, hasaddan ko'karib ketdi."*

Biz bilamizki, idiomalar so'zma-so'z talqin qilishdan tashqari ko'chma ma'noga ega bo'ladi, shuning uchun ularni o'rganish va kundalik tilda ishlatish qiziqarli bo'lishi bilan

birgalikda nutqimiz jozibadorligini oshirishi mumkin! O'zbek tilshunos olimlaridan biri Sh. Rahmatullayev so'z birikmasi yirik til birligi bo'lib, kamida ikkita mustaqil so'zdan (leksemalardan) iborat ekanligini ta'kidlagan. [8; 4-b.] Sifat komponentli frazeologik birliklar – sifat va otni o'z ichiga olgan so'z birikmalari bo'lib, ular muayyan ma'noga ega bo'lgan yagona birlik vazifasini bajaradi. Bu birliklar otning xususiyatini yoki sifatini yanada ixcham va idiomatik tarzda tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu birliklar o'z shakli va ma'nosida qat'iy bo'lib, kundalik tilda keng qo'llaniladi.

1. “In the red” - qarzga botish yoki moliyaviy yo'qotishlarni anglatadi.

2. “Blue in the face” – biror narsa qilishga qayta-qayta urinishdan charchash yoki umidsizlikka tushish ma'nosini beradi.

3. “Born and bred” – Bu ibora ma'lum bir joyda tug'ilib o'smoq ma'nosida qo'llaniladi.

4. “Full of beans” – ko'p kuch yoki ishtiyoqqa ega bo'lishni anglatadi.

5. “High and dry” - yordam va qo'llab-quvvatlovsiz qiyin yoki tashlab ketilgan vaziyatda bo'lishni anglatadi.

A. Rafiyev o'zining “Iboralar-nutqimiz ko'rki” asarida “O'zbek tilidagi ad'ektiv iboralarning asosiy qismida tayanch komponent asliy sifatga to'g'ri keluvchi so'zlardan iborat bo'lib, ularda sifat-belgi ma'nosini aniq ifodalaydi. Bunday iboralarning umimiy semantic belgisi sifat tushunchasi hisoblanadi.” Deya ta'kidlaydi.[1;b-16] Ad'ektiv idiomalar aniq ma'noni bildirish uchun sifatlardan foydalanadigan idiomatik iboralardir. Ushbu idiomalar ko'pincha qat'iy tuzilishga ega bo'lib ularni faqat alohida so'zlarga qarab tushunish mumkin emas. Ular, odatda, frazeologizmlarning idiomatik tabiatiga hissa qo'shadigan leksik va grammatik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.[12; b-1393] Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda bu kabi frazeologizmlarga xos bo'lgan ba'zi asosiy lingvo-stilistik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

1. Leksik xususiyatlar:

- Turg'un o'xshatishlar: Sifat idiomalar o'zgarimas qat'iy tuzilmaga ega bo'lib, bunda so'zlar ma'lum bir tartibda qo'llanilib, ularni sintaktik va leksik tuzilmasini qayta o'zgartirib bo'lmaydi. Misol uchun, “a piece of cake” – amalga oshishi oson bo'lgan ishga nisbatan ishlatiladi. O'zbek tilshunosligida turg'un o'xshatishlar yoki V. M. Ogolsev ta'biri bilan aytganda, komparativ iboralarning o'ziga xosliklari, ularning frazeologik iboralarga, umuman olganda til va nutqqa munosabati aniq belgilangan emas. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, aslida ular ham ayni frazeologik iboralar kabi til birliklari bo'lib, nutqning ekspressivligi uchun xizmat qiladi. [11; b-166]

- Tasviriy ifoda: Sifat iboralar ko'pincha o'z ma'nosini bildirish uchun ko'chma ma'nodan foydalanadi. Misol uchun, “in hot water” iborasining lug'aviy tarjimasida “issiq suvda” degan ma'noni bersa, majoziy ma'nosi issiq suvda emas, balki *muammoga duchor bo'lishni* anglatadi.

- So'zlashuv lug'ati: Ko'pincha norasmiy yoki so'zlashuv tilida sifat idiomalar keng qo'llaniladi. Bu ularga o'ziga xoslik beradi va kundalik tilda ularning kelib chiqishini aks ettiradi.

2. Grammatik xususiyatlar:

- Idiomatik qo'llanish: Sifat idiomalar aniq bir fikr yoki tushunchani ifodalash uchun sifatlardan foydalanadi, ko'pincha sifatning standart so'zma-so'z ishlatilishidan chetga chiqadi. Misol uchun, “old as the hills”, “tepaliklar kabi eski” bu ibora narsaning juda eski ekanligini ifodalash uchun qo'llaniladi.

- Moslashuvchanlikning yo'qligi: Sifat iboralar odatda gapdagi grammatik kelishuvlarga mos kelish uchun shakl yoki zamoni o'zgartirmaydi. Ular jumlaning predmeti yoki zamonidan qat'i nazar, qat'iy tuzilmani saqlaydi. Misol uchun, "cool as a cucumber" iborasidagi sifat sub'ektning rod, shaxs, sonidan qat'i nazar, bir xil bo'lib qoladi. Ya'ni sifatlar birlik-ko'plikka, shaxsga qarab moslashmaydi.

- Frazemalar: Sifat komponentli iboralar ko'pincha muayyan sifatlarni ma'lum ot yoki fe'l bilan qo'shib yasaladi. Bu birikmalar vaqt o'tishi bilan o'zgarib bo'lib qoladi va muqobil sifatlardan foydalanish idiomani ma'nosini o'zgartirishi yoki uni noidiomatik holga keltirishi mumkin. Masalan, "**bitter end**" "achchiq yakun" yakuniy natijani tasvirlaydi, lekin "**sour end**" esa bir xil ma'noni bildirmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adjektiv so'zlar o'zida turg'un ibora, ko'chma so'z, so'zlashuv lug'ati kabi o'ziga xos leksik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan. Ular, shuningdek, idiomatik foydalanish, moslashuvchanlik yo'qligi va birikmaga tayanish kabi grammatik xususiyatlarni ko'rsatadi. Bu xususiyatlar tilda qo'llanishda ad'ektiv iboralarning o'ziga xos va idiomatik tabiatiga yordam beradi.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Rafiyev A. "Iboralar-nutqimiz ko'rki." – Toshkent 1985
2. Collins Cobuild Dictionary of idioms. 1997
3. Kunin A.V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazika. – M. 1986.
4. Kunin A.V. Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar. – M. 1967.
5. Lopez, S., & Smith, J. (2022). Adjectival Idioms: A Comprehensive Study of Their Usage and Meaning. *Journal of Linguistic Studies*, 25(2), 123-140.
6. Mamatov A. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. – T. 2001. № 3.
7. Oxford Dictionary of Idioms. 2004
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent. 1978
9. Richard A. Spears. Ph.D NTC'S American idioms dictionary.
10. Collins Cobuild Dictionary of idioms. 1997
11. Холматова. М. Сравнительный анализ сопоставительных фразеологизмов с прилагательным компонентом английского и узбекского языков. *ScienceProblems* 2023, 3, 161-166.
12. M.I.Xolmatova (2021). Ingliz va o'zbek tillaridagi sifat komponentli iboralarning lingvokulturologik qiyosiy tahlili. *Academic research in educational sciences*, 2 (12), 1391-1397

Olga Filippova

PhD student, Uzbekistan State World Languages University

E-mail: kapitra@mail.ru

CLUSTER IMPLEMENTATION OF FUNCTIONS OF REDUNDANCY MEANS

Abstract. Various functions of redundancy means in a fiction text in most cases act in close cooperation, being implemented in a cluster. The interaction of functions is a characteristic feature of this linguistic phenomenon, which is the subject of our study. The aim of this article is to identify the functional and conceptual significance of redundancy means in a fiction text, which involves solving the following tasks: 1) to determine the main methodological prerequisites of the study, based on the critical analysis of linguistic literature on the problems of cognitive linguistics, cognitive stylistics and fiction text; 2) to identify the main means of the cognitive category of redundancy in a fiction text; 3) to prove the conceptual and functional significance of the category of redundancy in a fiction text; 4) to substantiate the cluster implementation of redundancy functions in a fiction text.

Key words: redundancy, fiction text, repetition, periphrasis, convergence of stylistic devices, stylistic functions, pragmatic functions, cognitive functions, socio-cultural functions, polyfunctionality.

Olga Filippova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Mustaqil izlanuvchi

ORTIQCHA VOSITALAR FUNKTSIYALARINI KLASTERLI AMALGA OSHIRISH

Annotatsiya. Badiiy matndagi ortiqcha vositalarning turli funktsiyalari ko'p hollarda klasterda amalga oshiriladigan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Funktsiyalarning o'zaro ta'siri bizning tadqiqotimiz mavzusi bo'lgan ushbu lingvistik hodisaga xos xususiyatdir. Ushbu maqolaning maqsadi badiiy matndagi ortiqcha vositalarning funktsional va kontseptual ahamiyatini aniqlashdan iborat bo'lib, u quyidagi vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi: 1) lingvistik adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish asosida tadqiqotning asosiy uslubiy shartlarini aniqlash. kognitiv lingvistika, kognitiv stilistika va badiiy matn muammolari; 2) badiiy matndagi ortiqchalik kognitiv kategoriyasining asosiy vositalarini aniqlash; 3) badiiy matndagi ortiqchalik kategoriyasining tushuncha va funktsional ahamiyatini isbotlash; 4) badiiy matnda ortiqcha funktsiyalarning klaster amalga oshirilishini asoslash.

Tayanch so'zlar: ortiqchalik, badiiy matn, takrorlash, perifraza, stilistik vositalarning konvergentsiyasi, stilistik funktsiyalar, pragmatik funktsiyalar, kognitiv funktsiyalar, ijtimoiy-madaniy funktsiyalar, polifunksionallik.

Ольга Филиппова

Узбекский государственный университет мировых языков

Независимый искатель

КЛАСТЕРНАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ ФУНКЦИЙ СРЕДСТВ ИЗБЫТОЧНОСТИ

Аннотация. Различные функции средств избыточности в художественном тексте в большинстве случаев действуют в тесном взаимодействии, реализуясь в кластере. Взаимодействие функций является характерной чертой этого языкового явления, являющегося предметом нашего исследования. Целью данной статьи является выявление функциональной и концептуальной значимости средств избыточности в художественном тексте, что предполагает решение следующих задач: 1) определить основные методологические предпосылки исследования на основе критического анализа лингвистической литературы по проблеме проблемы когнитивной лингвистики, когнитивной стилистики и художественного текста; 2) выявить основные средства когнитивной категории избыточности в художественном тексте; 3) доказать концептуальную и функциональную значимость категории избыточности в художественном тексте; 4) обосновать кластерную реализацию функций избыточности в художественном тексте.

Ключевые слова: избыточность, художественный текст, повтор, перифраз, конвергенция стилистических приемов, стилистические функции, прагматические функции, когнитивные функции, социокультурные функции, полифункциональность.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N31>

Introduction. The methods of analysis used in the paper are mainly traditional, namely: descriptive-analytical, functional, stylistic and contextual. The research is also based on a new method of research, which is conceptual.

The results of this work are as follows: 1) the study of the phenomenon of linguistic redundancy and types of redundancy; 2) the analysis of critical literature on the concept of redundancy, identifying the stages of development of its theory; 3) giving examples of intentional use of linguistic redundancy in a fiction text; 4) proving the conceptual and functional significance of redundancy means, such as repetition, periphrasis and convergence of stylistic devices in a fiction text; 5) emphasizing on special significance of the through and framework repetition in a fiction text.

The conclusion of this study is that redundancy is an integral property of a fiction text, representing a mandatory and necessary condition that ensures an adequate interpretation of information by the reader. The analysis of linguistic material allows us to identify the following main types of redundancy that are of particular interest for the purposes of our research: repetition (synonymous, through, framework), periphrasis and convergence of stylistic devices, the study of which in a fiction text allows us to conclude that they are polyfunctional and manifest themselves in a wide variety of stylistic, pragmatic, cognitive and socio-cultural functions occurring in close interaction.

Cognitive stylistics is characterized by an interdisciplinary character and involves a comprehensive consideration of language with the role of the human factor coming to the fore. Mainly, this linguistic science is engaged in the study of a fiction text, one of the main categories of which is the cognitive category of redundancy. As it is known, there are two opposite tendencies constantly operating in language: linguistic economy and redundant usage of linguistic means, and if the first is constantly considered as a linguistic regularity, the latter is often characterized negatively as a speech deficiency. It is worth noting that the evaluative component of the term "redundancy" implies "excess" and "uselessness". So, G. Paul characterizes linguistic redundancy as a negative phenomenon and notes that language means are often used unnecessarily wastefully, while language activity is characterized by a certain tendency to economy. The researcher claims that although the emergence of redundancy is inevitable, it cannot exist in language for a long time, since language tends to avoid it [1, Paul, 1960;301].

Nevertheless, in the mid-60s of the 20th century redundancy as a linguistic phenomenon was considered as an essential factor for ensuring adequate perception of information by the addressee. In this regard, it seems necessary to consider the notion of redundancy which is ambiguously interpreted in the linguistic literature at present. Thus, G. Gleason emphasizes that redundancy is not a disadvantage, but an important feature of language functioning [2, Gleason, 1959;368]. In turn, A. Martinet claims that this linguistic phenomenon may seem at first a useless waste of articulatory energy, but most often it is a reduction of mental energy [3, Martinet, 1963;537]. According to B. Pottier, the positive role of redundancy consists in the

fact that this linguistic phenomenon contributes to the transmission of information despite interference that prevents communication, such as noise, logical errors, distortion of meaning [4,Pottier, 1973;239]. I.R. Galperin supports this view noting that linguistic redundancy is an integral property of any speech act. Moreover, it promotes expressiveness and eliminates "interference" in the process of perception helping to clarify the message [5,Galperin, 1974;52]. Yu.M. Lotman also regards redundancy as a positive property of language since it ensures the stability of language in terms of errors and subjective perception [6,Lotman, 1994;34]. Thus, it can be argued that phenomenon of redundancy may be effective, especially in a fiction text, since it contributes to its expressiveness and emotiveness.

As our analysis proves there are many means to create redundancy, such as repetition, periphrasis and convergence of stylistic devices. Most researchers consider these means of redundancy as stylistic phenomena that perform various stylistic functions.

Let us briefly discuss all these means.

Аннотация. В данной статье представлена информация об истории и описании оппозиции. Также в статье в качестве методологической основы исследования оппозиций принята теория Н.С.Трубецкого. На основе этой теории классифицированы фактические материалы, собранные с английского и узбекского языков (время, расстояние, взаимосвязь, гипотеза и место) и проанализировали. В результате анализа выявлены различия между английским и узбекским языками.

Ключевые слова: Бинарная оппозиция, фонетическая оппозиция, грамматическая оппозиция, семантическая оппозиция, оппозиция «ближнее и далекое».

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N33>

Kirish. Insoniyatning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan anglash va kuzatish qobiliyati, atrofimizdagi voqelikni umumiy va xususiy guruhlarga ajratishga xizmat qiladi va bu

o'z navbatida qarama qarshi tomonlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Qarama qarshi tomonlarning mavjudligi inson ongida oppozitsiyasini shakllantiradi. Fransuz antropologi K.Levi-Strausning fikricha[2; B.56], oppozitsiyalar insoning ongli va ongsiz holatida ham shakllanadi va qarama qarshiliklar asosida inson psixikasi rivojlanadi.

Oppozitsiya siyosatda ham keng qo'llaniladi. Siyosiy oppozitsiya siyosat olamidagi kuchlar muvozanatiga ta'sir qiladi, hokimyat uchun kurashda yoki uni qayta taqsimlashda qatnashadi. Umuman olganda, oppozitsiya insoniyat rivojining poydevori hamda inson ma'naviyati va ilmiy rivojining muhim bir omili hisoblanadi.

Narsa va hodisalar o'rtasidagi oppozitsiya tilshunoslikda fonetik, morfologik, grammatik, sintagmatik til birliklarida ham namoyon bo'ladi va ko'pincha bu atama "binary (lot binarious-ikki,qo'shaloq) oppozitsiya" nomi bilan ham ataladi, chunki bu qarama-qarshi xususiyatlar tabiiy ravishda juft bo'lib keladi. Oppozitsiya tushunchasi turli lisoniy birliklar o'rtasidagi qarama-qarshilik jumladan fonetik va semantik til birliklarini o'rtasidagi qarama qarshilik munosabatlarini o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tilshunoslik, Semiotika va Psixologiya fanlarining shakllanish va rivojlanish asosini oppozitsiya nazariyasi tashkil qiladi. Ushbu nazariyaning falsafiy tamoyilini,qadimgi dunyoning dualizm konseptsiyasida ham ko'rishimiz mumkin, masalan Aristotelning mantiqiy dualizmida yoki Xitoy xalqining *ying/yang* mifologik tamoyili. Ferdinand de Sossyur tilshunoslikda farqlash tushunchasini oppozitsiya nuqtai nazaridan so'zlarni qanday qilib mazmunli yoki aniqroq ma'noga ega ishoralarni ajratib olish uchun foydali tushuncha sifatida ilgari surdi. Keyinchalik, olimning tahlili, fonetikada tovushlarning differensial birligi nazariyasini yaratilishiga olib keldi.1920-yillarida Praga tilshunoslik maktabining vakillari strukturaviy tilshunoslik va semiotikani o'rganishda, oppozitsiya nazariyasini asos qilib oldi.

1990-yillarning boshlarida Andryu va Batistelle tomonidan oppozitsiya nazariyasini yoqlab chiqqan g'oyalari, olimlar tomonidan yana qayta qiziqishni orttirdi.

Oppozitsiya nazariyasining birinchi chuqur tadqiqi Charl Ogdennning "Oppozitsiya: Lingvistik va psixologik tadqiq" asarida bir qancha asosiy g'oyalarni ishlab chiqqan [3; B.131]. Ogdennning ta'kidlashicha, *o'ng/chap, ha/yo'q kabi* oppozitsiyalar tabiatan binary holatda keladi va bu hamma madaniyatlarda uchraydi.

Muhokama. O'zbek tilining izohli lug'atida oppozitsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan, oppozitsiya-bir xil sathdagi til birliklarini ya'ni fonema, morfema,so'z ma'nolari, ular orasidagi farqni bilish uchun o'zaro qarama qarshi qo'yishdir. Bunda belgi, boshqa belgilar bilan aloqasi tufayli mazmunli bo'ladi. Masalan, "do'st" so'zi o'z ma'nosini , "dushman" so'ziga munosabati orqali anglanadi.

Tilshunoslikda oppozitsiyani quyidagi turlari mavjud: fonologik oppozitsiya, grammatik oppozitsiya, semantik oppozitsiya va matnli oppozitsiya. Fonologik oppozitsiyani birinchi bo'lib rus tilshunosi N.S.Trubetskoy o'zining "Fonologiya asoslari" asarida yoritib bergan [3; B.27]. Fonologik jihatdan fonemalar bir biriga qarama-qarshi qo'yiladi, masalan *p-t, s-sh, a-o va u-i* kabi. Har bir fonema fonologik oppozitsiyaning a'zosi hisoblanadi va tildgi barcha fonemalar o'zaro oppozitsiyani tashkil qiladi. Tildagi fonologik oppozitsiyalar ikki a'zodan iborat bo'lsa, binar oppozitsiyalar deyiladi: *b-p, t-ch*, agar uch a'zodan iborat bo'lsa tenar oppozitsiya: *p-t-k, i-e-a*, uch va undan ko'p a'zodan iborat bo'lsa ko'p a'zoli oppozitsiyalar: *b-d-g-h* deyiladi. Trubetskoy fonologik oppozitsiyalarni ikki turga ajratdi, dimensiyali va ko'p dimensiyali.

Dimensiyali holatda, oppozitsion fonemalarning ikkalasi ham umumiy xususiyatlarga ega bo'ladi, masalan ingliz tilidagi [t] va [d] portlovchi tish undoshlari bir biriga qarama qarshi undoshlar hisoblanadi lekin, ikkalasi bir xil umumiy xususiyatlarga ega. Ko'p dimensiyali holatda esa oppozitsiyaning ikkala a'zosi turli xil guruhlarga mansub bo'ladi, [b] va [d] qarama qarshi tovushlari turli xil guruhlarga mansub.

Fransuz tilshunosi Jan Kantino morfema va leksemalarni tahlil qilishda fonologik qarama-qarshiliklar nazariyasini qo'llagan holda, ma'noli til birliklari o'rtasidagi munosabatni ularning o'xshashligi va farqi hamda birliklarning vazifalaridan farqli ravishda aniqlash mumkin degan xulosaga keldi [2; B.89].

Semantik oppozitsiyada ma'noli leksemalarning turli tasniflari ularning semantik va tuzilish xususiyatlariga asoslanadi. Bir vaqtning o'zida bir-biriga bog'langan, lekin bir-biriga mos kelmaydigan yoki qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni o'z ichiga olgan munosabatlarning bir necha turlari mavjud. Bularga to'ldiruvchilar, gradativ antonimlar, teskari so'zlar kiradi.


Oppozitsiya munosabati so'zlar orasidagi shunday munosabatdirki, birining inkori ikkinchisining ijobiyligini bildiradi, masalan: o'lik/tirik, yaxshi/yomon. Bir-birini istisno qiladigan ikkita atama, ammo ular o'rtasida tegishli semantik sohani qamrab olmaydi. Masalan, jonli/jonsiz narsalar dunyodagi aniq narsalarning imkoniyatlari doirasini ikkiga bo'ladi.

Ikki so'z, agar ularning kontseptual mazmuni ular birgalikda ishtirok etadigan doirada ma'lum bir kontseptual qarama-qarshilikda joylashtirilgan bo'lsa, oppozitsiya deb hisoblanadi. Kontseptual oppozitsiyaning ikki turi mavjud: yo'nalishli qarama-qarshilik va qutbli qarama-qarshilik. Yo'nalish qarama-qarshiligini oppozitsion birliklar (masalan, shimol - janub, tepa - pastki va boshqalar), vaqt birliklari (masalan, ertaga - kecha), munosabat birliklari (masalan, er - xotin). Qutbli qarama-qarshilik ijobiy va salbiy o'rtasidagi qarama-qarshilikni anglatadi, bu baholash subtipi (masalan, yaxshi - yomon) va tasdiqlash turi (masalan, rost - noto'g'ri) tomonidan ko'rsatiladi. Qutbli qarama-qarshiliklar ikki tomonlama bo'lishi mumkin, chunki ikkala elementning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi, masalan; erkak - ayol.

Fonologik oppozitsiyalarning Trubetskiy tomonidan o'rganilganligi, grammatik oppozitsiyalarni o'rganilishi uchun asos bo'ldi. R.Yakobsonning fikricha "grammatik oppozitsiyalar o'rtasidagi munosabat belgili yoki belgisiz tamoyillarga asoslanadi. Oppozitsiyaning bir a'zosi qandaydir bir ijobiy xususiyatni ifodalaydi, qarama qarshilikning ikkinchi a'zosi esa belgisiz kechadi ya'ni u xususiyatni ifodasiz qoldiradi" [5; B.76].

Grammatik oppozitsiya tipologiyasini rus tilshunosi N.Boeva tomonidan batafsil muhokama qilingan. Grammatik oppozitsiyaga yordamchi so'zlar, turli gap bo'laklaridagi qarama qarshiliklar va boshqalar kiradi. Grammatik oppozitsiyalar ingliz tilida oppozitsiyalarning bo'lishsiz shakli *-dis, -un, -less, -non* affikslari yordamida yasaladi, o'zbek tilida esa *-siz, -be* so'z yasovchi qo'shimchalari yordamida yasaladi.

Natija. Biz bilamizki, o'zbek va ingliz tillarida barcha til birliklari chog'ishtirib o'rganib tahlil qilinadi. Ushbu tillarda ishlatiladigan "yaqin va uzoq" oppozitsiyasini misol tariqasida oladigan bo'lsak, ular ikki tilda ham o'xshash va farqli lisoniy xususiyatlarga ega. O'zbek tilidagi yaqin-uzoq oppozitsiyasi ingliz tilida bir qancha so'zlar bilan berilishi mumkin. Yaqin va uzoq oppozitsiyasi o'zbek tilida masofaga, vaqtga, qarindoshchilik munosabatiga nisbatan ekvivalentsiz ham qo'llana oladi, lekin ingliz tilida yaqin va uzoq oppozitsiyasini kontekstga qarab boshqa sinonimik qatorlardan foydalaniladi.



1. Geografik va fizik narsa joylarga nisbatan oraliq masofa ma'nosida. "Uzoq va yaqin" oppozitsiyasi obektlarga nisbatan gorizont va vertikal uzoqliklarda qo'llaniladi. Masalan, yaqin qishloq-near village, uzoq shahar-a distance city, yaqin yo'l-near road, uzoq yo'l-a long way va boshqalar. *Eng yaqin yo'l-shu, Qirg'oqqa yaqin yerda to'rt qoziq ustida kattakon bir qayiq turar edi, Siddiqjonning ko'zi daryoning u tomonida, uzoq ufqda miltillab turgan son-sanoqsiz chiroqlarga tushdi.*[1; P.78]

2. Oralig'i uncha katta bo'lmagan yoki davomli bo'lgan vaqtga nisbatan: *yaqin kelajak - in the near future, uzoq kelajak-distant future, uzoq o'tmish-distant past. Kechga yaqin mehmonlar kelishdi, Saharga yaqin yo'lga tushdilar, Ular uzoq gaplashishdi-They had a long conversation*

3. Qarindoshchilik munosabatlari jihatidan yaqin va uzoq so'zlari o'z ma'nosida emas balki ko'chma ma'noda qo'llaniladi: *Yaqin do'st - close friend, uzoq qarindosh- distant relative. U yerda Elmurodning ham bir emas, ko'pgina uzoq qarindosh urug'lari bor edi*[8. B.56].

4. O'xshash, bir xil ma'nosida: *Ma'nosi bir biriga yaqin so'zlar- The meaning of the words close to each other*

5. Taxminlik ma'nosida; *yaqin bir ikki kun ichida, yaqin soatlarda*

Xulosa qilib aytganda, oppozitsiya tushunchasi tilshunoslikda ko'plab til birliklari uchun umumiy bo'lgan hodisalardan biri sanaladi. Oppozitsiyaning qarama qarshi tomonlarining ma'nosi bir-biridan anglanadi, masalan yaxshi va yomon, do'st va dushman. Ingliz va o'zbek tillaridagi yaqin va uzoq oppozitsiyasini chog'ishtirib tahlil qilinganda o'xshash va farqli jihatlari o'rganilishi natijasida o'zbek tilida "yaqin" va "uzoq" oppozitsiyasining vaqt, masofa, qarindoshchilik, taxmin ma'nosida qo'llanilishi, ingliz tilida yaqin ma'nosini beruvchi sinonimik qatorlardan foydalanildi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. A.Qahhor. Qo`shchinor chiroqlari. – Toshkent : G`afur G`ulom, 2001. – B .78.
2. C. L.Strauss. The Raw and the Cooked/Mithologiques. – Chicago: University of Chicago Press, 1983. – P.56
3. Ch.Ogden. The Meaning of a Meaning. – Romania. Contemporary Literature Press, 2013. – P.107.
4. J.Cantine. Opposition in Discourse/The Construction of Oppositional Meaning. – London : Continuum International Publishing. – 2010 . – P. 89.
5. N.S.Trubetskoy. Principles of phonology. – Berkeley : University of California Press. – 1969. – P. 27.
6. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б .131.
7. R.Jacobson. Selected writings/Phonological studies. (3rd ed.). – New York: Mouton de Gruyterc. – 2002 . – P.76.
8. P.Tursun. O`qituvchi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2003. – B.56.

Rustamova Dilrabo

Andijon davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
el-pochta: dilrabohonroostamova@gmail.com

ATAMALAR LUG'ATIDA LUG'AT MAQOLASINING TUZILISHI

Annotatsiya. Terminologik lug'atning makro va mikrostrukturasi o'ziga xos bo'lib, terminlarni tavsiflashning o'ziga xosligini ko'rish mumkin. Terminologik lug'atning boshqa lug'atlardan farqi uning kompozitsiyada ko'rinadi: lug'atning asosiy va yordamchi qismlari, lug'at maqolalarini tartiblashtirish qoidalari, maxsus leksikaga oid turli axborotlarni tizimli taqdim etish kabi jarayonlar muhim. Maqolada atamalar lug'atida lug'at maqolasining tuzilishi xususida fikr yuritamiz. Sinxron tadqiqot metodlari: empirik, qiyosiy va statistik tadqiqot metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, terminografiya, maxsus leksika, terminologik lug'at, model, lug'at maqolasi.

Rustamova Dilrabo

Andijan State University Associate Professor,
doctor of philosophy in philology

THE STRUCTURE OF THE VOCABULARY ARTICLE IN THE VOCABULARY

Abstract. The macro and microstructure of the terminological dictionary is unique, and the uniqueness of the description of terms can be seen. The difference of the terminological dictionary from other dictionaries can be seen in its composition: the main and auxiliary parts of the dictionary, Processes such as rules for arranging articles, systematic presentation of various information related to special lexicon are important. In the article, we will think about the structure of the dictionary article in the dictionary of terms.

Key words: term, terminology, terminography, special lexicon, terminological dictionary, model.

Дилрабо Рустамова

Доцент Андижанского государственного
университета, доктор философии по филологии

СТРУКТУРА СЛОВАРЯ СТАТЬЯ В СЛОВАРЕ

Аннотация. Макро и микроструктура терминологического словаря уникальна, и уникальность описания терминов видна. Отличие терминологического словаря от других словарей можно увидеть в его составе: основная и вспомогательная части словаря, процессы такие В качестве правил оформления статей важное значение имеют систематическое изложение различной информации, относящейся к специальной лексике. В статье мы подумаем о структуре словарной статьи в словаре терминов.

Ключевые слова: термин, терминология, терминография, специальная лексика, терминологический словарь, модель.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N34>

Kirish. Ma'lumki, terminlar lug'at va ensiklopediyalarda izohlanadi, lekin ularning izohlanishida katta farq bo'lib, bu lug'at va ensiklopediya xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Terminologik lug'atlarda lug'at maqolasining tuzilishi, terminlarni izohlash muammolari qator tadqiqotlar ob'ekti bo'lgan: ayrim ishlarda batafsil ma'lumot berilgan bo'lsa, ayrimlarida yo'l-yo'lakay fikr bildirilgan. Quyida shu ilmiy asarlar tajribasi asosida atamalar lug'atida lug'at maqolasining tuzilishi xususida fikr yuritimiz.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. S.V.Grinevning yondashuviga ko'ra, terminografiya maxsus leksikagaoid birliklar (terminologik, maxsus lug'atlar) lug'atini tuzish haqidagi fan bo'lib, uning predmeti umumiy tamoyillari va konkret modellarini ishlab chiqishdan iborat. Muhim vazifasi esa maxsus lug'atlar tipologiyasini tuzish, turli maxsus lug'atlar uchun lug'at so'zligini to'plash va shakllantirish, maxsus leksika birliklarining leksikografik tavsifini (izohlash, tarjima qilish) berish sifatida belgilanadi[2].

X.Narxodjaeva rus tilshunosi D.S.Lottega tayangan holda[3,8] deyarli barcha sohaviy terminologiyauchun umumiy bo'lgan, terminologiyada tartibsizliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi quyidagi 8 ta jiddiy kamchiliklarni ko'rsatib o'tadi:

1. Barcha terminologik tizimlarga xos jiddiy kamchilik bu – terminning polisemantikligidir.

2. Ikkinchi yirik nuqson terminning sinonimiyasidir. Termin-sinonim (dubletlar)lar deganda bir tushunchani ifodalash uchun ikki va undan ortiq terminning iste'molda bo'lishi tushuniladi.

3. Terminologiyadagi uchinchi kamchilik bu – ma'lum bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi terminning anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyatiga uyg'un bo'lmasligidir.

4. Terminning ko'p komponentlardan iborat bo'lishi va natijada uni qo'llashdagi noqulaylikdir. Bunda bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi termin ikki, uch va undan ortiq komponentlardan iborat bo'ladi.

5. Yana bir kamchilik bu – ko'p komponentli termin talaffuzining noqulayligidir. Bunda terminlar ikki sababga ko'ra vujudga keladi: 1) asosiy termini yaratishda uning derivatlilik imkoniyatlari etarlicha inobatgaolinmaydi; 2) xorijiy terminlarni o'zlashtirishda (kalkalashda) ularga jiddiy e'tibor bilan qarab, tanqidiy yondashilmaydi.

6. Aksariyat hollarda ba'zi tushunchalarni ifodalovchi terminlar iste'molda mavjud bo'lmaydi. Natijada bunday tushunchalar o'ta muhim vaahamiyatli bo'lishiga qaramasdan, keng tarqalish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

7. Termin hosil qilishda u anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan o'zaro tartibililikning etishmasligidir.

8. Terminologiyani keragidan ortiq miqdorda xorijiy terminlar bilan to'ldirib tashlashdir. Holbuki, bunda tilning ichki manbalar hisobiga terminlar yasalishi, tilning tashqi manba hisobiga boshqa tillardan termin o'zlashtirishni inkor etib, bu jarayondan chekinish nazarda tutilmaydi [4, 52].

Bu fikrni keltirishimizdan maqsad, lug'at maqolasini shakllantirishda, imkon boricha, termin ko'pma'noliligidan qochish, termini aniq izohlash va sinonim terminlarni to'g'ri qo'llashdir.

S.V.Grinevga ko'ra, terminografiyada lug'at parametri sifatida, birinchi navbatda, uning kompozitsion xarakteristikasi hamda lug'at maqolasi axborotlarini to'plashdir. Lug'at kompozitsiyasi deganda lug'atning asosiy va yordamchi qismlari, lug'at maqolalarini tartiblashtirish qoidalari, maxsus leksikaga oid turli axborotlarni tizimli taqdim etish kabi

jarayonlar tushuniladi. Lugʻat kompozitsiyasini tavsiflash va baholash uchun bu parametrlar ikki guruhga: makrokompozitsion (lugʻatning umumiy strukturasi) va mikrokompozitsion (lugʻat maqolasining tuzilishi) boʻlinadi [1, 12].

V.V.Dubichinskiy izohli terminologik lugʻatda terminning izoh qismini ikkiga boʻlishni tavsiya etadi. Birinchi qism – terminning tizimli izohi, bu qismda semantik interpretatsiyalangan, tezaurus tipidagi tavsif beriladi. Ikkinchi qism – tizimlilik talablaridan xoli, erkin shakldagi, qisqa va tushunarli izoh. Terminografiyada izoh/tavsifning turli shakllari qoʻllanadi. Izohlarning turlarini qisqacha tavsiflaymiz.

1. Umumiy taʼriflar (definitiya). Masalan:

Глубина сева – расстояние от поверхности почвы до высеванных семян.

2. Qismli taʼriflar (faqat bir butunning bir qismi yoki qismlar toʻplami boʻlgan atamalar uchun ishlatiladi). Masalan:

Ареал вредности – часть ареала вида вредного организма, где проявляется его вред.

3. Operatsion taʼriflar (kattalik, uzunlik oʻlchovlari toifasidagi atamalar xarakteristikasi; ular aniqlanayotgan miqdorni belgilash yoki topish usulini koʻrsatadi). Masalan:

Плотность почвы – отношение массы твёрдой фазы к её объёму.

4. Kombinatsiya qilingan (turli belgilar birlashtirilgan) taʼriflar (bir qancha alohida turlardan iborat boʻlib, kelib chiqishiga koʻra oʻzlashma boʻlgan eski atamalariga xos). Masalan:

Паразит (греч. Parasitos – нахлебник, para – рядом, sitio – питание). В Древней Греции во времена Перикла (V в. до н.э.) существовал закон, по которому видные государственные деятели в старческом возрасте переходили на иждивение государства. Для таких лиц строились специальные пансионы, которые назывались паразитариями, а самих жильцов называли паразитами. Кроме того, П. называли и всех тех, кто пользовался общественным столом, был завсегдаем пиров (шуты, музыканты и др.). В Римской империи слово П. получило иной смысл, который сохранился до сих пор, а именно: существующий за чужой счёт. В таком смысле слово П. было заимствовано биологией, ветеринарией и медициной – организм, живущий за счёт особей другого вида, питающийся соками, тканями и переваренной пищей своих хозяев и обитающий внутри или на поверхности тела временно или постоянно.

Bunday aralash izoh tarkibi soʻz etimologiyasi (1), soʻzning kelib chiqishi haqida tarixiy maʼlumot (2) hamda umumiy terminologik tavsif (3) dan iborat boʻladi. Aralash izohlarning turli koʻrinishlari boʻlishi, ularning tarkibi oʻziga xos boʻlishi mumkin.

5. Havola beruvchi izoh (alifbo tartibida joylashgan terminlarga havola qiladi). Masalan:

Испарение потенциальное – см. испаряемость.

6. Ensiklopedik ta'riflar. Masalan:

Прорастание семян – переход семян из состояния покоя к активной деятельности, когда зародыш трогается в рост, в результате чего образуется проросток, а затем молодое растение.

Bu ta'rif ensiklopedik lug'atdagi ta'rifni eslatadi, ammo lug'at ta'rifi bo'lganligi qisqaligi bilan farqlanadi.

S.D. Shelov ham o'ziga xos tasnifni tavsiya etadi [5, 29]:

1. Umumiy ta'riflarda umumiy tushunchalar(ya'ni ta'riflanayotgan tushuncha uchun umumiy bo'lgan ta'rif)ajratiladi, tegishli tushunchani ajratib olish, uni belgilangan atamaning ma'nosi deb e'lon qilishga imkon beradigan o'ziga xos atribut. Masalan:

Междометие. Неизменяемая часть речи, которая служит для выражения чувств и волевых импульсов, но не называет их.

2. Sanaluvchi, ro'yxatlashtiriluvchi (ekstensional yoki denotativ) ta'riflar.

Канцеляризм. Слова, устойчивые словосочетания, грамматические формы и конструкции, употребление которых в литературном языке закреплено за официально деловым стилем.

3.

Упорядочение. Избирательность, порядок, модификация и модуляция.

3. Kontekstual ta'rifda aniq kontekstlarning namunasi keltiriladi, har bir ma'no kontekst asosida ochib beriladi.

1. Стилистика. Стилистика исследует выбор тех языковых форм, которые описываются грамматикой и лексикографией.

2. Телепатия. Прямая передача мыслей от одного лица (отправителя, агента) к другому (получателю, реципиенту) без использования обычных чувственных каналов коммуникации, следовательно, путем экстрасенсорного восприятия.

4. Operatsion ta'riflar nafaqat og'zaki xatti-harakatni (masalan, aniqlovchi ifodaning lingvistik tahlilini), balki ba'zi nolisoniy amallarni bajarishni ham o'z ichiga oladi.

1-мисол: Альbedo. Отношение числа отраженных поверхностью (отражателей) нейтронов к числу падающих на нее нейтронов.

2-мисол: Кислота. Жидкость, при погружении в которую лакмусовая бумажка окрашивается в красный цвет.

Terminologik lug'atlardagi izoh/ta'riflarning ko'rinishini tavsiflar ekan, ularni quyidagicha xulosalaydi: "bu usullar terminlarni tushuntirish/izohlash bilan birga termini aniq ifodalash, ta'rifni to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi, normativ leksikografiya terminning polimorfizmi darajasining pasayishiga olib keladi" [5, 22].

V.V.Dubichinskiy lug'at birliklari (lug'at maqolasi yoki terminning tavsifi)ni unda joylashtirish masalasiga ham to'xtaladi. Uning fikricha, alifboli tartib qadimdan qo'llaniladi va lug'atda birliklarni joylashtirishning bu tartibi o'zini oqlaydi. Ko'pchilik terminologik lug'atlarda lug'at birliklari alifboli-uyali tamoyilida ham tuziladi: birdan ortiq so'zdan iborat bo'lgani yoki birikmali terminlar lug'at maqolasida faqat birinchi so'zning alifbo tartibida emas, balki terminologik yadro (birikmadagi asosiy so'z) tartibida joylashtirilib, alifboli-uyali tartibni hosil qiladi [6, 92]. V.V.Dubichinskiy mazkur tamoyilni leksikografiya (terminografiya) uchun til ta'limi va tilni o'rganishda maqbul usul deb hisoblaydi.

Tahlil va natijalar. Analogik terminologik lug'at maqolasiga misol sifatida ideografik usulda shakllantirilgan lug'at maqolasini tahlilga tortamiz. Bu lug'at maqolasi yadro (asosiy termin), terminologik yadro periferiyasini shakllantiruvchi so'z birikma termindan tashkil topadi. Analogik (ideografik) lug'at maqolasi tarkibida quyidagi elementlar bo'ladi:

- 1) sarlavhali terminning aksentologik va qisqacha grammatik tavsifi;
- 2) atamalarning xorijiy til(lar)dagi ekvivalenti;
- 3) asosiy (yadro) termin tavsifi;
- 4) atamaning tarjima ekvivalentlari bilan atama sifatida va umumiste'mol leksikadagi valentligini ko'rsatuvchi ta'rif (yoki valentlikni ko'rsatuvchi misollar);
- 5) terminologik birlikning derivatsion imkoniyatini xorijiy tildagi ekvivalenti bilan tavsiflash;
- 6) illyustrativ misollar.

Shunda ham lug'at maqolasining bosh so'zi ot turkumiga mansub sodda termindan iborat bo'ladi. Yadroviy terminlarning yasalishi va so'z birikma hosil qilish imkoniyatining oshishi so'zlik miqdori va hajmini ham kengaytirishi mumkin. Terminlar birikmasi quyidagicha shakllantiriladi:

Birinchi holat: ot turkumiga mansub terminning xususiyatlarini ifodalovchi sifat yoki ravishlar bilan aniqlovchi – aniqlanmish birikmasini hosil qilish. Masalan:

MURAKKAB KESIM. Birdan ortiq mustaqil so'z bilan ifodalangan kesim [7, 67].

A.Hojiev lug'atida KESIM va MURAKKAB KESIM bosh so'zlari alifbo tartibida turli sahifalarda berilgan [7, 56]. Chunki bu lug'at alifbo tartibidagi lug'at. Ammo analogik (ideografik) alifboli lug'atda mana shu ot turkumiga mansub sodda termin va aniqlovchili birikma tarzidagi termin bir lug'at maqolasida beriladi.

Ikkinchi holat: ot turkumiga mansub terminning turlovchi shakllar bilan kelish holati (agar mavjud bo'lsa). Bunday holat flektiv tillarda alohida e'tibor talab etadi. Ammo o'zbek

tilida egalik va kelishik shakllari termin ma'nosini o'zgartirmaydi. Shu sababli o'zbek tilidagi lug'atda bu holat lug'at maqolasi tarkibiga kiritilmaydi.

Uchinchi holat: mazkur lug'at maqolasidagi bosh so'z boshqa birikmali termin tarkibida tobe so'z bo'lib kelish holati (mavjud bo'lsa) aks ettiriladi. Masalan: MARKETING termini bosh so'z bo'lgan lug'at maqolasida mazkur so'z birikmali termin tarkibida tobe so'z bo'lib kelish holatlari quyidagicha bo'lishi mumkin: *концепция маркетинга, управление маркетингом, управляющий по маркетингу*.

To'rtinchi holat: bosh so'z bilan birikishi mumkin bo'lgan fe'llar bilan hosil bo'ladigan birikmalar ko'rsatiladi. Masalan, DISKUSSIYA lug'at maqolasida *"начинать/ начать дискуссию", "приступить/ приступить к дискуссии"* kabi birikmalar bilan to'ldiriladi.

Bu holatlarda birikuvchanlik imkoniyati va misollar [#] belgisi bilan boshlanadi. Terminlar yasalish imkoniyati bo'lsa, yasama terminlar ham shu uyadan joy oladi va yasalish uyasi [*] belgisi bilan ajratiladi.

Terminologik lug'at maqolasida illyustrativ misollar kichik matnlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq [6, 88]. Quyida shunday lug'at maqolasi namunasini keltiramiz:

Qator mutaxassislarining ta'kidlashicha, ideografik tuzilishli terminologik lug'atga mazkur fanning rivojlanish tamoyillarini belgilagan mantiqiy tafakkur, terminlarning ilmiy tasnifi asos bo'ladi. Bunday lug'at maqolasi ma'lum bir terminning biror bir terminologik tizimda tezda topish va o'rganishni osonlashtiradi [6,154].

V.P.Danilenko standartlashtirilayotgan terminning lingvistik xarakteristikasini baholashda quyidagi savollar o'z javobini topishi lozimligini ta'kidlaydi:

I. Umumlisoniy talablar:

1. Standartlashtirilayotgan terminologiyaning grammatik vositalar bilan ifodalanishi.

2. Sheva, so'zlashuv uslubi elementlari va o'zlashma so'z (xorijiy ekvivalenti)ga munosabati.

3. Terminlarning leksik-semantik xususiyatlari (sinonimiya, polisemiya).

II. Standartlashtirilayotgan terminologiyaga qo'yilgan me'yoriy talablar:

4. Terminning adabiy til me'yorlari va terminologiyaning umumiy modellariga mos kelishi.

5. Terminologik tizimdagi termin yasalishi modellariga mos kelishi (so'z yasalish strukturasi va modellariga bo'ysunishi).

6. Grammatik kategoriyalarning terminologiyada amal qilish o'ziga xosligi.

7. Terminologik konstruksiyalar, ularning aniqlovchilariga qo'yilgan uslubiy talablarga mos tushishi [8,160].

V.P.Danilenko talablarni ikki guruhga ajratishini terminlarning umumlisoniy xususiyatlar hamda soha terminologik tizimiga xos aniq normativ belgilar asosida baholanish zarurati bilan asoslaydi.

G.G.Babalova umumiy terminologik lug'atlarda ilmiy terminlar izohlari berilshini ta'kidlar ekan, turli olimlar orasida terminlar bilan birga boshqa maxsus leksika birliklarining mavjud bo'lishi haqidagi munozarani eslaydi: "Olimlar soha terminologik lug'atida termindan tashqari nomen [9,6], professionalizm [10,17], professional argo[11,12], professional jargon[12,21], eskitermin[13], kvazitermin[14,40], terminoid (terminlashayotgan tushunchalar) [15,127], prototerminlar (maxsus tasavvurlarni atovchi birlik)[16,439] lar ham tavsiflanadi"[17,92].

G.O.Vinokurning fikricha, “istalgan soʻz termin sifatida ishlatilishi mumkin, ular maxsus soʻzlar emas, balki soʻzning alohida vazifa bajarishidir”[18]. Keyingi yillarda R.A.Budagov, G.O.Vinokur, B.I.Golovin, N.P.Kuzmin kabi olimlar ham bu fikrni qoʻllab-quvvatlashmoqda. E.N.Taranovanning fikricha, bu olimlar terminning koʻp maʼnolilik, sinonimlik, polifunksionallik, ekspressivlik xususiyatlari ham boʻlishi mumkinligi fikrini yoqlashadi [18,149]. Terminning bu xususiyatlarining tan olinishi terminografiyaga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmaydi. Terminning semantik tavsifida uning yuqorida sanalgan xususiyatlarini aks ettirish maqsadga muvofiq. Bu terminologik lugʻatning informativligini oshiradi.

S.V.Grinevning taʼkidlashicha, atamalar lugʻatini tuzishda birinchi bosqich soha terminologiyasini qayta roʻyxatdan oʻtkazish (inventarizatsiya qilish), har qanday fan sohasiga yoki uning boʻlimlaridan biriga tegishli atamalarni toʻplash va tavsiflashdir. Terminlarga oid hamma maʼlumotlar – ularning kelib chiqishi (etimologiyasi), qoʻllanish chastotasi, tavsif va qoʻllanish xususiyatlari qayd etiladi [16,3]. Olimning bu fikri hali ham dolzarb. Yangi-yangi terminlar kirib kelaverar ekan, terminologiyani tizimlashtirish, toʻplash, tavsiflash doim dolzarbligini saqlab qolaveradi yillar oʻtishi bilan terminologik lugʻatlarni qayta nashr ettirish va soʻzlik roʻyxatini toʻldirishga ehtiyoj tugʻiladi.

Oldingi parametrغا yaqin boʻlgan boshqa bir jarayon unga kiritilgan maxsus leksikani tavsiflash va tartibga solish hisoblanadi. Ushbu jarayon asosida inventar va meʼyoriy lugʻatlar ajralib turadi, ular terminologik standartlarni qamrab olishi bilan farqlanadi [16,15].

Keyingi omil lugʻatning aspektli orientatsiyasi boʻlib, maxsus leksikani fonetik, derivatsion, semantik xususiyatlariga koʻra tavsiflashdir. Yana bir muhim tipologik belgi bu lugʻat hajmidir. Lugʻat hajmi soha terminologiyasini toʻliq, oʻrta va qisqa shaklda aks ettirishi mumkin. Shunga koʻra, tuzuvchi maqsadidan kelib chiqqan holda, lugʻat soʻzligi shakllantiriladi. Terminologik lugʻatlarning sanab oʻtilgan belgilari toʻplami terminologik lugʻat turini aniqlash, umumiy lugʻatlarning tasnifini amalga oshirish, aniq lugʻatlarni tavsiflash imkonini beradi.

Makrokompozitsion tuzilishga yuqorida qayd etilgan terminologik lugʻatni joylashtirish tartibi bilan birga lugʻatning asosiy qismlarini tanlash kiradi. Lugʻatning anʼanaviy funksional qismlariga “kirish”, “lugʻatdan foydalanish qoidalari”, “ishlatiladigan qisqartmalar roʻyxati”, “asosiy va yordamchi koʻrsatkichlar”, “ilovalar” kiradi. Qismlarning tarkibi lugʻatning turidan kelib chiqib farqlanadi: qisqacha lugʻatda “kirish” qismi “soʻzboshi” va “foydalanish qoidalari” vazifalarini birlashtiradi. Ushbu strukturaga lugʻatda polisemantik va omonim atamalarni taqdim etish usullari kiradi, chunki bu masalalarni hal qilish lugʻat maqolasini shakllantirish muammolari sirasiga kirmaydi.

Lugʻatda birikma tuzilishli terminlarni taqdim etishning birinchi muammosi sifatida ularning alohida lugʻat maqolasida yoki birikma termin uchun havola boʻlib xizmat qiladigan asosiy terminning asosiy maqolasida berilishi kerakmi degan savol mualliflarning hukmiga havola qilinadi: ayrim lugʻatlarda terminologik birikmalar alohida lugʻat maqolasi, ayrimida asosiy termin maqolasi ichidagi beriladi. Tarjima lugʻatlarida alohida, boshqa lugʻatlar: yasalish lugʻati va taʼlimiy lugʻatlarda uyalarda berish maqsadga muvofiq.

Omonim terminning joylashishi lugʻatning asosiy koʻrsatkichi tuzilishi bilan bogʻliq: ideografik lugʻatlar da omonimlar turli mavzuli boʻlimlarga boʻlinadi, alifbo lugʻatlarida esa koʻpincha bitta lugʻat maqolasida boʻladi.

S.V.Grinevning fikricha, mikrokompozitsiya (lugʻat maqolasi) elementlariga atama haqidagi turli xil maʼlumotlar kiradi. Masalan: gʻayritabiiy (imlo, talaffuz, grammatik

ma'lumotlar, atamaning variantlari), etimologik (tilda paydo bo'lish vaqti, rivojlanish bosqichlari, o'zlashtirish manbai), atributiv (muayyan mavzuga, leksik maqomga, stilistik mansublik, leksik sohagamansublik), izohli (lug'atda izohlash usullari), assotsiativ (leksik muhitga xos, ekvivalent atamalar; omonimlar, antonimlar, hosilaatamalar), pragmatik (xronologik belgilar va me'yoriy holatda qo'llanilishi), ta'riflangan terminning verbal va noverbal tasvir xususiyatlari, shuningdek, mikrostruktura parametrlari (maqola tuzilishi, lug'at maqolasi va uning joylashuvi, foydalanilgan shriftlar va boshqalar) [16,17].

Yuqorida terminologik lug'atlarni tuzishning nazariy tomonlarini ko'rib chiqdik. Quyida lingvistik terminologik lug'at misolida shunday lug'atlarning tuzilishini tahlil qilamiz. T.V.Jerebilo muallifligidagi "Lingvistik terminlar lug'ati" [20,486] ni namuna sifatida olamiz. Muallif lug'atdan foydalanish bo'yicha yo'qrinoma qismida mazkur lug'atdagi leksikografik ma'lumotlar tipini quyidagicha guruhlaydi:

1. Funksional uslublarning axborot modellari, nutqning kommunikativ xususiyati, uslubiy farqli matnlar, semantik modellar maydoni.

2. Uslubiy xususiyatlar.

3. Lisoniy vositalar.

4. Ekstralingvistik omillar maydoni.

5. Muloqot jarayoni haqida leksikografik axborot.

6. Matn strukturasi tavsiflashga bag'ishlangan maydon.

7. Struktur-kompozitsion qismlar.

8. Matn, tizim uslubini modellashtirish maydoni.

9. Funksional uslublar maydoni.

10. Uslubiy bo'yoqlari maydoni.

11. Umumiy axborot maydoni.

12. Grafik vositalar.

13. Taksonimiya va metataksonomiya maydoni.

14. Lug'at maqolasiga kirish.

15. Terminologik sinonim va dubletlar maydoni.

16. Analoglar maydoni.

17. Paronimlar maydoni.

18. Terminologik omonimlar maydoni.

Masalan:

Наречие1 (морф.) ...

Наречие2 (говор) ...

Союз1 – часть речи ...

Союз2 – (языковой) ...)

19. Ma'nosi izohlash maydoni.

20. Kontekstlar maydoni.

21. Sitata va misollar maydoni.

22. Urg'u va talaffuz maydoni.

23. Ta'qiqlar maydoni.

24. Etimologik axborot maydoni.

Bu qismlar lug'at maqolasining tuzilishi foydalanuvchiga 1) termindan foydalanish; 2) atamani kiritish: a) atama tanlash; b) atamani qidirish; v) atamaning yaratilishi;

d) atamani paradigmaga kiritish; e) atamalarni chegaralash; e) muddatga aniqlik kiritish; 3) atamaning ta'rifi (ta'rifi); 4) ixtiyoriy kommunikativ vaziyatlar: a) atama tarixi; b) atamaning etimologiyasi; v) termini baholash (aksiologik jihat) haqida ma'lumot beradi [20,486].

XULOSA.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, terminologik lug'atning makro va mikrostrukturasi o'ziga xos bo'lib, terminlarni tavsiflashning o'ziga xosligini ko'rish mumkin. Terminologik lug'atning boshqa lug'atlardan farqi uning kompozitsiyada ko'rinadi: lug'atning asosiy va yordamchi qismlari, lug'at maqolalarini tartiblashtirish qoidalari, maxsus leksikaga oid turli axborotlarni tizimli taqdim etish kabi jarayonlar muhim. Ensiklopedik lug'at kompozitsiyasi mega-, makro-, media- va mikro strukturalarda namoyon bo'ladi. Megastruktura kirish qismi, "lug'atdan foydalanish tartibi" bo'limi, lug'atning asosiy qismi, turli ilovalardan; makrotuzilma lug'at maqolasini shakllantirish va tartibga solish tamoyillarini tanlash; mikrostruktura so'zlikning tanlash va tashkil etishdan tashkil topadi. Terminografiyada termin tavsifining (1) umumiy ta'rif (definitsiya); (2) qismli ta'rif; (3) operatsion ta'rif; (4) kombinatsiya qilingan ta'rif; (5) havola beruvchi izoh; (6) ensiklopedik ta'rif kabi ko'rinishlari farqlanadi.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Таранова Е.Н. Проблематика современного теоретического терминоведения, достижения и недостатки терминологических исследований // Научные ведомости. Выпуск 12. Серия Гуманитарные науки. 2011. – № 24 (119). – С.142-149.
2. Гринев С.В. Основы лексикографического описания терминосистем: Автореф: диссер. докт. филол. наук. – Москва, 1990. – 40 с. – С.11.
3. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М., 1961. – С.7-8.
4. Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек терминологик лексикографияси тадқиқи муаммолари. – Тошкент, 2019. – 52 б.
5. Шелов С.Д. Термин. Терминологичность. Терминологические определения. – СПб., 2003. – С. 29-67.
6. Дубичинский В.В. Лексикография русского языка: учеб. пособие / Дубичинский В.В. – М.: Наука: Флинта, 2008. – 432 с. – С. 92.
7. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.,Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 167 б. – Б. 67.
8. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – Москва: Наука, 1977. – 243 с. – С. 160.
9. Қаранг: Винокур Г. О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // труды МиФли. – М., 1939. – т. 5. – С. 5-6.
10. Қаранг: Кузьмин Н.П. Нормативная и ненормативная специальная лексика // лингвистические проблемы научно-технической терминологии. – М., 1970. С. 17.
11. Қаранг: Скворцов Л. И. Профессиональные языки, жаргоны и культура речи // русская речь. – М., 1972. – Вып. 1. – 12 с.
12. Гладкая Н.М. лингвистическая природа и стилистические функции профессиональных жаргонизмов прессы (на материале прессы Гдр и

- коммунистической прессы ФРГ и Австрии): автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 1977. – С. 21
13. Қаранг: Лейчик В. М. Словник терминов терминоведения. рукопись. – М., 1985.
 14. Қаранг: Лейчик В. М. интеграция наук и унификация научно-технических терминов // Вестник АН СССР. – 1980. № 8. – С. 39-45.
 15. Қаранг: Хаютин А.Д. Термин, терминология, номенклатура: учеб. пособие. Самарканд, 1972. – С. 127.
 16. Қаранг: Гринёв С.В. Основы лексикографического описания терминосистем: дис. док. филол. наук. – М., 1990. – С. 439.
 17. Бабалова Г.Г. Термин как элемент терминосистемы // Актуальные проблемы филологии и педагогики. Вестник Омского юридического института, 2010. – № 2 (13). – С. 91-93.
 18. Винокур Г. О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии / Г.О.Винокур // История отечественного терминоведения: классики терминоведения. – М., 1994.
 19. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО «Пилигрим», 2010. – 486 с.

10.00.00– Филология фанлари

Кдырбаева Бахытгуль Кеунимжаевна
Нукусский государственный педагогический
институт имени Ажинияза, докторант
baxitgul.kdirbaeva@ndpi.uz

ПАРНЫЕ СЛОВА В КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКЕ: ОБЗОР ОСНОВНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. В этой статье анализируются парные слова с морфологической и фонологической точек зрения и рассматривается их взаимосвязь с редупликацией. Обсуждение этих тем поможет сформировать общее представление о парных словах в каракалпакском языке, выявить общие морфологические и семантические особенности. В завершение представлены окончательные выводы по исследованию.

Ключевые слова: парные слова, каракалпакский язык, семантика, структура, редупликация.

Кдырбаева Бахытгуль Кеунимжаевна
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика
институтини таянч докторанти

ҚОРАҚАЛПОҚ ТИЛИДАГИ ЖУФТ СЎЗЛАР: АСОСИЙ АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ

Аннотация. Ушбу мақолада жуфт сўзларни морфологик ва фонологик нуқтаи назардан таҳлил қилинади ва уларнинг редупликация билан боғлиқлигини ўрганилади. Ушбу мавзуларни муҳокама қилиш қорақалпоқ тилида жуфт сўзлар ҳақида умумий тасаввурни шакллантиришга, умумий морфологик ва семантик хусусиятларни аниқлашга ёрдам беради. Хулосада, тадқиқотнинг якуний хулосалари келтирилган.

Калит сўзлар: жуфт сўзлар, Қорақалпоқ тили, семантика, тузилиши, редупликация.

Kdirbaeva Bakhitgul Keunimjaevna
Nukus State Pedagogical Institute
named after Ajiniyaz, PhD Student

PAIRED WORDS IN THE KARAKALPAK LANGUAGE: AN OVERVIEW

Abstract. This article undertakes an analysis of paired words within the Karakalpak language, focusing on their morphological and phonological aspects and exploring their connection to reduplication. Examining these topics helps to gain a comprehensive understanding of the characteristics displayed by paired words in Karakalpak, in terms of morphological and semantic properties. Ultimately, the study will present a set of conclusive findings.

Key words: paired words, Karakalpak language, semantics, structure, reduplication.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N235>

Введение. Каракалпакский язык — это агглютинативный язык, относящийся к кыпчакско-ногайской подгруппе кыпчакской группы тюркской языковой семьи. Язык

распространен в основном на территории Каракалпакстана. Носители каракалпакского языка также проживают в Хорезмской и Ферганской областях Узбекистана, Дашогузской области Туркменистана, в некоторых регионах Казахстана, Астраханской области России и Афганистане.

В существующей каракалпакской лингвистической литературе парные слова частично упоминаются [11; 1; 6; 10], рассматриваются в отдельных пунктах или подпунктах глав, посвященных частям речи [3; 4], более подробно анализируются в работах А. Бекбергенова, А. Нажимова [5; 9]. Вместе с тем, связь парных слов с редупликацией осталась не до конца исследованной, и, в связи с появлением новых работ, возникает необходимость в обзоре по парным словам.

В данной статье парные слова рассматриваются с морфологической и фонетической точек зрения, и в то же время подчёркивается их связь с редупликацией. Следовательно, проведение такого литературного обзора поможет обобщить понятие парных слов в каракалпакском языке, собрать общие морфологические, семантические и фонологические закономерности о них. А также этот обзор помогает определить проблемы в словообразовательной системе парных слов и предлагает возможные решения этих проблем. В заключение представлены окончательные выводы об изучении парных слов в каракалпакском языке.

Обзор литературы и методология. Парные слова в каракалпакском языке многочисленны. Они представляют собой одну из крупных групп сложных слов.

Исследование парных слов в каракалпакской лингвистической литературе ведется с прошлого столетия, однако в школьных грамматиках [5, с. 37]. за долгие годы написано значительное количество работ по данным словам. Один из первоначальных анализов приведен в книге Н. А. Баскакова, в которой рассматриваются парные слова отдельно в некоторых частях речи [3, с. 185-245; 4, с. 809-813]. Далее следует кандидатская диссертация А. Нажимова [9]. Затем парные слова изучаются более подробно в работе А. Бекбергенова [5, с. 34-70]. Также парные слова упомянуты в других работах [11, с. 22-24; 1, с. 40-42; 6, с. 212-214; 10, с. 52].

Однако авторы не имеют в виду одни и те же виды слов при определении термина «парные слова», по ним даются разные виды слов. Согласно А. Кыдырбаеву, парные слова могут быть разделены на 4 семантические группы: равнозначные, малозначащие, антонимические парные слова, и парные слова, оба компонента которых не имеют значения. Схожее разделение наблюдается и у А. Есемуратова, который делит парные слова на 4 вида: повтор одного и того же слова, слова с двумя значимыми компонентами, слова с одним незначащим компонентом и слова с двумя незначащими компонентами [5, с. 37].

Вышеперечисленные классификации были в школьных учебниках, а в научном плане Н.А. Баскаков впервые предлагает классификацию сложных слов. Автор под парными словами подразумевает сложные слова [3, с. 185-245; 4, с. 809-813]. А. Нажимов относит собственно-парные и парно-повторные слова к одной и той же группе сложных слов [9, с. 28]. А. Бекбергенов рассматривает их как отдельные виды сложных слов [5, с. 40]. Впоследствии классификации А. Бекбергенова придерживаются и другие авторы [11, с. 22; 1, с. 39; 6, с. 212; 10, с. 52]. Подробное описание дано в следующем разделе.

В тюркологии, парные слова впервые были изучены Н. И. Ильминским [5, с. 34]. Вслед за Н. И. Ильминским, парные слова становятся темой исследования многих тюркологов. В частности, одним из первых Н. К. Дмитриев написал статью «Парные словосочетания в башкирском языке», в которой автор рассматривает парные слова. Также к числу тюркологов, изучавших парные слова, можно отнести, например, А. Н. Кононова, И. Убрятова, А. Ыскакова и других [5, с. 34-38].

В статье использованы методы лингвистического описания и структурно-семантического описания. В качестве примера были использованы слова из текстов художественных произведений Тулепбергена Каипбергенова.

Результаты и обсуждение. Н. А. Баскаков, анализируя сложные слова в рамках отдельных частей речи, разделяет их на несколько видов. Так, согласно автору, сложные существительные – это парные слова, которые состоят из двух элементов и могут быть классифицированы на следующие виды: «парно-повторные усилительные» слова, «парно-собирательные» слова, «парно-повторные с оттенком пренебрежения» и «парные слова с усеченным первым компонентом». Парно-повторные усилительные слова, образованные посредством повторения «одного и того же слова», «имеют семантику множественности». В некоторых случаях такие слова употребляются в виде атрибутивной конструкции, как, например, слово *adim-adim* (1a) или в виде дополнения с семантикой множественности (1б). Парно-собирательные слова образованы путем сочетания «двух смежных по значению слов» и обладают «семантику отвлеченных собирательных понятий». Слово *saqal-shash* не только означает ‘бороду-волосы’ но и ‘усы’ (2). Парно-повторные с оттенком пренебрежения предполагает объединение «двух одинаковых слов с фонетическим видоизменением основы второго слова посредством изменения первого согласного, если слово начинается с согласного (3), или вставкой согласного, если слово начинается с гласного (4)». Н. А. Баскаков поясняет, что «парные слова с усеченным первым компонентом (5) имеют семантику усиления, интенсивности свойств данного предмета» [3, с.185-186; 4, с. 809].

(1) а. *Maman adim-adim júris penen ... kete berdi*

‘Маман шел (букв. шаг за шагом) медленной походкой’ [Т. К. Каипбергенов. *Бахытсызлар* ‘Неприкаянные’; пер. авторы статьи].

б. *Aqırı, ... qanşa atız-atız eginin egistim ...*

‘В конце концов, ... сколько полей (букв. поле-поле) я помогал ему засеять ...’ [Т. К. Каипбергенов. *Бахытсызлар* ‘Неприкаянные’; пер. авторы статьи].

(2) *Saqal-shashınıń terine shań qatıp batpaqqa awnaǵanday edi*

‘От пота на его бороде, усах, волосах (букв. борода-волосы) застыла пыль, как будто он валялся в болоте’ [Т. К. Каипбергенов. *Бахытсызлар* ‘Неприкаянные’; пер. авторы статьи].

(3) *Mal-salıńdı jaylawǵa aydap shıq!*

‘Выгоняй свой скот на летнее пастбище!’

(4) *Qısqa qalıń etik-setigiń barmedi?*

‘У тебя была теплая обувь на зиму?’

(5) *Az ǵana tim-tırışlıqtan soń jáne sipiriw baslandı*

‘После недолгого затишья подметание началось снова’. [Т. К. Каипбергенов. *Бахытсызлар* ‘Неприкаянные’; пер. авторы статьи].

А. Нажимов утверждает, что под термином «парное слово» содержатся «собственно-парные» и «парно-повторные» слова. Автор также называет парным словом лексической единицей, состоящая из «двух морфологически однотипных слов с соотнесенными значениями и звуковым подобием». Существует два способа образования парных слов: сочетание двух знаменательных однотипных слов (6) и сочетание знаменательного слова и эхо-слова (7) [9, с. 28].

(6) *aman-esen* ‘благополучно’

jetim-jesir ‘сироты; осиротелый’

qawin-asqabaq ‘бахчевые культуры, букв. дыня-тыква’

kempir-garrı ‘старики и старухи; старые люди; супруги; родители’

piyada-jayaw ‘пешком’

kúni-túni ‘сутки, букв. день и ночь’

(7) *ájik-gújik* ‘быть в согласии, дружелюбии’

algaw-dalgaw ‘в брызги; недовольный; обеспокоенный; рваный’

kiyim-siyim ‘одежда’

uyra-juypa образоподражательное слово, выражающее лохматость, растрепанность.

bilq-silq ‘образоподражательное слово, выражающее осовелое состояние человека’

jalt-jult ‘подражательное слово, выражающее быстрое движение или моментальное действие’

А. Бекбергенов выделяет «парно-повторные слова» как отдельный вид сложных слов, то есть не считает их частью «парных слов» [5, с. 40]. Вместе с тем, автор определяет «парные слова» как грамматически самостоятельные двухкомпонентные слова или корни, образованные путем сочетания и имеющие семантическую связь между собой. Компоненты имеют одно общее усилительное (8) или обобщающее (9) значение, но могут отличаться друг от друга фонетически [5, с. 34].

(8) *Millettiń ar-namısı usını talap etedi* ‘Честь нации требует этого’ [Т. К. Каипбергенов. Маман бий эпсанасы. ‘Сказание о Маманбие’; пер. авторы статьи].

(9) *Amanlıqtıń bet-awzınan qan josti* ‘По лицу Аманлык заструилась кровь’ [Т. К. Каипбергенов. Маман бий эпсанасы. ‘Сказание о Маманбие’; пер. авторы статьи].

Последующие авторы придерживаются классификации А. Бекбергенова [11, с. 22; 1, с. 39; 6, с. 212; 10, с. 52]. К примеру, А. Даулетов и другие авторы рассматривают как отдельные друг от друга виды сложных слов [1, с. 39; 11, с. 22]. К. А. Бекбергенов объясняет, что процесс образования парных слов включает в себе слияние «двух близких по значению слов, синонимов или антонимов» [6, с. 212].

Следовательно, термин «парные слова» поясняется по-разному в лингвистической литературе. Такая полемика и в русистике, то есть нет единомыслия о представлении «парные слова». Сам термин «ничего не говорит о морфосинтаксическом статусе этих конструкций, т.е. о том, являются ли такие сочетания сложными словами

или словосочетаниями». К примеру, А.А. Шахматов относит парные слова к словосочетаниям, однако Н. М. Шанский и позднее О. Б. Ткаченко считают, что парных слов нужно причислят к композитам [8, с. 22].

В зарубежной лингвистике парных слов называют по-другому. В частности, Йохансон пишет, что «два параллельных существительных со сходными значениями образуют синонимическое соединение, гендиадис, или гипонимическое соединение для выражения более высокого понятия» [2, с. 44]. В германистике появились такие термины как «слова-близнецы», то есть «близнечные формулы (Zwillingsformeln)», которые обозначают парные сочинительные слова, близких по значению и по звучанию. Гендиадис – это термин греческой риторики, а в англоамериканской лингвистике есть также термин «бином», обозначающее «сочинительные сочетания существительных» [8, с. 22-23]. Хотя Айнура Абиш использует термин «бином» для следующих слов на казахском: *idis-tabaq* ‘посуда’, *kiyim-kenshek* ‘одежда’, *tuwısqan-tuwǵan* ‘родственников’, *dos-yaran* ‘друзья’ [2, с. 340]. На примерах были только каракалпакские слова и вместо казахского слова *ыдыс-аяқ* ‘чайная и столовая посуда’ было написано *idis-tabaq* ‘посуда’.

Согласно Ф. Р. Минлосу, в тюркологии прошлого века мнения о парных словах были разделены на два лагеря. А. Н. Кононов и Н. А. Баскаков считали их как сложные слова с сочинительным типом, а Н. К. Дмитриев относил их к словосочетаниям. Таким образом, в различных исследованиях «выделяются разные формальные свойства таких сочетаний» хотя зарубежные «термины описывают то же самое явление» [8, с. 22].

Парные слова образуются путём сочетания синонимов, «квазисинонимов» [8, с. 18], или антонимов. Ф. Р. Минлос пишет, что сочетание квазисинонимов называется «суммирующей» так как «в качестве представителей некоторого класса объектов для обозначения всего класса выбирается пара самых ярких, прототипических» [8, с. 19]. Например, *kórpe-tósek* ‘постель, букв. одеяло-матрац’, *saqal-murt* ‘растительность на лице; букв. борода-усы’, *qız-kelinshek* ‘девчата и молодухи’ толкуют обобщение, с помощью более общего понятия. А Нажимов называет таких слов коррелятивными словами, принадлежащие к одному семантическому ряду. Помимо этого, парные слова образуются из синонимов. Стилистическая близость и фонетическая созвучность играют некую роль в сочетании синонимов: *qatar-qurbı* ‘друзья-ровесники, друзья-сверстники’, *sin-simbat* ‘осанка, внешний облик’, *túri-túsi* ‘облик, лицо’; *zorlıq-zombılıq* ‘насилие; захватнические действия’ [9, с. 10-11].

Кроме того, парные слова могут образовываться из антонимов. Не всякие антонимы могут образовать парные слова, выбираются самые ведущие из автономического ряда: *úlken-kishi* ‘о людях всего (от молодого до самого старшего) возраста’; *ashshı-dushshı* ‘и хорошие и плохие трудности/состояния’; *barı-jóǵı* ‘наличие, всё имеющееся’; *jaqsı-jaman* ‘и хорошие и плохие’ [9, с. 12]. Такие слова считаются словами «с несовместимыми значениями». Название их как антонимическими считается устаревшим, и от такой их атрибуции следует отказаться [8, с. 19].

Важно также заметить, что в литературных источниках парные сочетания часто классифицируются не только исходя из непосредственно семантических связей между компонентами, но также на основе социолингвистических особенностей «одного из слов (диалектное, устаревшее, заимствованное слово» [8, с. 20]. К примеру, *esap-shot*, *zañ-*

zakon не только переводят друг друга, но и объясняют свое значение и дополняют друг друга [5, с. 47].

Парные слова связывают с редупликацией в том, что сочетание синонимов можно назвать синонимическим повтором. О. Ю. Крючкова утверждает, что «во всех языках редупликация может быть связана не только с повторением звуковой оболочки редупликантов, но и с повторением его семантики». Автор называет явление, которое влечет повторение семантики, «смысловым повтором» или «синонимической редупликацией»: узб. *йиғим-терим* 'сбор урожая, букв. сбор-уборка', рус. *дочурочка* (-урк- + -к-) [7, с. 70]. Однако, по словам автора флективные языки «предпочитают удвоение синонимических единиц, прежде всего нанизывание синонимических аффиксов». В свою очередь, изолирующие и агглютинативные языки склонны к редупликации с «повторением звуковой оболочки языкового знака» [7, с. 74].

Заключение. В заключение, изучение парных слов в каракалпакском языке дало определённую картину со сложными морфологическими и семантическими закономерностями. Существующая литература, хотя и обширна, демонстрирует различные точки зрения на классификацию и природу парных слов. Разнообразные интерпретации, предложенные такими учеными, как Н. А. Баскаков, А. Нажимов и А. Бекбергенов, способствовали более глубокому пониманию этих лингвистических конструкций. Лингвистический обзор подчеркнул необходимость более всестороннего исследования связи между парными словами и редупликацией, проливающего свет на ранее недостаточно изученный аспект языка. Тем не менее, исследование парных слов в связи с редупликацией дало представление о синонимическом повторении. Морфосинтаксический статус парных слов до сих пор остается предметом спора среди исследователей. В целом, это всестороннее исследование закладывает определенную основу для более глубокого понимания парных слов в контексте каракалпакского языка

Adabiyotlar/Literatura/ References:

1. Da'wletov, A., Da'wletov, M., Qudaybergenov, M. (2010). Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tili. Morfemika. Morfonologiya. So'z jasaliw. Morfologiya. No'kis, Bilim.
2. Johanson, L. (2021). The structure of Turkic. In L. Johanson & É. Á. Csató (Eds.), *The Turkic languages* (pp. 26–59). <https://doi.org/10.4324/9781003243809-3>.
3. Баскаков, Н. А. (1952). Каракалпакский язык: Фонетика и морфология. Части речи и словообразование. (II том). М.
4. Баскаков, Н. А. (1958). Каракалпакско-русский словарь. Под ред. проф. Н.А. Баскакова. Москва: Государственное издательство иностранных и национальных словарей.
5. Бекбергенов, А. (1979). Қарақалпақ тилинде сөзлердиң жасалыуы. Нөкис, Қарақалпақстан.
6. Бекбергенов, К. А. (2016). Сложные слова в каракалпакском языке. Евразийский Научный Журнал, 8, 212–214. <https://cyberleninka.ru/article/n/slozhnye-slova-v-karakalpakskom-yazyke>

7. Крючкова, О. Ю. (2000). Редупликация в аспекте языковой типологии. Вопросы Языкознания, (4), 68–84.
8. Минлос, Ф. Р. (2004). Редупликация и парные слова в восточнославянских языках. [Дис. ... канд. филол. наук.]. Институт славяноведения РАН.
9. Нажимов, А. (1971). Способы образования парных и парно-повторных слов в каракалпакском языке: автореф. дис. . . . канд. филол. наук. Нукус.
10. Нажимов, П. А. (2020). Система словообразования в каракалпакском языке: автореф. дис.... док. филол. наук. Нукус, Каракалпакский государственный университет.
11. Ҳазирги қарақалпақ әдебий тилинің грамматикасы. Морфология ҳәм сөз жасалыў. (1994). Нөкис.

Fayziyeva Aziza Anvarovna

Buxoro davlat universiteti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sadirova Sitora Sobirovna

BUXDU qiyosiy tilshunoslik yo'nalishi magistranti

TARJIMA MUAMMOLARINI YECHISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolaning o'rganish maqsadi tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, ushbu muammolarni hal qilishda samarali yordam beradigan strategiyalarni tanishtirish, tarjima muammolarini batafsil yoritish va ularga kerakli yechim taklif qilish. Kerakli natijalarni qo'lga kiritishda analitik tavsiflovchi yondashuvlardan foydalaniladi. So'rovnoma natijalariga ko'ra tarjimonlar quyidagi muammolarga duch kelishadi: tillar o'rtasidagi Grammatik kategoriyalar, lingvistik, leksik birliklardagi farqlar.

Kalit so'zlar: idioma, tarjima muammolari, leksik birliklar, transliteratsiya. Naturalizatsiya, kontekst, konvensiya.

Fayziyeva Aziza Anvarovna

Bukhara State University
Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

Sadirova Sitora Sobirovna

Master's student in comparative
linguistics at Bukhara State University

STRATEGIES FOR SOLVING TRANSLATION PROBLEMS

Abstract. The purpose of this article is to identify problems that arise during the translation process, present strategies that effectively help solve these problems, highlight translation problems in detail and suggest the necessary ways to solve them. Analytical descriptive approaches are used to obtain the desired results. According to the survey results, translators face the following problems: differences in grammatical categories, linguistic and lexical units between languages.

Key words: idiom, translation problems, lexical units, transliteration. Naturalization, context, convention.

Файзиева Азиза Анваровна

Бухарский государственный университет
Доктор философии в филологии (PhD)

Садирова Ситора Собировна

Магистрант направления
сравнительного языкознания БУХДУ

СТРАТЕГИИ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ ПЕРЕВОДА

Аннотация. Цель данной статьи – выявить проблемы, возникающие в процессе перевода, представить стратегии, которые эффективно помогают в решении этих проблем, подробно осветить проблемы перевода и предложить необходимые пути их решения. Для получения желаемых результатов

используются аналитические описательные подходы. По результатам опроса, переводчики сталкиваются со следующими проблемами: различия в грамматических категориях, языковых и лексических единицах между языками.

Ключевые слова: идиома, проблемы перевода, лексические единицы, транслитерация. Натурализация, контекст, условность.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N36>

Kirish. Tarjima odamlarga kundalik hayot uchun zarur bo'lgan g'oyalar va tushunchalar bilan almashinishga yordam beradi. Binobarin, tarjima matni asl nusxa ga aynan yaqin bir nusxasi bo'lib, uni hech qanday o'zgartirishlarsiz bir xil ta'sirga ega bo'ladigan darajada san'at durdonalarini tarjima qiladigan malakali tarjimonlarning o'rni beqiyos. Tarjimonning asosiy vazifalaridan biri o'z ona tiliga tarjima qilmoqchi bo'lgan har qanday fanning ilmiy yangiliklaridagi so'zlarni Mohirona tanlashidir. Tarjima qilish davomida yuzaga keladigan muammolar, shu jumladan kontekstni va ikki til grammatikasi qoidalarini, ularning yozilishdagi farqlarini va idiomalarini hisobga olish kerak. Tarjima faoliyatida Keng tarqalgan noto'g'ri tushuncha borki: har qanday ikki til o'rtasida oddiy so'zma-so'z ekvivalentlar mavjud va shuning uchun tarjima oddiy mexanik jarayondir. To'g'ridan-to'g'ri tarjimada kontekst, grammatika, konvensiyalar yoki idiomalar hisobga olinmaydi. Tarjima to'g'ri va mumkin bo'lgan yechimlarni talab qiladigan turli xil muammolar qatori sifatida qaraladi.

Adabiyotlar sharhi. Tarjima bu - matnni bir tildan ikkinchi tilga aylantirish. Demak, tarjima shunchaki o'zgaritirish bo'libgina qolmay, balki matnning ko'plab elementlarini transformatsiyalashdir. Tarjimashunoslik yoki tarjima nazariyasi turli xalqlarga turli xil tushunchalarni anglatadi. 1980-yildan boshlab tarjimashunoslikka e'tibor ancha o'zgardi. Tarjima, boshqa til aspektlari kabi, ma'no yaratishni o'z ichiga oladi. So'z shakllanishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Lingvistik iboralar - matnlardagi shakllar yoki so'zlar - hech qanday ma'noga ega emas. Ma'no yaratish muhim jarayon bo'lib, lisoniy iboralarni, o'ziga xos belgilarni anglash jarayoni bildiradi va bu jarayonda faol protsessorlar ishtirok etadi. Tarjimonlik dunyodagi eng qadimgi kasblardan biri bo'lib, minglab qo'lyozmalar Misr, Iroq, Suriya va Turkiyada qazilgan yoki topilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarjimashunoslik fanining tarixi uzun. 20-asrgacha, va unda keyingi yillarda tarjimashunoslikning diqqat markazi tom manoda tor lingvistik va asosan manbaga asoslangan yondashuvlardan uzoqlashdi. Shubhasiz, tarjimashunoslik tilshunoslikdan alohida mustaqil fanga aylandi. Hermannning fikriga asosan 60-yillarda tavsifiy va tizimli tarjima istiqbollari vujudga keldi, 70-yillarda rivojlandi, 80-yillarda kengaydi va nihoyat. 90-yillarda mustahkamlangan, kengaytirilgan va qayta ishlab chiqilgan. Tarjima ta'limiga oid beshta yondashuv mavjud: lingvistik yondashuv, matnli yondashuv, kommunikativ, sotsial-madaniy yondashuv, falsafiy-germenevtik yondashuv. Kommunikativ va ijtimoiy-madaniy yondashuv tavsifiy tarafdin o'rganiladi. Ushbu yondashuvning o'zi esa to'rtta kichik toifa yoki aspektlarga bo'lingan. Tarjimashunoslikka ko'plab urinishlar qilingan. Shu bois tarjimashunoslikka oid asarlarni umumiy tushunarli, o'rtacha ilmiy tilida yozishga takliflar bo'lgan. Tarjimaning turli nazariyalarini solishtirish yoki fanlararo analiz qilish imkoniyatlarini bo'lgan vaziyatni yaratishga urinishlar bo'ldi. Tarjimaning ayrim kontseptualizatsiyalarini fanlararo tarjimashunoslikda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Tarjimalar bir nechta usullardan foydalanish mumkin: induktiv rejimning kontseptsiyasi tarmoq yoki prototip atamalari bilan bog'liq intuitiv ravishda to'plangan tarixiy atamalarga asoslanishi mumkin; bunday

yondashuvlar oxir-oqibat na to'g'ri, na noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Tarjimashunoslikning alohida fan sifatida rivojlanishi 1980-yillarning muvaffaqiyatidir. Bu dunyoning ko'p nuqtalarida rivojlangan va 21-asr oxiriga qadar rivojlanishda davom etishi aniq. Tarjimashunoslik turli sohalar bilan jumladan, tilshunoslik bilan birlashadi. "Idioma" atamasi tarjimada muammo tug'dirishi mumkin, chunki ikkinchi til va tarjima qoidalari to'plami, hech bir idiomani ikkinchi tilga qoniqarli tarzda tarjima qilib bo'lmaydi. Lug'atlarga Qabul qilingan sdandartlar mavjud ammo lug'at va qoidalar to'plamiga nisbatan ba'zi iboralarning qoniqarli tarjimasi mos kelmasligi mumkin. Tarjima muammolari ikki til o'rtasida so'z darajasidagi ekvivalentlikning yo'qligidan ham kelib chiqishi mumkin. Tarjimadagi asosiy qiyinchiliklar grammatik emas, balki leksik bo'lishi mumkin, ya'ni. so'zlar, iboralar yoki idiomalar to'plami. Quyidagilar har qanday tarjimada tez-tez uchrab turadigan qiyinchiliklardir: Fonologik, morfologik, leksik, sintaktik va semantik xususiyatlari bilan mutlaqo bir xil bo'lgan ikkita til mavjud emas. Tarjima muammolarini to'rtta asosiy muammoga bo'lish mumkin: 1-Pragmatik tarjima muammolari: Bular o'ziga xos tarjima vaziyatidan kelib chiqadi, uning manba tili va ikkinchi tilni qabul qiluvchilari, manba tilda so'zlovchisi o'rtasidagi o'ziga xos kontrastli holatdir. 2. Madaniy tarjima muammolari: Bu madaniyatning o'ziga xos odatlari, qarashlari, me'yorlari va konventsionalari og'zaki va boshqa xatti-harakatlardagi farqlarning natijasidir.

3-Tarjimaning lingvistik muammolari: matnlarida ikki til o'rtasidagi strukturaviy farqlar. 4-Matnni tarjima qilish muammosi. Muammo shundaki, aksariyat hollarda bu tadqiqotlar ekvivalent tarjimalar o'xshash tushunchalarni qay darajada ifodalashini tekshirmaydi. Yapon madaniyatida (amae) kabi noyob hissiy atamalar mavjud bo'lib, ko'p tillarda ekvivalent tarjimalari mavjud emas. Stilistik muammo asl tarjima tilidagi so'zning yangi tilda mavjud bo'lmagan holati bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda g'aliz tarjima sifatida qabul qilish ehtimoli har doim mavjud. Siz so'z manosini boshqa yo'l bilan yetkazishga harakat qilishingiz mumkin - masalan, unga bilvosita ishora qilish yoki to'g'ridan-to'g'ri dialogni tarjima qilish orqali - lekin ba'zida siz o'sha parchani tashlab qo'yishingizga to'g'ri keladi. Fransuz tarjima nazariyotchisi Daniel Guadek (2002) uzoq vaqt oldin tarjima muammolari biror narsani tarjima qilishdan oldin iloji boricha ko'proq ma'lumot olish orqali hal qilinadi degan fikrni aytib o'tgan edi. Guadek bu mulohazasi bilan shunday demoqchi: asosiy etiborni tarjimadan oldingi turli bosqichlarga qaratish muhimroq, bu esa har xil tarjima variantlarini yuzaga kelishi muammolar xavfni boshqarishning samarali usuli. Aytish kerakki, tarjimaning murakkabligi va muammolari tarjimonlarga qiyinchilik tug'dirmoqda:

Tahlil va natijalar. Nutq muammolari: Tarjimaning pirovard maqsadi ma'noni saqlab qolishdir. Shu nuqtai nazardan, matn chegaralarida turli belgilarning semiotik o'zaro ta'siri mavjud bo'lib, bu gapning eng yaxshi o'zlashtirilishi uchun birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Bu o'zaro ta'sir, Hatim va Meyson (1997: 223) ga ko'ra, kontekst munosabatlarini tartibga soluvchi kontekstni tahlil qilishga yo'l ochadi. Idiomalar: yuqorida ta'kidlanganidek tarjimada anchagina muammo yaratadilar, chunki idioma qotgan birlik. Leksik element birikmasi: Boshqa so'zlar bilan muloqot qilishga intiladi. Transliteratsiya: birinchi til imlosi va talaffuzi ikkinchi tilga aylantiriladigan so'z darajasida naturalizatsiyani o'z ichiga oladi. Madaniyatga oid masalalar: Tarjima muammolari va qiyinchiliklarining aksariyati lingvistik farqlardan ko'ra, til juftliklari o'rtasidagi madaniy farqlar bilan bog'liq. Texnik muammolar: Tashqi omillar va ona tilisi bo'lmaganlarning tushunish qobiliyati. Tarjima generativ va

reduktiv ko'nikmalarni birlashtirgan muammoni hal qilish faoliyati sifatida tavsiflanishi mumkin. Ba'zi hollarda bir nechta variant tanlanishi va bir nechta turli tarjimalar taklif qilinishi mumkin. Biroq, maksimalning ifodalanishini qiyinlashtiradi va tarjima shaklini g'aliz qilishi mumkin. Asosiy variantlardan tashqari bitta variant mavjud, natija tarjima bo'lishi mumkin, ammo, aniq aytganda, tarjima muammosini hal qilmaydi. G'azala (1995) ko'ra, tarjima muammolari:

- Fonologik muammo: Bu muammolar tovushlar bilan bog'liq. - Leksik muammolar: Ushbu muammolar so'zlarning ma'nosini noto'g'ri tushunish tufayli yuzaga keladi. Tarjima jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan leksik muammolarni quyidagicha tasniflash mumkin: to'g'ridan-to'g'ri ma'no, sinonimlar, ko'p ma'noli so'zlar, iboralar, idiomalar, maqollar, metaforalar, texnik atamalar va o'ziga xos nomlar. - Stilistik muammolar: Bu masalalar uslub bilan bog'liq, chunki u ma'noning bir qismi bo'lib, so'zlar va grammatikaga ta'sir qiladi. Tarjimashunoslikning asosiy vazifalari muayyan muammolarni hal qilishga yordam berishdan iborat bo'lishi kerak. Bu fanlararo modelni taqdim etishi mumkin, unda muammoning ta'rifi oldin va ularni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan intizomni belgilaydi. Tarjima, texnologik inqilob bilan bog'liq boshqa har qanday mavzu kabi, muammo va yechimlarni keltirib chiqaradigan vositalar kabi muammolar ustida ishlashga harakat qiladi. Biroq, tarjimashunoslikdan tashqarida yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarni takidlab o'tish lozim. Tarjima harakati: Tarjimonlar muammolarni hal qilish uchun turli metodlardan foydalanadilar. Bu harakatlar turli shakllarda bo'ladi va turli yo'llar bilan olib borilishi mumkin. Tarjima jarayoni: Tarjima jarayonida tarjimon turli usullardan foydalanadi. Vinani va Darbelne nazariyalari: Ilk tarjima nazariyotchilari bu usullarni farqlash uchun hech qanday aniq atamalardan foydalanmagan. Biroq, kanadalik mualliflar Vinay va Darbelnet fransuz va ingliz gemostatik agentlarini taqqoslash asosida usullar ro'yxatini yaratdilar va nomladilar. Ro'yxat yetti usulni o'z ichiga oladi. Hozircha quyida ikkita usuldan iborat modelni taqdim etadi: to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita tarjima. Kolchak va Elkan (2002:4) alohida so'zlarni tuzatish masalalarini hal qilish uch bosqichni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Birinchidan, so'z qayerda noto'g'ri tarjima qilinganligini aniqlash lozim. Ikkinchi bosqich - so'zning to'g'ri tarjimasini aniqlash. Nihoyat, noto'g'ri tarjima va mos keladigan to'g'ri tarjimini hisobga olgan holda, uchinchi qadam - yangi jumlagi tuzatishlar kiritish. Amer (2003: 8) ko'plab tarjima usullari mavjudligini aytadi: 1-so'zma-so'z tarjima: bunda so'zlar alohida tarjima qilinadi. 2-so'zma-so'z tarjima: bunda grammatik konstruksiyalari ona tilidagi eng yaqin ekvivalentiga aylantiriladi. 3. Aniq tarjima: Asl nusxaning aniq kontekstual ma'nosini bildiradi. 4-Semantik tarjima: u matnining estetik qiymatini ko'proq hisobga oladi 5-Moslashish: Bu she'rlar, mavzular va personajlar uchun qo'llaniladigan eng erkin tarjima shaklidir.

O'zbek tilini biladigan universitet talabalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomanini tahlil qilish natijalariga ko'ra quyidagi natijaga erishish mumkin: 1-Tarjima muammosini hal qilish strategiyasi avtomatik tarjimasini ekvivalentlaridan qochishdir. 2-Talabalar ekvivalentlik topishni qiyin 3. Quyidagi tarjima jarayoni muammolarni uch bosqichda hal qilishga yordam beradi: tarjimadan oldingi, tarjimadan keyingi va tarjima. 4-Talabalar strategiyani hisobga olmaydilar va bu muammolarni keltirib chiqaradi. 5 Tarjima jarayoniga qarab, bu muammolarning nazariy va amaliy yechimlari mavjud.

Xulosa. Tarjima qilishdagi muammolar, jumladan, kontekst, ikki tilning grammatik qoidalari, imlo qoidalari va idiomalarni hisobga olish kerak. Keng tarqalgan noto'g'ri tushuncha

shundan iboratki, har qanday ikki til o'rtasida oddiy so'zma-so'z tarjima mavjud va tarjima oddiy mexanik jarayondir. To'g'ridan-to'g'ri tarjimada kontekst, grammatika, konvensiyalar yoki idiomalar hisobga olinmaydi. Talabalar lingvistik, grammatik, ekspressiv, lingvistik, idiomatik, ekvivalent, strukturaviy qiyinchiliklar kabi ko'plab muammolarga duch kelishadi. Ushbu muammolar ikki til va ular o'rtasidagi farqlar, tarjima strategiyasining yo'qligi tufayli tarjima muammolari tufayli yuzaga keladi.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Neubert A. Semiotic aspects of the training of interpreters and translators. Volume 8 | May, 2022 ISSN: 2795-7365
2. "Linguistische Arbeitsberichte", 2. Leipzig, 1970.- p.41-45.
3. Neubert A. Semiotic aspects of the training of interpreters and translators. "Linguistische Arbeitsberichte", 2. -Leipzig, 1970.- 238p.
4. Somerset, W. (2001). Maugham. Theater. Moscow: Manager, 61-72.
5. Nida E. Science of translation. "Language", vol.45, No3. 1969. – 180p.
6. The sheets are cracked loose. (1982). Moscow: Russian language, 366.
7. Nida E., C. Taber. The theory and practice of translation. -Leiden, 1969.- 205p.
8. Catford J. A linguistics theory of translation. Oxford, 1965.-556p.
9. Catford J. A linguistics theory of translation. Oxford, 1965.-556p.
10. Maugham, U. S. (2001). Theater. Moscow: Eskimo-press, 62.
11. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators, Mat. International scientific and creative forum "Youth in science and culture of the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture., 229-231.

Alaudinova Dilnoza Rustam qizi
Termiz davlat universiteti, Xorijiy
filologiya fakulteti v.b. dotsenti, (PhD)

FRAZEOLOGIK (TURG'UN) BIRIKMALAR VA ULARNI TARJIMA QILISH USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologik birliklar va ularning tarjima qilish usullari haqida so'z boradi. Frazeologik birliklar yoki frazema – bu ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarning umumiy nomi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, birlik, turgun birikma, bog'lama, mantiq.

Alaudinova Dilnoza Rustam kizi
Termiz State University, Faculty of
Foreign Philology, associate professor, (PhD)

PHRASEOLOGICAL (FIXED) COMPOUNDS AND METHODS OF THEIR TRANSLATION

Abstract. This article talks about phraseological compounds and their translation methods. Phraseological units or phrasemes are the general name of stable (stable) connections consisting of two or more words, which are semantically related to each other and equal to a sentence, which are used in a figurative sense as a whole and are not divided.

Key words: phraseology, unity, stable combination, connection, logic.

Алаудинова Дильноза Рустам кизи
Термезский государственный университет,
факультет зарубежной филологии и.о. доцент, (PhD)

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ (УСТОЯВШИЕСЯ) СОЕДИНЕНИЯ И СПОСОБЫ ИХ ПЕРЕВОДА

Аннотация. В данной статье говорится о фразеологических соединениях и способах их перевода. Фразеологические единицы или фраземы – это общее название устойчивых (устойчивых) связей, состоящих из двух и более слов, семантически связанных друг с другом и равных предложению, которые употребляются в переносном смысле целиком и не разделяются.

Ключевые слова: фразеология, единство, устойчивое сочетание, связь, логика.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N37>

Frazeologik birliklar shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma'no va muayyan leksik-grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qullanadi, ya'ni frazeologik birliklar tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkinemas: anqoning urug'i, arpasini xom urmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sig'may ketmoq, kapalagi uchmoq, kungli joyiga tushmoq, qo'li ochiq, qulog'i og'ir va boshqa

Frazeologik birliklar tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning

ma'nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi. Frazeologik birliklarning quyidagi turlari farqlanadi:

- **frazeologik chatishma (phraseological fusion)** – frazemaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nosiga bog'liq bo'lmaydi, frazemadan anglashilgan ko'chma ma'no uning tarkibidagi so'zlarning ma'nosi bilan izohlanmaydi: *to beat about the bush – gapni aylantirmoq; to'nini teskari kiymoq, oyog'ini qo'liga olib chopmoq, boshini olib chiqib ketmoq* va boshqalar;

- **frazeologik butunlik (birlashma) (phraseological unities)** - frazemaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanadi, shu ma'nolar asosida umumlashtiruvchi ko'chma ma'no ifoda qilinadi (ko'pincha bunday birlashmalarning o'z ma'nosida qo'llanadigan variantlari ham mavjud bo'ladi): *to stick (stand) to one's guns – oyoq tirab turib olmoq, to know the way the wind is blowing – gapning nimadiligini fahmlamoq; yog' tushsa yalagudek, yeng shimarmoq, xamirdan qil sug'urgandek, to'ydin oldin nog'ora chalmoq* va boshqalar;

- **frazeologik qo'shilma (phraseological combinations)** – bunda frazemalar tarkibidagi bir so'z ko'chma ma'noda qo'llanadi, boshqasi esa o'z lug'aviy ma'nosini saqlaydi: *small hours – tong sahar, black frost – qora sovuq; gapning tuzi, qo'li gul, ishtahasi ochildi* va boshqalar.

Turg'un (frazeologik) birikmalar bir muncha barqaror leksik birlik hosil qilgan bo'ladi. Ularning ma'nosi tarkibidagi komponentlarning alohida ma'nolaridan emas, balki yaxlit birikmaning ma'nosidan kelib chiqadi, masalan:

it's high time – vaqt allaqchon bo'lgan (“yuqori vaqt” emas)

take your time – shoshilmang (“vaqtingni ol” emas)

help yourself – olib o'tiring (“o'zingga yordam qil” emas)

Komponentlarining ma'no munosabati darajasi nuqtai nazaridan frazeologik birliklar ikkiga ya'ni *ko'chma ma'noli* va *lug'aviy ma'noli* birikmalarga ajraladi.

Lug'aviy ma'noli frazeologizmlar frazeologik birliklar deb ham ataladi. Ularni tashkil etuvchi elementlar o'z lug'aviy ma'nolarini birikmada ham saqlab qolgan bo'ladi.

Bu holat esa shundan guvohlik beradiki, frazeologik birliklar ham hamisha qotib qolgan turg'un birikma bo'lmasligi mumkin:

to achieve results – natijaga erishmoq

to accomplish results – natijaga erishmoq

Ammo ko'pchilik hollarda ular turg'un so'z birikmasi hisoblanadi:

pay attention – (o'z) e'tiborini qaratmoq

(to'lamoq emas) draw (smb's) attention –

(birovning) e'tiborini tortmoq

Lug'aviy ma'noli frazeologizmlarning tarjimasini ikki usulda amalga oshiriladi:

1) Bitta so'z bilan tarjima qilinadigan asosida ot so'z turkumidagi so'z qatnashganinglizcha turg'un birikmalar:

to take a nap mizg'imoq

to put an end to smth. tugatmoq

(nuqta qo'yimoq).on behalf of nomidan

on the basis of asosida

for the sake of haqqi

2) muqobilli birikmalar bilan (mutloq va nisbiy):

a) mutloq muqobillar:

to hit the target –

mo'ljalga urmoq golden

share – oltin aktsiya

to play with fire – olov

bilan o'ynashmoq the root of the

trouble – tashvishning ildizi

b) nisbiy muqobillar.

to take into account – e'tiborga olmoq

Frazeologik birliklar (birikmalar) ingliz tilining ajralmas bo'lagi bo'lib, ularni bilish –muqobil tarjima yaratishning garovidir.

Quyida lug'aviy ma'noli frazeologiyalarga mansub predlogli tez-tez qo'llaniluvchiturg'un so'z birikmalarining qisqa ro'yxatini berib o'tamiz:

| | |
|--------------------|------------------------|
| in accordance with | - ga muvofiq tarzda |
| on account of | - hisobiga |
| in addition to | - ga qo'shimcha tarzda |
| at any rate | - har holda |
| on behalf of | - nomidan |
| on the basis of | - asosida |
| for the benefit of | - ning foydasiga |
| by and large | - to'lig'ich |

Ingliz tilidagi bir nechta o'xshash so'z birikmalari tarkibida artiklning yo'qligi yoki predloqlarning almashib ishlatilishi tufayli chalkashtiriladi. Quyidagi juftliklarga e'tiborni qarating:

| | |
|------------------|--------------------------|
| in case of | - sodir bo'lganda |
| in the case of | - -ga kelsak |
| in (the) face of | - mavjudligida |
| on the face of | - -ga qaraganda, aftidan |
| in favour of | - ning foydasiga |
| in favour with | - -ni ma'qullab |
| for fear of | - bo'lmasligi uchun |
| in fear of | - dan qo'rqib |
| by the name of | - |

nomidagi

Frazeologik birliklarning komponentlari orasidagi bog'liqlik qay darajada bo'lmasin, tarjimada bosh qoida tarjima tili normalariga rioya qilish bo'lishi lozim, ya'ni tarjimada harf xo'rlikka yo'l qo'yimaslik va tarjima tilidagi so'z birikmalari qoidasini buzmasligimiz kerak.

Ko'chma ma'noli frazeologizmlar, yoki frazeologik birliklar *idiomalar* nomi bilan mashhur. Idioma – bu turg'un birikma (nutq birligi) bo'lib, uning ma'nosi tarkibidagi komponentlarining ma'nolaridan emas, balki birikmaning umumiy ma'nosidan kelib chiqadi.

Ingliz tilida ham boshqa tillardagi kabi ko'p sonli idiomalar ishlatiladi. Idiomalarning komponentlari o'zlarining dastlabki lug'aviy ma'nolarini yo'qotgan bo'lib, idiomaning ma'nosi alohida komponentlarning ma'nosidan kelib chiqmaydi:

through thick and thin - nima
bo'lsa ham tooth and nail - tish tirnog'i
 bilan kirishmoq
it's raining cats and dogs -
yomg'ir chelaklab quymoqda to be caught red-
handed - jinoyat ustida qo'lga
 olinmoq

Ingliz idiomatik birliklarini tarjima qilishda rus va o'zbek tillarida ularning muqobillaridan foydalaniladi. Ular quyidagi usullarda ifodalanishi mumkin:

1) **Mutloq muqobillar** bilan. Tuzilishi, semantikasi va obrazlilik jihatidan adekvat tarzda mos birlik uchraganda:

to bring oil to fire – *alangaga yog'*
quymoqto play with fire – *olov bilan*
o'ynashmoq
Cold War – *sovuq urush*

2) **Nisbiy muqobillar** bilan. Agar o'zbek tilida ingliz tilidagi idiomalarning ma'nosini saqlashda bir qancha farqlar mavjud bo'lsa nisbiy muqobillardan foydalaniladi:

sword of Damocles – *Demoklov qilichi*
to show one's teeth – *to'ng'illamoq, jerkib javob*
bermoqto start business from scratch – *ishni noldan boshlamoq*
whip-and-carrot policy – *zo'rovonlik va yog'lamachilik*
siyosatias busy as a bee – *chumolidek mehnatsevar*
a fly in the ointment – *oshdagi pashsha*

3) **Frazeologik analoglar** deb ataluvchi mutlaqo boshqacha leksik vositalar bilan. Frazeologik analoglar – bu ma'no jihatdan adekvat, lekin tuzilishi va obrazlilik jihatdan qisman yoki to'liq farq qiluvchi birliklar:

a) *maqollar* tarjimasida:
East or West
home is best O'z uying
o'lan to'shaging
Make hay while
the sun shines. Temirni
qizig'ida bos

*You can't eat your
cake and have itlkki oyoqni
bir etikka tiqmoq*

*A bird in the hand is worth two
in the bush. Uzoqdagi xashakdan
yaqindagi somon yaxshi*

b) ko'chma ma'noli *birikmalar* tarjimasida:
*to make a mountain out of a molehill -
pashshadan fil yasamoq by hook or by crook - nima
qilib bo'lsa ham*

*to hit the nail on the head - mo'ljalga urmoq
to beat about the bush - gapni aylantirmoq
it is raining cats and dogs - chelaklab yomg'ir quymoq.*

4) **Tasviriy tarjima** bilan. O'zbek tilida muvofiq muqobil yoki analog mavjud bo'lmaganda tasviriy tarjimadan foydalaniladi:

*to show the white feather - ichidan zil ketti ("oq patini ko'rsatmoq" deb
tarjima qilsak o'zbek kitobxoniga hech narsa anglatmaydi) to have a skeleton in the
cupboard (closet) - shaxsiy yoki oilaviy siri bo'lmoq.*

*cross the floor of the house - bir partiyadan boshqa
partiyaga o'tib ketoq. a bitter pill to swallow - dard ustiga chipqon
bo'lmoq*

5) **Antonimik tarjima.** Bu usulda inkor shakldagi jumla tarjimada darak shakl bilan vaaksincha ifodalanadi:

*don't count your chichkens before they are hatched - jo'jani
kuzda sanaymiz. keep one's head - gangib
qolmaslik*

*keep one's head above water - qarzga botmaslik
keep one's pecker up - ruhiyatni cho'ktirmaslik
hold cheap - qadriga yetmaslik*

6) **Kalkalash usuli.** Bu usul boshqa tur tarjim usullari bilan tarjima qilinmaydigan birliklarni ifodalashda ishlatiladi:

*the moon is not seen when the sun shines - oy ko'rinmas quyosh bo'lganda
to call things by their true names - har narsani o'z nomi bilan atamoq*

Yuqorida keltirilgan inglizcha misollar barcha sohalarda xosdir. Shubhasiz, barcha kasb sohalari ko'plab o'z idiomalariga ega. Sohaga doir idiomalarning ma'nosini ifodalashda ham *tasviriy tarjimadan* foydalaniladi. Misol uchun, *moliya va biznes sohasiga* quyidagi kabi frazeologizmlar xosdir:

*creeping takeover aktsiyalar paketi nazoratiga erishguncha yetarlicha
miqdordagi aktsiyalarni individual
aktsiyadorlardan bosqichma bosqich sotib
olish*

tape dancing (US) aktsiyalar narxida nayrang ishlatish metodi, bunda broker

o'z ulushini ham qo'shib narxlaydi.

triple witching hour *shartnomalarning muddati tugaydigan yilning 4*
jumasidan
biri

Ba'zan frazeologik birliklar oddiy so'z birikmalariga tamoman mos keladi, shuning uchun tarjimon kontekstda ularning ma'nosini to'g'ri anglashda va adekvat tarjima yaratishda juda ziyrak bo'lishi talab etiladi:

to sit on the fence panjara ustida o'tirmoq, shuningdek,
kutib qolmoq red tape qizil tasma, shuningdek, buyruqbozlik
yellow pages sariq sahifalar,
shuningdek, tashkilotlar haqida ma'lumotlar
keltirilgan telefon ko'rsatmalari kitobchasidagi sariq
sahifalar
red herring dudlangan baliq,
shuningdek chalg'ituvchi harakatlar (to draw a red
herring across the path –e'tiborni chalg'itmoq)

Frazeologiya mavzusi yuzasidan yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, ba'zida tarjimon o'ziga xos milliy idiomalar tarjimasiga duch keladi.

Milliy idiomalarni soz'ma-so'z tarjima qilish faqat tarjima tilida ham uning ma'nosi ma'lum va mashhur bo'lganda yuz beradi xolos. Lekin ko'p hollarda milliy xususiyatga ega iboralarni tarjima tiliga so'zma-so'z o'tkazishning imkoni yo'q, masalan, *to carry coal to Newcastle* – Nyukaslga ko'mir ko'tarib bormoq (*Nyukasl–Angliyaning ko'mir sanoati markazi*). Bu ibora o'zbek tilida unga muqobil bo'la oladigan *o'rmonga o'tib bilan bormoq* iborasi bilan tarjima qilinishi maqsadga muvofiq.

Qolgan holatlarda tarjimada neytral yoki og'zaki (uslubiga qarab) muqobilini izlashga to'g'ri keladi hamda o'zbek va rus tilidagi milliy bo'yoqdor birikmalardan chetlanish lozim. Yuqoridagi ko'mir bilan bog'liq bo'lgan misol tarjimasini uchun rus tilidagi “*ездить в Тулу с освоем самоваром*” iborasini qo'llash maqsadga muvofiq emas.

O'ziga xos milliy idiomalar oddiy neytral leksika shaklida ham iboralar shaklida ham tarjima qilinishi mumkin:

to be from Missouri – har narsa ishonchsizlik bilan
qaramoqto grin like a Cheshire cat – og'zi qulog'ida bo'lib kulmoq
he will not set the Thames on fire –u osmondagi oyni olib berolmaydi

Demak, yuqoridagi fikrlardan shu xulosaga kelishimiz mumkin, idiomatik birliklarning semantikasi murakkab xususiyatga ega. Tarjimonning ularga mos ekvivalent topishiga ta'sir qiladigan 5 ta jihat mavjud. Ular 1) so'zlarning ko'chma ma'noda ishlatilishi,

2) yaxlit ma'no kasb etishi, 3) emotsional xususiyati, 4) uslubiy va 5) milliy bo'yoqdorligi. Ko'chma ma'no idiomatik birlik semantikasining eng asosiy xususiyatidir. Masalan:

red tape – buyruqbozlik;
to kick the bucket – o'lib qolmoq;
to was dirty linen in public – oilaviy sirni dasturxon qilmoq

Adabiyotlar/Literatura/ References:

1. qizi, A. D. R. . (2022). Pedagogical Model of Developing Oral Speech Competencies in Future English Language Learners. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(3), 73–76.
2. Алаудинова, Дилноза. 2022. «Теоретический подход к компетенции устного общения». *Общество и инновации* 3 (3/S):147-51. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss3/S-pp147-151>.
3. Alaudinova D. R., Mamatqulova N. X., Erdonova M. H. USE OF PHRASAL VERBS IN TESTS ON MEDICAL DISCIPLINES //ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ НАУКИ И ОБЩЕСТВА: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ. – 2019. – С. 106-107.
4. Alaudinova D. R., Mamatqulova N. X., Erdonova M. H. USE OF PHRASAL VERBS IN TESTS ON MEDICAL DISCIPLINES //ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ НАУКИ И ОБЩЕСТВА: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ. – 2019. – С. 106-107.
5. Alaudinova D. R., Mamatqulova N. X., Erdonova M. H. USE OF PHRASAL VERBS IN TESTS ON MEDICAL DISCIPLINES //ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ НАУКИ И ОБЩЕСТВА: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ. – 2019. – С. 106-107.
6. qizi, A. D. R. . (2022). Pedagogical Model of Developing Oral Speech Competencies in Future English Language Learners. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(3), 73–76.
7. qizi, A. D. R. . (2022). Pedagogical Model of Developing Oral Speech Competencies in Future English Language Learners. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(3), 73–76.
8. qizi, A. D. R. . (2022). Pedagogical Model of Developing Oral Speech Competencies in Future English Language Learners. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(3), 73–76.
9. qizi, A. D. R. . (2022). Pedagogical Model of Developing Oral Speech Competencies in Future English Language Learners. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(3), 73–76.
10. qizi, A. D. R. . (2022). Pedagogical Model of Developing Oral Speech Competencies in Future English Language Learners. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(3), 73–76.

Erdonova Muxlisa Hoshim qizi

Termiz davlat Pedagogika Institutining Xorijiy
tillar va adabiyot fakulteti stajyor o'qituvchisi
mukhlisa@6881gmail.com

ORNITONIM KOMPONENTLI MAQOLLARNING LINGVISTIK TADQIQI

Annotatsiya. ushbu maqoloda ingliz va o'zbek tillaridagi ornitonim komponentli maqollarning lingvistik tadqiqi va o'zbek va ingliz tildagi ramziy ifodasi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan shu bilan birgalikda ularning tasviriy tahlil metod orqali ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar:ornitonim,maqol,lingvistika,ekvivalentlik,obraz,tasvir,paremiologiya,obrazlik, ma'no.

Erdonova Muxlisa Hoshim qizi

Termiz state pedagogical institute foreign
languages and literature facult's teacher

LINGUISTIC STUDY OF PROVERBS WITH ORNITHONYM COMPONENTS

Abstract. In this article, the linguistic research of proverbs with ornithonym component in English and Uzbek languages and information about their symbolic expression in Uzbek and English languages is presented, and at the same time, an attempt is made to reveal them through the descriptive analysis method.

Key words: ornithonym, proverb, linguistics, equivalence, image, image, paremiology, imagery, meaning.

Эрдонова Мухлиса Хошим кизи

Термезский государственный педагогический
институт зарубежный преподаватель
факультета языков и литературы

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПОСЛОВИЙ С ОРНИТОНИМНЫМИ КОМПОНЕНТАМИ

Аннотация. В данной статье представлены лингвистические исследования пословиц с орнитонимическим компонентом в английском и узбекском языках и сведения об их символическом выражении в узбекском и английском языках, а также предпринята попытка выявить их через призму метод описательного анализа.

Ключевые слова: орнитоним, пословица, лингвистика, эквивалентность, образ, образ, паремиология, образность, значение.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N38>

Kirish. Muayyan maqol tarkibida qo'llanilgan ornitonimlarning aksariyati biron bir xalq, millat va jamiyatning mental xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Ornitonimlar denotative ma'nolardan tashqari emotsional-ekspressiv ma'nolarda ham qo'llaniladi. Xar bir tilda ma'no anglatadigan ornitonimlar ma'lum bir xalqning milliy-madaniy xarakteriga ega bo'ladi. Tadqiqotchilar bir ovozdan maqol xalq hikmatini ifodalovchi, oldingi avlodlar tajribasi sinovidan o'tgan, didaktik vazifa, muayyan axloqiy me'yorlarga rioya qilishga intilish bilan

ajralib turadigan gap ekanligini ta'kidlaydilar[1; 159-181]. H.Berdiyev va R.Rasulovlar paremiya terminining quyidagi ta'rifini taklif etadilar: "Paremiologiyada quyma fikrni ifodalovchi eng mayda birlik p a r e m a deb ataladi. Har bir paremiya ma'lum bir davrning mahsuli sifatida tug'iladi, yashaydi va ma'lum bir davrga kelib, iste'moldan chiqib ketadi. Paremiyalar davrlarning o'tishi bilan silliqanadi, sayqal topadi, ma'lum qolipga tushadi. Bora-bora ma'lum bir formada "qotib", quyma holatda qo'llaniladigan bo'lib qoladi, ya'ni tayyor holdagi t i l b i r l i g i sifatida ishlatiladi. Paremiyalar ham affikslar, so'zlar kabi, nutqda emas, tilda mavjud bo'ladi". P.U.Bakirov fikriga ko'ra, "paremiyalar (yun. paroimia – hikmatli so'z, ramzli hikoya) – dunyoning hamma tillariga xos bo'lgan universal hodisa"[2; 286b]. Bizningcha olimning fikrlari to'g'ri maqollar til universiyalariga xosdir. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'zbek xalqida uchraydigan maqollarni boshqa xalq paremiologik fondida ham uchratishimiz mumkin. Masalan tadqiqotimizda

B.M.Jo'raeva "O'zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug'ati"ning kirish qismida shunday deydi: "Xalq tafakkuri durdonasi hisoblanmish maqollar nafaqat xalq hayoti, qarashini ifodalashi bilan qadrlil, balki kundalik turmushimizda nutqimizni boyituvchi vositalardan biri hamdir"[3; 2b].

O'zbek olimlari T.Mirzaev, B.Sarimsoqovlar "O'zbek xalq maqollari" nomli to'plamida "har bir kishining nutqida 800 tagacha maqol borligini, biroq so'ralganda 800 ta maqolni ketma-ket yoddan aytib berolmasligimiz mumkinligini ta'kidlashadi[4;386b] . Ammo faoliyatimiz davomida ularni turli munosabatlarda nutqimizda ko'p qo'llashimizni" qayd etishgan. O'zbek paremiologik fondi bir necha o'n minglab paremalarni o'z ichiga oladi. Ular lingvistikaning paremiologiya sohasida tadqiq etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ornitonim komponentli maqollarni o'rganish turli xalqlar madaniy xususiyatlari bilan tanishish imkonini beradi shu bilan birgalikda Belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi:1) ushbu masala bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;2) olimlar tajribasini o'rganish va umumlashtirish;3) tavsifiy-tahliliy - jamlangan tillarning har birining maqol fondining yaxlit ko'rinishini olish;Lingvistik xususiyatlariga asoslangan holda ornitonimlar quyidagicha taqsimlanishi mumkin,etimologik xususiyatlarga ko'ra ornitonimlarni kelib chiqishiga ko'ra va asl ornitonimlarga ajratish mumkin,motivatsion belgilar mavjudligi yoki yo'qligi bilan ajralib turadi aniq motivatsion xususiyatlarga ega ornitonimlar, qorong'i motivatsion xususiyatlar bilan va g'ayrat belgisini anglatuvchi ornitonimlar.Jinsni aniqlash mavjudligi bilan ajralib turadi korrelyatsiyaga ega va korrelyatsiyaga ega bo'lmagan ornitonimlar.

Muhokama. Ingliz tilida ramziy ma'nolarning eng ko'p soni xatti-harakatlar bilan bog'liq qushlar nomlari (masalan, "*duck*"/*o'rdak*) ornitonimining ma'nosi"noqulaylik", qushning noqulay yurishi bilan bog'liq va ma'nosi"zukkolik" o'rdakning yer bo'ylab harakatlanish qobiliyatiga asoslangan, va suvda, shuningdek osmonda uchishi), tatar tilida ramziy qiymatlar ko'pincha qushning tashqi xususiyatlariga asoslanadi. Bundan o'n asr muqaddam yashagan donishmandlardan biri Unsur al Maoliy Kaykovus esa "Qobusnoma" asarida shunday deydi: "Ey farzand, umidim shuki, sen shu pandlarni qabul qilgaysen. Bu bilan men otalik vazifasini bajo keltirgan bo'lurman. Bilgilki, xalqning rasmi-odati shundayki, yugurib-elib, qidirib-axtarib, dunyodan biror narsa hosil qiladilar va bu topgan narsalarini o'zlarining yaxshi ko'rgan kishilariga qoldirib ketadilar"[5; 29-30] .Masalan: ornitonimning "kpkrkə" (kurka) kabi ma'nolari "mag'rurlik" va "bombardimon", qushning ko'rinishi va yurishi

bilan bog'liq tatar tilida hech qanday ramziy ma'no topilmadi. Masalan, tatar tilida ornitonim "karga" (qarg'a) - bu ahmoqlikning ramzidir. Ornitonimlarning ramziy ma'nolarining 3,2 % ingliz tili boshqa ramziy ma'nolardan kelib chiqqan. Masalan, burgut eng keng tarqalgan zirhli figuradir, chunki u kuch va ustunlikni anglatadi. Burgut tasviri AQSh tangalarida zarb qilingan va uni dollar tangalarida ham topish mumkin. Shu munosabat bilan "burgut" so'zi ingliz tilida ishlatila boshlandi "dollar" degan ma'noni anglatadi. Ingliz ornitonimlarining ko'p qismi salbiy ma'noga ega konnotatsiya (masalan: **"hen"/tovuq**) ornitonimi "qo'rqqoq" kabi salbiy baholash qiymatlari bilan qushlarning nomlari esa ko'pincha ijobiydir, konnotativ ma'nosiga ko'ra (**"dove/kaptar"**) uyg'unlik, aybsizlik kabi ma'nolarga ega. Qushlarning konnotativ ma'nolari ularning tashqi ko'rinishi, xulq-atvori ijobiy-hissiy baxolash qiymati bilan baholanadi. Masalan, ornitonim **"crow/qarg'a"** "aqli", "keksa ayol" "o'limning xabarchisi" kabi ma'nolarga ega. Bundan tashqari qarg'a beadab", "boshqalar hisobiga yashash", "ahmoq" kabi ma'nolarga ham ega.

Natija. Dunyodagi juda ko'p xalqlar yaxshilik, yomonlik, yuvoshlik, saxiylik, ayyorlik, yaxshilik, qo'pollik timsoli sifatida qabul qilinganligini aniqlash zarurdir. Masalan: yomonlik, zararkunadalik timsoli ilon, chayon, yaxshilik timsoli-bo'ri, yuvoshlik timsoli musicha, qo'y, mexnatsevarlik timsoli – chumoli va asalari; kattalik timsoli-fil; ayyorlik timsoli-tulki; qo'pollik timsoli-ayiq; befahmlik va befarosatlik timsoli-eshak, cho'chqa; tinchlik timsoli-kabutar; go'zallik timsoli-tovus; xushxonlik-bulbuldir. Hamma xalqlar ham farosatsizlik, ayyorlik va qo'pollik timsoli sifatida ma'lum bir hayvon va parrandani belgilar ekan, bunda shubhasiz, o'sha hayvon va parrandaning xulqiga, tashqi ko'rinishga va xatti – harakatlariga asoslanadilar. Juda ko'p xalqlar ayyorlik, mug'ombirlik timsoli sifatida tulkini oladilar. Xalq nazarida tulki boshqa jonivorlarga qaraganda ancha aqli va o'ta ayyor hayvondir. CHunonchi u turli afsonalarda qarg'ani aldaydi, bo'rini o'sal qiladi, itni ko'zini shamg'alat qiladi. Ba'zi hayvonlarni muqaddas bilish ularni ilohiylashtirish ob'ekti shu hayvon yoki parrandalarning nomlaridan iborat maqol idiomalarning xarakteri ta'sir qiladi. Inglizlarga xos yana bir jihat – bu ularning bolalarga nisbatan uy hayvonlariga bo'lgan mehri ustunroq turishini maqollarda "bola" obrazidan ko'ra **"it"**, ayniqsa, "mushuk" obrazlari ko'proq qo'llanilishida kuzatamiz. Masalan: *Dog does not eat dog.* - Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi. *Barking dogs seldom bite.* - Ko'p vovullagan it tishlamaydi. Ammo ayrim o'zbek maqollarida **"it"** va **"mushuk"** obrazlari ko'proq salbiy ma'noda, salbiy obrazda ishlatiladi. Masalan: *It hurar karvon o'tar.* - *The dogs bark, but caravan goes on.* Itni suyak bilan ursangiz, qopmas. - *A dog will not howl if you beat him with a bone.* Tanlay, tanlay tozga yo'liqdim, boshi piyoz kalga yo'liqdim - *Scornful dogs will eat dirty puddings.* Ushbu maqollarda **"it"** obrazi ko'proq jahldor, yomon, iflos, poraxo'r, ochko'z, dimog'dor odamlarga qaratilgan holda gavdalanadi. Biroq yana ba'zi bir maqollar borki, bunda **it** obrazi vafodorlik, yaxshilik, donolik, sofdillik obrazlarida gavdalanadi. Yaxshi itga - yaxshi suyak. - *A good dog deserves a good bone.* O'lik arslondan tirik it afzal. - *A living dog is better than a dead lion.* Qari it ko'p yo'l bilar. - *An old dog barks not in vain.*

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki maqollar bu xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lib, xalqning hayotiy tajribasi va orzu- intilishlarini, umuman olganda hayotga bo'lgan munosabatini qay daraja baholashining natijasidir. Qofiyadoshlik, ko'pma'nolilik, majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlar uning uchun xos xususiyatdir. Maqollar mazmunida dialektikaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni o'z aksini topgan.[6; b340] "O'zbek tilida maqol, matal, topishmoq kabi og'zaki xalq ijodining aforistik janrlar kompleksini

Abstract. The educational system is an important factor that forms the spirituality of young people. It is necessary to look at knowledge and education as the main condition of human perfection and development of the nation. For this reason, it is established in our Constitution that the issue of school and youth education is under the control of the state. This article talks about the importance of social sciences in improving the spiritual culture of young people.

Key words: potential opportunities, spiritual and moral values, spirituality and enlightenment factor, common sense, modern knowledge, mature generation, the field of enlightenment.

Мадаминова Наргиза Зухридиновна
Кандидат педагогических наук, доктор
философских наук, доцент
Университет науки и технологий

ЗНАЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ НАУК В ПОВЫШЕНИИ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. Система образования является важным фактором, формирующим духовность молодежи. Необходимо смотреть на знания и образование как на главное условие человеческого совершенствования и развития нации. По этой причине в нашей Конституции установлено, что вопрос школьного и молодежного образования находится под контролем государства. В данной статье говорится о значении общественных наук в повышении духовной культуры молодежи.

Ключевые слова: потенциальные возможности, духовно-нравственные ценности, духовно-просветительский фактор, здравый смысл, современные знания, зрелое поколение, сфера просвещения.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N51>

Kirish. Ma'lumki, barcha jamiyat o'z istiqbolini, potensial imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib tasavvur eta olmaydi. Buni haqiqat ekanligini yashab turgan bugungi zamonimizning rivojlanish xususiyatlari ham ko'rsatib turibdi.

Ma'naviyat va ma'rifat omili necha ming yillar osha xalqimizning o'zligini yo'qotmay, ba'zi millatlar kabi yo'q bo'lib ketmasdan saqlanib qolishini ta'minlagan o'ta muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Bugun esa o'z oldiga ulkan rejalar qo'yib, odimlab borayotgan mamlakatimizning ezgu maqsadlariga erishishi uchun zarur bo'lgan quvvat manbaiga aylangani bejiz emas. Shu bois, yurtimizda ma'naviyat va ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda.[2]

Bugungi kunning birlamchi masalasi sog'lom fikrli, zamonaviy bilim va kasblarni puxta egallagan, yuksak mas'uliyatli va barkamol avlodni tarbiyalashdir.

Bugungi davrda globallashuv jarayoni hayotimizga tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv-bu avvalo xayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi jarayonida, davlatlar o'rtasida turli xil integratsiya va hamkorlikning kuchayishi, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda ilm-fan yutuqlarining tezda tarqalishi, xalqlar o'rtasidagi muloqotning yangicha sifat kasb etishi, o'zaro yohamkorlik imkoniyatlarining yuzaga kelishi- bu globallashuvning ijobiy ahamiyati, ammo globallashuv jarayonining bugungi yana bir jihati shuki, u yoshlarga mafkuraviy ta'sir o'tkazishning quroliga, har xil siyosiy, g'oyaviy kuchlarning kurash sahnasiga ham aylanib bormoqda.

Shu sabab yoshlar tarbiyasi davlatimizning doimo diqqat markazida bo'lib, bu jarayon Mustaqillik yillarida uzluksiz davom etmoqda. Umuman Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan mamlakatimizda qabul qilingan yoshlarga oid qonunlarning barchasida yoshlarimizning puxta bilim olishi bilan bir qatorda xalqaro maydondagi faolligi va ishtirokini ta'minlash, voyaga yetmagan, boquvchisini yo'qotgan, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan himoyalash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash kabi masalalar doimiy nazorat ostida bo'lmoqda.

Asosiy qism. Bugungi globallashuv sharoitida mafkuraviy kurashlar, ommaviy madaniyat yosh avlodning ongi va qalbiga turli vosita va usullar orqali ta'sir ko'rsatishi yot va begona g'oyalarning ta'sirini kuchaytirmoqda. Buning natijasida yoshlarning o'zligini anglashi, milliyligini his qilishi, tilini e'zozlashi, ma'naviyatini qadrlashi, jismoniy va ma'naviy komillikka erishishiga to'sqinlik qilmoqda hamda erkin va mustaqil fikr-mulohazalar yuritish ko'nikmalariga raxna solmoqda.

Yoshlarni jismoniy, intellektual va ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, huquqiy-siyosiy ongi va madaniyatini oshirish, ularda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish orqali ijtimoiy faolligini kuchaytirish ma'naviy tahdidlar kuchayotgan davrda dolzarb masalaga aylanib qolmoqda.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash, jamiyat hayotining barcha sohalarida sezilarli o'zgarishlar ketayotgan bugungi davrda yoshlarning milliy o'zlikni qadrlash, jismoniy, intellektual va ma'naviy komillikka erishish, erkin va mustaqil fikr-mulohazalarni yuritish ko'nikmalarini takomillashtirish hamda yoshlarni huquqiy, siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirish orqali ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga daxldorlik hissini kuchaytirish kabi masalalarning dolzarbliigi ortib bormoqda.

Istiqlol yillarida O'zbekistonda suveren taraqqiyotning yagona to'g'ri yo'li sifatida huquqiy demokratik davlat va adolatli jamiyatni barpo qilish, uning siyosiy, institutsional, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash va xalqimiz uchun eng munosib bo'lgan erkin va farovon hayot tarzini shakllantirish borasida samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakatimizda demokratik taraqqiyotning navbatdagi keng imkoniyatlarini ochilishi uchun zarur bo'lgan asoslar yaratildi. Shu bois ham endilikda erishilgan salmoqli natijalarga tayangan holda, mamlakatimizda demokratik qadriyatlarni jamiyatimiz hayotiga har tomonlama chuqur singdirish, fuqarolik jamiyati ko'nikmalari mustahkam qaror topgan yangi sifat bosqichiga o'tkazish vazifalarini amalga oshirish jarayonlari izchillik bilan ro'y bermoqda.

Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida: "Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir" - deb ta'kidlagan edilar.[1]

Darhaqiqat, hozirda terrorizm va ekstremizmning sotsial bazasini kam ta'minlangan, ijtimoiy adolatsizlikka uchragan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lmagan kishilar tashkil etmoqda. Afsuski yoshlar terrorizm va ekstremizm ta'siriga tushib qolayotganlarning aksariyatidir. Terrorizm va ekstremizmning oldini olish choralarini ko'rish, uning oqibatlari bilan kurashishdan ko'proq samara berishi tabiiydir. Bu esa ijtimoiy sohaga ustuvor darajada e'tibor qaratishni, yoshlar bilan ko'proq ishlashni taqozo qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifat ishlari yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmonlarida hamda 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarorida belgilab berilgan ustuvor vazifalar yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada oshirish, innovasion tafakkur va milliy g'oyaga sodiqlik ruhini kuchaytirishda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masala sifatida kun tartibiga ko'tarilmoqda.[1]

Keyingi paytlarda mamlakatimizga g'arazli maqsaddagi yovuz kuchlarning, ekstremizm va aqidaparastlarning tahdidlari, ayniqsa, ular tomonidan amalga oshirilayotgan mafkuraviy tahdidlar jamiyatimizda ma'naviyat va ma'rifat borasida olib borilayotgan ishlar yetarli darajada emasligi, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan jiddiy chora-tadbirlar ko'rishni taqozo etmoqda. Buning zaminida jamiyatimizda milliy istiqlol g'oyasini, kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirish, huquqiy madaniyatni oshirish maqsadi yotadi. [2]

Bugungi kunda jamiyatimizda ma'naviyat va ma'rifat ishlarini yuksaltirish borasidagi uslubiy yondashuvlarda jiddiy sifat o'zgarishlarini amalga oshirish zarur. Ushbu o'rinda ma'naviyat va ma'rifat ishlari olib borilayotgan konkret ijtimoiy obyektga nisbatan differensial yondashuv ustuvor bo'lmog'i kerakligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ana shundagina amalga oshirilayotgan ishlarda yuqori samaraga erishish mumkin.

Masalan, ijtimoiy holati va mavqei, yoshi, millati, kasbi, yashash joyi (shahar, qishloq, ko'p qavatli uylar), ma'lumoti, oilaviy ahvoli va ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra; ijtimoiy fikri va dunyoqarashi, tafakkur tarzi, bilim darajasi, shakllangan ijtimoiy munosabatlar holati.

Ushbu o'rinda o'rganishning sotsiologik va empirik uslublaridan foydalanilsa, yanada maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ijtimoiy obyektни o'rganishdan asosiy maqsad uning ma'naviy va ma'rifiy salohiyat darajasini aniqlash va baholashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Bunda har bir ijtimoiy obyektga nisbatan alohida olingan chora-tadbirlar ko'lami va hajmini aniqlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning usul va uslublarini belgilash birinchi darajali ahamiyatga ega.

Hozirda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish bilan Chora-tadbirlar va vazifalar ko'lamini hal qilish zarur:

➤ zamon nuqtayi nazaridan, ya'ni yoshlarning ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirib borish, ularni huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishdek maqsadlar sari safarbar qilish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, o'tish davriga xos bo'lgan obyektiv voqelikni hisobga olgan holda demokratik qadriyatlarni aholi tafakkurida kamol toptirish, ularning siyosiy, huquqiy madaniyatini yuksaltirish va siyosiy faolligini kuchaytirish, o'tish davri ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini xal qilishning ilmiy, nazariy va amaliy choralarini izlab topish masalasiga jiddiy e'tibor berish;

➤ makon nuqtayi nazaridan: yashash joyining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatlarga, shu jumladan, aholi turmush tarziga e'tibor qaratish.[3]

Demak, mazkur masalalarga e'tibor bergan holda, ma'naviyat va ma'rifat ishlarini amalga oshirish jamiyatimiz taraqqiyoti oldidagi eng dolzarb vazifalarni hal etishda yoshlarni safar qilishga yordam beradi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, yosh avlod orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, xususan, huquqiy targ'ibot tadbirlarini jonlantirish zarur. Zero, yoshlarning huquqiy madaniyatini takomillashtirish demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy shartidir.

Sirasini aytganda, O'zbekistonda bilimga intilayotgan va o'z ustida ishlayotgan yoshlar o'z maqsadlari erishishi uchun barcha sharoit mavjud. Yosh avlodni hayotga qat'iy e'tiqod va qarashlar ruhida, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlardan biri sifatida alohida dolzarblik kasb etadi. Shu bois, yoshlar tafakkurini bunyodkor g'oyalar bilan boyitishda munatazam ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotlarning muhim ahamiyatiga ega.[4]

Mamlakatimizda ota-ona mehridan, ularning tarbiyasidan mahrum bo'lgan va imkoniyati cheklangan bolalarga alohida e'tibor, mehr, g'amxo'rlik ko'rsatib kelinayotganligi e'tiborga molik. Mehribonlik uylari, maktab internatlarining va maktabgacha tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash, o'quv-tarbiyaviy jarayonini tubdan takomillashish masalalari belgilangan. Yangi jamiyat bunyodkorlari yoshlar tarbiyasida mahallaning va keng jamoatchilikning o'rni buyukdir.

Yosh yigit va qizlarimiz mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning o'z o'rinlarini topa olishida, kishilar o'rtasida mehr-oqibatning, birodarlikning tarkib topishida mahalla oqsoqollari va nuroniy otaxonlar, onaxonlarning tutgan o'rinlari muhimligini ta'kidlash lozim.

Yoshlar ma'naviy tarbiyasida ota-ona mas'uliyati alohida o'rin tutadi. Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk bor hayot to'g'risidagi tushunchalar, dunyoqarashlar, yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus, andisha kabi inson uchun zarur bo'lgan muqaddas tushunchalar dastlab oilada qaror topa boshlaydi va so'ngra jamoaga ko'chadi.[5]

Yoshlarning ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun ta'lim-tarbiyaga xizmat qiladigan muhim vositalarni yangi sifat bosqichiga ko'tarish zarur bo'ladi. Shu bilan birga bu sohalaridagi mavjud katta-kichik kamchiliklar va nuqsonlarga tezlikda barham berish va bunday salbiy holatlardan qutilish lozim bo'ladi.

Mamlakatimizda yoshlar ma'naviy tarbiyasida falsafiy, ijtimoiy, siyosiy va gumanitar fanlar ahamiyati beqiyos, shu sabab bu fanlar vakillari o'zlarining o'ta mas'uliyatli vazifalarini bugungi kun talabi darajasida bajarishlari lozim bo'ladi. Bu sohadagi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, adabiyotlarning hamda mutaxassislarning ham saviyasi yuqori bo'lishi talab etiladi.[7]

Xulosa qilib aytganda, xalqimizni, eng avvalo yoshlarimizni ma'naviy olamini kuchaytirish va daxlsizligini asrash uchun doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lishimiz, tahdidlarga qarshi chuqur o'ylangan, ilmiy uslubga asoslangan va uzluksiz davom etadigan ma'naviy tarbiyani olib borish lozim bo'ladi.

Hozirgi vaqtda jamiyatimizda yuksak ma'naviyat va ma'rifatni qaror toptirishning nihoyatda puxta o'ylangan, ilmiy asoslangan shunday mexanizmini yaratish zarurki, u hozirgi davrimizning barcha talablariga mukammal javob bera olsun.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Sh.Qurbonov Mustaqillik poydevori. «Xalq ta'limi» jumali. 2003, №5. 4-13-betlar.
2. M.Quronov O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. dis. - T.: 1998. 316-b.
3. M.G.Davletshin va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. - T.: « O'qituvchi», 1997. 134-b.
4. O.Hasanboyeva Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. - T.: 1996. 91-b.
5. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: O'zbekiston, 2019.
6. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondoshuvlar. - T.: Akademiya, 2020
7. <https://ziyouz.com/books>.

Shomurzayeva Nasiba Xoshimovna
Jizzax Davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası v.b.dotsenti
Email: nasiba198901@gmail.com

PIYODA YURISH SAYOHATLARNI TALABALAR O'RTASIDA OMMALASHTIRISH

Annotatsiya. Maqolada sport turizmi va uning o'qitilishi, hozirgi kunda sohaning Respublikamizda uni rivojlantirish va uni talabalar o'rtasida ommalashtirish haqida so'z boradi. Maqola mavzusini ochib berish maqsadida qonunchilik hujjatlaridan va ilmiy tadqiqot ishlanmalaridan foydalanildi. Maqoladan olingan xulosalarni sport turizmini talaba yoshlar o'rtasida ommalashtirish targ'ibotlarida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: innovatsion yondoshuv, sport turizmi, ichki turizm, tog' turizmi, suv turizmi, turizm mashg'ulotlari, sayohat.

Shomurzayeva Nasiba Xoshimovna
Jizzakh State Pedagogical University,
Associate Professor of the Department of
Preschool Education Methodology

PROMOTING WALKING JOURNEYS AMONG STUDENTS

Abstract. The article will talk about sports tourism and its training, its development in the Republic of the industry and its popularization among students. In order to reveal the topic of the article, legislative acts and scientific research developments were used. The conclusions drawn from the article can be used in propaganda of the popularization of sports tourism among student youth.

Key words: innovative approach, Sports Tourism, Domestic Tourism, mountain tourism, water tourism, tourism training, travel.

Шомурзаева Насиба Хошимовна
Джизакский государственный
педагогический университет,
Доцент кафедры методики
дошкольного образования

ПРОДВИЖЕНИЕ ПРОГУЛОК СРЕДИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье речь пойдет о спортивном туризме и его преподавании, о развитии отрасли в настоящее время в нашей республике и популяризации ее среди студентов. В целях раскрытия темы статьи были использованы законодательные акты и научно-исследовательские разработки. Выводы из статьи могут быть использованы в пропаганде популяризации спортивного туризма среди студенческой молодежи.

Ключевые слова: инновационный подход, спортивный туризм, внутренний туризм, горный туризм, водный туризм, туристическая деятельность, путешествия.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N52>

Kirish. Turizm sohasi so'nggi yillarda eng rivojlanayotgan sohalardan biriga aylanmoqda. Sport turizmi yildan yilga rivojlanib bormoqda. Ushbu sohaning rivojlanishi ortidan albatta o'z-o'zidan sifatli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu tufayli ham sport turizmi va uni o'qitishning ta'lim tizimida ahamiyati hozirgi kunda ortmoqda. Avvalo sport turizmi o'zi nima?

Sport turizmi bu sportga yo'naltirilgan turizm turi. Siz chempionat yoki o'yinni ko'rish uchun sayohat qilasiz. Shuningdek, sport bilan shug'ullanish uchun sayohat qilish odatiy holdir, masalan, ma'lum bir piyoda sayr qilish marshrutini tanlash yoki plyajda u uchun juda yaxshi bo'lgan kit yoki sörf. Bugungi kunda sport sayyohligi rivojlanib bormoqda, chunki kichik sayohatlarga borish avvalgi yillarga qaraganda ancha arzon. Shuning uchun o'yinni tomosha qilish yoki oddiy ko'ngil ochish uchun sport bilan shug'ullanish uchun bir necha kun sayohat qilganlar ko'p. Bizga yoqadigan sport turi va sevimli mashg'ulotlariga yo'naltirilgan sayohatga qarashning yana bir usuli. [1,5]

Toza havoda va yirik shaharlardan uzoqda sport bilan shug'ullanishni yaxshi ko'radiganlar uchun O'zbekiston ayni joy hisoblanadi. Yumshoq iqlim deyarli butun yil davomida sportning ko'p turlari bilan shug'ullanishga imkon beradi. Klassik qishki sport turlari uchun to'rtta tog' kurorti mavjud: Chimyon, Bildirsoy, Amirsoy va Yangiobod. Tez orada ularning soni yanayam ko'payadi. Mamlakat o'zining keng va xilma-xil landshaftlari tufayli ekstremal sport turlari uchun juda ko'p imkoniyatlarni taqdim etadi, vaholanki bu sport turlari mamlakatda hali yangilik hisoblanadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- ekstremal chang'i, snoubord;
- moto poygalar (Motorsysle rasing), ralli (Rallying), motokross;
- skeytboarding, tog' velosipedi, toqqa chiqish, kanyonning va paraplanerlik.

Mamlakatning ulkan tog'li hududlari alohida jozibadordir.

O'zbekistonda tog' turizmi katta bo'lmagan, ammo faol rivojlanayotgan sohadir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Go'zal manzaralari ichida yayov yurish, alpinizm, tog' g'orlariga tashriflar, to'rtta zamonaviy kurort komplekslaridan birida qishki chang'i sporti, Axamoniylar (miloddan avvalgi 6-4 asrlar) va Iskandar Zulqarnayn (miloddan avvalgi 4-asr) davridan qolgan qadimgi tog' qal'alari, ming yoshdan oshgan qadimgi g'or rasmlari, 3000 dan 4000 metrgacha bo'lgan balandlikdagi tog' cho'qqilarining hayratlanarli manzarasi, aholisi iliq va mehmondo'st bo'lgan an'anaviy uzoq tog' qishloqlari, noyob nabotot, endemik va nodir yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar, go'zal sharsharalar, tog' ko'llari va toshqin tog' daryolarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Suv turizmi. O'zbekiston dengizga yoki okeanga chiqa olmaydigan sanoqli davlatlardan biridir, ammo shunga qaramasdan suv turizmi uchun juda ko'p joylar mavjud – bular G'arbiy Tyan-Shan etaklarida joylashgan Chorvoq chuqur suv havzasi, son-sanoqsiz toshqin daryolari va dengizga o'xshash ulkan Aydarko'l, Sudoche va Toshkent dengizi kabi ko'llar. Bu yerda dam olayotganda shamol tezligida skuterda uchish yoki katamaranda atrofni ko'rib chiqish mumkin. Ekstremal dam olishni yaxshi ko'radiganlar uchun ko'plab turoperatorlar Chotqol, Pskem, Ugam, Sirdaryo kabi daryolar va boshqa ko'plab joylarda rafting qilishni taklif etishadi. [2,10]

Havo turizmi. O'zbekistonda paraplanda deyarli yilning istalgan vaqtida uchishingiz mumkin, yagona cheklov yomg'irdir, chunki paraplaning qanoti matodan qilingan. Yilning eng mashhur vaqti – bu yoz, va eng yaxshi uchish joyi mamlakat tog'lari. Paraplanda uchish uchun eng mashhur joy – Toshkentdan 60 km masofada joylashgan Chorvoq suv ombori atroflari

hisoblanadi. Parvozni professional ustoz bilan yoki maxsus tayyorgarlikni o'tgandan so'ng mustaqil ravishda bajarish mumkin.

Tog' turizmi. O'zbekiston tog'lari alpinizm, tog' turizmi va qoyaga chiqish kabi faol dam olish turlarini sevuvchilar uchun juda jozibali. Mamlakat hududining katta qismini asosan tekisliklar egallaydi, ammo o'lkaning ko'pgina mintaqalarida Tyan-Shan va Pomir tog' tizmalarining g'arbdan sharqqa tomon cho'zilgan zanjirlari ham joylashgan. O'zbekistonning mashhur tog'li hududidan biri – Chimyon tog'lari, eng yuqori cho'qqisi 3309 metrli Katta Chimyon cho'qqisi. Mazkur hudud ko'plab toqqa chiqish yo'llari, piyoda yurish, qoyaga chiqish yo'llari, ot minish marshrutlari, tog' chang'isi yo'laklari va boshqalar uchun xizmat qiladi. Bu yerda uchta tog'-chang'i kurortlari – Chimyon, Bildirsoy va Amirsoy joylashgan bo'lib, ular turli xil qishki sport turlarini sevuvchilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Chang'i mavsumi dekabr oyining oxiridan boshlab mart oyining o'rtalariga to'g'ri keladi. Tog' chang'isi uchun eng yaxshi vaqt fevral hisoblanadi. Boysuntog' tizmasidagi Boysun buloq (amplitudasi 1415 m), festivalnaya-Ledopadnaya (-580 m) va Ural (-565 m) kabi chuqur g'orlar, Qulasoy, Langar va Gulkam daralarining g'aroyib manzaralari, Zomindagi Turkiston tog' tizmasi shimoli-g'arbiy qoyalarning shifobaxsh havosi – sayyohlar va hayajon. [3,8]

Ot turizmi. Mashhur naslli, asl zotli o'zbek otlarini ko'rish, milliy ot sporti musobaqalarini tomosha qilish va naslli ot minishdan beqiyos quvonchni his etish uchun O'zbekistonga tashrif buyuradigan sayyohlar soni ortib bormoqda. Miloddan avvalgi II asrdanoq Farg'ona vodiysidan jang otlari Xitoy imperatori armiyasi uchun Ipak yo'li bo'ylab olib chiqilgan. Toshkent shahridan unchalik uzoq bo'lmagan go'zal vodiya, Katta va Kichik Chimyon etagida 1600 metr balandlikda, ot sportini sevuvchilar uchun mo'ljallangan "Chimyon Oromgohi" kurort majmuasi joylashgan.

Bu yerda siz dam olish maskanining go'zal atrof-tevarakni aylanib chiqishingiz mumkin. Tajribali ustozlar endi boshlovchilarga otlarni qanday boshqarishni o'rgatadilar, mohir chavandozlar esa mahoratini oshirishlari mumkin.

Natijalar. Dam olish maskanidan Chotqol va Ko'ksu daryolari bo'ylab Bildirsoy tizmasi atrofida ot minishingiz mumkin. Tajribali chavandozlar uchun eng mashhur yo'nalishlardan biri bu Ugam tizmasining shimoliy yon bag'rida, Pskem tog'li daryosi bo'yidagi yo'nalish hisoblanadi. Ot safarining davomliligi 7-10 kun. Ot minish turli xil va o'zgaruvchan nabotot va hayvonot ega bo'lgan qo'riqlanadigan hududlarda o'tkaziladi.

Shuningdek, Ugam-Chotqol milliy bog'ining Po'latxon platosi yaqinida, G'arbiy Tyan-Shan tog'larida, Nurota tizmasi va Aydarko' ko'llarida ham bir necha kunlik o'tliq sayohatlari bo'lib o'tadi. Hisor tizmasi tog'larida ot minish yo'nalishlari alohida qiziqish uyg'otadi. Ular Qashqadaryo viloyatining kichik tog' qishloqlaridan boshlanadi va Surxondaryo daryosi vodiya tugaydi. Yo'nalishlarning eng yuqori nuqtalari 4000 metrga yetishi mumkin. Yo'l davomida sayyohlar balandlik zonalari, archa o'rmonlari, alp yaylovlari, tog' tundralari va ba'zi yo'nalishlarda – ko'p yillik qor va muzliklarni kesib o'tadilar.

Toza va shaffof havosi son-sanoqsiz o'tlar va gullarning xushbo'y hidi bilan to'lgan tog' bo'ylab sayohat va minglab yulduzlar bilan to'la, tubsiz tog' osmoni ostida olov atrofidagi romantik kechki ovqat taassurotlari xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi. Mamlakatda mavjud bo'lgan ot klublari soni sayyohlarni hayratda qoldiradi – ular o'n beshdan ortiq. Ular Toshkent shahrida va uning atrofida, Farg'ona, Qashqadaryo hamda boshqa viloyatlarda joylashgan.

Veloturizm. O'zbekistonda Veloturizm ekzotika, afsonaviy va sharqona mehmondo'stlikka boy. Mavsum aprel oyining o'rtalarida boshlanadi va noyabr oyigacha davom etadi. Velosiped turlarini Buyuk Ipak yo'li bo'ylab sayohat, qadimiy Samarqand, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlari bo'ylab sayohat, shuningdek hayajonli tog' manzaralari va gulli vodiylar bo'ylab sayohat bilan birlashtirish mumkin. Velosipedchilar qishloqlar va tog' ovullari bo'ylab sayohat qilganda, u yerdagi mahalliy aholining turmush tarzi bilan tanishib olishlari mumkin. Ekstremal sport turlarini yaxshi ko'radiganlar uchun esa, Samarqand yaqinida Oqtog' tizmasi bo'ylab yo'nalish mavjud. Bundan tashqari, tog'li hududlarda va yirik shaharlarda deyarli har oy issiq mavsumda ochiq tanlovlar va velosiped musobaqalari o'tkazilib, unda hamma qatnashishi mumkin!

Muhokama. Ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan turizm mashg'ulotlari bolalar bilan tabiat qo'ynigasafarlar hamda shahar yoki qishloq madaniyat markazlari, muzey va tarixiy yodgorliklar, istirohat bog'lari, cho'milish havzalariga sayrlar shakllarida bo'ladi. Safar mashg'ulotlari avvalida safar yo'nalishi belgilanadi. Safarga chiqish muddati, yo'nalishi, davomiyligi, safar ishtirokchilari haqida mahalliy yashash joylarining rahbariyatlari, ichki ishlar va qutqaruv bo'linma boshqarmalariga yozma bildirgi beriladi. Safarga chiqadigan guruhlarining ishtirokchilari saralanadi. Guruhlar 3-15 kishilik bo'lishi mumkin. Sayohatchilar 2-5 guruhdan iborat bo'ladi. Ularga o'qituvchi va murabbiylardan rahbarlar tayinlanadi. Sayohatchilarning safardagi mas'uliyati belgilanadi. Safarlarga oshpaz, shifokor, qutqaruv ishlari bo'yicha mutaxassislar jalb etiladi. Xo'jalik qurollari, chodirlar, tunash jihozlari, ovqat tayyorlash jihozlari, qutqaruv anjomlari tayyorlanadi. Turizm mashg'ulotlari o'tkazish va sayohatlarga chiqishda safar guruhlari tashkil etish va vazifalarini belgilashda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi.

- Sayohatlar maqsadi va vazifasi, safarlar yo'nalishi belgilanadi. Bunda bolalarning yoshi, jismoniy tayyorgarliklari hisobga olinadi.

- Safar yo'nalishlari qir adirlarga, soy, daryo, ko'l va dengizlar sohillariga, o'rmonzorlarga belgilanadi. Topografik kartasi tayyorlanadi.

- Tog' sayohatlari-alpinizm va suv havzalari, dengizlarga safarlarga chiqish hamda texnik vositalarda safar qilish maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan sayohatchilarga ruxsat beriladi.

- Ommaviy sayohatlar muddati bahor, yoz va erta kuz oylariga belgilanadi.

- Qishda va tabiat hodisalar ko'p sodir bo'ladigan mavsumda sayohatlarga chiqish maxsus tayyorgarlik ko'rilgan guruhlariga ruxsat beriladi.

- Sayohat davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlar, jarohatlanishlar kabi salbiy hodisalarda qutqaruv choralari ko'rish, birinchi tibbiy yordam vositalarini tayyorlash.

- Safar guruhlarida sayohatchilarning mas'uliyatini taqsimlash, yo'lboshlovchi, qator oxiridagi harakatlanuvchi, oshpaz va shifokor yordamchilari, xo'jalik jihozlari uchun mas'ul, ommaviy tadbirlar tashkil etuvchilar belgilanadi.

- Safar uchun zaruriy jihozlarni tayyorlash: safar kiyimlari, bosh kiyim va poyabzal mavsum hamda safar yo'nalishi xususiyatiga muvofiq tanlanadi.

- Qo'shimcha kiyimlar, gigiyenik vositalar, yuvinish jihozlari, sochiqlar, ovqatlanish jihozlari, birinchi tibbiy yordam vositalari, igna, ip, yozuv qurollari, fotoapparat, adabiyotlar, durbin, fonar va boshqalarni tayyorlash.

- Safar chodirlari, uxlash qoplarini tayyorlash, xo'jalik qurollari, oziq ovqat mahsulotlarini, ommaviy tadbirlar uchun jihozlar olish.

- Aloqa vositalari tayyorlash va ulardan foydalanish uslublarini egallash.

Sport turizmini talaba yoshlar o'rtasida sayohatlar yordamida ommalashtirishning pedagogik afzalliklari quyidagilar:

- Sayohatlar talabalarni birga harakat qilishga do'stona munosabat o'rnatishga o'rgatadi;
- Sayohatlar orqali talabalarni favqulodda xolatlarda tayyor bo'lishga o'rgatiladi;
- Sayohatlar talaba yoshlarning bo'sh vaqtini band qilish uchun qulay usullardan biri;

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, talaba yoshlar o'rtasida sayohatlar nafaqat sport turizmi balki, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun va ichki turizmni rivojlantirish uchun ham sport turizmini targ'ib qilish nazariy va amaliy ahamiyatga ega jarayondir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Nasiba Shomirzayeva, "Talabalarni sport turizmga qiziqishini rivojlantirish". Ta'lim fan va innovatsiya: 2022 yil. 5-son. 33-35 bet.
2. Nasiba Shomirzayeva, "Jismoniy tarbiya, sport va turizm –sog'lom turmush tarzi kafolati". Bola va zamon: 2023 yil. 2-son.18-19 bet.
3. Nasiba Shomirzayeva, "Turizm va uni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma.2023 yil "Factor-press" nashriyoti.

Xoliyorov Murod Shavkatovich
Termiz Davlat Universiteti “Pedagogika
va ijtimoiy ish” kafedrasida o‘qituvchisi

O‘QUVCHI YOSHLARDA IJTIMOIIY MOTIVLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy motivlari shakllanishi bilan bog‘liqlik omillari yoritilgan bo‘lib, mazkur maqola keng auditoriya uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: kasbiy faoliyat, kasbiy shakllanish, muloqotga intilish motivi, hukmronlik motivi, qobiliyat, ehtiyoj, refleksiya, motiv, motivatsiya.

Xoliyorov Murod Shavkatovich
Termiz State University, Teacher
of the department of
“Pedagogy and social work”

PEDAGOGICAL CONDITIONS OF THE FORMATION OF SOCIAL MOTIVES IN STUDENTS

Abstract. In this article, the factors related to the formation of social motives of elementary school students of general secondary education are highlighted, and this article is intended for a wide audience.

Key words: professional activity, professional formation, communication motivation, dominance motive, ability, need, reflection, motive, motivation.

Холиёров Мурод Шавкатович
Термизский государственный
университет, преподаватель
кафедры «Педагогика и социальная работа»

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ МОТИВОВ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье выделены факторы, связанные с формированием социальных мотивов учащихся начальных классов общего среднего образования, и данная статья предназначена для широкой аудитории.

Ключевые слова: профессиональная деятельность, профессиональное становление, мотивация общения, мотив доминирования, способность, потребность, рефлексия, мотив, мотивация.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N53>

Kirish. Barchamizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF 5847-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini

ta'minlash o'quvchilarning ijtimoiy motivlarini oshirish texnologiyasi yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish kabi dolzarb masalalar qo'yilgan. Bu borada hurmatli yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning "Hayotimizning eng muhim jabhalari uchun yuksak texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar yaratish, malakali mutaxassislar tayyorlash, jahon axborot texnologiyalari bozorida munosib o'rin egallash masalasiga ustuvor ahamiyatga ega vazifa sifatida qarashimiz zarur", -degan fikrlarini aytib o'tish ham joizdir[1].

Shunga binoan mamlakatimiz ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablari darajasiga yetkazishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda ta'lim sohasiga qobiliyatli, voqeiylikni oldindan ko'ra oladigan, to'g'ri qaror qabul qilish mahoratiga ega, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, oqil va barkamol insonni tarbiyalash muammosi qo'yilmoqda. Buning uchun esa, albatta, o'quvchi yoshlarga motivlarni to'g'ri berishimiz kerak.

Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan qator didaktik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradigan o'qitish omillari ichida o'quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish omili birinchi o'rinda turar ekan, ya'ni ta'lim samaradorligi 92% o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishga bog'liq ekan. Inson tabiatini ozgina bo'lsada tushunadigan kishi buning bejiz emasligini e'tirof etadi. Motivlar didaktik jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir.

Faoliyat motivlari deganda o'quv faolligi namoyon bo'lishiga sabab bo'luvchi barcha omillar: ehtiyojlar, maqsadlar, ustanovkalar, burch hissi, qiziqishlar va boshqalar tushuniladi.

Motiv va motivatsiya bilan bog'liq muammolar xorij pedagog va psixologlari tomonidan ko'plab tajribalar o'tkazilgan holda o'rganilgan. Amaliy natijalarga ham erishilgan. Masalan, E.Torndayk, Z.Freyd, S.Tompson, G.Rozenfeld, G.Xannikatt, R. Vudvords, J.Bruner, E.Keyron tadqiqotlarida yuqoridagi fikrlarimiz o'z ifodasini topdi.

G.Rozenfeld o'qish motivatsiyasi xarakterining shakllanishida quyidagi omillarni ko'rsatib o'tgan.

1. Ta'lim olish uchun o'qish.
2. Ma'lum qiziqishlarsiz shunchaki o'qish.
3. Ijtimoiy identifikatsiya uchun o'qish.
4. Muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochish uchun o'qish.
5. Majburlab yoki qo'rqqanidan o'qish.
6. Umum qabul qilingan me'yorlarga yoki axloqiy majburiyatlarga asoslangan o'qish.
7. Hayotda maqsadga erishish uchun ta'lim olish.
8. Ijtimoiy maqsadlarga, talablarga va qadriyatlarga asoslangan ta'lim.

J.Bruner ham o'qish motivlari masalasiga boshqacharoq yondashadi. U o'zining "O'quv jarayoni" nomli kitobida o'quvchining real, yetarli darajada uzoq davom etadigan o'qish jarayonida vujudga keladigan muammolarini amaliy va nazariy tomonlarini e'tirof etgan[2].

J.Bruner faqat o'qishni motivatsiyalash, ya'ni har doim ham o'qish jarayoniga undovchi, anglangan omillar haqidagina emas, shu bilan birga, o'quvchining motivlari haqida ham fikr yuritadi. Garchi uning fikrlari umumiy xarakterda bo'lsa ham, ulardagi ayrim yo'nalishlar diqqatga sazovordir. Bu birinchi navbatda, o'qish jarayonida bilish xarakteridagi motivlarning

ahamiyati va yangi narsani bilishdan paydo bo'ladigan ichki qanoat hissi, himoya masalalarining qo'yilishidir. Shuni e'tirof etish kerakki, ushbu ichki qanoat hissi keyinchalik bilim olishga yo'naltirilgan ijobiy motivatsiya bilan uyg'unlashib ketadi.

Murakkab o'quv materialini o'zlashtirishda ichki motivning moyillik uyg'otuvchi kuch sifatidagi ahamiyati katta, deydi J.Bruner. Masalan, mavzu o'rganilishi jihatidan qanchalik keng bo'lsa, o'quvchi shunchalik ko'p aqliy "rag'batlantirish" (materialni tushunish va o'z imkoniyatlari doirasini kengaytirish ma'nosida) olishi kerak, ana shunda u keyingi mavzuni yetarlicha qiziqish bilan o'rganishga kirishadi. U rag'batlantirish yoki jazolash borasida o'quv jarayonining shakllarini va ularning o'ziga xos xarakterli tomonlarini o'rganadi. Olimning xulosasidan shu fikr kelib chiqadiki, o'quvchilarni o'qishga majbur qiluvchi o'qish motivlari o'qish faoliyatidan tashqarida bo'lgan motivlar bilan belgilanadi. Bu paytda ta'lim jarayonidan o'qish faoliyatiga nisbatan moyillik motivlari rolini doimo oshirib borish talab etiladi.

T.O.Solomanidinaning ta'kidicha, kasbiy faoliyatda motivlari kuchini oshirish psixologik shart-sharoitlari nafaqat o'quv jarayoni bilan balki, shaxsni ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, g'oyaviy, milliy ruhda tarbiyalash orqali ham amalga oshiriladi[3].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari motivlari sohasini o'rganishga oid anchagina ilmiy tadqiqot ishlari pedagog olimlar tomonidan olib borilishiga qaramay, motivlar sohasining muammolari hali ham yetarli darajada o'rganilmaganligi sezilmoqda.

Keyingi yillarda o'zbek pedagog olimlari tomonidan ham o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini tadqiq etishga oid qator keng qamrovli didaktik tadqiqotlar olib borildi. Shunday ishlar qatoriga O.Roziqov, K.Zaripov, N.Ortiqov, B.Adizov, R.Safarova, R.Asadova, U.Musayev, H.Nazarova, G.Najmiddinova, A.Hamroyev kabi olimlarning izlanishlarini kiritish mumkin. Garchand, bu ishlarda motivlarning turli qirralari yoritilgan bo'lsada, ularda o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishning ayrim masalalari bayon qilingan, xolos.

Xususan, R.Safarova o'quvchilarning amaliy faoliyati til materiallarini o'zlashtirish ehtiyojiga ko'ra boshqarilishi zarurligi xususida fikr yuritgan. U o'quvchilarning qiziqishi, faolligi oshirilgan sari amaliy faoliyati ham rivojlana borishini ta'kidlagan[4].

K.Zaripov esa o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish komponentlarini ajratib ko'rsatadi[5].

N.Ortiqov o'quvchilar faoliyatida qiziqish, intilish, maqsad, ishonch kabi qator xarakterli xususiyatlarni ajratadi. Bular faoliyatning mahsuldorligi va yo'nalishini belgilaydi[6].

O.Roziqov o'quv topshiriqlarida mazmun, maqsad, vazifa, usulni ularning invariantlari sifatida ajratgan. U o'quv topshiriqlari invariantlarini o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish, boshqarish vositasi sifatida asoslagan edi[7].

B.Adizov boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish orqali, A.Hamroev esa boshlang'ich sinf ona tili ta'limi sharoitida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini kuzatib, uni an'anaviy ta'lim metodikasidan farqli o'laroq, ijodiy tashkil etish natijasida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatiga rag'bati, layoqati va qiziqishi oshirilishi mumkinligini asoslab beradilar.

G.Najmiddinova tadqiqotlarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini shakllantirish masalalariga alohida yondashilib, o'quv materiali va uning ustida ishlash orqali o'quvchilarda o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirish mumkinligi asoslab beriladi[8].

O'quv-biluv faoliyatiga oid psixologik tadqiqotlar ilmiy izlanishlarning katta qismini tashkil etadi. L.S.Vigotskiy inson faoliyati va psixikasi – ruhiyatining uzviy bog'liqligi tamoyilini

asoslagan edi: psixika faoliyatsiz, faoliyat psixikasiz amal qilmaydi. L.S.Vigotskiyning qarashlarini S.L.Rubinshteyn o'z tadqiqotlarida yanada rivojlantirdi. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, hissiyotlar faoliyat dinamikasi, sur'ati va tonusini belgilaydi. Shuning uchun ham har bir yosh davri uchun xos bo'lgan motivlar sohasining belgilangan rivojlanish qonuniyatlari ta'limning yangi dasturlarini ishlab chiqish hamda unda maxsus vazifalarni belgilash orqali o'quv-biluv motivlarini faollashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi[9].

A.N.Leontev esa motivlar insonga faoliyati uchun, shuningdek, o'quv faoliyati uchun ham turtki bo'ladi va uni yo'naltiradi deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, faoliyat – bu subektning borliqqa faol munosabatidir. Motiv va maqsadning bir-biriga mos kelishi faoliyatning eng muhim xususiyatidir[10].

Tahlil va natijalar: Mavzuimiz doirasida pedagog va psixolog olimlar tomonidan turli nazariyalar ilgari surilgan. Quyida ushbu qarashlar haqida to'htalib o'tamiz. Avvalo, *motivlarning darajasi va turlarini sanab o'tsak:*

1. Keng kognitiv motivlar: yangi bilimlarni egallashga yo'naltirish: faktlar, hodisalar, naqshlar. Ular muammolarni hal qilishda, qo'shimcha ma'lumot olish uchun o'qituvchiga murojaat qilishda namoyon bo'ladi.

2. O'quv va kognitiv motivlar: bilim olish usullarini, mustaqil bilim olish usullarini o'zlashtirishga yo'naltirish. Ular yechimni topish uchun mustaqil harakatlarda, o'qituvchining turli xil ish usullari to'g'risida bergan savollarida namoyon bo'ladi.

3. O'z-o'zini tarbiyalashning motivlari: qo'shimcha bilimlarni olishga va keyin o'z-o'zini takomillashtirish uchun maxsus dasturni qurishga e'tibor berish. O'z-o'zini o'qitish motivlari o'qituvchiga o'quv jarayonini oqilona tashkil etish, o'z-o'zini o'qitishning haqiqiy harakatlarida takliflar bilan murojaat qilishda uchraydi.

Quyidagi motivlarning ahamiyati haqida ham to'htalib o'tsak:

1. Keng ijtimoiy motivlar: burch va javobgarlik, ta'limotning ijtimoiy ahamiyatini tushunish. Ular o'quvchining o'z burchi va mas'uliyatini anglashini ko'rsatadigan harakatlarda namoyon bo'ladi.

2. Tor ijtimoiy yoki pozitsion motivlar: boshqalar bilan munosabatlarda muayyan pozitsiyani egallash, ularning roziligini olish istagi

3. Ijtimoiy hamkorlikning motivlari: boshqa odam bilan o'zaro munosabatlarning turli usullariga yo'naltirish. Ular jamoaviy ishlarga intilish va uni amalga oshirishning oqilona usullarini tushunishda namoyon bo'ladi.

Shaxsiy motivlarga o'z-o'zini hurmat qilish va hirs hissi, tengdoshlar orasida obro' - e'tiborga ega bo'lish istagi, referent sheriklarga taqlid qilish, shaxsiylashtirish istagi kiradi.

Mavzuni davom ettirgan holda shuni aytib o'tish lozimki, ta'lim motivatsiyasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Ta'lim motivlarining kuchi va barqarorligi. Agar biz o'quv motivining kuchini ko'rib chiqsak, u o'quvchining to'xtovsiz intilishining ko'rsatkichidir va ehtiyoj va motivning o'zi, uning intensivligi to'g'risida xabardorlik darajasi va chuqurligi bilan baholanadi.

O'quv motivining barqarorligi. U o'quvchining o'quv va kognitiv faoliyatining barcha asosiy turlarida mavjudligi bilan baholanadi.

Ta'lim motivlarining quyidagi funksiyalarini ajratish mumkin:

a) rag'batlantiruvchi funksiya-sabab o'quvchining faoliyatini, uning xatti-harakatlarini va faoliyatini keltirib chiqaradi va belgilaydi;

b) motivning energiyasining ma'lum bir ob'ektga yo'nalishini aks ettiradigan qo'llanma funksiyasi;

s) tartibga solish funksiyasi, uning mohiyati motivning xulq-atvor va faoliyatning tabiatini oldindan belgilab qo'yishidir.

Quyida esa maktab o'quvchilari uchun motivatsiyani shakllantirish yo'llarini sanab o'tamiz:

1. Umuman motivatsiyani shakllantirishga yordam beradigan yo'llar:

- o'quvchilarni jamoaviy faoliyat shakllariga kiritish;
- o'quvchilarni baholash faoliyatiga jalb qilish va o'z-o'zini hurmat qilishni shakllantirish;

- o'quvchi-o'qituvchi hamkorligi, qo'shma o'quv faoliyati;

- o'quvchilarning bilim faolligini rag'batlantirish, ijodiy muhit yaratish;

- o'quv materiallarini taqdim etishning qiziqarli shakli (materialni taqdim etishning g'ayrioddiy shakli, o'qituvchining nutqining hissiyligi, kognitiv o'yinlar, ko'ngilochar misollar va tajribalar);

- rag'batlantirish va jazodan mohirona foydalanish.

2. Motivatsiyaning individual tomonlarini mustahkamlash uchun maxsus topshiriqlar.

- o'quvchilarning o'qishini mustahkamlash va rivojlantirish (hamkorlikka tayyorlikni rag'batlantirish, pedagogik ta'sirlarga ochiqlik, o'z pozitsiyasini mustahkamlash va o'z tanlovini amalga oshirish istagini kuchaytirish);

- motivlarni, o'z sub'ektiv pozitsiyasini mustahkamlash va anglash uchun tanlov holatlarini yaratish;

- ta'limotda maqsadlarni belgilashni o'rgatish (o'z-o'zini hurmat qilish va da'volarning etarli darajasini mustahkamlash, maqsadlarni amalga baholash, ularning imkoniyatlarini faollashtirish qobiliyati);

- maqsadlarning barqarorligi va ularni amalga oshirishda qat'iyatlilik.

3. Darsning alohida bosqichlarida motivatsiyani shakllantirish.

- boshlang'ich motivatsiyani chaqirish bosqichi;

- motivatsiyani kuchaytirish va mustahkamlash bosqichi;

- darsni yakunlash bosqichi.

Xulosa. Motivlar bilan organik aloqada faoliyat manbai va harakatlantiruvchi kuch bo'lgan ehtiyojlar mavjud. Ehtiyoj mavzusi aniqlanganda, u sabab maqomini oladi. Shu munosabat bilan, o'rganish motivini aniqlanadigan ehtiyoj sifatida aniqlash mumkin. Xulosamiz shuki, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyatini motivlashtirishda o'qituvchi juda muhim o'rin egallaydi. Chunki u ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sub'ekt sifatida o'quvchilarning faoliyatini ham bevosita boshqarib boradi.

Ehtiyojlar, motivlar, stimullar – fikrimizning amaldagi ifodasidir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni stimullashtirish ularda o'quv-biluv motivlarining boshqa motivlardan ko'ra kuchliroq bo'lishiga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida nazariy va eksperimental natijalar umumlashtirilib, asosiy xulosalar keltiriladi.

1. Yuqorida qayd etilganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o'qituvchilarni zamon bilan hamnafas bo'lishga, o'zining v

qobiliyatlarini shakllantiribgina qolmasdan, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'ra olishi zarur.

2. Har-bir o'qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o'z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o'rgatadi hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni tarbiyalaydi.

3. O'qituvchi kasbiy jihatdan o'zligini anglagan holda o'quvchi shaxsini ko'ra olishi va uning fikr o'ylari, tashvish-quvonchlariga ega bo'la olish, auditoriyaning qiziqishlari va manfaatlarini ilmiy-ijodiy yondoshuvi talab qiladi. Chunki ta'lim-tarbiya jarayoni boshlang'ich sinf o'qituvchilardan qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilishi va o'quv jarayonining natijasi ideal bilan qiyoslanishi lozim.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 24.10.2020 y.
2. Muslimov N.A. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok...diss.-T.:2007,-315.b.
3. Chjay Xunyun. Metodicheskie podxody k sovershenstvovaniyu podgotovki budущix uchiteley nachalnyx klassov k primeneniyu informatsionnyx i kommunikatsionnyx texnologiy v professionalnoy deyatelnosti dis. ...kand. Ped. nauk: 13.00.08, 2018. - 175 s.
4. Galiullina Ye. N. Metodicheskaya podgotovka budущix uchiteley nachalnyx klassov k obucheniyu mladshix shkolnikov resheniyu "otkrytyx" zadach : dis. ... kand. ped. nauk : 13.00.02, 2006 198 s.
5. Sharipov Sh., Muslimov N., Ismoilova M., "Kasbiy ta'lim pedagogikasi". - T.2005 y.
6. G'afarov E. Innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya va innovatsion faoliyat: ilmiy-nazariy yondashuvlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2019 yil, 10-son. 153-157 betlar.
7. Azizova G.G. Oliy ta'lim muassasalari professor- o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissert. avtoreferati. Samarqand – 2019.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so'zlagan Murojaat nutqi.// "Xalq so'zi" gazetasi 2020 yil 1 oktabr soni.
9. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. Uchebnik dlya VUZov. – SPb.: "Piter" 2001.
10. GESsen S.I. Osnovy pedagogiki. –M.,1995.
11. Adams, J. Steysi. "Tenglikni tushunishga" Anormal va jurnali, 1963 yil noyabr, 422-436.
12. Alderfer, Kleyton P. mavjudlik, qarindoshlik va o'sish: tashkiliy sharoitlarda inson ehtiyojlari. Nyu-York: Bepul Matbuot, 1972.
13. Foss, Nikolay. "Agentlik nazariyasi va ichki motivatsiya". "Tashkilotlar va bozorlar" 20 noyabr 2007:
14. Gordon, Judit R. Tashkiliy Xulq-Atvor: Diagnostik Yondashuv. Prentice Hall, 2001.
15. Gertsberg, Frederik, B. Mausner va B. Snayder. Ishlash uchun motivatsiya. Nyu York: Makgrou-Tepalik, 1959.

Хамроқулова Дилнавоз
Fan va texnologiya universiteti
"Ижтимоий фанлар" кафедраси катта ўқитувчиси

БОЛАЛАРДА ТАБИАТГА ДОИР ТАСАВВУР ВА ТУШУНЧАЛАРНИ ШАКЛЛАНИШИ

Аннотация. Табиат билан инсон ўртасидаги уйғунликни таъминлашда экологик таълим-тарбиянинг роли ниҳоятда катта. Ушбу мақолада болаларда табиатга доир тасаввур ва тушунчаларни шаклланиши хақида суз юритилган.

Калит сузлар: Таълим тизими, табиат, экологик таълим-тарбиянинг роли, баркамол инсон, тарихий обидалар, халқимизнинг анъаналари, ўсимликлар дунёси, ҳайвонот олами.

Khamrokulova Dilnavoz
University of Science and Technology
senior teacher of the department of "Social sciences"

FORMATION OF IMAGINATION AND CONCEPTS ABOUT NATURE IN CHILDREN

Abstract. The role of environmental education in ensuring harmony between nature and society is extremely large. In this article, it is discussed about the formation of imagination and imagination in children about nature.

Key words: Education system, nature, the role of ecological education, perfect culture, historical monuments, traditions of our people, the world of indigenous peoples, animal world.

Хамроқулова Дилнавоз
Университет науки и технологии
Старший преподаватель кафедры «Общественные науки»

ФОРМИРОВАНИЕ ВООБРАЖЕНИЯ И ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ПРИРОДЕ У ДЕТЕЙ

Аннотация. Роль экологического образования в обеспечении гармонии между природой и обществом чрезвычайно велика. В данной статье речь идет о формировании воображения и воображения у детей о природе.

Ключевые слова: Система образования, природа, роль экологического образования, совершенная культура, исторические памятники, традиции нашего народа, мир коренных народов, животный мир.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N54>

Кириш. Инсоннинг табиатига, қолаверса, ўзига нисбатан янги муносабатларнинг шаклланишини таълим тизимининг барча босқичларида амалга ошириладиган узлуксиз экологик таълим ва тарбия тақозо этади. Ўз навбатида бу баркамол инсоннинг шаклланишида пойдевор бўлиб хизмат қилади. Табиатга нисбатан муҳаббат уйғотиш она Ватанга, унинг табиат ёдгорликлари, тарихий обидалари, халқимизнинг анъаналарига ҳурмат руҳида тарбиялашга, юксак маънавиятли шахснинг шаклланишига олиб келади.

Табиат бу шубхасиз битмас-туганмас хазинадир. Ёш қалбнинг тўғри ўсиб шаклланишида ўсимликлар дунёси, ҳайвонот олами, табиатда юз берадиган воқеа-ҳодисаларнинг сир-асрорини ўрганиб вояга етишида катта манба бўлиб хизмат қилади.

Жонли табиатдаги барча мавжудотлардан энг қудратлиси инсондир. Инсон фикрлайди, меҳнат қилади, турли кашфиётлар ихтиро қилади. Табиат инсонни маънавий бойитишнинг битмастуганмас манбаидир. Табиат билан инсон ўртасидаги уйғунликни таъминлашда экологик таълим-тарбиянинг роли ниҳоятда катта.

Асосий қисм. Таълим тизимининг барча босқичларида амалга ошириладиган узлуксиз экологик таълим ва тарбия инсоннинг табиатига, қолаверса, ўзига нисбатан янги муносабатларнинг шаклланишини тақозо этади. Бу ўз навбатида баркамол инсоннинг шаклланишида пойдевор бўлиб хизмат қилиши мумкин. Табиатга нисбатан муҳаббат уйғотиш она Ватанга, унинг табиат ёдгорликлари, тарихий обидалари, халқимизнинг анъаналарига ҳурмат руҳида тарбиялашга, юксак маънавиятли шахснинг шаклланишига олиб келади[1].

Боланинг онги ўсишида жонли ва жонсиз табиатга бўлган қизиқишнинг ортишида теваккатрофдаги табиатнинг роли беқиёс каттадир. Шунинг учун ҳам боғча ёшидан бошлаб табиат ҳақида дастлабки тушунчаларни бериб бориш табиатни ўрганишнинг асосий мақсади бўлиб қолади. Бола яшаб турган жой табиатини ёки жонажон ўлкасини табиатни ўрганиш орқали табиатни ўрганишни бошлайди. Бунда болалар, аввало, ўзи тарбияланадиган боғча ва мактаб майдончасидаги, унинг теваккатрофидаги ўсимлик ва ҳайвонлар билан, у ернинг суви, тупроғи, иқлими билан танишадилар.[2] Бунинг фойдали томони шундаки, ёш болалар ўзи яшайдиган, ўзи тарбияланадиган ердаги ўсимлик ва ҳайвонларни ҳар куни кўради, уларни номини бир кунда бир неча марта эшитади. Бу-болалар ёдида тез қолиб, узоқ сақланади. Болаларни табиат билан таништирар эканмиз, табиатга доир билимларнинг содда, ҳаётий, тушунарли эканлигини ҳам алоҳида эсда сақлашимиз лозим. Бола атрофидаги воқеа-ҳодисаларни зўр иштиёқ билан кузатади ва ундан кучли таъсирланади, у ҳақда ҳаяжон билан сўзлаб беради. Болалар ўзларини қизиқтирган нарсаларни узоқдан кўриш билангина қониқмайдилар, уйга келтирилган нарсаларни албатта улар кўришни, иложи бўлса уни ҳаракатта келтириб кўришни истайдилар[3].

Шунинг учун ҳам ота-оналар уйга олиб келинган буюмларни, предметларни, сабзавот, мева ва ҳайвонларнинг номи ҳамда нима учун ишлатилиши, фойдали ёки зарарли томонларини, нима учун кераклигини тушунтириб беришлари лозим. Ана шулар натижасида болаларда кузатувчилик, билимга қизиқиш, тафаккур ва нутқ ҳам таркиб топади, янги тушунчалар ҳосил бўлади, уларнинг сўз бойлиги ортади. Бола табиат билан яқиндан муносабатта бўлиб, ўз ўлкасини, туғилиб ўсган ерини, Ватанини янада кучлироқ севиб қолади. Гулларнинг ва меваларнинг ҳиди, шакллари ранглари, қушларнинг сайраши, ариқларда сувнинг шарқираб оқиши, ўт ва қуруқ баргларнинг шитирлаши болаларга табиатдаги нарса ва ходисаларни ҳис қилишга имкон беради, уларда эстетик ҳиссиётни тарбиялаш ва ўстириш учун бой материал бўлиб хизмат қилади.

Болалар табиатни ўрганар эканлар, табиатдаги нарса-ҳодисаларнинг доимо бир хилда турмаслиги, чунончи, йил фаслига қараб, ўрмон, боғ, дала ҳамда дарёлар ташқи

кўринишининг ўзгариши, дарахтларнинг гуллаши, мева бериши каби қонуний боғланишларни билиб оладилар[4].

Табиатдаги нарса ва ҳодисалар табиий сабаблар билан қонуний равишда ўзгаришини, моҳиятини англаб олиш айниқса муҳим. Табиатни ўрганиш давомида ҳар хил воқеа-ҳодисалар, предметлар, жонли-жонсиз табиат жисмлари, ҳаво хоссалари, вақт ҳақида дастлабки тасаввур ва тушунчаларга эга бўладилар.

Кузатишлар вақтида болалар кундалик ҳаётнинг нарсаларини қабул қилиб, улардаги ўхшашлик ва тафовут, белгиларини топадилар, уларда оддий тушунчалар шаклланади. Фикрлаш жараёнида болаларда аниқ тушунчалар вужудга келади. Масалан, “бу-қизил гул”, “бу дарахт”. Тушунча, тасаввурнинг ҳосил бўлишида, фикрлаш жараёнида жисм ва ҳодисаларни таҳлил қилиш, синтезлаш, таққослаш ва умумлаштириш катта ўрин олади. Фикр бевосита қабул қилиш ва тасаввурлар асосида шаклланади. Масалан, “дарахт илдиз, тана, поя, барг, гуллар ва мевалардан иборат” деган фикр дарахтларни кузатиш, уларнинг хусусиятларини аниқлаш ва таҳлил қилиш, ўсимликнинг аталган қисмларни таққослаш, тегишли хулоса чиқаришга асосланган. Фикрлаш фаолияти жараёнида болаларда атроф-олам тўғрисида тушунчалар шаклланади. Тушунча очиб бериладиган фикрлар йиғиндисини, унинг мазмунини ташкил қилади. Табиат жисмлари ёки объектларнинг бирортаси тўғрисида болалар қанча кўпроқ фикр айтсалар, тушунчалар мазмун жиҳатдан шунчалик бойроқ бўлади, бу фикрларда ифодаланган белгилар қанчалик муҳимроқ бўлса, тушунча мазмун жиҳатдан шунчалик чуқурроқ бўлади.

Чехиялик машҳур педагог Я.А.Коменский башарият тарихидан демократик педагогиканинг асосчиси сифатида ўрин олган. У ўзининг онгли ҳаётини ва амалий педагогик фаолиятини, яратган илмий асарларини болаларни ўқитиш ва тарбиялашдек олижаноб ишга бағишлаган.

Унинг фикрича, инсон табиатнинг энг гўзал мавжудотидир. Инсон табиатга эргашиб, ҳамма нарсани билиб олиши мумкин. Ўзининг «Буюк дидактика», «Тиллар ҳамма фанларнинг очиқ эшиги», «Физика», «Фалакиёт», «Оналар мактаби», «Тинчлик фариштаси» каби асарларида ўзининг муҳим педагогик ғояларини ифодалаган[4].

Объектив борлиқнинг таркибий қисми бўлган табиатни, ундаги ҳар хил ходисалар ва жараёнларни кўриш, кузатиш натижасида болаларда юзлаб саволлар туғилади. Дарахтларнинг ўсиб ривожланаётганлиги, ям-яшил япроқларга бурканиб турганлиги, дала-ю қирларга ўт-ўланларнинг гуркираб турганлиги, осмонда қушларнинг парвоз этиб учаётганлигини, шарқираб оқаяётган сой ва анҳор сувларида хилма-хил балиқлар ва бошқа жониворлар яшаётганлигини ўз кўзи билан кўрган кузатган бола тарбиячиларга қарата “Нима учун дарахтлар гуллайди?”, “Балиқлар нима билан овқатланади?”, “Балиқлар ҳам ухлайдими?”, “Қушлар кечаси қаерда яшайди?” деган сон- саноқсиз саволларни бера бошлайди. Болалар томонидан бер илаётган саволларга ажабланмасдан, аксинча саволларни болаларнинг табиат ҳодисаларига қизиқиши кучайиб бораётганлиги белгиси сифатида қараш керак[5].

Шунинг учун ҳам ота-оналар, тарбиячи ва ўқитувчилар болалар тамонидан бериладиган барча саволларга уларнинг ёш хусусиятлари, савияларининг ривожланиш даражасини инобатга олиб, қисқа, содда, аниқ ва тушунарли қилиб жавоб беришлари мақсадга мувофиқ. Берилган жавобни болалар тўла ўзлаштира олмасликлари ҳам

мумкин. Шундай пайтда тарбиячи ва ўқитувчилар болаларнинг табиатга оид қизиқишлари ривожланишини тўхтатмаслик, уларни ҳижолат қилмаслик учун “ҳадемай сен улғайиб катта бўлсанг, кўплаб китобларни ўқийсан, бугун билмаган ва тушунмаганларингни кейинчалик мукамал билиб оласан”деб уларни ишонтириш лозим[6].

Шундай экан, мактабга тайёрлов гуруҳи ва биринчи синф болаларининг табиатга доир тасаввур ва тушунчаларининг шаклланишида узвийликни таъминлаш зарур, бунда тарбиячи ва ўқитувчиларнинг хизмати каттадир. Чунки, бу ишлар мактабгача таълим муассасаларидан бошланиб, бошланғич синфларда болаларга табиатга доир тасаввур ва тушунчаларни шакллантириш изчиллик асосида давом эттирилгандагина, улардаги билим, кўникма ва малакалар ривожланиб боради.

Хулоса. Маълумки, Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгандан сўнг ўз миллий қадриятларини тиклаш йўлида жамият ҳаётининг ҳар бир жабҳасида собитқадамлик билан иш олиб бормокда. Хусусан, табиат билан инсон муносабатларига оид муаммоларни ҳал қилиш энг муҳим масала булиб келмокда. Дастлаб бу педагогик жараёни оила ва МТМлардан бошламоқ зарур. Шунга кўра болалар боғчаларида таълим-тарбия бераётган тарбиячиларнинг олдида энг муҳим вазифаларидан бири ҳам болаларнинг табиат гўзалликларини кўра билиши, уни севиши, табиатда юз берадиган воқеа-ҳодисалар ҳақида тўғри тушунчага эга бўлиши, табиат бойликларидан оқилона фойдаланиш руҳида тарбиялаш муҳим педагогик муаммо ҳисобланади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. О.Ҳасанбоева, Х.Джабборова ва бошқалар. «Болаларни табиат билан таништириш методикаси» «Чўлпон», 2009 й.
2. П.Юсупова «Мактабгача ёшдаги болаларга экологик тарбия бериш» -Т.: «Ўқитувчи», 1995 й.
3. О.Ҳасанбоева «Педагогика тарихидан хрестомая» -Т.: «Ўқитувчи», 1993 й.
4. Haydarov Q., Nishonova S.Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabit bilan tanishtirish.- Toshkent,"O'zbekiston",1992.
5. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda ekologik tarbiya berish.-Toshkent, "O'qituvchi", 1995.
6. Маджидова Д.А., Исламова Н. Шахснинг китобхонлик маданиятини ривожлантириш - мустақил ижодий тафаккур асоси / “Узлуксиз таълим жараёни субъектларининг китобхонлик маданиятини ривожлантириш: муаммолар ва ечимлар”. Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон Педагогика фанлари илмий тадқиқот институти, 2020 йил 20-21 октябрь. – 60-64 б. 6.
7. Дилдора Маджидова. Стратегия повышения профессионализма педагогов в дошкольных образовательных организациях / “Янги Ўзбекистонда педагогик таълим инновацион кластерини ривожлантириш истиқболлари” мавзусидаги халқаро илмийамалий анжуман, 2022 й. 20-21 май, 230-233.

Tursunova Shaxzoda Baxromovna

PhD, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
Email: tshahzoda582@gmail.com

TEKNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING IJODKORLIK QOBILIYATI VA BOSHQARUV MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak texnologiya ta'lim o'qituvchilarining ijodkorligini rivojlantirish orqali texnologik faoliyatga tayyorlash, o'quv-tarbiya jarayonida ijodkor, yuqori malakali bo'lishiga, ular tayyor bilimlarni qabul qilib oluvchi emas, balki bilim olishi, faollashishiga, mas'uliyat hissining oshishiga, o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishiga alohida e'tibor berish, bo'lajak ijodkor pedagogning rivojlanishiga zamin yaratish masalasi yoritib berilgan.

Tayanch iboralar: talaba, ta'lim, kasbiy kompetentlik, ijodkorlik, ijodiy jarayon, qobiliyat, rivojlantirish, zaruriyat, ehtiyoj, motivatsiya, e'tibor, optimallashtirish.

Tursunova Shakhzoda Bakhromovna

PhD, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences,
Teacher of Namangan State University

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF DEVELOPING CREATIVE ABILITY AND MANAGEMENT SKILLS OF TECHNOLOGY EDUCATION TEACHERS

Abstract. In this article, special attention is paid to the preparation of future teachers of technological education for technological activities by developing their creative abilities, mastering their knowledge, activating, increasing their sense of responsibility as highly qualified specialists, where they become active participants in the educational process, and do not acquire ready-made knowledge, also highlights the issue of creating conditions for the development of the creative potential of the future teacher.

Key words: student, education, professional competence, creativity, creative process, abilities, development, necessity, need, motivation, attention, optimization.

Турсунова Шахзода Бахромовна

PhD, Доктор философии педагогических наук.
Преподаватель Наманганского
государственного университета

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ И УПРАВЛЕНЧЕСКИХ НАВЫКОВ ПЕДАГОГОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется подготовке будущих педагогов технологического образования к технологической деятельности путем развития их творческих способностей, овладению ими знаниями, активизации, повышению чувства ответственности как высококвалифицированных специалистов, где они становятся активными участниками образовательного процесса, а не усваивают готовые знания, также освещается вопрос создания условий для развития творческого потенциала будущего педагога.

Ключевые слова: студент, образование, профессиональная компетентность, творчество, творческий процесс, способности, развитие, необходимость, потребность, мотивация, внимание, оптимизация.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N55>

Kirish. Bugungi kunda dunyo hamjamiyati hayot faoliyatining barcha soxalarida ko'p qirrali o'zgarishlar bo'lib o'tmoqda, bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarni shakllantirishga yangicha yondashuvni talab etadi. Butun dunyoda bo'lgani singari yurtimizda ham ta'lim maqsadlari sohasida kechayotgan o'zgarishlar, insonning ijtimoiy olamga kirishini ta'minlashga qaratilgan global masalalarga mos keladi. Xususan, ta'lim tizimini takomillashtirish hujjatlarida ijodkorlik sifatleri ta'lim mazmunini yangilashning muhim bir kontseptual holati deya e'tirof etilmoqda. Ta'lim tizimida ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish uchun real hayotda va kasbiy amaliyotda asosiy kompetentligini ko'llash qobiliyatiga ega bo'ladigan texnologiya ta'limi yo'nalishlari kadrlarini tayyorlash zarur vazifalardan biridir. Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda samarali texnologiya ta'lim tizimini joriy etishga qaratilgan tub islohotlar natijasida bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilari ijodkorligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shartsharoitlari imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarining ijodkorligini rivojlantirishning amaldagi metodikasi va o'quv-uslubiy ta'minotini ilg'or yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda o'zlashtirish natijalari mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning ijodiy iste'dodlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. O'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri yoshlarning tashabbuslari, innovatsion g'oya va fikrlarini, iste'dod va iqtidorini o'z vaqtida ko'ra olish va uni ro'yobga chiqarish uchun ko'maklashishdan iboratdir. Yoshlardan ijodkorlik qobiliyati va boshqaruv mahoratini rivojlantirish orqali yuksak ma'naviyatli yetakchi yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakat taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo'naltirish talab etiladi. Bugungi kunda bo'lajak pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab etilayotgan ekan, uning bilimdonligi qay darajada ekanligini tahlil qilish o'ta muhim sanaladi. Bunda albatta bo'lajak pedagogning kasbiy bilimdonligi va kompetentligi aloxida ahamiyat kasb etadi. [1; B.80-83.]

Mavzuga oid ilmiy manbalarning qisqacha tahlili. Avvalo, ijodkorlik deganda qo'lga kiritilgan yutuqlar tushuniladi. Ijodkorlik insonning shunday faoliyatiki, unda o'ziga xos yangi qadriyatlar yaratiladi, qilingan ijodiy jarayonning natijasi, mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni bunda biror yangilik yaratiladi, yaratilgan yangilik orqali esa o'quvchi qobiliyati o'sadi, o'z shaxsiy fikrini bayon etib, u faollashadi. O'quvchi faollashdimi, demak u mustaqil fikr yuritadi, mantiqiy fikrlash orqali mustaqil tasavvurga ega bo'ladi. Olimlar M.Ochilov, N.Muslimov, B.Ziyomammedovlarning ijodkorlik masalasida turli qarashlari mavjud. Masalan, M. Ochilov "Muallim qalb me'mori" kitobida shunday berilgan:

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- umuminsoniy va milliy madaniyatni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, ma'naviy barkamol;
- O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini anglagan, e'tiqodli fuqaro;
- ixtisosga doir bilimlarni, shuningdek psixologik-pedagogik bilim- va mahoratni mukammal egallagan;
- o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, insonparvar, talabchan, adolatli, pedagogik odobli;

– erkin va ijodiy fikrlay oladigan, o'quvchilarni ulg'ayib yaxshi odam bo'lishiga ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanishiga ko'maklashadigan kishi bo'lmog'i kerak – deb ta'kidlaydi.

Taniqli olim N.A.Muslimovning e'tirof etishicha pedagogik ijodkorlikni quyidagicha darajalarga bo'lish mumkin :

- ijodkorlikning birinchi darajasi – auditoriyadagi talabalar bilan o'zaro elementar aloqalar va muloqotni o'rnata olish. Bunda pedagog talabalar bilan qayta aloqa o'rnatadi, o'zining ta'sirini o'tkazish asosida pirovard natijani ta'minlaydi, "o'rgangan metodikasi, o'rgangan va orttirgan" tajribasi asosida ish yuritadi.

- Ijodkorlikning ikkinchi darajasi – mashg'ulotlarda o'z faoliyatini optimallashtirish, rivojlantirishdan boshlanadi. bunda u o'ziga ma'lum bo'lgan mazmun, metod, shakllarni ustalik bilan tanlaydi va yangi maqsad sari intiladi.

- Ijodkorlikning uchinchi darajasi – evristik yondashuv o'qituvchi ijodiy, jonli muloqot asosida talabalar bilan samimiy muloqot qilish uchun muhit yaratadi.

- Ijodkorlikning to'rtinchi darajasi – bu pedagogning yuqori darajada to'liq mustaqil ijodiy muhitda ish yuritishi bilan xarakterlanadi. Ijodkorlikning bir qator sifatleri, atama va tushunchalari mavjud: [2; B.33.]

O'qituvchining so'nggi paytlarda oliygohlarda keng joriy qilinayotgan innovatsion texnologiyalarni qo'llash va uni hal etish istiqbollari dolzarb muammoga aylanmoqda. Buning sababi shuki, pedagogik faoliyatga xos bo'lgan kasbiy bilimga ega bo'lishi, mustaqil pedagogik faoliyatga va ijtimoiy munosabatlarga, shu jumladan pedagogik jamoa tarkibida ham tayyorlash va moslashtirish kerak. Kasbga yo'naltirib o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, yaratish va ularni boshqarish, orqali ta'lim va tarbiyaning bugungi dolzarb vazifalarni hal qilib beradi. Shu boisdan ham pedagogik innovatsiyalarni izlab topish o'rganish, tahlil qilish orqali eng ko'p samara beradiganini tanlab olish va ularni amaliyotga qo'llash tartibini belgilash maqsadga muvofiqdir. SHuning uchun o'qituvchi talabani faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublar, o'qitish shakllari va vositalarni izlaydi, ularni takomillashtiradi.

Jamiyat hozirgi kunda o'qituvchining shaxsiga qo'yadigan talablardan biri bu uning ijodiy faolligi, kasbiy mahoratini ro'yobga chiqarishga ijodiy yondashish, ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish ko'nikmalarining mavjudligidir. Zamonaviy sharoitda har bir o'qituvchi o'zida quyidagi pedagogik qobiliyatlarni tarbiyalay olishi kerak

- 1) diqqatni faol torta olish qobiliyati;

- 2) hissiy sezgirlik (texnologik ziyraklik, boshqalarga hamdard bo'la olish, ichki sezgiga ega bo'lish);

- 3) harakatchanlik, ta'lim jarayoni ishtirokchilariga irodaviy ta'sir ko'rsatish va ishontirish qobiliyatiga egalik;

- 4) hissiy barqarorlik (o'z-o'zini tuta bilish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish);

- 5) kelajakni maqbul holda bashoratlay bilish;

- 6) texnologik mustaqillik, ijodiy qobiliyatga egalik. Iste'dod faqat shaxsning individual rivojlanishiga yordam beradigan sharoitda rivojlanadi va shakllanadi. Ushbu shartlar hamma narsa o'quv jarayonini tashkil etishga, uning yaxlitligiga yo'naltirilishi kerakligini anglatadi, bunda barcha fanlar insonning ijodiy salohiyatini faollashtiradi, uning ma'naviy kuchini, ijodiy

ishtiyoqini uyg'otadi, bunda har qanday mavzuni o'qitish usuli tayyor bilimlarni passiv idrok etishni istisno qiladi. O'qituvchilarining ijodiy shaxsiyati va uning talabalarining ijodini rivojlantirishga qaratilganligi talabalarining g'ayrioddiy vaziyatlarda samarali fikrlashga va o'ziga xoslikni namoyish etishiga kafolat beradi.

Asosiy qism. Hozirgi kunda o'qituvchi talabaning ijodiy rivojlangan shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga bog'liq bo'lgan asosiy faol vositaga aylanmoqda. SHuning uchun bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchisi birinchi navbatda o'zi ijodkor, keng miqyosli fikrlaydigan, ijodiy, bilimdon bo'lishi kerak. SHu munosabat bilan bo'lajak o'qituvchining shaxsiga yuqori talablar qo'yilishi kerak. Bu o'qituvchining o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati bizning kelajagimiz qanday bo'lishini belgilaydi. Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini texnologikiy va pedagogik tayyorlashning asosiy maqsadi mustaqil ijodiy tafakkurga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashdir. Faqatgina maxsus bilimlarga ega bo'lish yaxshi bitiruvchini tayyorlash uchun yetarli emas, shaxsning intellektual kompetentlikka ega bo'lishi, ijodiy salohiyatiga egalik darajasini hisobga olish kerak. Bizning fikrimizcha, bularning barchasi bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda aks ettirilgan bo'lishi kerak, ularning faoliyati ijodkorlik, o'ziga xoslik va ijodiy salohiyatsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Oliy ta'lim - bu tsivilizatsiyalashgan rivojlanishning yuqori bosqichida yangi bilimlar timsoli bo'lib, unda berilgan bilimlarning to'liqligi bilan tavsiflanadi. Oliy ta'lim tadqiqot va o'qitishning birligi bilan ajralib turadi. Bu yerda o'qituvchi faol tadqiqotchi, talaba esa ushbu ishda faol ishtirok etadi. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'zlari tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlari kerak, ushbu bilimlarni motivatsiya, o'ziga xoslik va fikrlash ravonligi bilan bir qatorda muayyan pedagogik shartlarga rioya qilgan holda og'zaki bo'lmagan ijodkorlikni rivojlanishiga olib keladigan ijodiy o'zini namoyon qilish uchun asos sifatida ishlatish lozim. Faqatgina fikrlashda o'ziga xoslik va ravonlikni namoyish etish uchun maxsus bilimlar yetarli emas, talabalarni nafaqat ijodiy faoliyatga, balki umuman o'qitish, kelajak texnologikiga ijobiy munosabatda bo'lish uchun yuqori darajadagi motivatsiyaga ega bo'lishi kerak. Shu sababli, bitiruvchilarning amaliy faoliyati uchun ma'lum fanlarning ahamiyati to'g'risida asosli tushuntirish zarurligini tushunamiz. Ushbu individual jihatlar, shuningdek texnologikga bo'lgan munosabat o'qituvchi ta'limi bakalavrlarining ijodiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Mamlakatdagi mavjud vaziyat pedagogik faoliyatga qobiliyatli talablarni jalb qilish taqozo etmoqda, ularning mazmuni va asosiy maqsadi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bo'lishi maqsadga muvofiqdir.. Va bu jamiyat yosh avlodni hayotga tayyorlashga ishonadigan mutaxassislar xarakteridagi jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. Ijodkorlik yangi vaziyatni tanish vaziyatda ko'rish va uni hal qilish yo'llarini, texnologikiy pedagogik faoliyatning allaqachon ma'lum bo'lgan usullarini mustaqil ravishda birlashtirish va o'zgartirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari o'quv jarayonida o'z o'rnini qoldiradi. O'qituvchining texnologikiy salohiyatidan tashqari, uning nostandart, ijodiy vazifalarni hal qilish qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Bu og'zaki yoki og'zaki ijodni rivojlantirishda namoyon bo'lgan bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv jarayonining ijodiy tarkibiy qismini kuchaytirishni talab qiladi. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilari qanday bo'lishi, mashg'ulotning turidan qat'iy nazar, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qarorlarni qabul qilishi kerak, Ushbu omillar reproduktiv yo'naltirilgan texnologik ta'limni shaxsiy va ijodiy yo'naltirilgan ta'limga almashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bunday talabalar nafaqat

texnologik ta'limdagi doimiy o'zgarishlarga tezda javob beradilar, balki ularni yangi intellektual muammolarni hal qilishdan hayotiy ma'naviy qoniqish uchun imkoniyat deb bilishadi. SHu munosabat bilan, bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilari ko'p jihatdan og'zaki ijodga ega bo'lishi kerak. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilari ijodkor bo'lishi kerak, chunki u yangi narsalarni yaratadi, har kungi narsalarni odatiy bo'lmagan, avvalgi tasavvurda bo'lmaydigan qilib o'zgartiradi. Zamonaviy sharoitda, ayniqsa bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilari nafaqat ijtimoiy madaniy tajribaning bilimdoni bo'lishlari, balki faoliyatning yangi yo'nalishini kashf etishga tayyor bo'lishlari kerak. O'qituvchilik kasbi vakillari ijodkor bo'lishlari kerak, chunki ular o'zlarining ta'lim va kasbiy faoliyati jarayonida o'zlarining ijodiy salohiyatlarini yuzaga chiqarish uchun doimo imkoniyatga ega bo'ladilar. Agar ijodkor shaxsning xususiyatlariga murojaat qilsak, ular bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilari shaxsiyatida albatta bo'lishi kerakligini ta'kidlash mumkin. Ijodkorlik tashqi muhitdagi nozik o'zgarishlarga, ya'ni voqelik va "hissiy madaniyat" idrokining nozikligiga, estetik yo'naltirilganlik va do'stlikka nisbatan alohida sezgirlikni anglatadi. Ushbu fazilatlar bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida zarurdir. Ko'p jihatdan, ijodkorlik jarayoniga asoslangan - bu allaqachon ma'lum bo'lgan bilim va tasvir elementlarining yangi g'ayrioddiy xarakterlarida ifodalanishi, mohiyatiga ko'ra, ushbu yo'nalish talabalari ish jarayonida nima qilishlarini anglatadi. [3; B.347.] Ular badiiy fanlarni o'rganishda yangi loyihalarni yaratish jarayonida o'zlarining ijodiy qobiliyatlariga murojaat etadilar, nafaqat natijadan, balki o'zlarining ish jarayonida ham o'zlarining texnologik sohalarida yangi usullardan foydalanib zavq olishadi. Ushbu yo'nalish bo'yicha talabalarni o'qitishning asosiy ahamiyati ularning ehtiyojlari va o'rganilganidan tashqariga chiqish imkoniyatlarini shakllantirish, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati, hayot davomida doimiy va moslashuvchan mustaqil ta'lim olishdir. Bo'lg'usi o'qituvchini tayyorlash va tarbiyalashda uning o'zini mustaqil fikrlovchi, mustaqil ta'lim oluvchi, o'z faoliyatini mustaqil tashkil eta oladigan, o'z-o'zini nazorat qila oluvchi, o'z-o'zini rivojlantiruvchi, o'z shaxsiy pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllantirmoq kerak. Pedagogik ijodkorlik va pedagogik mahorat tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsada, ular bir ma'noga ega emas. Pedagogik mahorat egasi o'z kasbini yuqori darajada egallab olgan kasb ustasi va katta tajriba orttirgan shaxsdir. Ijodkorlikda esa yosh, o'z ishini endigina boshlagan o'qituvchi ham bo'lishi mumkin, ammo u hali mahorat egasi emas¹. Ijodkor shaxs ijodkor o'qituvchi bo'la oladi. Ijodkor shaxs oliy o'quv yurtida va pedagogik jamoa muhitida shakllanishi mumkin. Ijodkor shaxs bo'lish mustaqil ta'lim olish, ijodiy tinimsiz mehnat qilish bilan bog'liq. [4; B.45.] U uzluksiz ta'lim olish asnosida yuqori darajadagi professionalizmli shaxsga aylanadi. Ijodkor pedagoglar avlodining shakllanishi ta'limni kreativ innovatsion rivojlanishiga olib keladi. Yangi avlod o'qituvchisi pedagog-izlanuvchi, pedagog-ijodkor bo'lib, o'z pedagogik faoliyatida ijodkor shaxsni tayyorlashi talab etiladi. Umuman olganda, ijodkor o'qituvchi yangicha yondashuv va yangi g'oyalar asosida yangicha bilim, yangicha tajribalarni ta'limga tatbiq etadi. Ilmiy yangiligi. Ijodkorlik yangi, ilgari mavjud bo'lmagan narsalarni yaratishga yo'naltirilishi bilan belgilanadi. SHu o'rinda: Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarida ijodkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyati sifatida, talabalarining fikrlashi, ongi va shaxsiyatida sifat jihatidan o'zgarish zarur. Ijodiy faoliyat jarayonida nafaqat ijodkorlik, balki bo'lajak o'qituvchilar uchun xayol, fantaziya, hissiy sezgirlik va hamdardlik kabi zarur fazilatlar rivojlanadi. Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilari ta'lim jarayonida aniq talablar bilan cheklanib qolmasligi kerak, u ko'p qirrali, har xil fikrlashni rivojlantirish uchun

yetarli, zamonaviy badiiy ufqlari, zamonaviy o'qituvchiga o'z mavzusini ijodiy egallashi uchun zarurdir. [5; B.20.] Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarini o'qitishning asosiy g'oyasi yangi, o'zgaruvchan voqelikda ijodiy o'zini o'zi belgilash va o'zini o'zi amalga oshirishga qodir bo'lgan, ta'lim va ijod mazmunining o'ziga xos tajribasini yaratishga qodir ijodkor, o'qituvchi-tadqiqotchi shaxsini rivojlantirishdir. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilari faoliyatida kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlarning, kasbiy bilim va ko'nikmalarning o'sishi, shakllanishi, birlashishi va amalga oshirilishi ahamiyatlidir. Ijodkor o'qituvchini tayyorlash va uning yordami bilan jarayonning samaradorligini oshirish bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilari ijodkorligini rivojlantirish bevosita o'quv jarayonida zarurdir. Faqatgina ijodkor o'qituvchi talabalarning ijodini shakllantirishi va rivojlantirishi mumkin. O'qituvchi talabalarning kasbiy faoliyatda ijodkorlikni rivojlantirish faoliyat motivlarini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratishi kerak. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilaridan nafaqat yuqori darajadagi maxsus bilim va ko'nikmalarni talab qilinadi, balki ijodkorlik qobiliyati ham talab qilinadi, chunki kasbiy va pedagogik faoliyat faqat ijodiy jarayonda rivojlanadi. [6; B.18.] Axir, ijodkorning mehnati natijasida yaratilgan ob'ektlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, alohida e'tibor va idrokni talab qiladi. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilari o'quv materialni loyihalash va ijodiy ishlov berish kabi asosiy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak

Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilari ijodkorligini shakllantirish orqali oliy ta'lim ularga kasbiy faoliyatida muhim vazifani - o'z loyihalarida ishlab chiqarishning ham texnologik imkoniyatlarini, ham jamiyatning ehtiyojlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyatini hal qilishga yordam beradi.

Xulosa. Bo'lg'usi pedagoglarning ijodkor, yuqori malakali texnologik egasi bo'lishida, talabaga o'quv-tarbiya jarayonida unga nafaqat ob'ekt sifatidagina qaralishidir. Ya'ni talaba tayyor bilimlarni qabul qilib oluvchi emas, balki bilim olish, o'zlashtirishda sub'ekt sifatida qaralishi zarur. Ta'lim jarayonida talabaning faollashiga, mas'uliyat hissining oshishiga, o'quv jarayonining ishtirokchisiga, mustaqil ta'lim ola bilish ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor berish, bo'lg'usi ijodkor pedagogning shakllanishiga zamin yaratiladi. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilari o'z bilimko'nikma malakalarini oshirishni muntazam ravishda ijodkorlik izlanishlari shaklida tashkil etishi va ma'lum maqsadga yo'naltirishi zarur. Bunda:

- ijodkorlik sifatlarini o'zlarida shakllantirishlari;
- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;
- ijodkorlik bo'lajak o'qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga

bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilari bir vaqtning o'zida ham individ, ham ijodkor, ham shaxs shu bilan birga sub'ekt xisoblanadi. Albatta bu to'rt ko'rsatgich birdek uzluksiz taraqqiy etishi, shakllanishi va uzluksizlikda takomillashib borishini ta'minlash lozim. Bunday holat tizimli yondashuv asosida bo'lg'usi o'qituvchini professional pedagog sifatida maxsus g'oyaviy hamda ijtimoiy tayyorgarlikka ega bo'lgan individual yetuk shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, yuqori salohiyatli, raqobatbardosh o'qituvchilarning yangi avlodini tayyorlashga katta imkoniyatlarni beradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: “Fan”, 2004.
2. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi / Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
3. Muslimov N.A. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish texnologiyalari. Monografiya, “Fan” nashriyoti, 2011.
4. Ochilov M. Muallim - Qalb me'mori. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2001.
5. Sh.B.Tursunova “O'qituvchi kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari” T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti “UZLUKSIZ TA'LIM” ilmiy uslubiy jurnal
6. Sh.B.Tursunova “Texnologik ta'lim sifatini oshirishda bo'lajak o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining o'rni” “Ijodkor o'qituvchi” Ilmiy uslubiy jurnal

Usmonov Abdurashid Norbo'tayevich
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
Pedagogika, psixologiya va ta'lim
texnologiyalari kafedrasini o'qituvchisi
abdurashidusmonov881@gmail.com

O'QUVCHILARDA DEVIANT XULQ SHAKLLARINING NAMOYON BO'LISHI VA TAHLILI

Annotatsiya. Pedagogik tadqiqotlarning psixologiya bilan ug'unlashuvi orqali o'quvchilarda deviant xulq atvor alomatlari kuzatilgan, o'quvchilarda deviant xulq atvorning shakllanish sabablari, klassifikatsiyasi, deviant xulq atvorli o'quvchilarning hatti harakati, moyilligi, ularni nazorat qilish, o'rganish, kommunikativ muloqat o'rnatish, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib ularda xarakter aksentuatsiyasining mavjudligi, psixik rivojlanishidagi og'ishish, o'z-o'zini hurmat qilishning pastligi, o'z-o'zini noadekvat baholash holatlari haqida keltirilgan.

Kalit so'zlar: Deviant xulq atvor, deviant xulq atvorning shakllanish sabablari, klassifikatsiyasi, xarakter aksentuatsiyasining mavjudligi, psixik rivojlanish, o'z-o'zini noadekvat baholash.

Abdurashid Norbutaevich Usmonov
Teacher of the Department of Pedagogy,
Psychology and Educational Technologies,
Samarkand region National Center for
Traning Pedagogues in New Methodologies

THE APPEARANCE AND ANALYSIS OF STUDENTS' DEVIANT BEHAVIOR

Abstract. Through the integration of pedagogical experience with psychology, the symptoms of deviant behavior were observed in students, the causes of deviant behavior in students, classification, behavior, behavior of students with deviant behavior, their control, learning, communicative communication, rates, data on the means influencing them, according to the data, deviations in the physical and mental development of character accentuation, low self-esteem, inadequate self-assessment.

Key words: Deviant behavior, reasons for the existence of deviant behavior, classification, own mental action of character accentuation, inadequate self-assessment.

Усмонов Абдурашид Норбутаевич
Национальный центр обучения
новым методикам педагогов
Самаркандской области,
преподаватель кафедры Педагогика,
психологии и технологии образования

ПРОЯВЛЕНИЕ И АНАЛИЗ ФОРМ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ У УЧЕНИКОВ

Аннотация. Через интеграцию педагогических исследований с психологией прослеживаются признаки девиантного поведения у учащихся, приводятся данные о причинах формирования, классификации, поведении, склонностях учащихся с девиантным поведением, их контроле, обучении, установлении коммуникативной коммуникации, влияющих на них факторах наличия у них акцентуации характера, отклонений в психическом развитии, самовосприятии, приводятся случаи низкого

самоуважениа, неадекватной самооценки.

Ключевые слова: Девиантное поведение, причины формирования девиантного поведения, классификация, наличие акцентуации характера, психическое развитие, неадекватная самооценка.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N56>

Kirish. Deviant xulq-atvor doimo inson xatti-harakatlarining jamiyat yoki guruhlarda keng tarqalgan faoliyat turlari, me'yorlari, xulq-atvor qoidalari, g'oyalari, munosabatlari, qadriyatlarini o'rtasidagi qandaydir nomutanosoblik bilan bog'liqdir. Me'yorlar ijtimoiy tizimni muqarrar o'zgarishlar sharoitida muvozanat holatida ushlab turuvchi mexanizmdir. Tabiiy va ijtimoiy fanlarda "me'yor" so'zi tizimni saqlash va o'zgartirish uchun ma'lum darajadagi yakun, o'lchov ma'nosida tushuniladi.

Adabiyotlar tahlili. Shunday qilib, og'ishgan xatti-harakatlar jamiyatda qabul qilingan huquqiy va axloqiy me'yorlarga zid bo'lgan o'zgarishlardir. Chunonchi, deviant harakatlar jamiyat tomonidan o'rnatilgan me'yorlardan, shuningdek, ruhiy salomatlik, qonun, madaniyat va axloq me'yorlaridan og'ishish (Y.M.Asadov, M.Isabayeva, I.S.Kon, D.I.Feldshteyn) [6; 7; 8; 9], muayyan vaqt oralig'ida ma'lum bir jamiyatning ijtimoiy istiqbollarini qondirmaydigan xatti-harakatlar deviant harakat hisoblanadi (T. Shibutani, Neil J. Smelser) [10; 11].

Tabiiy savol tug'iladi: Ijtimoiy me'yorlardan og'ishish ehtimoli yuqori darajasining asosiy sabablari nima? Bunday sabablar quyidagilarda ifodalanadi:

– ijtimoiy tengsizlik. Bu aholining ko'p qismini tashkil etadigan yoshlardagi qashshoq hayot darajasi hamda boy va kambag'allarga, ishsizlikka, inqirozga, korrupsiyaga va boshqalarga jamiyatning tabaqalanishida aks ettirilishini ifoda etadi.

– deviant harakatlarning ma'naviy va axloqiy omili jamiyatning nisbiy axloqiy hamda ma'naviy darajasida, ruhsizlik, materializm psixologiyasi, shaxsning yakkalanishi bilan ifodalanadi. Bozor iqtisodiyoti bilan jamiyat hayoti bozorga o'xshaydi, unda hamma narsa sotib olinadi va sotiladi, mehnat hamda arzon ishchi kuchi va odam savdosi oddiy voqeaga aylanib qoldi. Degradatsiya va axloqning pasayishi ommaviy ichkilikbozlik, daydilik, giyohvandlik bilan shug'ullanishi, zo'ravonlik va qonunbuzarliklar bilan ifodalanadi;

– atrof-muhit deviant xatti-harakatlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladi. Ko'pgina yosh deviantlar notinch oilalar hisobiga to'g'ri keladi. Oiladagi nosog'lom turmush sharoiti va tarbiyasi, o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklar bilan bog'liq bo'lgan bilimni egallashdagi muammolar, o'quvchining atrofdegilar bilan muloqot o'rnata olmasligi asosida yuzaga keladigan nizolar, sog'ligidagi turli psixofiziologik og'ishishlar, binobarin, ruhiy inqiroz, yashash mazmunini yo'qotishga olib keladi.

Tadqiq va tahlil. Bugungi kunda deviant xatti-harakatlarning ma'lum bir shakllari belgilangan:

Jinoyatchilik. Psixologiyada deviant harakatlarning kelib chiqishi, ya'ni o'quvchi-yoshlarning qonunbuzarliklarini tarbiyasi qiyin va pedagogik yoki ijtimoiy-madaniy qarovsizlikdan ekanligini izlash kerakligi bilan izohlanadi [2]. Agar kriminologiya bola jinoyat sodir etishining sabablari to'g'risida savolga javob beradigan fan bo'lsa, pedagogika qayta tarbiyalash va pedagogik profilaktika choralari haqida, sotsiologiya ijtimoiy qonunlarning harakatlarini tadqiq qilsa, psixologiyaning vazifasi jinoyat sodir etishning psixologik mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotchilar yoshlarning jinoyatlarni sodir etishiga olib kelishi mumkin bo'lgan quyidagi ichki ruhiy omillarni aniqlaydilar:

- tavakkalchilikka ehtiyoj;
- obro‘-e‘tibor, o‘z-o‘zini hurmat qilishga ehtiyoj;
- hissiy noturg‘unlik;
- tajovuzkorlik;
- xarakter aksentuatsiyasining mavjudligi;
- psixik rivojlanishidagi og‘ishish;
- o‘z-o‘zini hurmat qilishning pastligi;
- o‘z-o‘zini noadekvat baholash.

O‘quvchilik davrida noqonuniy xatti-harakatlar yanada ongli va o‘zboshimchalik bilan amalga oshiriladi.

Giyohvandlik – giyohvand moddalarni iste‘mol qilish bilan bog‘liq sabablar va tekshiruvlar majmuasi uchun umumiy atamadir [10]. Asab tizimining holatiga keskin salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi narkotik moddalarning eng ko‘p tarqalganlari – bu afyun, morfin, gashish, og‘riq qoldiradigan dorilar. Yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning keng tarqalgan sabablari quyidagilardir:

- ortiqcha, samarali mehnatga ajratilmagan vaqt;
- Oilada bola nima bilan shug‘ullanishini nazorat qilmaslik;
- oiladagi ziddiyatli muhit va shu asosda bolada paydo bo‘ladigan hadik va taranglik;
- ota-onalar, oilaning boshqa a‘zolari tomonidan narkotik moddalarning iste‘mol qilinishi;
- narkotik moddalarni uyda saqlash;
- narkotik avlodlilik;
- ba‘zi bolalarning biror narsaga erishish umidi ortidan amalga oshmagan tushkunlik holati.

Tabiiyki, narkotikni qo‘llashga turtki, vaziyatning noyob darajada tasodifiyligidir, umumiy harakat, tashqi va ichki sabablarning uzviyligi bilan bog‘liq. Tasodifiylikni ham chetda qoldirish kerak emas. Shu bois, maktab ta‘lim-tarbiya tizimining asosiy yo‘nalishi – barcha yoshdagi ‘quvchilar bilan profilaktika ishlarini olib borishdan iborat. Asosiy e‘tibor bolalarni giyohvand moddalarni eng xatarli, deb bilishi, ularning kelajagiga mas‘uliyat bilan munosabatda bo‘lishni ta‘minlash, ehtiyojlarini qondirishning g‘ayritabiiy shakllarini shaxsiy qabul qilmasliklariga ishontirishga qaratilgan.

Ichkilikbozlik. Butun dunyo bo‘ylab, voyaga yetmaganlar o‘rtasida spirtli ichimliklar iste‘moli rivojlanmoqda. Bolalar va o‘quvchilarning spirtli ichimliklar iste‘moli eng og‘ir ijtimoiy va pedagogik muammolardan biridir. Spirtli ichimliklar giyohvand moddalarga qaraganda asab tizimiga juda zararli bo‘ladi. Spirtli ichimliklar hamda alkogolizmga qarshi kurashning eng keng tarqalgan shakllari – ma‘rifiy-pedagogik taqiqlovchi choralar sanaladi.

Pedagogik-profilaktik harakatlar:

- maktab bayram tadbirlarida zaif tonik ichimliklardan foydalanishni taqiqlash;
- spirtli ichimliklarga qarshi kurashish guruhi terapiyasini o‘tkazish;
- bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazishning ko‘plab boshqa usullari borligini doimo tushuntirish va ko‘rsatish.

Fohishabozlik. O‘quvchilik davri jinsiy yetishuvning tezkor davri hisoblanadi, shuningdek, o‘quvchilik davri va yosh giperekseksualizm davri boshlanishi bilan keyingi davrga nisbatan jinsiy aloqaga qiziqish ortadi. Jamiyat fohishalik bilan qarshi kurashish uchun doimo

yo'l va vositalarni izlagan. Tarixda fohishalik siyosatiga nisbatan asosiy shakllar mavjud bo'lgan: taqiqlash, tartibga solish (ro'yxatga olish va tibbiy ko'rik), bekor qilish (taqiqlash va ro'yxatga olish bo'lmagan hollarda profilaktika, tushuntirish va tarbiya ishlarini olib borish). Tarixiy tajriba shuni anglatdiki, ushbu eng qadimgi kasb egalariga qarshi qaratilgan huquqiy va tibbiy tartib-qoidalar bu muammoni to'liq hal qilmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, jamiyatdagi ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlar vaziyatni tubdan o'zgartiradi.

Suitsid (lotinchadan – o'zini o'ldirish) – bu odamning o'z hayotidan o'zini ongli ravishda mahrum qilishdir. O'z-o'zini vayron qiluvchi xatti-harakatlarning bir qator ketma-ketlikdagi keskin nuqtasi. O'z-o'ziga suiqasd qilish xulq-atvori – hayotdan mahrum etish to'g'risidagi fikrlarining asosiy maqsadidir. O'z joniga qasd qilish xulq-atvori tarkibida – o'z joniga qasd qilish harakati, holatlari, ko'rinishlari (fikrlar, niyatlar, his-tuyg'ular, bayonotlar) mavjud. Yosh davri o'z joniga qasd qilish xulq-atvorining xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilik yoshidagi inqiroz davrlari. O'quvchilar orasida o'z joniga qasd qilish urinishlari boshqa yosh davrlarga qaraganda, ancha keng tarqalgan va ularning bir nechtasi o'z maqsadlariga erishadi.

Odatda, tengdoshlar va ota-onalar bilan o'quvchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga nisbatan o'z joniga qasd qilgan xatti-harakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Afsuski, nisbatan kam o'rganilgan yana bir muhim omil – bu o'quvchi submadaniyatining ta'siri. Masalan, o'quvchilarning xatti-harakati ularning kimgadir taqlid qilishlariga misol bo'la oladi. O'z joniga qasd qilish xatti-harakatlarini oldini olish bir qator vazifalarni hal qilishi mumkin: turli autoagressiv vositalariga kirishni cheklash va nazorat qilish, omillarni, xavfli guruhlarini nazorat qilish. O'z joniga qasd qilishning psixologik profilaktikasi, asosan, o'z joniga qasd qilishni vaqtida aniqlay olish va yaqin odamlariga o'z vaqtida yordam ko'rsatish bo'yicha trening shaklida amalga oshiriladi.

Uydan qochishlar, daydilik. Autsayderlikning eng ko'zga ko'ringan shakli daydilik hisoblanadi. Daydilikni xulq-atvordagi og'ishishlik, deb tafsivlash mumkin, bu holat deviant xatti-harakatlarning boshqa turlari bilan ham bog'liqdir: alkogolizm, giyohvandlik, jinoyatchilik. Daydilik insonga ma'naviy va psixologik zarar yetkazadi. O'quvchilarning uydan qochish sabablari, odatda, oila va oilaviy munosabatlardan mahrum, shuningdek, maktab bilan aloqalarning uzilishidan iborat bo'ladi. O'quvchi o'g'il bolalar o'rtasida uydan qochishlarning yashirin-hissiy shakli, o'quvchi qizlarda esa namoyishkorona shakli tus oladi. Uydan qochishlar hech qanday tayyorgarliksiz yakka holda amalga oshiriladi. Yoshlarning tungi poyezd vokzallarida tunashlari, yarim och holda tartibsiz oziqlanishlariga to'g'ri keladi, begonalar bilan o'g'irlik qilish, ko'pincha anglab yetmagan holda ijtimoiy xavfli jinoiy guruhga kiradilar, spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste'mol qiladilar.

Qo'rquv. Bolalar va o'quvchilarda turli qo'rquvlar (fobiya) paydo bo'lishi ularning yosh davrlariga xosligi bilan xarakterlanadi. Ko'pincha bu qorong'ulik, yolg'izlik, ota-onalardan va yaqinlaridan ajralib qolingan nevrologik qo'rquv hisoblanadi, bu esa o'z navbatida inson salomatligiga ta'sirini kuchaytiradi. Bunday holatlar ular bilan tinchlantiruvchi suhbatlar orqali bir zumda o'tib ketishi mumkin. Boshqa holatlarda ular qisqa muddatli, lekin davomiyligi bilan ko'p vaqtni tashkil etadigan shakllari ham mavjud. Bunday harakatlarning sababi uzoq davom etadigan, bolaning ruhiga shikast yetkazadigan vaziyatlar(jiddiy kasallik, maktabda yoki oiladagi keskin to'qnashuvlar)ni ko'rsatish mumkin. Qo'rquvlar miyada o'rnashib qolgan fikr shaklida, miyada o'rnashib qolgan fikr esa harakatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Miyada

o'rnashib qolgan fikr yuqumliligi o'tkir narsalardan qo'rqish, yopiq xona va duduqlanuvchi odamlarning gapirish qo'rquvi kabilarda ustunlik qiladi. Bolalar va o'quvchilarning qo'rquvini yo'qotish uchun psixokorreksiyali o'yin texnologiyalari va usullarini qo'llash mumkin.

Vandalizm va graffiti. Vandalizm – buzg'unchi xatti-harakatlarning bir turi [11]. Ko'pgina tadqiqotlar va statistik ma'lumotlarga ko'ra, ko'p holatlarda vandalizm harakati 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar tomonidan sodir etilgan. O'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, vandalizmni sodir etishning keskin nuqtasi 11–13 yoshga to'g'ri keladi. Vandal yoshlar o'z tengdoshlari kabi bir xil intellektual rivojlanish darajasiga ega, ammo maktabdagi o'zlashtirish ishlari ancha past bo'ladi. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, vandallarning aksariyati inqiroz holatida bo'lganligi qayd etilgan. Jamoatchilikning fikriga ko'ra, vandalizm, odatda, maqsadsiz, befoyda, noaniq xatti-harakatlarga o'xshaydi. Vandalizm motivlarini aniqlash ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Olimlar taqdim etgan vandalizm motivlarining tasnifini ko'rib chiqamiz:

Zerikish. Sabab – qiziqarli bo'lish istagi. Buning sababi – yangi taassurotlarni qidirish; taqiq va xavf bilan bog'liq qiziqishlarni izlash.

Tadqiqot. Buzg'unchilikka qiziqishning maqsadi – tizimning qanday ishlashini tushunish istagi.

Estetik hissiyot. Buzg'unchilik ishlarining jismoniy jarayonini kuzatish yangi vizual tuzilmalarni yaratadi, ular yoqimli tuyuladi.

Ekzistensial tadqiqot. Vandalizm o'zini o'zi tasdiqlash vositasi sifatida harakat qilishi mumkinligini tushuntiradi va kishilar diqqatini o'ziga jalb qiladigan jamiyatga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini o'rganadi (Gerostratning ajoyib misoli, ma'bud qasrini faqat shon-shuhrat uchun yoqib yuborgandi).

Graffiti – bu o'quvchilar va yoshlar orasida deviant harakatlarning o'ziga xos ko'rinishi [12]. Psixologiya nuqtayi nazaridan, graffiti insonning o'zini namoyon qilish usuli hisoblanadi. Graffiti atamasi (italyancha grafiti – chizilgan) – qadimgi yozuvlar, asosan ichki belgilar, binoning devorlari, idishlar va boshqa buyumlardagi chizmalarni ifodalaydi. Pedagogik jihatdan o'quvchi ijodkorligini to'g'ri yo'naltirish Graffitidagi buzg'unchilik zarari vandalizmning boshqa turlari va zo'ravon jinoyatlar bilan taqqoslaganda, kichik, ahamiyatsiz, deviant xatti-harakatlarning nisbatan xavfsiz ko'rinishlaridir:

- shaxsiy va guruh identifikatori, rus tilidagi yozuvning ingliz tilida ijro etilishidagi yoshlarning submadaniyat tili;

- ijtimoiy va madaniy me'yorlarga qarshi norozilik;
- kurashish motivlari mazmunidagi yovuz reaksiyalar, raqobat va ramziy zo'ravonlik;
- ijodkorlik motivlari;
- jinsiy motivlar;
- ko'ngilochar motivlar

Shunday qilib, umuman vandalizm va vandalizm turlaridan biri sifatidagi graffiti o'quvchilar deviantligining bir turi hisoblanadi [3].

Internet va kompyuter o'yinlariga qaramlik – psixologik jihatdan ziddiyatli xatti-harakatlar, surunkali dipressiya, real ijtimoiy munosabatlardan virtual olamni afzal ko'rish, jamiyatga moslasha olmaslik, ijtimoiy noqulaylik, internetdan foydalanish madaniyatining yo'qolib borishi [1]; pedagogik voqelikda esa deviant xulqning shakllanishiga sabab bo'luvchi

Internet tarmog'iga tobelik, tarmoqdan tayyor ishlanmalar, yechimlar toppish hisobiga topshiriqlarni mustaqil bajarmaslik natijasida o'qish va bilim olishga befarq munosabatda bo'lish, uzoq vaqtdagi harakatsizlik natijasida o'quvchining jismoniy rivojlanishida salbiy ta'sir xavfi kuchayadi.

Xulosa. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ota-ona, o'qituvchi va maktab amaliyotchi psixologlari ham o'quvchilar bilan ishlashda deviant xulq-atvorni e'tiborga olish kerak, degan xulosaga kelish mumkin. O'quvchilarning deviant harakatlariga olib keladigan omillarning paydo bo'lishi bilan kattalarning to'g'ri xatti-harakati orqali ushbu muammolarni erta shakllanish bosqichida hal qilishga yordam beradi.

O'quvchilar huquqbuzarligi va jinoyatchiligi o'tmishda va hozirda ham dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Kelajakda ham shunday bo'lib qoladi, chunki o'quvchilar millatning, xalqning, davlatning kelajagini belgilab beruvchi kuchdir. O'quvchilar huquqbuzarligi va jinoyatchiligining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u barvaqt profilaktikaning asosiy obyektlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda respublikamiz ayrim hududlarida tarbiyasi og'ir, deviant xulqli, jinoyat sodir etishga moyil o'quvchilar, ularning ota-onalari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq jamlab, tahlillari olib borilmayotganligi, o'quvchilarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan shaxslar va shart-sharoitlarni muntazam o'rganilmayotganligi, bunday o'quvchilar to'g'risida ichki ishlar organlariga rasmiy xabar berib borish amaliyoti talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligi bu boradagi ishlarga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu holat tadqiqot avvalida o'rganilgan ma'lumotlardagi raqamlarning ifodalanishida o'z aksini topgan.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ma'ruf Qosim o'g'li Kubayev. Shaxsdagi internet va kompyuter o'yinlariga tobelikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Scientific Progress. Volume 2: Issue 6, 2021. – B. 609-614. ISSN: 2181-1601.
2. Olimov L.Y. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi [Matn]: o'quv qo'llanma / L.Y. Olimov, A.M. Nazarov. – Toshkent: "Tafakkur avlodi", 2020. – 496 b.
3. Abdullayeva Sh.A. Globallashuv sharoitida o'quvchilar jinoyatchiligining profilaktikasi. "Ijtimoiy tahdidlarga moyil oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni barqarorlashtirishning gerontopedagogik asoslari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.– T.: TDPU, 2020 yil 25 mart. 32-38-betlar.
4. Taylaqov N.I., Abdullayeva Sh.A. va boshq. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik vositalari va texnologiyalari. III tom. Monografiya / N.I. Taylakov va boshqalar. – Toshkent: "Ta'lim" nashriyoti, 2019 yil. 320 b.
5. Taylakov N.I. va boshqalar. Voyaga yetmaganlar orasida deviant xulqqa moyil o'quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash. «Kamalak» nashriyoti. –Toshkent, 2017. – 320 b.
6. Асадов Ю.М. Социально-психологические особенности профилактики девиантного поведения трудных подростков // «Мактаб ва ҳаёт» журнали. –Т., 2019.

7. Исабаева М. Теоретические основы формирования навыков здорового образа жизни у учащихся. / Современные инновации международная научно-практическая конференция «Современные инновации в эпоху глобализации: теория, методология, практика». – Москва. – 2016.
8. Кон И.С. Отцовство как социокультурный институт // Педагогика. – 2005. – № 9. – С. 3-16.
9. Фельдштейн Д.И. Трудный подросток. –М.: Воронеж, МПСИ: Модек, 2008. – 206 с. – ИСБН 978-5-9770-0286-8.
10. Шибутани Т. Социальная психология. Пер. с англ. В.Б.Ольшанского. Ростов н / Д.: изд-во «Феникс», 1999. – 544 с.
11. Neil J. Smelser. Getting Sociology Right: A Half-Century of Reflections. University of California Press, Ltd. London, England, 2014. – 325 p.
12. Elektron resurs: <https://en.wikipedia.org/wiki/Graffiti>.

Ўтанов Ўткир

Самарқанд вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази
“Педагогика, психология ва таълим технологиялари” кафедраси доценти, п.ф.ф.д.(PhD)

ЎЗБЕКИСТОНДА ЎҚИТУВЧИ МАЪНАВИЙ ҚИЁФАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ

Аннотация. Мақолада Ўзбекистонда ўқитувчи маънавий қиёфасини ривожлантиришнинг концептуал асослари ёритилган бўлиб, унда ўқитувчи маънавий қиёфасини ривожлантиришда Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституциясида ўқитувчининг ижтимоий мақомининг белгиланиши, “Таълим тўғрисида”ги Қонуни (2020 йил) да мамлакатимизда ўқитувчининг нуфузини мустаҳкамлашнинг тарихий имкониятлари ўрганилган. Бундан ташқари мақолада Президент Шавкат Мирзиёев асарлари, нутқлари, қарорлари ва фармонларида ўқитувчи маънавий қиёфасини ривожлантиришга оид муҳим ғоялар таҳлили баён этилган.

Таянч сўзлар: конституция, қонун, шахс, қиёфа, маънавий қиёфа, маънавий ҳаёт, маънавий эҳтиёж, маънавий етуклик, жамият, концептуал асослари, асарлар, нутқлар, қарорлар, фармонлар, омил, восита, компонент.

Utanov Utkir

Associate Professor of the Department of Pedagogy, Psychology and Educational Technologies of the National Center for Training Teachers in Innovative Methods of the Samarkand Region, Ph.D.

CONCEPTUAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF THE MORAL CHARACTER OF A TEACHER IN UZBEKISTAN

Abstract. The article highlights the conceptual foundations for the development of the moral image of a teacher in Uzbekistan, studies the historical possibilities of strengthening the authority of the teacher in the Law “On Education” (2020), as well as the development of the moral image of the teacher, determining the social status of the teacher in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. In addition, the article analyzes important ideas related to the development of the spiritual image of a teacher in the Works, Speeches, Decisions and Decrees of President Shavkat Mirziyoyev.

Key words: constitution, law, personality, image, spiritual image, spiritual life, spiritual need, spiritual maturity, society, conceptual foundations, works, speeches, decisions, decrees, factor, means, component.

Утанов Уткир

Доцент кафедры «Педагогика, психологии и образовательных технологий» Национального центра подготовки педагогов инновационным методам Самаркандской области, п.ф.ф.д.(PhD)

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НРАВСТВЕННОГО ОБЛИКА УЧИТЕЛЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье освещены концептуальные основы развития нравственного образа учителя в

Узбекистане, изучены исторические возможности укрепления авторитета учителя в Законе «Об образовании» (2020 г.), а также развитие нравственного образа учителя, определение социального статуса учителя в новой редакции Конституции Республики Узбекистан. Кроме того, в статье анализируются важные идеи, связанные с развитием духовного образа учителя, в произведениях, выступлениях, решениях и указах Президента Шавката Мирзиёева.

Ключевые слова: конституция, закон, личность, образ, духовный образ, духовная жизнь, духовная потребность, духовная зрелость, общество, концептуальные основы, произведения, речи, решения, указы, фактор, средство, компонент.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N57>

Кириш. Мамлакатимизда таълим-тарбия соҳасида олиб борилаётган кенг ислохотлар муаллимга, таълимга бўлган муносабатни тубдан ўзгартиришни талаб этмоқда. Азалдан юртимизда илму урфонга, аҳли илмга, устоз ва мураббийларга бўлган ҳурматни, ушбу йўналишдаги эзгу анъаналарни тиклаш баробарида мактаб таълими соҳасидаги энг замонавий тажрибаларни, хориж амалиётини жорий этиш, таълимнинг илғор методикаларини татбиқ этиш каби ўта долзарб муаммоларни ҳал қилишдек устувор вазифалар мавжуд. Энг аввало муаллимлик касбига эътибор, унинг нуфузини ошириш, ўқитувчининг мавқеини кўтариш, педагоглик касбининг мақомини ошириш бугунги куннинг муҳим асосидир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2017-2018 йилларда қабул қилинган Фармон ва Қарорларда ўқитувчининг кадр-қиммати ва жамиятдаги обрўини ошириш, унинг моддий-маънавий ва ижтимоий ҳимоясини кучайтириш масалаларига эътибор қаратилди. Масалан, Ўзбекистон Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълими тизимига бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3931-сонли Қарорида Халқ таълими вазирлигининг марказий аппарати таркибида вазирнинг Назорат-ҳуқуқий хизмати ташкил этилиб, “давлат органлари ва бошқа ташкилотларнинг халқ таълими муассасалари фаолиятига асоссиз аралашувига, педагог кадрларнинг шаъни ва кадр-қиммати камситилишига, уларнинг меҳнатга мажбурланишига, таълим-тарбия жараёнига тўсқинлик қилишнинг ҳар қандай шаклларига, ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ҳуқуқлари бузилишига йўл қўймаслик бўйича қонун ҳужжатларида назарда тутилган чораларни кўриш” [5] унинг асосий вазифаси этиб белгиланди.

Мактаб таълими соҳасида ислохотларни жадаллаштиришга кўмаклашиш ва юридик шахс мақомига эга бўлган таълимни ривожлантириш жамғармаларининг ташкил этилганлиги, молиявий манбаларининг белгилаб берилганлиги мактаб таълими тизимида туб янгиланишларни амалга оширишда қулай имкониятлар яратди. Шунинг баробарида ўқитувчилик касбининг обрўси ва ижтимоий мақомини ошириш, умумтаълим мактаблари, шунингдек, тизим ходимларини моддий ва ижтимоий қўллаб-қувватлашни таъминлаш, уларнинг самарали ишлаши учун қулай ва муносиб шарт-шароитлар яратди[5].

Асосий қисм. Хусусан, 2030 йилга қадар соҳани тизимли, минтақавий ва мақсадли ривожлантиришнинг устувор йўналишлари, шунингдек, уни амалга ошириш бўйича “Йўл харитаси”ни ўз ичига олган мактаб таълими тизимини ривожлантиришнинг узоқ муддатли концепцияси ишлаб чиқилди ва айни пайтда амалиётга жорий этилмоқда[6].

Давлатимиз раҳбарининг юқоридаги Фармон ва Қарорларида ўқитувчининг билим даражаси ва педагогик маҳоратини ошириш орқали унинг маънавий қиёфасини шакллантириш устувор вазифа сифатида белгиланди.

Айниқса, ушбу йўналишда Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституциясида ўқитувчининг ижтимоий мақомининг белгилаб қўйилиши муҳим ўрин тутди: “Ўзбекистон Республикасида ўқитувчининг меҳнати жамият ва давлатни ривожлантириш, соғлом, баркамол авлодни шакллантириш ҳамда тарбиялаш, халқнинг маънавий ва маданий салоҳиятини сақлаш ҳамда бойитишнинг асоси сифатида эътироф этилади.

Давлат ўқитувчиларнинг шаъни ва қадр-қимматини ҳимоя қилиш, уларнинг ижтимоий ва моддий фаровонлиги, касбий жиҳатдан ўсиши тўғрисида ғамхўрлик қилади”[1] – Бош Қомусимиздаги ушбу қоида мамлакатимизда ўқитувчи имижини шакллантиришда энг асосий, методологик аҳамият касб этди .

Яна бир методологик манба - янги таҳрирда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги Қонун ҳам мамлакатимизда ўқитувчининг нуфузини мустаҳкамлаш ҳамда узлуксиз таълим тизимини тубдан ислоҳ қилишда тарихий имкониятлар очди: “таълим, дейилади ушбу ҳужжатда, - таълим олувчиларга чуқур назарий билим, малакалар ва амалий кўникмалар беришга, шунингдек уларнинг умумтаълим ва касбий билим, малака ҳамда кўникмаларини шакллантиришга, қобилиятини ривожлантиришга қаратилган тизимли жараён” [2].

Мамлакатимизда учинчи Ренессанс даврининг маънавий пойдеворини яратишда муҳим ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қиладиган яна бир муҳим ҳужжат – 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси бўлиб, унинг тўртинчи устувор йўналиши (43-мақсад)да “мактабларда таълим сифатини ошириш, педагог кадрларнинг билими ва малакасини халқаро даражага олиб чиқиш”[4]. дек пировард мақсад белгиланган бўлиб, унга амалда эришиш йўлида амалий ишлар кенг кўламда олиб борилмоқда .

Мамлакатимизда айни пайтда фаолият олиб бораётган 10 мингдан зиёд умумтаълим мактаблари, уларда меҳнат қилиб келаётган 500 мингдан зиёд ўқитувчилар ва педагог ходимларга нисбатан чинакам ҳурмат муҳитини яратиш борасида хайрли ишлар бошланган.

Инсоният тарихи шундай гувоҳлик берадики, қайси жамиятда зиёлининг, муаллимнинг ҳурмат-эътибори жойига қўйилса, ўша жамият ўз ҳаётининг барча соҳасида тараққиётга, ижтимоий барқарорликка. Ана шу тарихий ҳақиқатни қарор топтириш масаласида бизнинг мамлакатимизда амалий ишлар давлат сиёсати доирасида амалга оширила бошлаганига 5-6 йил бўлди, холос. Давлат раҳбари Шавкат Мирзиёевнинг шахсан ўзи бу эзгу ибтидонинг ташаббускори бўлди. Президент ҳузурида 2019 йил 23 августда ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ва жамиятда ўқитувчининг мавқеини ошириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилишида “Бу касбнинг обрўсини фақат ўқитувчининг ўзи фидокорона меҳнати, ўз устида тинимсиз ишлаши, бошқаларга ўрнак бўлиши билан ошира олади. Биз энди жамиятимизда ўқитувчиларни “сиз”лаб, уларнинг шаъни ва ҳурматини бошимизга кўтарадиган, уларни том маънода келажак бунёдкорлари, деб улуғлайдиган муҳитни яратишимиз зарур”[10], деб таъкидлангани фикримизнинг исботидир.

Халқимизда қадимул аввалдан муаллимлик касби улуғланган, у халқимизнинг ардоғида бўлиб келган. Муборак ҳадисларда “Муаллимнинг икки дунёси обод” деб бежиз айтилмаган. Қайси бир донишманд “давлатнинг кучли ёхуд заифлигини билмоқчи бўлсанг, унинг муаллимга бўлган муносабатини ўрган”, деган экан. Биз кучли давлат қурмоқчи эканмиз, аввало чинакам зиёлилар, фидойи муаллимлар авлодини тарбиялашимиз керак.

Муаллимнинг асл қиёфасини тиклаш – бугунги кунда мамлакатимизда фақат имижмейкерлик фаолиятининг мақсади бўлибгина қолмай, балки янгидан барпо этилаётган Ўзбекистоннинг маънавий қиёфасини яратишдек умуммиллий ҳаракатнинг узвий таркибий қисмидир. Ўқитувчининг маънавий қиёфасини шаклантириш ва ривожлантириш – янги маънавий маконга янгича мазмун, ёрқин истиқбол бахш этувчи жараёндир. Муҳтарам Президентимизнинг ибораси билан айтганда, янги маънавий макон - “биз орзу қилаётган янги Ўзбекистоннинг маънавий қиёфаси яққол акс этадиган, халқимиз интилаётган ва эл-юртимиз бахтиёр яшайдиган маърифатли жамиятдир” [3].

Янги жамиятнинг маънавий асосларини барпо этиш, унинг янги маънавий қиёфасини яратишнинг ўзи бўлмайди. Бу тарихий миссияни амалга ошириш кўп машаққатни талаб қилади. Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев “Юртимизда Учинчи Ренессанс даври пойдеворини барпо этиш учун бизга замонавий илм ва яна бир бор илм, тарбия ва яна бир бор тарбия керак. Бугунги ва эртанги кунимизни, ёшларимиз тақдирини ҳал қиладиган юксак малакали муаллим ва мураббийлар, профессор-ўқитувчилар, ҳақиқий зиёлилар керак” [4], деб таъкидлагани ушбу хулосамизнинг исботидир.

Мамлакатимизда 2017 йилдан буён узлуксиз таълим тизимининг ҳуқуқий асосларини яратиш асносида ўқитувчининг маънавий қиёфасини ривожлантириш жараёни бошланганлиги ва бугунги кунда унинг жадаллик билан давом эттирилаётганлиги мактаб таълимида ўзига хос инқилоб, бир сифат ҳолатидан иккинчи сифатга ўтишдек ялпи универсал қонуннинг амалдаги ифодаси, десак тўғри бўлади.

Ушбу жараён иккита асосий йўналишда олиб борилмоқда: 1) таълимнинг мазмуни ва сифатини тубдан яхшилаш мақсадида мактаб таълими соҳасига янги, замонавий методикаларини жорий қилиш; 2) ўқитувчининг маънавий салоҳияти ва педагогик маҳоратини ошириш. Айни пайтда мамлакатимизда ҳар иккала йўналишда ҳам ҳуқуқий-меъёрий асослар яратилган бўлиб, уларни амалиётга татбиқ этиш жадаллик билан олиб борилаётир.

Албатта, иккинчи йўналиш - ўқитувчининг маънавий салоҳияти ва педагогик маҳоратини ошириш вазифасини ижобий ҳал этиш, аввало, ўқитувчининг маънавий-ахлоқий маданиятини замон талаблари даражасида ташкил этишга боғлиқ. “Педагогнинг ахлоқий маданияти – педагогнинг ахлоқий сифатлари (важлари, шахсий қадриятлари, эътиқоди, билими, ҳис-туйғу ва қобилиятлари) ривожланганлик даражасини ифодаладиган шахсий ва профессионал сифатларининг мураккаб уйғунлашган тизими бўлиб, у ахлоқий танлов ва ахлоқий фаолиятни замонавий ижтимоий-маданий муҳит ва профессионал фаолиятда идеал ёки меъёрий деб ҳисобланадиган инсоний қадриятлар, тамойиллар, қоидалар билан қиёслаганда намоён бўлади” [11].

Мамлакатимизда кейинги 5-6 йилда таълимга, ўқитувчининг меҳнатини қадрлаш, унинг маҳоратини ошириш масалаларига эътибор кучайтирилгани боис таълимда самарадорлик ҳам ортиб бормоқда. “Таълим сифатини оширишдек эзгу мақсадга фақатгина ўқитувчининг педагогик маҳоратини оширмасдан эришиб бўлмаслиги бугун барчага аён. Агар ўқитувчида педагогик маҳорат етишмаса, таълимда самара ҳақида гап бўлиши мумкин эмас. Педагогик маҳорат энг аввало ўқитувчининг қиёфаси (имижи), унинг илмий ва маърифий салоҳияти, ғоявий етуклиги, шахсий сифатлари, ўқувчи ёшлар олдидаги обрў-эътибори, ҳаётий тажрибаси ва кўникмаларига боғлиқ, албатта” [12].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 11-майдаги “2022-2026 йилларда мактаб таълимини ривожлантириш бўйича миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-134-сон Фармонида “жамиятда ўқитувчи касби нуфузини ошириш, педагоглар учун қулай ижтимоий шароитлар яратиш ва меҳнатини муносиб рағбатлантириш; ўқитувчиларнинг ёшларга таълим ва тарбия беришдаги масъулиятини, доимий касбий ривожланишдаги талабчанлигини ошириш”[8] энг муҳим ва долзарб вазифа қилиб белгиланди, энг асосийси – “намунали ўқитувчи мезонларини ишлаб чиқиш” [8] вазифаси мамлакатимиз мактаб таълими тарихида илк марта кун тартибига қўйилди.

Намунали ўқитувчи қандай бўлиши керак, унинг маънавий қиёфасини белгиловчи мезонлар нималарни ўз ичига олади, деган масала фақат таълимни бошқарув органларининг эмас, балки, биринчи галда ватанимиз педагогика фани, илмий тадқиқотчилар олдида турган муҳим ва принципиал масаладир. Кейинги 5-6 йилда мактаб таълими ислохотлари натижаларидан келиб чиқиб, жамиятимизда амалга оширилаётган янгиланиш жараёнларига ҳамоҳанг тарзда ўқитувчининг маънавий қиёфасини белгилайдиган қуйидаги фазилатларни ривожлантириш педагогик тараққиётимизнинг энг муҳим омилларидандир. Чинакам педагог:

ўз касбини жондан севадиган, унинг ижтимоий қадр-қиммати ва давлат сиёсатига моликлигини тўғри англайдиган, юксак масъулият ҳиссини вужудига сингдирган;

юксак ақл-заковатли, илму урфон ютуқларидан бохабар ва улардан ўз педагогик фаолиятида фойдалана оладиган;

ўз фаолиятида адолат тамойилларига риоя қиладиган, ўқувчилар билимини холис баҳолайдиган, ҳар бир ўқувчининг индивидуал ўзига хослиги ва қобилиятини ривожлантира оладиган;

“ҳаёт давомида ўқиш” қоидасига қатъий амал қиладиган, ўз устида мунтазам ишлайдиган, профессионал маҳорати, билими ва малакасини доимо ошириб борадиган;

илғор педагогик тажрибаларни ўрганиб, ўз педагогик тажрибаси ва маҳоратини ошириб ҳамда ҳамкасблар ўртасини уни оммалаштириб борадиган;

ўз-ўзига танқидий ёндаша оладиган, ҳамкасбларга самимий муносабатда бўладиган, уларнинг камчиликларини бартараф этишга дўстона интиладиган;

ўқитувчи одоби (такт)га қатъий риоя қиладиган, ишда ва оилада чинакам ибрат намунаси бўладиган;

жамоа, халқ манфаатини устун қўядиган, фидойи, ташаббускорлик фазилатлари билан ўзининг авторитетини доимо ошириб борадиган;

ташқи кўринишида жозибador;

ҳар қандай мураккат вазиятда босиқ, ҳис-туйғуларга эрк бермайдиган;
ўқувчиларга самимий, шунинг баробарида талабчанлик билан муносабатда бўладиган;

ҳар бир ўқувчининг ёш ҳамда индивидуал хусусиятларини яхши билган ҳолда уларга ёндашадиган;

ўқувчилар, уларнинг ота-оналари, ён-атрофдагилар, жамоатчиликка эътиборлилик, юксак мулоқот маданиятига эгалик;

ўқувчиларга ҳурмат билан муносабатда бўлиш, камситмаслик, ўзининг “устунлигини” исботлашга уринмаслик;

ўқувчиларнинг ботиний олами, ишонч ва эътиқодига таъсир ўтказа олиш каби хусусиятларга эга бўлиши талаб этилади. Ана шу эзгу мақсадга эришилса, янги Ўзбекистонга мос ўқитувчининг маънавий қиёфаси шаклланган ва замонавий имижга эга бўлган ҳолатга эришиш мумкин.

Албатта, бунга осонликча эришиб бўлмайди. Бунинг учун таълимнинг бошқарув органи фаолиятида туб сифатий ўзгаришларни ҳам амалга ошириш зарур. Ўзбекистон Республика Президентининг 2023 йил 26-майдаги “Мақтабгача ва мақтаб таълими вазирлиги ҳамда унинг тизимидаги ташкилотлар фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-79-сон Фармони белгиланган вазифаларнинг мақтаб таълими тизимига жорий этилиши ана шундай сифат ўзгаришларини амалга оширишга қаратилган[9].

“Маърифатли жамият” деб таърифланаётган янги Ўзбекистонда энг обрўли инсон – педагог, ўқитувчи бўлиши керак. Янги Ўзбекистоннинг ўқитувчиси ўзининг меҳнати, турмуши, одамлар ўртасидаги ҳурмати, одоб-ахлоқи, масъулияти – барча инсоний фазилатлари билан барчадан ажралиб туриши лозим.

Бугунги ўқитувчи кечаги муаллим эмас, у ўзининг барча жиҳатлари билан аввалги муаллимдан тубдан фарқ қилиши зарур. Янги жамиятда ўқитувчилик масъулияти, унинг маънавий қиёфаси ҳар доимгидан юксак ва шарафлидир. Чунки, бугунги ўқитувчи XXI аср кишини камол топтиришга масъул бўлган инсондир.

Хулоса. Юқорида баён этилганлардан қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

1. Ўзбекистон Президентининг 2018-2023 йиллардаги таълим ислоҳотларига доир Фармон ва Қарорларида ўқитувчининг билим савияси ва педагогик маҳоратини ошириш орқали унинг маънавий қиёфасини ривожлантириш устувор вазифа сифатида белгиланди.

2. Ўзбекистонда узлуксиз таълим тизимининг ҳуқуқий-меъёрий асосларини яратиш билан биргаликда ўқитувчининг маънавий қиёфасини ривожлантириш жараёни жадаллик билан давом эттириляётганлиги мақтаб таълимида ўзига хос инқилоб, сифатий ўзгариш тарзида намоён бўлмоқда. Ушбу жараён биринчидан, таълимнинг мазмунига янги, замонавий методикаларини жорий қилиш; иккинчидан, ўқитувчининг маънавий салоҳияти ва педагогик маҳоратини ошириш йўналишларида амалга оширилмоқда.

Янги давр ўқитувчисининг маънавий қиёфасини белгиловчи мезонлар нималарни ўз ичига олиши керак, деган масала фақат таълимни бошқарув органининг эмас, балки, ватанимиз педагогика фани, илмий тадқиқотчилар олдида турган ғоят долзарб ва принципиал масаладир.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.
2. «Таълим тўғрисида». Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. - Т.: Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. - 2020 йил 24 сентябрь. 03/20/637/1313-сон.
3. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: "O'zbekiston", 2021. – Б.276.
4. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини қатъий давом эттирамиз. Янги сайланган Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёевнинг лавозимга киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутқи//“Халқ сўзи”, 2021 йил 7 ноябрь, №238 (8018).
5. “Халқ таълими тизимига бошқаришнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. - Т.: Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. - 2018 йил 6 сентябрь. 07/18/3931/1841-сон.
6. “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. - Т.: Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. - 2019 йил 29 апрел. 06/19/5712/3034-сон.
7. “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. - Т.: Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. - 2022 йил 29 январь. 06/22/60/0082-сон.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 11-майдаги “2022-2026 йилларда мактаб таълимини ривожлантириш бўйича миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-134-сон Фармони. - Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 11.05.2022 й., 06/22/134/0407-сон.
9. Ўзбекистон Республика Президентининг 2023 йил 26-майдаги “Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги ҳамда унинг тизимидаги ташкилотлар фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-79-сон Фармони. - Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 31.05.2023 й., 06/23/79/0302-сон.
10. “Халқ сўзи” газетаси, 2019 йил 24 август. - №174 (7404)-сон.
11. О.Кочина. Нравственная культура педагога. // solincesvet.ru – 2016.
12. Haydarov K. Ta'limda kognitiv jarayonlarni faollashtirishning ilmiy-metodik talqini // Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari/ - 2023 yil 27 iyun. – Samarqand, 2022. – В.606.

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Kuchkarov Bahodir Tashmurodovich
Nizomiy nomidagi TDPU
mustaqil izlanuvchisi

BO'LAJAK HARBIY OFITSERLARDA UMUMMADANIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak harbiy ofitserlarda umummadaniy kompetentlikni shakllantirishda ijtimoiy-madaniy makon, mentalitet (til, madaniyat, individuallik, faoliyat) kabi pedagogik-psixologik omillar ta'siri tahlil qilingan. Mentalitet, ijtimoiy- madaniy makon tushunchalari mohiyatiga yondashuvlar va ushbu fenomenlarning umummadaniy kompetentlik rivojidadagi ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, madaniyat, struktura, texnologiya, ijtimoiy tajriba translyatsiyasi.

Kuchkarov Bakhodir Tashmurodovich
TDPU named after Nizami
independent researcher

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF FORMATION OF GENERAL CULTURAL COMPETENCE AMONG MILITARY OFFICERS

Abstract. This article analyzes the influence of pedagogical-psychological factors such as socio-cultural space, mentality (language, culture, individuality, activity) in the formation of universal competence in future military officers. Approaches to the essence of the concepts of mentality, socio - cultural space and the importance of these phenomena in the development of universal competence are described.

Key words: competence, culture, structure, technology, transmission of social experience.

Кучкаров Баҳодир Ташмуродович
ТГПУ имени Низами
независимый исследователь

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОБЩЕКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У ВОЕННЫХ ОФИЦЕРОВ

Аннотация. В данной статье анализируется влияние таких педагогико-психологических факторов, как социокультурное пространство, менталитет (язык, культура, индивидуальность, деятельность) на формирование общекультурной компетентности у будущих военнослужащих. Изложены подходы к сущности понятий менталитет, социокультурное пространство и значение этих явлений в развитии общекультурной компетентности.

Ключевые слова: компетенция, культура, структура, технологии, передача социального опыта.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI9Y2023N58>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy

dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida quyidagi fikrlar ta'kidlanadi: "Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu-pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur".

Mamlakat rivoji va xavfsizligida uning himoyasida asosiy kuch bo'lgan harbiy ofitserlarning bilimi, madaniyati, professionalligi muhim ahamiyatga ega. Bugungi global, axborot uzatilishi, almashinishi tezlashishi oqibatida turli xil mafkuralar, madaniyatlar, g'oyalarning targ'ibi, tarqalishi uchun keng imkonlar yaralgan bir zamonda bo'lajak harbiy ofitserlarning ushbu murakkab madaniy makonda yo'l topa bilishi: milliy madaniyatimiz va jahon madaniyati namunalaridan xabardorlik, ularga qadriyatlarimiz, milliy o'ziga xosliklarimizdan kelib chiqqan holda ongli yondasha bilishi ular kasbiy kompetentligining muhim sifatlaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo'llay olishga tayyorlashi bilan harakterlanadi.

Kompetentlik quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- har qanday muayyan vaziyatda, uning turli xil jihatlarini hisobga olgan holda bilimlarni o'z o'rnida va tezkorlik bilan to'g'ri qo'llay bilish;

- qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish;

- ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga sola bilish;

- faoliyat doirasida boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko'zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o'rnata olish imkonini beradigan kommunikativ ko'nikmalar;

- muayyan ma'naviy qadriyatlarga, dunyoqarashga, umummadaniy va axloqiy sifatlarga egalik, faoliyatga intilish hissining mavjudligi;

- o'zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga, faoliyatning yangi usullarini egallashga intilish.

Umummadaniy kompetensiyalar ta'lim oluvchining shakllantirishga ko'p qirrali yondashuvlarni talab qiluvchi integral kasbiy va shaxsiy xarakteristikasi sifati namoyon bo'ladi. Ushbu kompetensiyalar tizim sifatida axloqiy va gumanistik yo'nalganlik, motivlar, maqsadlar, qadriyatlar yo'nalishlarini o'z ichiga oladi, doimiy o'zgaruvchan muhitda ulardan foydalanish bo'yicha bilimlar, ko'nikmalar, shakllar va usullarning jamlanmasini talab qiladi.

Ijtimoiy-madaniy makonni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar (V. V. Andreeva, I. D. Demakova[1; 23-28s], D. I. Feldshteyn) ushbu fenomenning eng muhim xususiyatlarini qayd etishga imkon beradi [2; 58 s]:

- Makon - vazifalarni hal qilishga moslashtirilgan o'zlashma muhit (tabiiy, madaniy, ijtimoiy, axborot, tarbiyaviy);

-“muhit” va “makon” tushunchalari bir xil emas: agar muhit insonning konstruktiv faoliyati natijasi bo‘ysunmaydigan borliq bo‘lsa, unda “makon” bu borliqni o‘zlashtirish natijasidir;

- ijtimoiy-madaniy makon o‘z-o‘zidan yoki yuqoridan buyurtma bo‘yicha shakllanmaydi. U maxsus tashkil etilgan faoliyat tufayli ijtimoiy-madaniy muhitda shakllanadi;

- haqiqatan ham zamonaviy jamiyat, amalda bo‘lishi va rivojlanishi uchun yangi xarakter va sharoitlar bilan belgilanuvchi inson rivojlanishining tarixiy jihatdan yangi holati yuzaga keldi.

Har bir avlod o‘z hayot dunyosini – etakchi tushunchalar, ramzlar tizimi, qadriyatlar va me‘yorlar tizimining ma‘lum ma‘nolaridan iborat ijtimoiy-madaniy makonni quradi. Aynan shu makonda shaxsning shaxs, ijtimoiy sub‘ekt va professional sifatida identifikatsiyasi sodir bo‘ladi. Kasbiy munosabat, me‘yorlar, qadriyatlar, ramzlar tizimi kasbiy madaniyatning tarkibiy qismidir va sub'ektning qobiliyatini oldindan belgilab beradi.

Madaniy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, jamiyatni modernizatsiya qilishga urinishlar muqarrar ravishda mentalitetni ijtimoiy o‘zgarishlarning muhim omili sifatida hisobga olishga olib keladi. Ma‘lumki, mentalitet o‘z yadrosini tashkil etuvchi muayyan an‘anadan tarkib topadi va vaqt o‘tishi bilan unga yangi narsa ildiz otadi, bu esa o‘z vaqtida va o‘z navbatida an'anaga aylanadi. Ushbu yadroning mazmunini aniqlash ko‘plab ijtimoiy jarayonlarni tushunishning kaliti, prognozlar va kutishlar uchun asos, umumiy madaniy kompetentsiyani rivojlantirishda muvaffaqiyat kalitidir.

Mentalitet inson shaxsiyati va uning faoliyati tajribasi tufayli til va madaniyat asosida rivojlanadi. To‘rt manbaning (til, madaniyat, individuallik, faoliyat) mahsuli bo‘lgan mentalitetning o‘zi inson faoliyatiga ta'sir qiladi. Shu ma‘noda, u dunyoqarash bilan bog‘liq, ammo unga teng kelmaydi. Dunyoqarash-bu inson hayoti falsafasini belgilaydigan falsafiy hodisa. Mentalitet inson hayotining har qanday jihatini: kasbiy, milliy va boshqalarni belgilaydi. E.I.Passovning fikricha, mentalitet dunyoqarashning milliy jihati bo‘lib, u milliy madaniyatning individual qabul qilingan va singan qadriyatlarini o‘zlashtirish natijasida paydo bo‘ladi, shuning uchun u ongli ravishda yoki ongsiz ravishda inson faoliyatini rag‘batlantiradi.

N. S. Rozovning ishlarida umummadaniy kompetentsiyalarga yondashuv uch jihatni o‘zida ifodalaydi [3; 122-124 s]:

- vaziyatni yanada umumiyroq, madaniy kontekstda, ya'ni, tushunish, munosabat, baholashning mavjud madaniy namunalari kontekstida to‘g‘ri tushunishni o‘z ichiga oluvchi ma‘noga oid jihat;

- vaziyatni anglash, tushunish adekvatligi, ushbu vaziyatda maqsadlar, vazifalar, me'yorlarni to‘g‘ri holda belgilash va samarali bajarilishini ta'minlovchi muammoli-amaliy jihat;

- madaniy kontekst vaziyatlarida va bunday vaziyatlar sababli muvofiq madaniy muloqot va o‘zaro ta’sir namunalarni hisobga olgan holda to‘g‘ri muloqotga e’tibor qaratuvchi kommunikativ jihat.

Umummadaniy kompetentlik – vatanga sadoqatli, insonlarga mehroqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, insoniyat tomonidan e’tirof etilgan madaniy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni

bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish, xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashni o'z ichiga oladigan kompetentlik hisoblanadi[4; 16-18 s]

E.A.Demina kursantlarning umumiy madaniy kompetensiyalar sifatida insonning bilim va haqiqiy vaziyat o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish, noaniqlik sharoitida to'g'ri ta'lim yo'nalishini amalga oshirish va uni ijro etish uchun harakatlar algoritmini ishlab chiqish qobiliyatini tushunadi.(40). Ushbu kompetensiyalar boshqa aniqroq va ob'ektiv yo'naltirilgan tarkibiy qismlar uchun asosdir.

E.A.Demina ta'kidlashicha, davlat ta'lim standartlari umumiy madaniy kompetensiyalarni shakllantirishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchi xususiyat shundaki, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish davlat ta'lim standarti tomonidan o'quv fanlari, kasbiy modullar orqali standartlashtirilgan, umumiy madaniy kompetensiyalarni shakllantirish borasida yondashuvlar esa aniq ko'rsatmalarga ega emas. Ikkinchi xususiyat o'zini shunda namoyon qiladiki, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish to'g'risida professional modul dasturini ishlab chiqqandan so'ng aniq qaror qabul qilinadi va umumiy madaniy kompetensiyalarni shakllantirish faqat butun asosiy kasbiy ta'lim dasturini ishlab chiqqandan keyin baholanishi mumkin. Uchinchi xususiyat shundaki, umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish bosqichlarida aspektlarning shakllanishi umumiy madaniy kompetensiyalar har bir kompetensiyani shakllantirish jarayonida kursantlar faoliyati darajasiga qo'yiladigan talablarga muvofiq baholanishi kerak.

Bugungi kunda muhim muammo shundaki, umumiy madaniy kompetensiyalarni shakllantirish va baholashning aniq mexanizmlari mavjud emas. Fan bo'yicha o'qituvchining kerakli kompetensiyalarni shakllantirish uchun maqsadli faoliyati o'z bilimlari va tajribalariga, shuningdek kasbiy vazifalarni bajarish uchun shaxsiy munosabatga tayanib tasavvurlar tizimini yaratishga imkon beradigan texnika va usullar ko'rinishida bo'lishi kerak va amaliyotga yo'naltirilgan, o'yin, dialogli o'qitish usullarini qo'llashni o'z ichiga olishi lozim. Sinfda rolli o'yinlardan foydalanish kelajakdagi professional faoliyat kontekstini imitatsiya qiladi; bunda asosiy e'tibor kichik guruhlarda ishlashga, fanlararo aloqalarni tashkil etishga, talabalarning qaror qabul qilish uchun mustaqilligi va shaxsiy javobgarligini shakllantirishga qaratiladi. Talabalar ijtimoiy o'zaro ta'sir ko'nikmalarini o'rganadilar, ularda izlanish ta'limi va ijodiy raqobat elementlari shakllanadi.

Harbiy xizmatchilar ta'limining o'ziga xosligi (spesifikasi) quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Harbiy xizmatchilarda shakllantirish kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning o'ziga xosligi tashqi tajovuzni qaytarish, zarur bo'lganda tajovuzkorlarni siqib chiqarish, yakson qilish.

2. Harbiy ishni o'rganish (harbiy mutaxassilikni o'rganish) harbiy xizmatchilar uchun – xizmat majburiyati.

3. Harbiy xizmatchilar ta'limi doimiy jangovar shaylik sharoitida xizmat vazifalarini bajarish bilan birgalikda olib boriladi.

4. Bir vaqtning o'zida yakka tartibdagi (bitta harbiy xizmatchi tayyorgarligi) va jamoaviy (bo'linma tayyorgarligi) ta'lim shaklidan foydalaniladi.

5. Harbiy xizmatchilar tayyorgarligi aniq ifodalangan amaliy yo'nalishga ega, u nafaqat auditoriya, sinf va laboratoriyalarda olib borish bilan birgalikda dala sharoitida, marsh va o't ochish pozitsiyalarida, aerodrom, tankodromlarda olib boriladi.

6. Harbiy (jangovar) mahoratni egallash real va murakkab jangovar texnika va qurol-aslahalar bilan, maksimal darajada jangovar vaziyatlarga chqinlashtirilgan holda, katta psixologik va jismoniy qiynchiliklar bilan bog'liq holda olib boriladi. Ta'lim jrayoni harbiy xizmatchilardan ma'naviy, intellektual va jismoniy kuchlar, mustaqillik va faollik, dadillik va jasoratni talab qiladi.

7. Ta'lim jarayoni nizom doirasida amalga oshiriladi, komandir-yakkabosh tomonidan yo'naltiriladi, harbiy ta'lim va tarbiya mazmuni, tashkillashtirilishi metodikasiga prinsipial yondashishni belgilab beruvchi rahbariy hujjatlar (harbiy qasamyod, umumharbiy nizomlar, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri buyruq va direktivalari talablari asosida qat'iy belgilab beriladi.

Umummadaniy kompetensiya o'quv jarayonida quyidagi tarkibiy qismlarning mavjudligini, rivojlanishini nazarda tutadi:

- falsafa, ijtimoiy va gumanitar fanlar bo'yicha majburiy kurslar ;
- klassik va zamonaviy konsepsiyalar hamda modellar asosida madaniyat, ijtimoiy hayot, ichki va tashqi siyosatning dolzarb hodisalarini tahlil qilish;
- oliy ta'lim muassasasi tomonidan ta'lim oluvchilarning volontyorlik faoliyati, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik harakatlari bilan shug'ullanishi rag'batlantirilishi);
- muntazam ommaviy ma'ruzalar, mutaxassislar, faollar, siyosatchilar, madaniyat arboblari taklif qilingan munozaralar.

Xulosa. Umummadaniy kompetensiya uchta qism birlashmasi sifatida talqin qilinishi mumkin: ma'noga oid (vaziyatni madaniy kontekstda, ya'ni mavjud tushunish, munosabat, baholashning madaniy namunalari kontekstida adekvat anglash); muammoli-amaliy (vaziyatni anglash adekvatligi, ushbu vaziyatda maqsadlar, vazifalar, normalarning to'g'ri qo'yilishi va samarali bajarilishini ta'minlovchi); kommunikativ (madaniy kontekstdagi vaziyatlarda va ayni vaziyatlari sababi tufayli o'zalo munosabat va muloqotning mavjud madaniy namunalari hisobga olgan to'g'ri muloqotda bo'lishga ur'gu qaratiladi) qismlar. Umummadaniy kompetentlik rivojiga jamiyatda mavjud ijtimoiy-tarixiy, madaniy sharoit, shaxs dunyoqarashi, bilimida muhim ahamiyat kasb etuvchi jamiyat institutlari (ta'lim, oila, san'at, axloq) muhim rol o'ynaydi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Демакова И. Д. Воспитательная деятельность педагога в современных условиях: подходы, смыслы, результаты //Методист. – 2014. – №. 1. – С. 2-6.
2. Фельдштейн Д.И. Приоритетные направления психолого-педагогических исследований в условиях значимых изменений ребенка и ситуации его развития //Педагогика. – 2010. – №. 7. – С. 3-11.
3. Розов Н.С. Культура, ценности и развитие образования. — М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. — 1992.
4. M.J.Boltayeva. "Bo'lg'usi o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish(tarixiy ideallar asosida)"/ pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Chirchiq 2023 y.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/9 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).